MUHAMMAD AVFIY BUXORIY
JAVOHIR HIKOYAT VA RIVOYATLAR
T O‘ P L A M I

To‘plovchi va tuzuvchi - Umarova Sitora Muxlisovna
Rus va ingliz tillari tarjimoni - Yusupova Hilola O‘ktamovna

“KAMOLOT” nashriyoti
Buxoro-2022

UO‘K: 930
KBK: 63.3

Umarova Sitora Muxlisovna, Muhammad Avfiy Buxoriy javohir hikoyat va rivoyatlar to‘plami. [matn] / S.M.Umarova .-Buxoro : “BUXORO DETERMINANT”, 2022.-224 b.

Mazkur asar tarkibidagi hikoyatlarni to‘plab, hozirgi zamon o‘quvchisiga tushunarli holda berilishi, ayniqsa, zarurat sanaladi. Jumladan, tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan Muhammad Avfiy Buxoriyning “Javohir hikoyat va rivoyatlar” nomli to‘plami komil insonni shakllantirish taraqqiyotida tutgan o‘rni va bugungi kun uchun ahamiyati ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy faoliyatning samarali tashkil etilishi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur asar orqali shaxsda iymon-e’tiqod, bag‘rikenglik, iroda, qalb pokligi, vijdon uyg‘oqligi, go‘zal axloq, o‘z-o‘zini anglash kabi sifatlarni qaror toptirish zarurligi allomaning ma’naviy merosidan ta’lim jarayonida foydalanishni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish hamda o‘qitishning zamonaviy shakl, metod va vositalarini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

ISBN: 978-9943-8799-6-6

Ushbu didaktik va ilmiy to’plam Buxoro davlat universiteti ilmiy-texnik kengashining 2022-2023 o‘quv yilidagi 14-oktabr 1-yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

© Kamolot nashriyoti
© Umarova Sitora Muxlisovna
© Yusupova Hilola O‘ktamovna

Ushbu kitob rahmatli padari buzrukvorim Umarov Muxlis Murtazoyevichning muqaddas xotiralariga bag‘ishlanadi.

SO‘Z BOSHI

Inson dunyoga kelibdiki, doimo ilmu ma’rifatga qalban tashna bo‘lib, intilib yshaydi. Chunki unga kuchli ehtiyoj sezadi. Boisi, Alloh insonni yaratib unga oriflik, olimlik rutbasini nasib ayladi. Shuning barobarida yuksalish tojini insonga qismat etdi. Inson o‘z taqdiridagi maqomlarga erishish uchun ilm-ma’rifatga doimo hamroh bo‘lishi lozim. Ayni masalalar Qur’oni Karimning bir necha oyati karimalarida zikr etilgan. Shuningdek, muhaddislar ilmu urfon bilan bog‘liq ko‘plab hadislarni rivoyat qiladilar. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning “Beshikdan qabrgacha ilm izla” hadislari shular jumlasidandir. Islomning asosiy manbalari bo‘lmish Qur’oni Karim va Hadisi sharif orqali tasavvuf ta’limotida ham ilm-ma’rifat, oriflik masalalari alohida mavqe egalladi. Zero, tasavvuf shayxlari irfonni egallash borasida bir qancha tavsiyalar berishgan. Qolaversa, tasavvuf bosqichlarining uchinchisi ham ma’rifat deb nomlanadi.

Demak, islom manbalari va tasavvuf ta’limoti orqali ilm-u donish, adab-u tarbiya bilan bog‘liq masalalar mumtoz adabiyotimizda ham aks eta boshladi. Shuning uchun adabiyotimiz tarixida ayni mazmundagi asarlar yaratila boshlandi. Sharq mumtoz adabiyotida didaktik xarakterdagi maxsus kitoblar yuzaga keldi. Jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyoti ham ushbu an’anadan ayro emas edi. O‘zbek yozma adabiyotida pand-nasihat xarakteridagi asarlarning eng qadimiysi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonidir. Shundan so‘ng, ayni mazmundagi asarlarni yaratish keng tus oldi. Aytilganlar nuqtayi nazaridan, Muhammad Avfiy Buxoriyning “Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif mazkur asarni yaratishida mavjud an’analarga o‘ziga xos tarzda yondashgan.

Tarixdan ma’lumki, IX-XIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar davlati hukmronlik qilgan. Bu davlatlar siyosiy maydonda o‘z mavqei jihatidan katta e’tibor va nufuzga ega edi. Mazkur davlatlarda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, madaniy hayot ravnaq topganligini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan hamda madaniyat markazlari sifatida shakllangan.

Shuningdek, bir qancha ijodkorlar, qomusiy olimlar yetishib chiqqan. Shulardan biri Muhammad Avfiy Buxoroda taxminan 1172-1177 yillarda tug‘ilgan. Uning oilasi ham ilm ahllaridan bo‘lishgan. Manbalarga ko‘ra, umrining oxirgi yillarini Hindiston (Dehli)da o‘tkazgan. Ilk tahsilni ona shahri Buxorodagi Dari Forixok madrasasida o‘z davrining oqil va dono kishilari, olimlari, jumladan, xattot Qutbiddin Saraxsiy, qonunshunos Ali Burhon, Rukniddin Mas’ud Imomzoda Buxoriylardan saboq olgan. Ijodkorning “Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot” («Hikoyatlar to‘plami (sandig‘i) va rivoyatlar ziyosi») asarida turli fanlarga oid ilmiy lavhalar, bahslar va xulosalar hikoya hamda rivoyat tarzida sodda bayon qilingan. Mazkur asar ancha keng tarqalgan bo‘lib, ayrim hikoyalari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. “Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot” asari nafaqat Sharq, balki G‘arb olimlarining ham diqqat markazida bo‘lgan. Shu bois bir qancha sharqshunos olimlar tomonidan ham o‘rganilgan.

Aytish joizki, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni ko‘p jihatdan, kelajagimiz egalari – yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirish, intellektual qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ularni jahon taraqqiyoti bilan hamqadam bo‘lishlariga qaratilgan. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davri har bir o‘sib kelayotgan yosh avloddan zamon talablariga hozirjavoblik, ijodiy tafakkur teranligi va intellektual faollikni talab qilish bilan bir qatorda, ularning tarbiyasi, ma’nan yuksak bo‘lishlari har qachongidan ko‘ra dolzarb darajaga ko‘tarilmoqda. Bu ulug‘ maqsad bir necha davrlardan beri ajdod-larimizning faoliyatida, asarlarida ham o‘z aksini topgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Muhammad Avfiyning ushbu asari ana shu yuksak ma’naviyatli yoshlar tarbiyasi uchun zarur asarlardan biridir. Mazkur asar tarkibidagi hikoyatlarni to‘plab, hozirgi zamon o‘quv-chisiga tushunarli holda berilishi, ayniqsa, zarurat sanaladi. Yosh va zukko tadqiqotchi Sitoraxonning ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, asarning ham bosma, ham audio variantini nashrga tayyorlaganligi alohida tahsinga loyiq. Kitobda Muhammad Avfiy Buxoriy va uning adabiy merosi haqida ham bafurja ma’lumotlar kiritilgan. O‘ylaymizki, mazkur kitob siz-aziz kitobxonlarga manzur bo‘ladi.

Amonova Zilola Qodirovna,
filologiya fanlari doktori

MUHAMMAD AVFIY BUXORIY VA UNING MA'NAVIY MEROSI XUSUSIDA

Tarbiya va axloq masalalari barcha davrlarda, turli davlat va jamiyatlarda ham islohotlarning tub negizi ekanligi tarixdan ma'lum. Bugungi axborot asrida axloq tarbiyasi har qachongidan ham muhimlik kasb etib, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun ijtimoiy ehtiyojga aylanganligini sezamiz. Bu ehtiyojni qondirish esa ajdodlar merosiga qayta va qayta murojaat etish orqali amalga oshishini tajribalar ko'rsatib turibdi. Zero, ushbu o'rinda davlat rahbarining mamlakatimiz keyingi rennessans davrini boshdan kechirishi uchun, avvalo, Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosini har sohada chuqurroq o'rganish va tahlil qilish, ularning tarbiyaga oid qarashlari hamda shaxs ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi asarlaridan barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida samarali foydalanish hayotiy zaruratga aylanganligi to'g'risidagi qator fikrlarini keltirish kifoya.

Yuqorida izohlangan ma'naviy ehtiyoj va zarurat Sharq allomalaridan biri XII asr oxiri va XIII asrning ikkinchi yarmida yashagan buxorolik mashhur adib, tazkiranavis, hikoyanavis Muhammad Avfiy Buxoriyning pedagogik merosiga murojaat qilishni taqozo etdi. Asli ismi Sa'diduddin, ammo ko'pgina manbalarda Nuriddin Muhammad ibn Tohir ibn Usmon Buxoriy[1] deyilgan alloma nomi «Lubob ul-albob» hamda «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asarlari orqali o'zbek, jahon mamlakatlari tarixchilari, sharqshunos olimlari, islomshunos va arabshunos olimlari, tilshunos va adabiyotshunoslari, tarjimonlari orasida ma'lum va mashhur. Ko'zlangan strategik maqsadga erishish, yurtboshimiz aytganlaridek, avvalo, tarbiya yo'li orqali bo'lar ekan, ushbu borada Muhammad Avfiy Buxoriydek olim, tarjimon, o'z zamonasi va ijtimoiy hayotining haqgo'y tanqidchisi ijodidan o'rin olgan nodir hikoyatlari, rivoyatlarining ta'lim-tarbiyaviy jihatlarini o'rganish imkonini beradi.

Yosh avlod tarbiyasi uchun muhim sanalgan sifatlarni paydo qilish va shakllantirish zarurati olimning axloqiy qarashlarini o'rganish, uni ta'lim-tarbiya jarayonida samarali qo'llashni taqozo etar ekan, Muhammad Avfiy Buxoriy haqida bizga ma'lum bo'lgan dastlabki ma'lumotlar o'zidan bir asr keyin yashagan ijodkor H.Mustavfiy tomonidan keltirilganligini aytib o'tish o'rinli.

[1]Ҳикоят ва ривоятлар. Убайд Зоконий, Муҳаммад Авфий, Фахриддин Али Сафий, Абул Фарож. Тўпловчи ва тарж. Кибриё Қаҳҳорова.–Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 240 б.

H.Mustavfiy o‘zining «Tarixi guzida» asarida, «….. Nuriddin laqabli Muhammad ibni Avfiy, «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot»ning sohibi, mo‘g‘ullar hokimiyatining dastlabki davrlarida yashadi», deb ko‘rsatgan[2].

Tarixchi G‘iyosiddin Xondamir (1475-1535 yillarda yashagan va Alisher Navoiy umrining so‘nggi ya’ni, 1503-yilga qadar uning kutubxonachisi sifatida faoliyat yuritgan) 1520-1529 yillarda yaratgan uch jilddan iborat «Habib us-siyar» yoki «Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar»[3] («Suyukli xislatlar» yoki «Inson xabarlari va fardlarida do‘stning suyukli xislatlari») Temuriylar davri ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayoti tarixiga oid asarida Muhammad Avfiy Buxoriy Shamsiddin Eltutmish (Dehli sultonligi hukmdori, 1211-36 yillarda hukmronlik qilgan[4]) davrida Dehlida yashaganligini yozadi. Muhammad Avfiy Buxoriy kitobini Eltutmishning vaziri Nizomulmulk bin Abusaid Jo‘naydiy nomiga bag‘ishlanganini alohida ta’kidlagan.

Muhammad Avfiy Buxoriy asarlariga tarixiy manba sifatidagi ilk murojaatlar 1848 yilda ingliz sharqshunos olimlari N.Blend va E.Broun tomonidan amalga oshirilgan[5]. N.Blend «Ilk fors shoirlari biografiyasiga oid» nomli maqolasini, 1891 yilda E.Broun esa o‘zining «Davlatshoh (Samarqandiy – mual.) manbalari» nomli («Qirol Osiyo jamiyati» jurnalida bostirib chiqarilgan) maqolalarini allomaning «Lubob ul-albob» nomli tazkirasiga bag‘ishlab yozishgan. E.Broun faqat shu maqola bilan cheklanib qolmasdan tadqiqotlarini davom ettirib, Eron olimi A.Qazviniy bilan birgalikda jami 299 ta shoir haqida ma’lumot beruvchi kitobning birinchi (130 ta) va ikkinchi (169 ta) jildlarini nashr ettirishadi. Qolaversa, yevropalik tadqiqotchilardan Elliot nomi bilan mashhur olim G.Mayers Hindiston tarixiga oid juda ko‘p izlanishlar olib borgan[6]. Muhammad Avfiy Buxoriy umrining so‘nggi choragi Hindiston bilan bog‘liqligi sabab, u haqidagi manbalarni izlash jarayonida H.Elliot nomiga ko‘p marta duch kelindi. H.Elliot hind yurti tarixini shu yurtda yashagan va

[2]Авфий Муҳаммад.Рашкчи эрни жазолаган хотин. Форс тилидан И.Низомиддинов ва Т.Файзиев таржимаси.– Тошкент.: Ғафур Ғулом нашриёти, 2012, –252 б.

[3] https://uz.wikipedia.org/wiki/Habib_us-siyar

[4] 7-синф жаҳон тарихи. Дарслик. – Т.: ЎзМЭ, 2017.–160.

[5] 46-ҳаволадаги манба.

[6] H.M.Elliot. By John Dowson, M.R.A.S., The history of India by its own historians. –London: “TRUBNER AND CO., 60, PATERNOSTER ROW”, 1869. – 600 P.

aksariyat hind millatiga mansub tarixchi – olimlarning izlanishlari, yozib qoldirganlarini sinchiklab to‘plagan. Ammo ma’lumotlarni yaxlit kitob holiga keltirish uning vafotidan so‘ng, 1869 yilda Londonda J.Douson tomonidan amalga oshirildi. J.Douson ma’lumotlarni yig‘ib «Hindiston tarixi» (Hind tarixchilari materiallari asosida) asarini nashr etdi. Asarning 4-bobi «Muhammad Avfiyning «Javome’ ul-hikoyot»i» deb nomlangan. Unda hali o‘zbek tiliga o‘girilmagan ko‘pgina kitobxon va tarixchilarga ma’lum bo‘lmagan ayrim hikoyalar kiritilgan. H.Elliot «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot»ning Hindiston va O‘rta Osiyo tarixidagi tutgan o‘rni hamda ahamiyatini - Rim tarixida «Valerius Maksimusning xotiralari» asariga tenglashtiradi. H.Elliot «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot» haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: «Bu asar sodda, ravon, o‘qimishli tilda yozilgan. Asar garchi tarixiy voqealarni yoritsada, kitobni o‘qish jarayonida kishida romantik badiiy asarni o‘qigandek tasavvur va qiziqish uyg‘onadi. Unda insoniylikka oid fazilatlar, illatlar, falokatlar haqida so‘zlab beruvchi; zamondoshlari haqidagi fikrlarni hamda xotiralarni tizimlashtiruvchi, jonli-jozibali tarixiy hikoyalar va latifalar jamlangan», deydi.

Asarning so‘z boshida H.Elliot tomonidan Nizom-ul-mulk Junaydiyning Nosiruddin Qabochani mag‘lubiyatga uchratishi, Qabochaning keyingi intihosi haqidagi fikrlar bo‘rttirib keltiriladi. Muallifning ushbu voqeada qanday ishtirok etgani aniq ko‘rinmaydi, lekin u Nosiruddin bilan Bhakkar qal’asida qamalda bo‘lganini va barcha tafsilotlar unga yaxshi tanish ekanligini aytadi. Ushbu voqeaning qisqa xulosasi tarixiy risolaning oxirida beriladi.

«Javome’-ul hikoyat va lavome’ ul-rivoyot»ning nusxalari anchagina deydi H.Elliot. Hindistonda biri 850 va boshqa biri 1000 sahifadan iborat bo‘lgan ikkita katta dosyelar (ingliz tilidan «dossier» ya’ni biror ish, masala yoki shaxsga doir hujjatlar to‘plami, shaxsiy varaqa)ni qo‘lga kiritadi va ular ustida ishlaydi. Sharqiy Hindiston kutubxonasida Muxammad Avfiy Buxoriy asariga oid dosyelardan bir nusxasi yaxshi holda saqlangan bo‘lib, muharrir (ya’ni: «The history of India» asari muharriri) uchta katta MSS (dosyening nomi)ga va tadqiqotchilar foydalanishlari uchun qimmatli ma’lumotlar yoritilgan sahifalariga, adabiyotlar ro‘yxatiga ega.

Tarixiy shaxslar haqidagi hikoyalarda, hech shubhasiz, haqiqat bor, ammo ularning ba’zilarida asliyat sayqallangan bo‘lsa, ayrimlari

o‘qish uchun qulay, sodda bir shaklga keltirilgan. Muhammad Avfiy Buxoriydan iqtibos keltirilganligi aytilgan mo‘jizaviy suv bulog‘i haqidagi hikoya[7] hattoki H.Elliot o‘zi qo‘lga kiritgan dosyelar bilan tanishganida, tarixiy va biografik izohlarni izlayotgan olimlar uchun muallif (Avfiy)ning maqsadini payqash murakkab emasligiga ishonch hosil qilgan. Chunki xronologik ketma-ketlikda tartibga solingan barcha parchalar bir butun yaxlitlikni tashkil etgan. Jami 600 betdan iborat ushbu manba bugungi kunda yagona manba sifatida Amerika qo‘shma shtatlarining Kornell universiteti kutubxonasida saqlanib kelinmoqda. Avfiy hikoyalari olingan asl manbalarni ham tilga olgan, ammo ayrim ma’lumotlar faqatgina Avfiy asarida original variantda to‘liq berilgan deyiladi ushbu kitobda. Asar Hindiston tarixini yoritgan olimlar va hindistonlik tarixchilar bergan ma’lumotlarga asoslanib yaratilgan. Asarning IV bobi aynan «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot»dan olingan 37 ta original hikoyalar (hind rojalari, sultonlari, hind va Eron hukmdorlari va h.k)ga bag‘ishlanadi. Qo‘shimcha ma’l.: manbalar qatorida birinchi o‘rinda turgan va to‘plamning ilk bobini tashkil etgan asar bu Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» (Al Biruni «Tarikhi-ul Hind») asaridir.

Muhammad Avfiy Buxoriy shaxsi va uning ma’naviy (badiiy, pedagogik, tarixiy) merosi nafaqat chet elda, balki o‘zimizning vatandoshlarimiz tomonidan ham o‘rganildi. Jumladan, Muhammad Avfiy Buxoriy hayoti haqidagi ko‘pgina ma’lumotlarni I.Nizomiddinov va T.Fayziyevlar yozgan so‘z boshi, hikoyat va rivoyatlar tarjimasi to‘plangan **«Nodir hikoyalar»** kitobining 1974 va 1977 yilgi ilk nashrlari, 2012 yilda **«Rashkchi erni jazolagan xotin»** nomi bilan o‘zgartirilgan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri adabiyot ixlosmandlariga taqdim etilgan. Shuningdek, to‘plovchi va tarjimon K.Qahhorova tomonidan 1983 yilda **«Hikoyatlar va rivoyatlar»** nomi bilan nashr etilgan to‘plamda Sharq mamlakatlari hikoyanavis ijodkorlari Ubayd Zokoniy, Muhammad Avfiy, Faxriddin Ali Safiy, Abul Faroj ijodlaridan – dilkusho hikoyatlardan namunalar keltirilgan. 1987 yilda shu nom ostida ikkinchi marta to‘plovchi va tarjimon K.Qahhorova tomonidan qayta nashr qilingan.

[7]Sir H.M.Elliot. By John Dowson, M.R.A.S., The history of India by its own historians. –London: “TRUBNER AND CO., 60, PATERNOSTER ROW”, 1869. – 600 P.

Ushbu kitob so‘zboshida filologiya fanlari doktori, professor Sh.Shomuhamedov tomonidan har to‘rttala hikoyanavis haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot» asaridan ayrim hikoyat va rivoyatlarni o‘zbek kitobxonlariga havola etgan manbalar

№	Muallif	Manba nomi	Mazmuni
1.	To‘plam (tuzuvchi mualliflar nomlari ko‘rsatilmagan)	Ajoyib hangomalar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974 yil.	31 ta hikoyat taqdim etilgan.
2.	Fors tilidan Ilyos Nizomiddinov, Turg‘un Fayziev tarjimasi	Avfiy Muhammad. Nodir hikoyalar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977 yil.	Jami 4 ta mavzuga ajratilgan 85 ta hikoyat va rivoyatdan, izohlar sahifasidan iborat.
3.	To‘plovchi va tarjimon K.Qahhorova. Dilkusho hikoyatlar haqida so‘z boshi o‘rnida Sh.Shomuhamedov mulohazalari.	Ubayd Zokoniy, Muhammad Avfiy, Faxriddin Ali Safiy, Abul Faroj. Hikoyat va rivoyatlar. Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983 yil.	Muhammad Avfiy Buxoriydan jami 40 ta turli mavzuga oid hikoyat va rivoyatlar.
4.	To‘plovchi va tarjimon K.Qahhorova. Dilkusho hikoyatlar haqida so‘z boshi o‘rnida Sh.Shomuhamedov mulohazalari.	Ikkinchi nashr. Ubayd Zokoniy, Muhammad Avfiy, Faxriddin Ali Safiy, Abul Faroj. Hikoyat va rivoyatlar. Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987 yil.	Muhammad Avfiydan jami 35 ta rivoyat va hikoyatlar havola etilgan.
5.	Fors tilidan I.Nizomiddinov va T.Fayziev tarjima-si. Nashrga tayyor lovchi L.Tangriev.	Avfiy Muhammad. Rashkchi erni jazolagan xotin. Sharq xalqlari rivoyatlari turkumi dan.G‘afur G‘ulom nomi dagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2012 yil.	1.Vafodor va bevafo ayollar haqida; 2. Ibratli hayot saboq-lari deb nomlangan ikkita mavzuga oid jami 59 ta hikoyat va rivoyatlar keltirilgan.

Bugungi kunda esa adib hayoti, ijod yo‘li va asarlari to‘g‘risida dunyoning turli mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotchi olimlar tomonidan bir qancha izlanishlar olib borilganligini kuzatamiz. Ta’kidlash

joizki, tadqiqotlarning aksariyati adabiyot, filologiya va tarix yo‘nalishlarida olib borilgan. Jumladan, Eron olimi A.Qazviniy, M.Taqi Bahor, Hind tadqiqotchisi M.Nizomiddin[8] Muhammad Avfiy Buxoriyni birinchilardan bo‘lib o‘rgangan olimlardan hisoblanadi.

Shular qatoriga, Eron olimlari M.Ramazoniy va B.Musaffo Karimiylarning ilmiy tadqiqotlarini ta’kidlash o‘rinli. «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot»ning ayrim boblari, undan o‘rin olgan hikoyalar tahlili berilgan risolalari hamda ko‘p sonli ilmiy maqolalarida Sa’diduddin Muhammad Avfiy ijodini tadqiqotlarining ob’ekti sifatida o‘rganishgan[9].

Qozog‘istonlik tarixchi olim T.K.Beysembiev «Muhammad Avfiy Buxoriyning (13 asrning ikkinchi yarmida yaratilgan) «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot» asari», «Avfiyning g‘aznaviylar davlati va g‘aznaviylarning hokimiyat tepasiga kelishi yoritilgan hikoyatlarining yangi tarjimalari» mavzularida ko‘p sonli ilmiy maqolalar chop etgan. Olib borgan ilmiy izlanishlari, ilmiy maqolalarida: bu asar Markaziy Osiyoning Mo‘g‘ullargacha va Mo‘g‘ullar istilosi davrini yorituvchi fors klassik adabiyotining ulkan tarixiy-adabiy asari ekanligini, unda turli mavzudagi ikki ming bir yuzdan ortiq (T.K.Beysembiyev: yetarlicha o‘rganilmagan) hikoyatlar jamlanganini, bugungi kunda bu katta tarixiy manbaning to‘ldirilgan ilmiy nashri mavjud emasligiga urg‘u bergan. Qo‘lga kiritgan ayrim nashrlari va Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxalarini o‘rganib, g‘aznaviylar, somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, xorazm-shohlar haqidagi 52 ta tarixiy hikoyat va rivoyatlar[10]ni tarjima qilgan, ularni izohlab bergan. Asarning o‘zida berilmagan sarlavhalar tarjimon tomonidan qo‘yilgan [11].

Muhammad Avfiy Buxoriyning Markaziy Osiyoda mo‘g‘ullargacha va mo‘g‘ullar istilosi davri, hamda shu davrlarda hukmronlik qilgan sulolalar tarixiga oid jami 78 ta hikoyatlari

---

[8] Nizamu‘d Din Muhammad. Introduction to the Jawami‘u‘l-Hikayat va Lawami‘u‘r-Riwayat of Sadidu‘d-Din Muhammad al-‘Awfi. London: Luzac & Co., 1929 («E. J. W. Gibb Memorial». New Series. Vol. VIII).

[9]Тегеран, 1956 — Мухаммад ‘Ауфи. Панздахбаб-иджавами‘ ал-хикайат. Ба са‘ и ва ихтимам-и Мухаммад Рамазани.Тегеран,1335/1956.Тегеран,1974.Садид ад-Дин Мухаммад ‘Ауфи. Джавами‘ ал-хикайат ва лавами‘ ар-ривайат. Кисм-и суввум. Ба му-кабила ва тасхих ва мукаддима-йи доктор-и Бану Мусаффа «Карими». Джилд I-II. Тегеран, 1352-53/1973-74.

[10]SupplémentPersan 95. LaBibliothèquenationale, France.

[11] Бейсембиев Т.Қ. ‘Ауфи, Садид ад-Дин Мухаммад Джавами‘ ал-хикайат ва лавами‘ ар-ривайат («Собрание рассказов и блестящие истории»). Сокровищница восточной мудрости. Подготовка издания, предисловие, перевод с персидского, комментарии, приложения и указатель Тимура К. Бейсембиева. Алма-Ата, ТОО «Print-S», 2005.

(manbadan: shundan 27 tasi ilgariroq tarjima qilingan) akademiklar V.V.Bartold, V.A.Gordlevskiy, S.E.Bosvorz, S.G.Agajanov, Z.M.Buniyatov, N.N.Negmatov, B.D.Kochnevlar tomonidan o‘rganilgan. Ammo ushbu o‘rganishlarning birortasida mutafakkir shaxsi va asari, uning naqadar qimmatli manba ekanligi to‘g‘risida urg‘u berilmaganligini olimlar ta’kidlashgan.

Tarjima borasida tadqiqotchi-olimlar Yu.Borhevskiy, N.Osmanova, N.Tumanovich tomonidan Sankt-Peterburg davlat universiteti Sharqshunoslik kutubxonasida saqlanadigan qo‘lyozma nusxasidan beshta hikoyat tarjima qilingan. Aynan ana shu manbadan to‘qqizta hikoyatni tojikistonlik olim S.Voxidov tarjima qilgan[12].

A.K.Arends Muhammad Avfiy Buxoriyning g‘aznaviylar to‘g‘risidagi hikoyalaridan sakkiztasini rus tiliga tarjima qilgan[13].

Sharq xalqlari tarixi va ularning milliy qadriyatlari azaldan G‘arbning katta qiziqishiga sabab bo‘lib kelgan. Bunga yuqorida tilga olganimiz Elliot va J.Dousonlarning chuqur o‘rganishlari va tahlillari dalildir. Shuningdek, ushbu qatorga Amerika Qo‘shma Shtatlari Oklaxoma universiteti tarixchi olimi R.N.Frayni qo‘yishimiz mumkin. U o‘zining «Buxoro: o‘rta asrlar taraqqiyoti» deb nomlangan kitobining «Eron merosi» bobida Muhammad Avfiy Buxoriy degan olim Buxoroda (1176-1200) tug‘ilib o‘sganligi, uning o‘zigacha va o‘z davrida yashab ijod etgan shoirlar biografiyasi haqidagi «Lubob ul-albob» asari borligi, tarixiy shaxslar ishtirok etgan va ular yashagan davr ijtimoiy hayotini yorituvchi hikoyalar jamlangan «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyat» degan asari katta ahamiyatga ega ekanligi haqida bayon etgan[14].

Ispaniyalik tadqiqotchi olim Madrid Komplutenze universiteti filologi, arabshunos va islomshunos olim J.R.Vergas 2015 yilda S.A. Haggar rahbarligi ostida yoqlagan doktorlik ishida «Sa’diduddin

---

[12] Ю. Борщевского в кн.: Плутовка из Багдада. Перевод Ю. Борщевского, Н. Османова, Н. Туманович. Предисловие и примечания Ю. Борщевского. М., Изд-во восточной литературы, 1963, с. 84-85, 132-133, 193-194, 206-207, 252-253.
Вохидов С. Жизнь и творческое наследие Мухаммада Ауфи. Душанбе: Дониш, 1989, с. 30-37, 132

[13] Арендс А. К. (Русский перевод 8 рассказов ‘Ауфи о Газневидах). В кн.: Абу-л Фазл Байхаки. История Мас‘уда (1030-1041). Перевод с персидского, введение, комментарий и приложения А. К. Арендса. Издание 2-е, дополненное. М., Наука, Главная редакция восточной литературы, 1969, с. 893-951.

[14] Фрай, Ричард Нелсон. Бухара в средние века. На стыке персидских традиций и исламской культуры. Издат. «Центрополиграф», 2016 г. – 223 стр.

Muhammad Avfiyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridan o'rin olgan siyosiy arboblar va hukmdorlar haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etuvchi tarixiy hikoyalarning ispan arab-shunoslari va tilshunoslari uchun moslanishi» mazmunidagi mavzuni keng qamrovda o'rgangan va chuqur tahlil qilgan.

Ispan olimi J.Vergas tadqiqotlarida «Javome' ul hikoyot va lavome' ul-rivoyot»ning tarjimalari va nusxalari, jumladan, XV-XVI asrlarda bosilgan Usmonli turkcha nusxasi, o'tgan asrda rus tiliga qisman o'girilgan tarjimasini aniqlash, uning fors tilidagi asl matnini o'qish, davlat va siyosiy arboblarga oid bo'lgan hikoyalardagi voqealarni tarjima qilish hamda moslashtirishga muvaffaq bo'lgan. Olim tadqiqotida asardagi aql-idrokka ishora qiluvchi elementlarni ajratib olishga e'tiborini qaratadi.

Hind tadqiqotchisi, tarixchi olimi M.Nozim 1971 yilda «Sulton Mahmud G'aznaviy davri va ijtimoiy hayoti» mavzuida olib borgan tadqiqot ishida[15] Avfiyning g'aznaviylar, somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar va xorazmshohlar davri, Mo'g'ullarning Markaziy Osiyoga qilgan bosqiniga oid hikoyalarini o'rgangan, qator ilmiy maqolalarida Muhammad Avfiy Buxoriy ijodi va shaxsiga atroflicha to'xtalgan.

Tojikistonlik S.Vohidov, X.R.Sangova kabi olimlar Muhammad Avfiy Buxoriyning shaxsi, yorqin ijodi, «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asari, nodir hikoyalar borasida olib borgan tadqiqotlari, monografiyalarida asarni chuqur o'rganishgan va hikoyalarning ma'no-mazmunini filologik tahlil qilishgan.

M.Dilovarova, G.Sa'diyeva[16], S.Vohidov[17]lar o'z maqolalarida, M.Baqoyev, O'.Ko'hzodlar[18] Muhammad Avfiy Buxoriy hikoyalariga tartib berib nashrga tayyorlashda, X.Mirzozoda[19] tojik maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun tuzgan xrestomatiyasiga «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot»dan hikoyatlar kiritib ta'lim

[15]Muhammad Nazim. The Life and Times of Sultan Mahmud of Ghazna. New Delhi, Munshiram Manoharlal, 1971.

[16]Диловаров, М., Саъдиева, Г. Ҳаёт ва эҷодиёти Авфӣ Муҳаммади Бухороӣ // Маорифи Тоҷикистон. – 2016. – №12. – С. 27-30.

[17]Воҳидов, С. Муҳаммад Авфӣ ва масъалаи даврабандии адабиёти форсу тоҷик // Уфуқҳои илм. – Душанбе, 1984. – № 1. – С. 56-60.

[18]Муҳаммади Авфии Бухороӣ. Марди покиза; Ҷабр кунӣ, ҷабр бинӣ: Ҳикояҳо / Тартибдиҳанда. Ӯрун Кӯҳзод // Машъал. – 1989. – № 7. – С. 6.

[19]Авфӣ, Муҳаммад. Ҳикоятҳо аз «Ҷавомеъ – ул – ҳикоёт» // Мирзозода Х. Адабиёт, Хрестоматия барои синфи 8. – Сталинобод, 1952. – С. 196-213.

mazmunini boyitishda Muhammad Avfiy Buxoriy faoliyati va hayotini filologik jihatdan yoritib berishgan.

O‘zbek tadqiqotchilaridan yana biri tarixchi U.Bekmuhammad o‘zining maqolalarida Muhammad Avfiy Buxoriy shaxsi va hayotini yoritgan, to‘plamga kiritilgan ayrim hikoyatlarni o‘zbek kitobxonlariga havola etgan[20].

Muhammad Avfiy Buxoriy. Ma’lumki, IX-XIII asr boshlarigacha Markaziy Osiyoda somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar davlatlari hukmronlik qildilar. Bu davlatlar xalqaro maydonda o‘z mavqei va tutgan o‘rni jihatidan katta e’tibor va nufuzga ega edilar.

Markaziy Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, yurt (Movarounnahr, Xuroson, Xorazm) da siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, madaniy hayot ravnaq topdi. Davlat arboblaridan – Ahmad Nasr Somoniy, Ismoil Somoniy, Alptakin, Mahmud G‘aznaviy, To‘g‘rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash kabi tadbirli va bunyodkor hukmdorlarning ma’rifatparvarlikka qaratilgan sa’y-harakatlari bois Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib rivoj topdi.

Aksariyat hukmdorlar mamlakatni boshqarishda ilm ahliga tayanishgan. Saroyda olim, san’atkor musiqachilar, shoirlar, turli sohalarning eng ilg‘or vakillari harakatlari natijasida nodir kutubxonalar yaratib ularni boyitish bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Ushbu dalillarni tarixchi Abu Mansur as-Saolibiyning somoniy hukmdorlar tomonidan markazlashtirilgan sharif shahar Buxoro haqida aytgan fikrlari mustahkamlaydi: «Bu go‘sha shon-shuhrat makoni, saltanat ka’basi va zamonasining ilg‘or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan, o‘z davrining fozillari yig‘iladigan joy edi», deb ta’riflagan tarixchi.

Ana shunday zaminda tuprog‘i sug‘orilgan zabardast ijodkorlardan biri Muhammad Avfiy Buxoriy Buxoroda taxminan 1172-1177 yillarda tug‘ilgan. Uning oilasi ham ilm ahllaridan bo‘lishgan. Manbalarga ko‘ra, umrining oxirgi yillarini Hindiston (Dehli)da o‘tkazgan. Muhammad Avfiy Buxoriyning hayot yo‘lini tadqiqotchilar uch qismga bo‘ladilar:

[20]https://kh-davron.uz/kutubxonasi.Hindistondagi buxorolik qozi & Muhammad Avfiy. Nodir hikoyalar.

– birinchi davr (1172-1201 yy.) hayotining bolalik va ilk tahsil yillari hisoblanadi;

– ikkinchi davr (1201-1220 yy.) uning Samarqandga safaridan boshlangan musofirlikdagi yillarini o‘z ichiga oladi;

– uchinchi davr (1220-1233 yy.) asarlar yaratilgan davr sanaladi.

Ilk tahsilni ona shahri Buxorodagi Dari Forixok madrasasida o‘z davrining oqil va dono kishilari, olimlari, jumladan, xattot Qutbiddin Saraxsiy, qonunshunos Ali Burhon (Tojiddin Umar bin Mas’ud), Rukniddin Mas’ud Imomzoda Buxoriylardan saboq olgan. Sharq adabiyotida tazkirachilik asoschilaridan biri hisoblangan Muhammad Avfiy Buxoriy o‘tkir zehni, bilimga chanqoqligi bois tezda ilm ahlining nazariga tushgan. Bo‘lajak alloma 1201 yilda Samarqand viloyati hokimi Sulton Jamoliddin bin Husayn Tamg‘ochxon saroyidagi adabiy kechalarda ishtirok etgan va hokim Ilekxon davrida saroyda kotiblik qilgan. Keyinchalik ilmini oshirish, yurtning donishu fozillari davrasidan bahramand bo‘lish uchun Yaqin va O‘rta Sharq bo‘ylab uzoq safar ixtiyor qiladi. Samarqanddan boshlangan bu safar Markaziy Osiyo va Hindistonning bir qancha shaharlari bo‘ylab davom etadi. Muhammad Avfiy Buxoriy 1204-1205 yillarda Xorazmga keladi. Bu erda u o‘z zamonasining ulug‘ olimlari Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Majdiddin Sharaf bin Muayyad Bag‘dodiy kabi ko‘plab donishmandlar bilan muloqotda bo‘ladi hamda shu yilning o‘zida Niso shahri orqali Xuroson viloyatiga ketadi. Bo‘lajak ijodkor Nishopurda fors va arab tilida ijod qilgan shoirlar asarlarini, she’r yozish uslublarini o‘rganib tahlil qilish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bu davr - shaharda ilmu urfon gullab yashnagan hokim Alovuddin Muhammad Xorazmshoh hukmronlik qilgan 1200-1222 yillarga to‘g‘ri keladi. Tus, Hirot, Seyiston, Marv uning keyingi manzillari bo‘lib, nihoyat, 1219 yilda katta safardan ona vatani Buxoroga qaytadi. Bu yerda uzoq qolmay Eron orqali G‘aznaga yo‘l oladi. Shu yerda u mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyoga qilayotgan hujumlari haqida eshitadi.

Mo‘g‘ullar istilosi Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati taraq-qiyotiga katta zarba berdi. 1222 yilda mo‘g‘ullarning ayovsiz xunrezliklari qurboniga aylanmaslik uchun ko‘plab iste’dod sohiblari ijod qilishga tinch joy izlab, turli tomonlarga tarqab ketishadi. G‘aznadan Hindistonga o‘rta osiyolik va xurosonlik ilm-fan ahllari,

siyosiy arboblar qatorida, qalam tebratib izlanishlarini davom ettirish maqsadida buxorolik shoir va adabiyotshunos Muhammad Avfiy Buxoriy, toshkentlik shoir Badriddin Chochiy, qashqadaryolik shoir Ziyo Naxshabiy Hindistondan panoh topdilar. Kelib chiqishi shahrisabzlik bo‘lgan Xusrav Dehlaviyning «Ro‘(y)ba Hind ovardani sohibdilon bejiz nest» («Ma’rifat ahlining Hind sari yuz burishi bejiz emas»)[21] deb yozishiga sabab shu edi. Hind yeri Muhammad Avfiy Buxoriy umrining so‘ngi (taxminan 1233-1242 yillar orasi)ga qadar ikkinchi vataniga aylanadi. Dastlab Nosiriddin Qabocha Uch(Uchh) viloyati hokimi qo‘l ostida ishlay boshlaydi. Lohur, Kanboyat, Nahrvologa ham shunda sayohat qilganligi xususida tarixiy manbalarda ma’lumotlar bor. Donishlar suhbatlari, o‘zining tinimsiz izlanishlari oqibatida u o‘z davrining bilimdon kishilardan biri bo‘lib yetishadi. 1222-1223 yillarda Qabochaning vaziri Faxriddin Husayniy bin Raziyiddin Abu Bakr nomiga bag‘ishlab yaratgan «Lubob ul-albob» («Mag‘izlarning mag‘zi») tazkirasini yaratadi. Shu vaqtda u Hindistonning yirik markazlaridan biri Gujarat o‘lkasiga qozi etib tayinlanadi. 1223 yilda Kanboyatda Qozi Muhsin Tannuhiyning «Al-Faraj badh ash-shidda» («Baxtsizlikdan keyingi shodlik») asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qilgani ma’lum. Asar tarjimasini do‘sti xattot Muhammad bin Umar bin Muhammad Samarqandiy ko‘chiradi va unda xattot tomonidan yozilgan so‘zboshi bo‘lib, Muhammad Avfiy Buxoriyning Gujaratga qozi bo‘lgani va Kanboyatda topgan Tannuhiyning ushbu asarini uzoq izlaganini aytadi. Aynan shu asar uni ikkinchi yirik asarini yozishiga rag‘bat beradi.

Ijodkorning «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot» («Hikoyatlar majmuasi va rivoyatlar ziyosi») shu ilhomdan sug‘orilib yaratilgan asaridir. Muhammad Avfiy Buxoriy 1227 yildan boshlab Dehlida yashaydi, 1233 yilda shu yerda olamdan o‘tadi. Ba’zi manbalarda 1233-1242 yillar oralig‘ida vafot etgan degan taxminiy ma’lumotlar ham uchraydi.

[21]Ўзбекистон миллий энциклопедияси.12-жилд. –Тошкент, 2006. –513-бет.

Muhammad Avfiy Buxoriyning ma’naviy merosi

№	Asar nomi	Mazmuni
1.	«Lubob ul-albob» («Mag‘izlarning mag‘zi»)	1222-1223 yillarda Qabochaning vaziri Faxriddin Husayniy bin Raziyiddin Abu Bakr nomiga bag‘ishlab yaratilgan tazkira forsiy tilda she’riyat yuzaga kelganidan boshlab, o‘z davrigacha - mo‘g‘ul istilosidan avvalgi adabiyot va madaniyat arboblari haqidagi nazmiy asarlardan namunalar keltirilgan yagona va qadimiy manba. 12 bobdan iborat.
2.	«Al-Faraj badhash-shidda» («Baxtsizlikdan keyingi shodlik»)	1223 yilda Kanboyatda Qozi Muhsin Tanuhiy asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Xattot Muhammad bin Umar bin Muhammad Samarqandiy
3.	«Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot» («Hikoyatlar majmuasi va rivoyatlar ziyosi»)	1228-1233 yillarda yaratilgan. Asar to‘rt qismdan iborat bo‘lib, 2000 dan ortiq hikoyat va rivoyatni o‘z ichiga olgan.

«Lubob ul-albob» («Mag‘izlarning mag‘zi») asari Muhammad Avfiy Buxoriydan avlodlar uchun ijtimoiy ahamiyati yuqori bo‘lgan asarlar sirasiga kirgan bo‘lib, u ma’naviy-axloqiy meros sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Adib ijodini tazkira yozishdan boshlagan. Uning ilk asari «Lubob ul-albob», ya’ni «Idrok xulosalari» fors tilida ijod etgan shoirlar haqidagi yagona to‘plam ekanligi bilan ham qimmatlidir. Muhammad Avfiy Buxoriyga qadar yozilgan tazkira-larning ikkitasi ajam tilida ijod qilgan shoirlar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan bo‘lib, birinchisi Abutohir Xotuniy (X asr oxiri va XI asr birinchi choragi)ning «Manoqib ush-shuaro» («Shoirlarning go‘zal fazilatlari») asari, ikkinchisi esa Nizomiy Aruzi Samarqandiy (XI asr)ning «Chahor maqola» asari. Xotuniyning tazkirasi bugungi kunga qadar yetib kelmagan. «Chahor maqola» esa faqatgina shoirlar haqida bo‘lib qolmay, balki davlat arboblari va mashhur kishilar haqida ham ma’lumot beradi.

Muhammad Avfiy Buxoriyning «Lubob ul-albob» tazkirasida forsiy tilda she’riyat yuzaga kelganidan boshlab, o‘z davrigacha bo‘lgan nazmiy asarlardan namunalar keltiriladiki, u mo‘g‘ul istilosidan avvalgi adabiyot va madaniyat arboblari haqidagi yagona va qadimiy manba hisoblanadi. Chunki unda nomlari keltirilgan

shoirlarning asarlari mo‘g‘ul bosqinchilari talon-taroji natijasida yo‘qolib ketgan. Hind tadqiqotchisi M.Nizomiddinning aniqlashicha, ushbu tazkirada yoritilgan ma’lumotlar Muhammad Avfiy Buxoriy-ning uzoq (20) yillik safari davomida yig‘ilganlarning bir qismi, qolganlari turli ijtimoiy sabablarga ko‘ra yo‘qolgan. Muhammad Avfiy Buxoriyning o‘zi tazkirada aytishicha, «Lubob ul-albob»ga qadar ham tazkiralar yaratilgan bo‘lib, ular arab tilida ijod etgan shoirlarga bag‘ishlangan edi. «Tabaqoti ibn Salom», «Tabaqoti Qutayba», «Yatimat ud-dahr» (A.Saolibiy) shular jumlasidan. Tazkira 12 bobdan iborat.Uning bobi avvalidan to‘rtinchi bobiga qadar she’riyat ilmi, shuningdek, birinchilardan bo‘lib she’r yozgan shoirlar haqida benazir ma’lumotlarni yozgan. Movarounnahr va Xuroson, Nimruz (Seyiston), Iroq va G‘azna, Jibol ya’ni Lohurda o‘tgan she’rga ixlosi bo‘lgan va ijod qilgin hukmdorlar haqidagi ma’lumotlar beshinchi bobdan o‘rin olgan, keyingi bobdan ularning vaziru vuzarolari orasidagi she’riy bahslar o‘rin olgan. Olim va ulamolar, fuzalo shoirlar ijodi, shuningdek, Muhammad Avfiy Buxoriy o‘z bobosi Abu Tohir Yahyo Avfiy ijodi haqida ham ettinchi bobda fikr yuritgan[22].

Sulolalar (somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar) hukmronlik qilgan davrlarda yashab ijod qilgan shoirlar haqidagi qimmatli ma’lumotlarni davrlashtirish orqali tazkirani boyitgan, ya’ni sakkizinchi bobi tohiriylar, saffariylar, somoniylar davri; to‘qqizinchi bobi ilekxonlar ya’ni nosiriylar davri ijodkorlariga bag‘ishlagan. Keyingi ikki bobda olim fors tilida ijod qilgan hind shoirlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarga qiziqish va to‘plash, ularni birinchilardan bo‘lib taqdim etish orqali o‘ziga ikkinchi vatan deb bilgan Hindistonni qadrlashini ko‘rsatadi.

«Lubob ul-albob» tazkirasining qo‘lyozma nusxasi Manchester va Berlinda nodir qo‘lyozmalar fondida saqlanib kelinmoqda.Uning yana bir nusxasi Eron kutubxonalaridan birida saqlanishi haqida ham taxminlar bor. Bu taxminga asos «Majma’ul fusaho» asari Eron olimi Rizoqulixonga tegishli bo‘lib, uning yozilishida Muhammad Avfiy Buxoriyning tazkirasi asos bo‘lganligi aytiladi. Shuningdek, Avfiy

[22]Sadidu‘d-Din Muhammad al-‘Awfi al-Bukhari. Vol. I (Part I, Chapters I-IV) (Anecdotes 1-195) of the Jawami‘ul-Hikayat wa lawami‘ur-Riwayat... Hyderabad, Dairat‘ul-Ma‘arifil-Osmania Press, 1966; Sadidu‘d-Din Muhammad al-‘Awfi al-Bukhari. Vol. II (Part I, Chapters V-X) (Anecdotes 196-564) of the Jawami‘ul-Hikayat wa lawami‘ur-Riwayat... Hyderabad, Dairat‘ul-Ma‘arif-il-Osmania Press, 1967.

Muhammadning «Nodir hikoyalar» nomi bilan nashr etilgan to‘plamda tarixchi olimlar I.Nizomiddinov va T.Fayziyevlarning yozishlaricha, Sayyid Ali Husayniy ismli kishi muallifligida 1591 yilda yozilgan «Bazm oroyi» tazkirasi aynan «Lubob ul-albob»ni takrorlashini ya’ni ko‘chirilganligini, hamda «Britaniya muzeyi» kutubxonasida saqlanayotganligini ingliz olimi E.Broun ma’lumotlari orasida uchratamiz. Keltirilgan izohsiz faktning qiziq tomoni shundaki, ushbu tazkiraning hech bir sahifasida Muhammad Avfiy Buxoriy nomi zikr etilmagan.

«Lubob ul-albob» tazkirasi zamonasining iste’dodlari haqida o‘zida qimmatli ma’lumotlarni jamlagan noyob asar ekanligi bilan bugungi kunning sharq va g‘arb olimlari uchun ham birdek aha-miyatli va qimmatli asar hisoblanadi.

«**Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot**». Muhammad Avfiy Buxoriyning ikkinchi noyob va nodir asari «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot» sanalib, «Hikoyatlar to‘plami (sandig‘i) va rivoyatlar ziyosi» degan ma’noni anglatadi. Muhammad Avfiy Buxoriy 1223 yilda arab yozuvchisi Muhsin Tannuhiyning «Al-faraj ba’d ash-shidda» («Qiyinchilikdan keyingi shodlik») asarini arabchadan forschaga tarjima qilgan. So‘ngra o‘zida ham shunga o‘xshash asar yozish shavqi paydo bo‘lgan bo‘lsa kerakki, 1228-1233 yillarda «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot» asarini yozadi. Asarda turli fanlarga oid ilmiy lavhalar, bahslar va xulosalar hikoya hamda rivoyat tarzida sodda bayon qilingan. Muhammad Avfiy Buxoriyning ana shu asari Sharqda xalq orasida keng tarqalgan. Ayrim hikoyalari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Garchi bugungi yosh avlod ushbu nodir hikoyalardan boxabar bo‘lmasalar-da, o‘tmishda tarbiya jarayonida bobolar va momolar ko‘p qo‘llashganini o‘tgan asrda yashab o‘tgan ulug‘ avlod vakillari yaxshi bilishadi. Uning ayni paytda juda muhim sanalayotgan tarbiya masalasining ma’lum bir turiga qaratilgan hikoyalarini ba’zi o‘rinlarda uchratsalar ham muallifi aynan Avfiy ekanligini bilishmasa kerak.

Muhammad Avfiy Buxoriy «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot»ni yozishda foydalangan o‘zi tilga olgan jami 93 ta manba ko‘rsatilgan. Shulardan 45 tasining muallifi ko‘rsatilgan, bizgacha yetib kelgani 35 ta, 43 ta manba haqida ba’zi ma’lumotlar uchraydi. Ayrim sabablarga ko‘ra butkul yo‘qolib ketgan bizga noma’lum asarlar jami 15 tani tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar Muhammad Avfiy Buxoriy asarini yaratish jarayonida foydalangan durdona asarlar haqida xabar beradi. Xuddi shuningdek, «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-

rivoyot» asari ham ko‘pgina nodir asarlarning yaratilishida manba sifatida o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Quyida ushbu asarlar muallifi va nomlari berilgan.

«Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot» quyidagi asarlarning yaratilishida manba vazifasini o‘tagan:

№	Muallif	Manba nomi
1.	Hind tarixchisi Minhoji Siroj	«Tabaqoti Nosiriy»
2.	Zakariya Qazviniy	«Ajoyib ul-maxluqot»
3.	Hofizi Abro‘	«Zubdat ut-tavorix»
4.	Sayfiddin Hoji bin Uqayliy	«Osor ul-vuzaro»
5.	Tarixchi Mirxond	«Ravzat us-safo»
6.	Xondamir	«Maosir ul-muluk», «Xulosat ul-axbor», «Dastur ul-vuzaro», «Habib us-siyar»
7.	Husayn Voiz Koshifiy	«Axloqi Muhsiniy»
7.	Faxriddin Ali Safiy (bin Voiz Koshifiy)	«Latoif ut-tavoif»
8.	Mas’ud bin Usmon Ko‘histoniy	«Tarixi Abulxayrxoniy»
9.	Muslihiddin Loriy	«Mirot ul-advor»
10.	Muhammad Majdiddin al Majdi al-Husayniy	«Ziynat ul-majolis»
11.	Muhammad Qosim bin Hindushoh	«Tarixi Farishta»
12.	Abulfath bin Muzaffar	«Navodir un-nuqul fi maosir ul-uqul»
13.	V.V.Bartold	«Mo‘g‘ullar istilosi davrida Turkiston»
14.	Rizoqulixon (Eron olimi)	«Majma’ ul-fusaho[23]»

Sharq xalqlarida tarbiyaning didaktik usuli afzal va mashhur ekan. Ehtimolki, Yevropada ilm ahlining Sharq mutafakkirlari, Sharqda ta’lim va tarbiya kabi masalalarga bo‘lgan qiziqishlari ularning tadqiqot ob’ektlariga aylanishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas. «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot» ham aynan ana shunday didaktik asardir. Asar mazmuni bugungi kunning keksa avlod vakillariga ko‘proq tanish, chunki mustaqillik yillarigacha asardan ayrim hikoyatlar jamlanmasi to‘rt marta va mustaqillikdan so‘ng bir marta turli tarjimon va to‘plovchilar tomonidan nashr etilganligi ayon bo‘ldi.

[23]Авфий Муҳаммад. Нодир ҳикоялар. Форс тилидан И.Низомиддинов ва Т.Файзиев таржимаси.– Т.,Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.–204 б.

«JAVOME' UL-HIKOYOT VA LAVOME' UL-RIVOYOT» ASARIDAN HIKOYAT VA RIVOYATLAR

I bob. Ibratli hayot saboqlari (Aqlu donish, ilmu hunar bobida)

DUNYODA ENG YAXSHI NARSA

Anushervon huzuriga uzoq-yaqindan vakillar kelgan ekan. Anushervon ilm-u donishda mumtoz vaziri Buzurgmehrning aql-u zakovatini mehmonlarga ko‘z-ko‘z qilish niyatida undan:

— Ey, hakim, dunyoda eng yaxshi narsa nima?- deb so‘rabdi.

— Dunyoda uch narsadan o‘tadigan hech nima yo‘q,- debdi Buzurgmehr.

— Nima ekan ular?

— O‘lim, ayol va ehtiyoj.

— Anushervon bu javobdan xijolat bo‘libdi va hakim bema'ni gap aytib qo‘ydi, deb o‘ylabdi. Keyin qulay fursat topib bu nima deganing, durustroq sharhlab ber, debdi. Shunda Buzurgmehr:

— Ey, shahriyori olam, ayol bo‘lmaganda senga o‘xshagan zot qayerdan tug‘ilardi, o‘lim bo‘lmaganda otangning saltanati senga tegarmidi, ehtiyoj bo‘lmaganda menga o‘xshagan odam sening saroyingda turarmidi? - debdi.

XUSRAV VA BUZURGMEHR

Xusravning vaziri Buzurgmehrdan inson uchun eng zarur narsa nima, deb so‘rashgan ekan, u:

-Tug‘ma zehn,- deb javob beribdi.

-Tug‘ma zehn bo‘lmasachi?-deb so‘rasalar:

-Odob va ilm o‘rgansin,-debdi.

-O‘rganolmasachi?-deb so‘rasalar:

-Mol-davlat, zar-u zevar orttirsin, bu ham ko‘p ayblarni berkitadi,- debdi.

-Eplolmasachi?-debdi.

-Bo‘lmasa sertavoze va seriltifot bo‘lsin, bu ham odamning ziynati,- debdi.

-Bu ham qo‘lidan kelmasachi?

-Unda bunaqa tiriklikdan o‘lgan afzalroq, ham odamlar undan qutuladi, ham o‘zi o‘zidan qutuladi,-debdi Buzurgmehr.

ARASTUNING NASIHATI

Qadimgi Yunonning eng buyuk faylasufi Arastu o‘limiga yaqin o‘g‘lini chaqirib shunday debdi:

-Bolajonim, o‘z umrimni ilm-u hikmatning sirlaridan voqif bo‘lish yo‘lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko‘p tugunlarni yechdim, ammo o‘limga kelganda chora topolmadim. Senga qiladigan vasiyatim shuki, o‘g‘lim, mol-davlat orqasida orttirilgan izzat-obro‘da baqo yo‘q. Izzat-hurmat, shon-sharaf ilmda. Ilm orqasida qo‘lga kiritgan shon-sharaf fano va zavolni bilmaydi, davlat va siyosatning o‘zgarishi unga ta’sir qilmaydi.

O‘g‘lim, shohlar sening otangni ilmi tufayli ulug‘lashdi, bo‘lmasa, otang ham ular qaramog‘idagi bir odam edi. Shohlar tobeligidagi odamlar shohlarga ta’zim qilishadi va sig‘inishadi. Obidlar va ma’budlar orasida yer bilan osmoncha farq bor.

Otangni ilmi bo‘lmaganda, uning podshohlar uchun kitob yuklagan eshakdan farqi qolmasdi. Ularga sig‘inadigan va xizmatni bajo keltiradigan bir g‘ulom bo‘lar edi, xolos.

Izzat-ehtiromga loyiq bo‘lay, nomim abadiy qolsin desang ilm orttir!

BUQROT HAKIM

Bir kun qadimgi Yunonning mashhur hakimi Buqrotni bir bemorning oldiga olib borishibdi. U kasalning tomirini ushlab debdi:

-Shuni bilgilki, men, sen va kasallik uch nafar bo‘lamiz, uchchalamiz ham bir-birimizga muxolifmiz. Agar sen menga yor bo‘lsang-u aytganimni qulog‘ingda tutsang, ya’ni yemagin, ichmagin degan narsamdan nafsingni tiysang biz ikki tan, ikki jon bo‘lamiz, kasallik tanho qoladi va biz uni yengamiz. Ikki jon, ikki tan birlashsa, hamisha bir kishini mag‘lub qilishi muqarrardir.

CHUMOLI VA QOVOG‘ARI

Qushlar tilidan yozilgan kitob “Latoif ul-ishorat” da shunday deyilgan.

Bir kun qovog‘ari bitta donni ming mashaqqat bilan uyiga tomon sudrab borayotgan chumolini ko‘rib:

-Hoy, chumoli, sho‘ring qursin, bitta donni deb shuncha zahmat chekasanmi. Kel, mening yemishim, ichishimni tomosha qil, qanday lazzatli taom bo‘lmasin, odamlar mendan ortganini yeyishadi. Agar qanotimni yozib bir osmoni falakka uchsam, istagan joyimga borib qo‘naman!-deb maqtanibdi.

Keyin u uchib qassobning do‘koniga boribdi va qanoradagi go‘shtga qo‘nibdi.

Qassob qo‘lidagi pichog‘i bilan qovog‘arini bir urgan ekan, ikkiga bo‘linib ketibdi.

Chumoli kelib arining oyog‘ini tortibdi.

Qovog‘ari:

-Meni qayoqqa sudrab ketyapsan?-deb so‘rabdi.

-Kimki biror yerga hasad ko‘zi bilan qo‘nsa, uni o‘zi istamagan boshqa yerga sudrab ketishadi,-debdi chumoli.

ARASTUNING ORZUSI

Arastu yoshi yetmishga yetganda barbat chalishni o‘rganibdi. Shogirdlari: “Oppoq sochingiz bilan barbat mashq qilgani uyalmaysizmi?”-deb so‘rashsa, shunday javob beribdi:

-Davrada o‘tirgan odamlar bu hunarni bilgan holda, men ko‘zimni mo‘ltillatib o‘tirsam o‘shanda uyat bo‘lur yedi. Har qanday ilm-u hunardan xabardor bo‘lish, uni o‘zlashtirish yo‘lida tortish mumkin bo‘lgan barcha aziyatlarni bilish odamning fazilatidir. Johil kishigina buning ma’nosiga tushunmaydi va foydasini bilmaydi.

BUQROT HAKIM VA VAZIR

Buqrot hakim ilm-u hikmatda ravnaq topib, shuhrati olamga yoyilgandan keyin uzlatni ixtiyor qilibdi va bir g‘orga kirib o‘sha yerda yashay boshlabdi. Bir kun podshoh xastalanib qolibdi va Buqrotni olib kelgani odam yuboribdi.

Buqrot uning iltimosini rad etibdi. Shundan keyin vazirning o‘zi Buqrot huzuriga borishga majbur bo‘libdi. Vazir bunday razm solib qarasa, Buqrot o‘t-o‘landan libos kiyib, har xil giyohni tamaddi qilib yuribdi.

Vazir Buqrotni podshoh qasriga taklif etibdi.

Buqrot shunday debdi:

-Men odamlarning dastidan qochib uzlatni ixtiyor qildim, minba’d podshohlarga xizmat qilmaslikka ahd etdim.

Vazir shuncha yalinsa ham Buqrot so‘zidan qaytmabdi.

Vazir undan qattiq ranjibdi va masxaraomuz:

-Podshohlarga xizmat qilish qo‘lingdan kelganida giyoh yeb o‘tirmas eding!-debdi.

Shunda Buqrot kulib:

-Giyoh yeyishni uddalay olganingda sen ham podshohlarning xizmatini qilmas eding!-debdi.

AXLOQ HAQIDA

Bir kuni amir Alining oldiga bir mo‘ysafid kelib: «Yo amir, qarib qoldim, kun o‘tkazish mashaqqatli bo‘lib qoldi. Tirikchilikdan hech bir rohat topolmayapman. Menga pand-u nasihat qilsang, shoyad sening nasihating tufayli xudoyi taolo mening ishlarimni yaxshi yo‘lga boshlasa», dedi.

Amir Ali mo‘ysafidga xitob qildi: «Ey shayx, agar esda tutuvchi bo‘lsang, ikki narsani esdan chiqar: xalq uchun qilgan yaxshiligingni, birov senga qilgan yomonlikni».

«Mardlik va odamiylik haqida biror so‘z aytgin», dedi mo‘ysafid.

«Odamiylik uldirki, minnat yukiga bardosh berolsa, mardlik uldirki, qo‘lidan keladigan ishni o‘zgadan darig‘ tutmasa», dedi.

«Yo amir, - dedi mo‘ysafid, - hammavaqt mo‘min va musulmon bo‘lmoqlik haqida biror so‘z desang...»

«Kishi aybini qidirmaslik musulmonlikdir. Yomon so‘zlarni gapirmaslik mo‘minlikdir. Agar bilsang, barcha yaxshi axloqni ushbu jumlalarda bayon qildim. Ushbu aytgan so‘zlarimni yodingda tutib, shunga amal qilsang, shubhasiz, yaxshi axloq egasi bo‘lasan», dedi amir.

TAQDIR QIZI

Roviylarning aytishicha, Taqdir ismli bir kishining bir qizi bor edi. Qiz nihoyatda go‘zal, barkamol, oqila va dono edi. Bir vaqtning o‘zida uch kishidan sovchi keldi. Biri Aql, ikkinchisi Davlat va uchinchisi Umid edi. Taqdir qizini chaqirib so‘radi: ≪Mazkur uch kishidan qaysi birini xohlaysan?≫ Qiz javob berdi: ≪Aql insondagi eng oliyjanob fazilatdir. Aql bilan oshnoni begonadan va hushyorni devonadan farq qilsa bo‘ladi. ≪Lekin aqlning bir aybi bor, u ham bo‘lsa, kishini chalg‘itib xatarli yo‘llarga solib qo‘yadi≫.

Taqdir so‘radi: ≪Davlat haqida nima deysan?≫ Qiz javob berdi: ≪Davlat ishbilarmon va hukmdordir. Hamma umidlar, murodlar davlatga itoat tutadilar, lekin davlatning ham bir katta aybi bordir. Kishiga vafo qilmaydi. Men Umidni xohlaydurman. Chunki, Umid har qanday holda ham insondan ajralmaydi va uning eng yaqin do‘sti bo‘lib qoladi. Zotan, bundan jahon manfaatdordir≫.

BAHROMGO‘R VA VAZIR

Bahromgo‘r davrida fazl-u hikmatda tengi yo‘q bir hakim bor ekan. Bahrom uning ta’rifini juda ko‘p marotaba eshitgan ekan. Bir kuni o‘sha hakimni huzuriga chaqirib, har sohada uni imtihon qilib ko‘ribdi. Hakim Bahrom bergan barcha savollarga qoniqarli javob qaytaribdi. Bahrom o‘zicha: “Buni vazir qilib olsam bo‘larkan, lekin avval himmatini va odob - axloqini bir sinab ko‘rish kerak”- deb o‘ylabdi. Hakim bilan bir tovoqdan ovqat yeb ko‘rmoqchi bo‘lib, oldiga qovurilgan tovuq keltirib qo‘yibdi.

Hakim bitta tovuqni zo‘r ishtaha bilan yeb, ikkinchisiga qo‘l cho‘zibdi.

Buni ko‘rib Bahrom o‘zicha shunday debdi:

- Bu odamning nazari nihoyat past ekan. Mening ko‘z oldimda tovuqni shunday yesa, mening yo‘qligimda mol - mulkni qanday yerkan?

Natijada, hakim badnafs va odobsizligi oqibatida vazirlikdan mahrum bo‘libdi.

O‘G‘RILIKNI ORZU QILGAN KISHI

Bir kishining ko‘nglida o‘g‘irlik hunarini o‘rganish havasi paydo bo‘ldi. U doim o‘g‘rilikda kamolga yetishni orzu qilar va o‘ziga ustoz qidirardi. Kunlardan bir kun odamlar unga, Nishopur shahrida o‘z kasbiga nihoyatda mohir va barkamol bir o‘g‘ri bordir, deb xabar berdilar.

U kishi o‘z shahridan chiqib, Nishopurga bordi va ustozning uyini qidirib topdi. Unga o‘zini tanitarkan: “Men o‘g‘rilik ilmida sendan saboq olsam va bu hunarda mahorat oshirmoq umidida keldim”, dedi. Ustoz unga iltifot ko‘rsatdi va uni uyiga olib kirib, oldiga har xil taomlar qo‘ydi. Ul kishi taomga qo‘l uzatib yemoqchi bo‘ldi. Ammo ustoz uni to‘xtatib: “Chap qo‘ling bilan taom yegin”, dedi. U kishi chap qo‘l bilan taom yeya olmadi. Nihoyat, yana o‘ng qo‘lini uzatdi. Ustozi unga dedi:

- Hamonki, bu yo‘lga qadam qo‘ydingmi, uning shart-sharoitlariga amal qilmog‘ing lozim. Chunki, avvalo o‘ng qo‘lni bahridan o‘tmoq, kerak. Zero, seni o‘g‘rilikda tusalar, shariat hukmiga muvofiq o‘ng qo‘lingni kesadilar. O‘ng qo‘lga o‘rgangan odamning ahvoli qiyin bo‘ladi. Agar sen hozirdan boshlab chap qo‘lda taom yeyishga o‘rgansang, keyinchalik o‘ng qo‘lingni kesganlarida ham hech ranj va mashaqqat ko‘rmaysan.

Kishi ustozidan bu so‘zni eshitgach, hushyor tortdi va o‘ziga-o‘zi: “Agar zarni qo‘lga kiritish tamasida qo‘lni zarga almashtirib qo‘ldan ajramoq birinchi shart bo‘lsa, ushbu hunardan voz kechmoqlik mening birinchi shartim bo‘lsin!” deb o‘g‘rilik hunaridan voz kechdi.

ANUSHERVON VA YONG‘OQ EKAYOTGAN CHOL

Anushervon bir kun shikorga chiqib sahroni aylanib yurgan ekan, yong‘oq ko‘chati ekayotgan bir cholni ko‘rib qolibdi.

—Hoy, mo‘ysafid, nima qilyapsan?-deb so‘rabdi Anushervon.

—Xudo podshohga uzoq umr bersin, yong‘oq ekyapman,- debdi.

—Sen qari bir odam bo‘lsang, bu daraxt qachon voyaga yetib, qachon hosil qiladi? - debdi.

—Boshqalar ekdilar, biz yedik, biz ekamiz, boshqalar yeyishadi, - debdi chol.

—Anushervon bu so‘zga tahsin o‘qibdi va: «Zeh»-debdi. Agar Anushervonga biror narsa yoqib qolsa: «Zeh» derkan. Shunda o‘sha odamga to‘rt yuz dirham pul berisharkan.

—Anushervon cholning so‘zini eshitib: «Zeh!»- degan ekan, unga to‘rt yuz dirham berishibdi.

—Hech kimning daraxti men ekkanchalik tez hosil bermagan,- debdi chol. Anushervon yana «zeh», debdi.

—Mo‘ysafidga yana to‘rt yuz dirham berishibdi.

—Podshohning nazari tushgani uchun ham bu daraxt bir yilda ikki marotaba hosil berdi, - desa, Anushervon yana «zeh», debdi. Yana to‘rt yuz dirham berishibdi...

HOTAM VA UNING BIRODARI

Hotam Toy bu dunyodan o‘tgach, birodari uning o‘rniga o‘tirishni va ehson karamini dunyo ahliga poyandoz qilmoqni ixtiyor qildi. Aytadilarki, Hotam yetmish darichali yumaloq qasr bunyod qilib, o‘zi shu qasrda yashar ekan. Ehsontalab gadolar qasr darichalaridan biriga kelib xayr - ehson so‘rarkan. Hotam bir gadoga xayr - ehson qilgach, ikkinchi darichadan yana qo‘l cho‘zarkan. Hotam yana xayr-ehson qilarkan, gado uchinchi darichadan yana qo‘l uzatarkan... Shunday qilib, gado yetmish darichaning hammasiga kelib Hotamdan xayr-ehson so‘rarkan. Hotam esa hech qachon: «Hozir bu darichadan kelgan eding-ku, endi bunisidan keldingmi», demas ekan.

Hotamning birodari o‘sha qasrda o‘tirishni orzu qildi. Onasi o‘g‘liga dedi: «Sen Hotam bo‘la olmaysan va hech kimga hotamlik

muyassar bo‘lmasa kerak». Hotamning birodari onasining so‘ziga quloq solmadi. Hihoyat, onasi o‘g‘lini sinab ko‘rmoqchi bo‘ldi va gado kiyimini kiyib o‘g‘li o‘tirgan yumaloq qasr darichalaridan biriga kelib xayr-ehson so‘radi. O‘g‘li xayr qildi. Ona ikkinchi darichadan kelib qo‘l cho‘zdi. O‘g‘li yana xayr qildi. Ona uchinchi darichadan kelib xayr-ehson so‘radi. O‘g‘li dedi:«Hozirning o‘zida ikki darichadan kelib, ikki marta ehson olding, endi uchinchi darichadan keldingmi?»

Shu onda ona o‘zini o‘g‘liga tanitarkan, jon bolam, men senga hargiz hotam bo‘lolmaysan, degandim. Men bir kun birodaring Hotamni sinamoqchi bo‘lib, mana shunday gado kiyimida qasrning darichasiga borib ehson so‘radim. Birin-ketin yetmish darichadan borardim, birodaring hamma darichadan menga ehson berardi. Ammo biror marta ham: «Hozir bu darichadan kelgan eding-ku», deb savol qilmadi. Men sizlarning tabiatlaringiz bir-biringiznikiga o‘xshamas-ligini yoshliklaringizdanoq bilardim. Chunonchi, Hotamni emizga-nimda bitta yemchakni og‘ziga olarkan, ikkinchisini senga berardi. Seni emizganimda esa, bitta emchakni og‘zingga olib, ikkinchisini mahkam changallab turarding va birovga berishga qizg‘anarding. Sizlarning tabiatlaringizni bir-biringiznikiga o‘xshamasligini o‘sha vaqtdayoq bilib olgan edim. Zotan, odamzodning tabiati, axloqi uning bilan birga tug‘ilib voyaga yetadi. Ammo yaxshi axloqni ham, yomon axloqni ham voyaga yetkazib, takomillashtiruvchi tarbiyadir, dedi.

AMIR AHMAD SOMONIY VA MUALLIM

Somoniylar sulolasining podshohlaridan biri bo‘lgan amir Nasr Ahmad Somoniyning muallimi yoshligida ta’lim berayotib, juda ko‘p marta adabcho‘p bilan urgan ekan.

— Amir Nasr: «Biror kun sulton bo‘lsam jazosini berarman», deb ko‘ngliga tugib qo‘ygan ekan.

Bir kecha, yoshlik chog‘larini eslab yotganida, muallimi yodiga tushibdi va tun bo‘yi unga qanday jazo berish kerakligini o‘ylab chiqibdi. Ertalab g‘ulomlaridan biriga chorbog‘dan behi daraxtining xipchinidan o‘n dona kesib kelishni, ikkinchisiga muallimni topib kelishni buyuribdi.

G‘ulom muallimning huzuriga boribdi. Muallim:

— Sulton qay vaziyatda meni eslab qoldi? -deb so‘ragan ekan, g‘ulom shunday debdi:

— Bir g‘ulomga chorbog‘dagi behi daraxtidan o‘nta xipchin kesib

kelishni, menga esa sizni topib olib borishni buyurdi.

Muallim Amir Nasr o‘ch olish payiga tushganini anglabdi va yo‘lda mevafurushning do‘koniga kirib bir dinorga eng yaxshi behilardan olib, yengiga yashiribdi.

Muallim Nasrning huzuriga kirganida, amir xipchinni ko‘rsatib:

— Bunga nima deysan? -deb so‘rabdi.

— Hozir,- debdi muallim va qo‘lini yengiga tiqib haligi behini olibdiyu podshohga qarab, - umringiz uzoq bo‘lsin, bir og‘iz so‘zim bor, - debdi.

— Ayt, - debdi amir Nasr.

— Mana shu bejirim va xushbo‘y meva shu xipchindan hosil bo‘lgan...

NO‘SHIRAVON VA IKKI DARVESH

Anushervon hukmronligi davrida ikki darvish uning saroyiga kelibdi va ulardan biri baland tovush bilan:

-Yovuzlik ko‘rmayin desang yovuzlik qilma,- debdi.

Ikkinchisi:

-Yaxshilik qilgan kishi hamisha yaxshilik ko‘rgay!- debdi.

Anushervon amri bilan birinchisiga ming dinor, ikkinchisiga ikki ming dinor berishibdi. Bu holni ko‘rgan mulozim va nadimlar podshohdan: «Ikkalasining ham so‘zi bir ma’noni ifodalaydi-ku, nega ikki xil mukofot berding?» deb so‘rashibdi.

Anushervon shunday javob beribdi:

-Biri yomonlikni madh etdi, ikkinchisi yaxshilikni. Yaxshilar bilan do‘st-u hamsuhbat bo‘lishdan yaxshi va yomonlar bilan hamnishin-u hamtovoq bo‘lishdan yomon ish bormi dunyoda?!

HORUN AR-RASHID VA MUABBIRLAR

Horun ar-Rashid tush ko‘rsa, o‘ttiz ikki tishi tushib ketganmish. Xalifaning kayfi uchib munajjim va muabbirlarni chaqiribdi va ulardan ko‘rgan tushining ta’birini so‘rabdi.

Shunda muabbirlardan biri:

-Ey, amir al-mo‘minin, butun qavm-qarindoshing va urug‘-aymog‘ing o‘lib, o‘zing yakkayu yolg‘iz qolar ekansan, - debdi.

Horun ar-Rashidning yurak-bag‘ri ezilib, sovuq nafasi uchun bu muabbirni yuz darra uringlar, deb farmon beribdi. Bu sovuq karomat baribir unga orom bermabdi va ertasiga boshqa muabbirni chaqirib, bu tushning ta’birini so‘rabdi.

Ikkinchi muabbir:

Ey, amir al-mo‘minin, xudoyi taolo sizga benihoya umr, beqiyos davlat bergan, siz barcha qavm-qarindosh va avlodingizga nisbatan uzoq umr ko‘rar ekansiz, - debdi.

Bu so‘zdan Horun sevinib ketibdi va shunday debdi:

-Ikkalasi ham bir gapni aytdi, ammo bunisi fikrini odob bilan, chiroyli iboralar topib aytgani uchun yuz dinor mukofotga sazovor bo‘ldi, birinchisi tomdan tarasha tushganday qo‘pol so‘zlar aytib qo‘yib yuz darra yedi.

AFLOTUN

Bir kishi Aflotunga:

-Bir ziyofatda falonchi seni ko‘klarga ko‘tarib maqtadi va haqqingga ko‘p duolar qildi, - debdi.

Bu so‘zlarni eshitgan Aflotun boshini quyi solib, fikr-u xayol ummoniga g‘arq bo‘libdi.

Haligi kishi hayron bo‘lib:

-Ey hakim, men nima dedimki, bunchalik fikr-u andishaga ko‘milding?- deb so‘rabdi.

-Meni sen aytgan so‘zlar o‘yga toldirgani yo‘q. Men qilgan ishlarimni o‘ylab o‘tiribman. Qanaqa johilona ish qilgan ekanmanki, bu qilmishim u johilga yoqib tushibdi va u meni maqtab yuribdi. Biror ahmoqlik qilmasang, hech bir ahmoq seni maqtamaydi va ko‘klarga ko‘tarmaydi.

XUSRAV VA RIKOBDOR, MIROXO‘R

Bir kun Xusrav mamlakatni aylanib kelish niyatida yo‘lga otlanibdi.

Rikobdor otni olib kelibdi. Xusrav otga minayotganda ayil uzilib, podshoh yerga yiqilibdi.O‘sha zamon miroxo‘rni jazolash uchun uni darhol toptirib kelibdi.

Miroxo‘r shunday debdi:

- Shaxriyor, ruxsat eting, bir og‘iz so‘zim bor, aytib olay, keyin nima qilsangiz ixtiyor o‘zingizda.

-Ayt, nima demoqchisan? - debdi Xusrav.

- Ey, podshohi olam, siz odamlarning podshosi bo‘lsangiz, otingiz otlarning podshosi. Bu bechora ayol ikki podshohning tortish-machog‘iga nechuk tob bersin?!

XUSRAV VA XONSOLOR

Bir kun xonsolor Xusravning oldiga dasturxon tuzayotib qo‘lidan qadahni tushirib yuboribdi va sharob Xusravning to‘niga to‘kilibdi.

Xusrav yanada g‘azablanib:

-Bu nima qilganing? - deb baqiribdi.

-Arzimas gunohim uchun menga shuncha qattiq jazo beradigan bo‘lsang, odamlar seni malomat qilishi, bilmay qilingan kichkina bir gunoh uchun bir xizmatkorning qonini to‘kdi, zolim ekan, deyishlari mumkin. Men seni zolimga chiqarishlarini istamayman. Bu ishni qasddan qildim. Jazo beradigan bo‘lsang, bilmay qilgan arzimas gunohim uchun emas, ataylab qilgan katta gunohim uchun jazo ber.

KIRMON SHOHI VA XAZINA QO‘RIQCHISINING TUSHI

Kirmon podshohlaridan bo‘lmish Malik Muhammadning xazina qo‘riqchilaridan biri uning huzuriga kelib, bir tush ko‘rdim, ruxsat desalar, aytib bersam, debdi.

Malik Muhammad ijozat beribdi.

Qo‘riqchi uzundan-uzun bir tushni aytib beribdi. So‘zini tugatgandan keyin podshoh darhol farmoni oliy berib uni xizmatidan ozod qilibdi.

Hamma hayratda qolib:

Nega bunday qildingiz? -deb so‘rashibdi.

Shunda podshoh:

Shunchalik uzundan-uzoq tush ko‘rish uchun necha soat uxlashi kerak? Bu ahvolda u xazinani qanday qo‘riqlaydi? - debdi.

TINCHLIK QADRI

Hajdan qaytayotgan bir ziyoratchi karvondan ajralib qolibdi va cho‘lda sarson-sargardon bo‘lib yurib, bir manzilga yetibdi.

Ko‘rimsizgina bir xonada kampir yakka o‘zi yasharkan. Xonaning oldiga bir it bog‘lab qo‘yilgan ekan. Hoji kampirga salom beribdi, kampir ochiq chehra bilan alik olib, uni o‘tqazibdi. Ziyoratchi karvondan qolib ketganini, necha kundan beri sarson-sargardon bo‘lib yurganini aytib, biror yegulik narsa so‘rabdi.

— Bolam, huv ana, uzoqda ko‘rinayotgan cho‘lda juda ilon ko‘p. Borib ikkitasini ushlab kelsang, pishirib yeymiz,- debdi kampir.

— Men ilonni ushlolmayman, - debdi hoji kampirga hayratomuz qarab.

— Yur, bo‘lmasa birga boramiz, - debdi kampir va itini olib birga jo‘nabdi. Ular ikkovlon, ikki ilonni ushlab kalla va dumini uzib

tashlashibdida, birpasda pishirib yeyishibdi.

— Ziyoratchi, ochlik g‘alaba qilgan ekan, ko‘zini chirt yumib, ilonni paqqos uribdi, keyin cho‘llab suv so‘rabdi.

— Mana, uyning oldida buloq bor, ichib kela qol,- debdi kampir.

Hoji borib suvdan ichibdi. Suv nihoyatda sassiq va loyqa ekan.

— Ona, - debdi hoji, - shunday joyda nechuk yashab yuribsan?

— Ey, bolam, - debdi kampir, - dunyoda bundan tinchroq va yaxshiroq yer bormikin? Bahavo va xushmanzara cho‘llarni, suv to‘la chashmalarni aytmaysanmi?

Bunga javoban hoji shunday debdi:

— Ey, ona, bizning viloyatda oqar suvlar, noz-ne’mat to‘la bog‘-u bo‘stonlar, shirin-shakar mevalar, lazzatli taomlar bor. Ilonni yeyish mumkin ekanini umrimda eshitmagan edim.

— Shuncha noz-u ne’mat bilan yana sizlarga birovning zulm-u tahdidi va boj-u xiroj so‘rash xavfi ham bordir?- deb so‘rabdi kampir.

— Albatta, - debdi hoji,- podshoh va amirlar bormi, ularning mulozim va gumashtalari fuqaroga zulm qilishi, ulardan boj-u xiroj to‘plashi turgan gap.

— Sizlarning o‘sha shirin-shakar noz-u ne’matlaring,- debdi kampir,- zo‘ravonlarning jabr-u zulmi ostida zahr-u zaqqumga aylanadi, mening tinchlik va osoyishtalikda ichayotgan bu zahr-u zaqqumim o‘sha shirin sharbatlardan ming karra totliroqdir.

XUSRAV PARVEZ VA SHIRIN

Xusrav Parvez saltanat taxtiga o‘tirib, dil kishvarini mahbubasi Shiringa topshirgandan so‘ng, yorug‘ dunyoni uning ko‘zi bilan ko‘radigan bo‘lib qolibdi. Kunlardan bir kun yaqinlaridan biri unga:

- Shirinni qay darajada sevasan?- deb so‘rabdi.

Parvez shunday javob beribdi:

- Mening muhabbatim shu qadar kuchliki, uning biror yomon qilmishi bu muhabbatni zarracha kamaytirolmaydi, yangi fazilati bundan bo‘lak oshirolmaydi, visol onlari bundan ortiq xursand etolmaydi, hijron g‘ami unutishga majbur qilolmaydi.

TUZ HAQI

Kunlardan bir kun Movarounnahrning chapdast o‘g‘rilaridan biri Nishopurga keldi. U ayyorlikda tengi yo‘q edi. O‘g‘ri kattaroq o‘ljani qo‘lga kiritmoq qasdida tevarak-atrofni ko‘zdan kechira boshladi. Nihoyat, sulton xazinasining qayerdaligini aniqladi. Xazinaga kirish uchun o‘zida bo‘lgan barcha hiyla va nayranglarni ishga soldi.

U yer ostidan lahm (naqb) qazib, xazinaga kirdi. Xazinadagi javohirlardan ko‘targanicha olib lahm teshigiga keltirdi. Qorong‘i kechada u yerda bir oq narsani ko‘rdi - shu’la sochib tovlanardi. O‘g‘ri o‘z-o‘ziga derdi: «Shoyad odamlar aytadigan gavhari shamchiroq shu bo‘lsa, binobarin buni olmoq darkor, toki badavlat bo‘lmog‘imga sabab bo‘lg‘ay». O‘g‘ri uni qo‘liga oldi va ushlab ko‘rib nimaligini bila olmadi. Nihoyat, tatib ko‘rib mazasini bildi. U bir bo‘lak tuz edi. Tuzni bir vaqtlar xazinaga keltirib qo‘ygan edilar.

O‘g‘ri tuzning mazasini tatib ko‘rgach, yana o‘z joyiga olib borib qo‘ydi va ko‘tarib chiqqan javohirlarni o‘sha joyga tashlab, o‘zi lahmdan chiqib jo‘nab ketdi. Ertasi kun sultonga xabar keldiki, bir guruh o‘g‘rilar xazina tomon lahm qazib, xazinaga kiribdilar. Ammo hech narsa olmabdilar. Sulton hayron bo‘lardi: «Ajabo, lahm qazisalar, xazina ustiga yetib borsalar-da, hech narsa olmasalar?!»

Shundan so‘ng, sulton shaharga jarchi qo‘ydi, jarchi har qadamda: «Xaloyiq, oralaringizda kimki bu ishni qilgan bo‘lsa, qo‘rqmasdan sulton huzuriga borsin, javohirlarga yetishgan choqda nima uchun olmay chiqib ketish sababini rostgo‘ylik bilan bayon qilsin! Jazoga tortilmaydi va gunohi kechiriladi», deb jar solardi. Jarchilar bir necha kun shahar aylanib jar soldilar.

Mazkur voqeadan bir hafta o‘tgach, o‘g‘ri sulton huzuriga bordi va dedi: «Bu ishni yolg‘iz men qilganman». Sulton so‘radi: «Nima sababdan javohirlarni olib ketmading?» O‘g‘ri javob berdi: «Qorong‘uda xazina eshigi yonida bir oq narsaga ko‘zim tushdi. Bu narsa shoyad gavhari shamchiroq bo‘lsa, deb gumon qildim va uni olib tatib ko‘rdim. Ma’lum bo‘ldiki, tuz ekan. O‘zimcha, zotan, sulton tuzini tatib ko‘rdimmi, endi tuz haqiga rioya qilmoq mardlik va muruvvat mazhabida vojibdir, deb bildim. Shundan so‘ng, javohirlardan voz kechib, quruq qaytib chiqdim».

Sulton bu so‘zni eshitgach, uni e’zozladi va yuqori martabalarga ko‘tardi hamda ellik ming dinor oltin in’om qildi.

MUOVIYANING ROZI

Valid Utayba deydiki, kunlardan bir kun Muoviya menga bir sirni aytdi va hech kimga aytmasligimni ta’kidladi. Uyga kelib otamga dedim: «Muoviya menga sirni aytdi, agar maslahat ko‘rsangiz, huzuringizda aytay!..» Otam menga rad javobini berib, dedi:

-Ey o‘g‘lim, har kim birovning sirini saqlasa, xohlagan paytida birovga aytishi mumkin. Ammo sirni birovga aytib qo‘ygandan

so‘ng, sir uning ixtiyoridan chiqadi va uni yana o‘z tasarrufiga qaytarib ololmaydi. Ya’ni sirni qayta saqlay olmaydi.

- Ota bilan farzand o‘rtasida bunday hol yuz bermasa kerak.

-Shundayku-ya, ammo tiling birovning sirini fosh qilishini ravo ko‘rmayman!..

Ertasi kun Muoviyaning oldiga borib, otam bilan bo‘lgan voqeani gapirib berdim. «O‘z o‘g‘lini shunday xatodan qaytargan otaga ming rahmat!» dedi Muoviya.

MUALLIM VA SHAHZODA

Podshohga xudo aqlli va ziyrak o‘g‘il ato qilgan edi. Podshoh o‘g‘lini muallimga topshirdi. Toki yosh shahzoda odob va axloqdan saboq olgay. Muallim shahzodaga saboq bera boshladi. Biroq shahzoda muallimga dedi:

- Ustoz, ilmning nihoyasi yo‘q, butun umr bo‘yi o‘qisang ham oxiriga yetib bo‘lmaydi. Binobarin, menga shunday bir so‘zni o‘rgatingkim- qisqa va foydali bo‘lsin!

-Agar ikki dunyoda tinchlikni va g‘am-anduhdan yiroq bo‘lishni istasang, xomushlikni o‘zingga hamroh qil! Zeroki, so‘zlamaslik - qutulmoqlikdir.

Shahzoda shundan so‘ng hech bir so‘z demay qo‘ydi. Podshoh o‘g‘lining bu ahvolidan qattiq iztirob chekdi. Shahzodani tilga kiritish uchun tabiblarni chaqirib, muolaja qildirdi. Ammo shahzoda hech gapirmas edi.

Kunlardan bir kun podshoh ovga chiqib, o‘g‘lini ham o‘zi bilan birga olib ketdi. Yo‘lda ketayotganlarida nogahon kaklik sayrab yubordi. Mulozimlar kaklik tomon ot choptirib, kaklikni tutib keldilar. Shunda shahzoda nogahon afsuslanib: «Agar sayramaganingda salomat, ozodlikda yurarding», deb yubordi. Shahzodadan bu so‘zni eshitgan mulozimlardan biri podshohning oldiga borib, shahzodaning gapirganini xabar qildi. Podshoh nihoyatda xushvaqt bo‘lib, shahzodani yoniga chaqirdi va undan gap so‘radi. Ammo, podshoh qancha urinmasin, shahzoda lom-mim demadi.

Shahzodaning bu qilmishidan g‘azablangan podshoh o‘g‘lini kaltaklashga buyurdi. Shahzoda afsus va nadomat bilan derdi: «Ustozim indamaslik ozodlik garovidir», deb juda to‘g‘ri aytgan ekan. Zero, indamaganimda kaltak zarbiga uchramagan bo‘lardim.

HAKIMNING VASIYATI

Rivoyat qiladilarki, arab hakimlaridan Umar al-Tarb o‘z farzandiga vasiyat qilib dedi: ≪Ey farzand, nafs balosidan hazar qilgin. Nafs kishini xaloyiq ko‘ziga dushman qilib ko‘rsatadi hamda xavf-xatarga soladi. Zotan, mol-mulk odamlar ko‘zida muhabbat kabidir, odamlar esa unga ma’shuqdurlar. Chunonchi, har kim birovning mahbubi yoki ma’shuqasiga ko‘z olaytirsa, bunday kishi odamlar nazdida do‘st deb hisoblanmaydi.

Hammaga ma’lumki, barcha hayvonot nafs balosi tufayli ovchining tuzog‘iga ilinadilar. Shuning uchun, kimki mazallat va mashaqqatdan xalos bo‘lmoqlikni istasa, nafs o‘tini qanoat suvi bilan o‘chirgay, toki omonlik topgay.

PIR VA BO‘ZFURUSH QISSASI

Buxoroda Xoja Imom Bakr Fazl... muridlaridan biri bo‘zfurushlik qilardi. Ammo doim Xoja Imom Bakr xizmatida qoyim edi. Shuningdek, pirining irodasiga bo‘ysunib mol-dunyoga loqayd qarardi. Bo‘zfurushning bir o‘g‘li bo‘lib, ish ko‘rmagan va tajribasiz yigit edi. Qazo va qadarning taqozosi bilan ramazon oyida bo‘zfurushning o‘g‘lini bir qiz bilan zino asnosida tutib oldilar. Shahar voliysi yigitni qamoqqa oldi va otasining mol-mulkiga daxl qildi. Bo‘zfurush Imom Bakr Fazl huzuriga kelib undan madad so‘radi. Imom bo‘zfurushga dedi: «Ramazon oyida zino qilmoqlik bu katta jinoyatdir. Men bu ishga kafil bo‘lolmayman va bu ish menga loyiq emas».

Bo‘zfurush bir parcha oq qog‘ozni olib pirning oldiga kelib, menga shafoatnoma yozib bering, toki u dunyoda do‘zax maloiklari menga azob bermasinlar, deb so‘radi.

- Mening yozgan hujjatimni do‘zax maloiklari qabul qilmaydilar hamda mening shafoatim u yerda o‘tmaydi.

- Adolat yuzasidan gapiring, mening siz bilan munosabatim bu dunyo uchunmi yo u dunyo uchunmi? Agar suhbatingiz samarasi bu dunyoda menga asqotmasa, aminmanki, u dunyoda qiyomatda asqotmaydi! Binobarin, xizmatingizda bo‘lishimdan ne foyda?

Pir biroz jim turgach, dedi: «Rost aytding, yaxshi ahd-u paymonni o‘rtaga solmoqni taqozo qilding. Sening talabingni to‘xtovsiz bajarurman.

Pir otga minib Xuroson amirining oldiga bordi. Bo‘zfurush va uning o‘g‘li haqidagi qissani amirga so‘zlab berdi va yigitni qo‘llab-

quvvatladi. Amir kuldi va bo‘zfurush o‘g‘lining gunohidan kechdi. Pir qizga odam yuborib, uni olib keltirdi. Qizni yigitga nikoh qildilar. Shundan so‘ng pir bilan bo‘zfurush o‘rtasidagi munosabat yana bog‘landi.

Hikoyatdan maqsad, har kimda davlat va qudrat bo‘lsa, do‘stlar ehtiyojidan ayamasin va yaxshi ahd-u paymon rasmini ado etsin, toki o‘g‘il-qizlari yaxshi axloqqa musharraf bo‘lsinlar.

O‘G‘RI

Bir kishi erta tongda hammomga yo‘l oldi. Yo‘lda yaqin do‘stini uchratdi va undan: «Sen ham hammomga bormaysanmi?» deb so‘radi.

«Hammomgacha senga hamroh bo‘laman, so‘ng muhim ish bilan boshqa yerga boraman», - deb javob berdi do‘sti.

Ular hammom tomon ketdilar. Hammomga yaqinlashganlarida u kishining do‘sti o‘z yo‘liga burilib ketdi. Shu payt kishining orqasidan bir o‘g‘ri kelayotgan edi. U kishi hammom eshigiga yetgach, orqasiga qaradi. Hali tong otmagan, qorong‘i edi. U kishi o‘g‘rini ko‘rib, o‘z do‘stim bo‘lsa kerak, deb o‘yladi. Shundan so‘ng xoja yonidagi yuz dinor qizil oltin solingan hamyonni o‘g‘riga berarkan, buni omonat saqlab tur, hammomdan chiqqanimdan so‘ng qaytarib berarsan, dedi-da, hammomga kirib ketdi. Xoja hammomdan qaytib chiqqanda kun yorishgan edi. O‘z uyiga ketmoqchi bo‘lib, yo‘lga ravona bo‘lgan ham ediki, o‘g‘ri uning yo‘lini to‘sib: «Ey xoja, mendan hamyoningni qaytarib ol!» dedi. Xoja o‘girilib o‘g‘riga qaradi va o‘g‘rining qo‘lida o‘z hamyonini ko‘rib: «Sen kimsan?» deb so‘radi. «Men nontalab, tomteshar, kissabur o‘g‘riman», deb javob berdi.

- Men hamyonimni senga topshirgan ekanman, nima uchun olib ketmading?

- Agar o‘z san’atim bilan yoningdan kesib olganim-da edi, u holda senga qaytarib bermas edim. Ammo sen hamyonni menga omonat topshirding. Binobarin, omonatga xiyonat qilmoq ravo emasdur. Omonatni saqlasang-u pastkashlik qilsang hargiz yaxshi bo‘lmaydi.

ZULMNING OQIBATI

Kunlardan bir kun Kubod shikorga chiqdi. Shikorda kiyik orqasidan quvib, o‘z askarlaridan ajralib uzoqqa ketib qoldi. Havo isib ketdi. Charchagan va holdan toygan podshoh uzoqda sahro o‘rtasida uch chodirni ko‘rdi. Kubod chodir tomon yurdi. Chodirga yetib otdan tushdi. Eski chodir ichidan bir kampir unga peshvoz chiqdi. Kampir

Kubodni ichkari kiritib o‘tqazdi. Oldiga taom qo‘yib mehmon qildi. Kubod qornini to‘yg‘azib biroz dam olgandan so‘ng, unda uyqu g‘alaba qildi. Kubod kechga yaqin uyg‘ondi. Kun oxirlab, tun yaqinlashgan edi. Nihoyat namozshom bo‘ldi. Bir necha sigirlar o‘tloqdan qaytib o‘z qarorgohlariga keldilar.

Kampirning o‘n ikki yoshli qizchasi bor edi. Nihoyatda go‘zal va farosatli, bilimdon edi. Kampir qiziga buyurdi: ≪Ey qizim, o‘rningdan tur va ozroq sut sog‘ib kel, toki mehmonning oldiga qo‘yay!≫

Qiz sigirlarni sog‘ib, ko‘p sut keltirdi. Bu holni ko‘rib o‘tirgan Kubod ajablandi va fikran ≪Bu jamoat bizning adl va soyamizda bu sahroda vatan qurib o‘tiribdilar va har kuni qanchadan-qancha sut sog‘ib oladilar. Agar har haftada bir kunlik sog‘ilgan sutlarni sulton xazinasiga yuborib tursalar, davlatlari kamayib qolmas. Shuningdek, sultonlik xazinasi ham foydalanadi≫, deb o‘yladi va o‘zicha qaror qildi: ≪Dorulmulkka yetib borishim bilan bu haqda farmon chiqaraman≫.

Tun o‘tib, tong ota boshladi. Kampir qizini uyg‘otdi va sigirlarni sog‘ib olishni buyurdi. Qiz sigirni sog‘moqqa kirishdi va nogoh onasiga qarab qichqirdi: ≪Ey ona, tezroq yuzingni duoga o‘girki, podshoning niyati zulm qilmoq bo‘libdur≫.

≪Subhonolloh,- dedi Kubod, - mening andishamni bu qiz qayoqdan bilibdur...≫ Kampir xudoga nola va tazarru’ bilan yolvorib iltijo qila boshladi. Kubod kampirni chaqirib so‘radi: ≪Podshoning zulm ixtiyor qilganini qayoqdan bilding?≫

- Har kuni ertalab sigirlarimiz ko‘p sut berardi. Bugun esa sut bermadi. Bildimki, podshoning niyati buzilibdi. Shuni bilginki, agar podshoh o‘z fuqarosiga zulm ixtiyor qilsa, xudovandi karim o‘sha yerdan barakani ko‘tarur. Agar podshoh o‘z fuqarosi foydasiga yaxshi niyat qilsa, olloh u yerga behad baraka in’om qilg‘ay.

- Rost aytadursan, men bu niyatimdan qaytdim,-dedi Kubod.

Qiz o‘rnidan turib sigirni qayta sog‘di va juda ko‘p sut oldi.

XOJA BILAN XIZMATKOR

Bir baxil va xasis kishi bor edi. Uning bir xizmatkori bo‘lib, o‘zidan ming daraja baxilroq va xasisroq edi. U xojasining nima deyishini imo-ishoralaridanoq bilib olardi. Zeroki, xojasining barcha kirdikorlaridan voqif edi.

Kunlardan bir kun xoja xizmatkorga dedi: ≪Non keltir va eshikni zanjirlab qo‘y! ≫

Xizmatkor bu so‘zni eshitib hayron bo‘ldi va xojasiga dedi:

- Ey xoja, senga nima bo‘ldi?.. Bugun sening tiling xatoga yo‘l qo‘ydi. Zero, sen harvaqt, ≪Eshikni zanjirlab so‘ng non olib kel≫, derding. Bu so‘zing aqldan erdi…

Xizmatkorning bu so‘zi xojaga ma’qul tushdi va tasanno o‘qidi.

MEHMON VA MEZBON

Kufalik bir kishining uyiga mehmon keldi. Uy sohibi kanizagini chaqirib unga buyurdi: ≪ Mehmonga shirinliklar keltir!≫ Kanizak, asal tamom bo‘lgan edi, dedi. Mezbon kanizakka qarab: ≪Andoq bo‘lsa, mehmonga ipakli ko‘rpalardan solib, o‘rin yozib ber, toki yotib uxlasin≫.

Mehmon och edi, mezbonga qarab dedi: ≪Axir, ipak ko‘rpada yotishdan avval bir parchagina pishloq bersang-chi...≫ Mezbon dedi: ≪Kechki taom har xil kasalliklarga sababchi bo‘ladi. Men ofat kelishini va baloga qolishni istamayman≫.

Bechora mehmon o‘sha kechasi och yotdi va ertalab turib, mezbonga la’natlar o‘qib jo‘nab ketdi.

AHNAF QAYS VA MUOVIYA

Rivoyat qilishlaricha, kunlardan bir kun Ahnaf Qays xalifa Muoviyaning oldiga kirdi. Muoviyaning yonida o‘tirgan kishilar xalifa Ali haqida riyokorona bo‘hton so‘zlarni aytardilar. (Arablarda xalifalik navbati Usmondan so‘ng Aliga yetganda, ummaviylar sulolasidan Muoviya ham xalifalikni da’vo qilgan. Natijada, Ali bilan Muoviya o‘rtasida ko‘p yillar qonli urushlar davom etgan). Biroq Ahnaf Qays hech so‘zlamas va xomush o‘tirardi. Muoviya so‘radi: ≪Nechun xomush o‘tiribsan, so‘zlamaysan?≫

- Nima deyishim mumkin, agar rost so‘zlasam sendan qo‘rqsam, yolg‘on so‘zlasam xudodan qo‘rqsam. Bas, shunday ekan, sukut saqlamoqdan yaxshi chora yo‘qdir,- deb javob berdi Ahnaf Qays.

HAJJOJ VA ASIRLAR

Rivoyat qiladilarki, Hajjoj urushda asir tushgan bir guruh kishilarni o‘limga hukm qilgan edi. Asirlardan bir nechasi qilichdan o‘tkazildi. Navbatdagi asirni keltirib kundaga boshini qo‘yayot-ganlarida, asir Hajjojga dedi:

- Yo amir, sen meni o‘limga buyurmasliging lozim, zeroki, mening senda haqqim bor!
- Seni menda qanday haqqing bor?
- Falonchi ko‘pchilik ichida seni haqorat qilgan edi, ammo men uni bu ishdan qaytargan edim.
- So‘zingning rostligiga guvohing bormi?
- Bor, - dedi asir va asirlar ichidan bir kishini ko‘rsatib,- mana bu kishi o‘sha yerda hozir edi.

Hajjoj u kishini chaqirib so‘radi: ≪Sen qanday guvohlik berasan?≫
- Bu kishi rost aytadur, men o‘sha yerda edim.
- Xo‘p, sen ham o‘sha yerda ekansan, nima uchun sen ham meni tarafimni olmading?
- Men seni dushman deb bilardim.

Hajjoj har ikki asirni, birini o‘zida haqi borligi sababli va ikkinchisini rostgo‘yligi va sidqidilligi uchun ozod qildi. Chunonchi, buzruklar debdurlarkim: ≪Agar yolg‘on kishilarni balolardan qutqarsa, rost so‘zlamoqlik, avvalo, mushkul ahvolda qolganlarga najot beradi≫.

BAXILLIK HAM EVI BILAN

Kufa shahrida bir baxil kishi bor edi. Xasislikda tengi yo‘q va baxillikda ovozasi olamga tarqalgan edi. Bir kun uning oldiga odamlar kelib, shunday dedilar: ≪Basra shahrida davlatmand va katta sarmoyador bir odam bor. Ammo baxillik va xasislikda sendan mingchandon ortiqroqdir≫.

Kufalik baxilning basralik baxilga hasadi keldi va borib ko‘rishga ahd qildi. Uning oldiga borishdan maqsadi, baxillik va xasislik ilmini yanada ko‘proq o‘rganib qaytish edi. Nihoyat, Basraga borib, baxilni topdi va unga o‘zini tanitdi: ≪Sening oldingga kelishdan maqsadim, sendan foydali saboq olmoqdur≫, dedi.

Basralik baxil kufalik baxilning qilmishidan achindi va unga iltifot ko‘rsatib: ≪Meni uyimni o‘z uyingdek faraz qila ber, endi biroz sabr qilasan, toki seni mehmon qilish uchun bozorga borib, ziyofat tadorigini qilayin va gunogun taomlar keltirayin≫, deb bozorga ketdi.

Baxil novvoyxonaga kirib, novvoydan so‘radi:

- Yaxshi pishgan noning bormi?
- Bugun yaxshi non yopganman, xuddi sariyog‘dek mazalik...

Baxil, nondan ko‘ra sariyog‘ mazaliroqdur, - deb baqqol do‘koni tomon yurdi. Baqqol do‘koniga borib, baqqoldan so‘radi:
- Yaxshi sariyog‘ing bormi?
- Bugun ajoyib sariyog‘ sotib olganman, chunonchi, zaytun yog‘idan ming marta yaxshiroqdur.

Baxil, aslida zaytun yog‘i sariyog‘dan yaxshiroqdir, deb boshqa baqqolning do‘koniga borib, undan: ≪Senda zaytun yog‘i bormi?≫ deb so‘radi.
- Zaytun yog‘i olib kelganman, ammo undan ko‘ra suv ming marta tiniq va tozaroqdir...
- Juda to‘g‘ri gapirding, men isrofgarchilikka yo‘l qo‘ya olmayman. Zeroki, uyimda bir yemas, ikki xum to‘la suvim bor,- deb baqqol uyiga quruq qaytib keldi. Kufalik baxil taom yemak umidida intizorlik bilan kutardi. Shu payt basralik baxil bozordan kelib kufalik baxilga qarab: ≪Shu deyman... birodar, bozorda taomlarni juda sifatsiz tayyorlaydilar-da, uydagiga nima yetsin... Uyimda-ku bor, ammo u ham bo‘lsa - suv≫, dedi.

Bu so‘zni eshitgan kufalik baxil o‘rnidan turarkan: ≪Insof bilan aytganda, bu borada senga teng keladigan kishi hali tug‘ilmagan bo‘lsa kerak. Olamning barcha baxillariga sardor bo‘lsang arziydi≫, deb xayrlashib jo‘nab ketdi.

SULAYMON VA MEHMON

Bir kishi Sulaymon payg‘ambarning uyiga mehmon bo‘lib keldi. Sulaymon mehmonning oldiga uyida borini, ya’ni qotgan non bilan tuz olib chiqib qo‘ydi. Mehmon dasturxondagi qotgan nonni ko‘rib: ≪Koshki, biroz pishloq ham bo‘lsa edi≫, dedi. Sulaymon irg‘ib o‘rnidan turib, bozorga bordi va pishloq olib kelib, mehmonning oldiga qo‘ydi. Mehmon non bilan pishloqni yeb bo‘lgach, ≪Alhamdulilloh, xayriyatki, xudoyi taolo mening qismatimga chidam va qanoatni ato qilgan≫, dedi. Bu so‘zni eshitgan Sulaymon: ≪Agar xudoning berganiga qanoat qilganingda, meni bozorga jo‘natmagan bo‘larding≫, dedi.

TA’MAGIR MUSHUK

Roviyning keltirishicha, Ahmad Muhammad Bag‘dodiyning bir mushugi bor edi. Ahmad har kuni mushukka bir parcha go‘sht

yedirardi. Kunlardan bir kun odamlar mushukni kabutarxonadan tutib oldilar va o‘ldirib, terisiga somon tiqib, kabutarxona ustiga osib qo‘ydilar. Ittifoqo, Ahmad o‘sha tomonga o‘tayotib, kabutarxona ustida o‘z mushugini osilgan holda ko‘rdi va: ≪Agar o‘zingga berilayotgan go‘shtga qanoat qilganingda, bu balolar boshingga tushmagan bo‘lardi, nafs domiga tushib, o‘z joningga o‘zing qasd qilding≫, dedi.

Qissadan maqsad uldirkim, toki odamlar nafs balosidan hazar qilib, qanoatni o‘zlariga do‘st tutsinlar.

YOLG‘ONNING YOMONLIGI HAQIDA

Islom dinini qabul qilganlardan biri amir Alining oldiga kelib:

- Yo amir, islomda man qilingan narsalar ko‘p. Men ana shu gunoh ishlarning hammasidan birdaniga xalos bo‘lolmayapman. Binobarin, yaxshi fazilatlardan birini o‘rgatgin, toki gunoh qilmoqdan xalos bo‘lay,-dedi.

- Yolg‘on so‘zlashdan o‘zingni saqlagin!- deb buyurdi amir Ali.

Kishi Alining huzuridan chiqib, o‘z yo‘liga ketdi. Yo‘l ustida mayxona bor edi. Uning dilida sharob ichishga mayl tug‘ildi va sharob ichmoqchi bo‘ldi. Yana o‘z-o‘ziga: ≪Agar amir mendan ≪sharob ichdingmi≫, deb so‘rasa, men deb javob bersam, u holda meni xudo uradi. Agar ≪yo‘q≫ deb javob bersam, alhol yolg‘on gapirmayman deb ahd-u paymon qilganman≫, dedi-da, sharob ichmoqdan kechdi.

Shuningdek, yo‘lda bir xotinni uchratib, shahvoniy hirsi qo‘zg‘ab, zino qilmoq harakatiga tushdi. Biroq avvalgidek qilgan ahd-u paymoni esiga tushib, bu maishatdan ham voz kechdi.

Natijada, qaysi bir gunoh ishning ustidan chiqsa, esiga yolg‘on gapirmaslik haqida qilgan ahd-u paymoni tushib, o‘zini to‘xtatib qolardi. Shundan so‘ng, u kishi amir Alining oldiga kelib:

- Yo amir, menga barcha to‘g‘ri yo‘llarni ko‘rsatding. Barcha yomonliklarning boshlanishi yolg‘on gapirishdan vujudga kelishini endi tushundim,- dedi.

Shu kundan boshlab barcha yomon ishlarning bahridan kechdi.

BAXIL VA DIRHAM

Bir baxil kishi bor ekan. Uning qo‘liga biror dirham tushsa, uni o‘z oldiga qo‘yib, unga derkan:

- Ey dirham, sen ko‘p yerlarni ko‘rding, ko‘p cho‘ntaklarni yirtding. Bir necha nokaslarni badavlat qilding va bir necha

davlatmandlarni yer bilan yakson qilding. Mana endi shunday manzilga keldingki, hatto oftob shu'lasi ham senga soya sola olmaydi,- deb dirhamni cho‘ntakka solarkan,- kel, endi bu yerda orom ol! Zeroki, bundan buyon bu yerdan o‘zga yerga bormagaysan,- derdi.

SHOIR VA JOHIL

Bir kun shoir Shahid kitob o‘qib o‘tirardi. Uning oldiga johil bir kishi salom berib kirdi va: ≪Ey xoja, nechun yolg‘iz o‘tiribsan?≫ deb so‘radi. ≪Sen kelishing bilan yolg‘iz qoldim. Chunki kitob mutolaasidan to‘xtadim≫, deb javob berdi shoir.

SUTGA SUV QO‘SHGAN XOJA

Bir mashhur kishining qo‘ylari ko‘p edi. U kishining cho‘poni kunda qo‘ylarni sog‘ib, sutini xo‘jayinning huzuriga keltirib berardi. Xo‘jayin esa sutga suv qo‘shib sotishni buyurardi.

Cho‘pon xo‘jayinga doim ta'kidlardi: ≪Ey xoja, xiyonat qilma! Xiyonatning oqibati dahshat va halokat bilan tugaydi≫. Ammo xo‘jayin bu so‘zlarga parvo qilmasdi.

Kunlardan bir kun cho‘pon qo‘ylarni tog‘ etagiga yotqizib, o‘zi esa tog‘ning yuqorirog‘idan joy qilib yotgan edi. Nogoh, kuchli yomg‘ir yog‘ib, sel quydi va tog‘dan tushgan sel qo‘ylarni oqizib ketdi. Cho‘pon esa sutsiz xo‘jayin oldiga keldi. Xo‘jayin cho‘pondan, - nega sut keltirmading?- deb so‘radi. Cho‘pon esa unga shunday dedi: ≪Sutga qo‘shgan suvlaring hammasi jam bo‘lib, katta bir selga aylandi va barcha qo‘ylaringni oqizib ketdi...≫

Oqillarga ma'lum bo‘lg‘aykim, taqdirda sherikchilik yo‘qdir.

KO‘RNAMAK MEHMON HAQIDA

«Muluki Ajam≫ tarixida keltirishlaricha, mamlakat shohlaridan birining odati shu ekanki, shohlar tanovvul qiladigan ba'zi bir xil taomlarni avom xalqning yeyishi mumkin emas ekan. Agar avom xalqdan birortasining ushbu taomlardan pishirib yeganini eshitsa, u odamni g‘oyatda ranjitarkan.

Bir kun bir bozorchi shohning xos kishilaridan harbiy kishini ziyofat qildi. Uning oldiga anvoyi noz-ne'matlarni yozib, zo‘r takalluf va ehtiromlar ko‘rsatdi. Shuningdek, podshohga xos bo‘lgan taomlardan ham dasturxonga muhayyo qildi.

Mazkur harbiy kishi mezbonning uyidan chiqib borib, shohga shunday xabar yetkazdi: ≪Bugun men falon odamning uyida bo‘lgan edim. U shunday taomlar tayyorlab, shohona sho‘rvalar pishirdiki,

avom xalq uni yeyishdan mahrumdir. Menga sidqidildan bo‘lgan ixlosi tufayli shohning farmoni haqida ham o‘ylamadi≫.

Shoh o‘z farmonining orqasiga shuni ilova qildi: ≪Sening bu nasihating uchun rahmat aytamiz. U kishini esa maxsus taomlar tayyorlagani uchun emas, balki ko‘rnamak, ig‘vogar va birovni tuzini yeb yana uning o‘zini yomonlaydigan, yaxshilikka yomonlikni ravo ko‘radigan sendek bir odam bilan hamtovoq bo‘lgani uchun malomat qilamiz...≫

HOTAMDAN SAXIYROQ KISHI

Hotamtoydan, o‘zingdan ham saxiyroq odamni uchratganmisan, deb so‘rabdilar.

Hotamtoy:

Ha, ko‘rganman,- deb javob beribdi.

Qayerda ko‘rgansan?

Cho‘lda ketayotganimda uzoqdan ko‘zimga ikki xonadan iborat ko‘rimsizgina bir kulba, kulbaning oldida bog‘lab qo‘yilgan bir echki ko‘rindi. U yerga yetib borganimda ot dukurini eshitib, ichkaridan bir mo‘ysafid menga peshvoz chiqdi va otdan tushishimga yordam qildi. Bir ozdan keyin uning o‘g‘li kelib ochiq chehra bilan salomlashib, hol-ahvol so‘radi. Mo‘ysafid o‘g‘liga qarab:

- Bolam, o‘sha echkini bismil qilib taom hozirla, mehmonni ziyofat qilish kerak,- dedi.

O‘g‘li:

Ijozat bering, avval borib, o‘tin terib kelay,- dedi. Mo‘ysafid:

Sen cho‘lga borib, o‘tin olib kelguningcha vaqt ketadi. Mehmonni och olib o‘tirish odobdan emas,- dedi.

Mo‘ysafidning ikkita nayzasi bor ekan, o‘sha nayzasini tizzasiga urib sindirdi, echkini so‘ydi va birpasda ovqat tayyorlab dasturxonga olib kelib qo‘ydi.

Uyning uyoq-buyog‘iga razm solib qaradim, uning butun bor-yo‘g‘i shu nayzagina ekan, uni ham mehmonning poyqadamiga nisor qildi.

Choldan, meni taniysanmi, deb so‘radim.

Chol:

-Yo‘q, tanimayman, -dedi.

Men Hotamtoy bo‘laman, saroyimga kel, bu qilgan yax-shiliklaringning hissasini chiqaray,- dedim.

Bunga javoban chol:

Biz mehmondan ziyofat puli olmaymiz,- dedi va shuncha qilsam ham mendan hech qanday hadya qabul qilmadi.
Men mana shu mo‘ysafidni o‘zimdan saxiyroq deb bilaman.

ISKANDARNING JAVOBI

Oliy rutba shaxslardan biri kelib, Iskandarga falon kishi qizingni sevib qolibdi, debdi.
Sevsa nima qilay?-debdi Iskandar.
O‘ldirishing kerak!-debdi haligi kishi.
-Birovni sevgani uchun, birovni yomon ko‘rgani uchun o‘ldirsak, dunyoda odamzoddan nom-nishon qolmaydi-ku?

MUSANING ALAMI ISADAN OLINDI

Anushervonning aql-u zakovatli bir vaziri bor ekan, shu vazir bir amirni qo‘llab-qo‘ltiqlab yurarkan. Amirning aytgani aytgan, degani degan ekan.

Bir kuni o‘sha amirning fuqarolaridan bir necha kishi Anushervon huzuriga arzga kelib:

Sening amiring bizga haddan ortiq jabr-u zulm qilyapti, bizdan xiroj talab qilyapti,- debdi.

Anushervon o‘sha amirni saroyga olib kelishlarini buyuribdi, biroq amir bu xabarni eshitishi bilanoq juftakni uribdi.
— Shunda Anushervon uni qo‘llab-qo‘ltiqlab yuradigan vazirni chaqirib unga jazo beribdi.
— Hamma hayron qolib:
— Shaxriyori olam, gunohkor amir-ku, siz nega vazirning ta’zirini berdingiz?-desa, Anushervon shundoq javob beribdi:
— Jabrdiyda zolimni bizga yaqin qilgan edi. Musani alamini Isadan oldik deb shuni aytadilar-da!- debdi.

ILMI NUJUMGA HUSHI YO‘Q PODSHOH

Ilmi nujumga hushi yo‘q bir podshoh hamisha munajjimlarning xatolarini fosh etib, uyaltirib yurarkan.

Bir kun u bir o‘g‘il ko‘ribdi. Podshoh saroydagi uch buyuk munajjimni chaqiribdi va qur’a ochib, o‘g‘lining qismatini bayon qilishlarini so‘rabdi.

Munajjimlardan biri, bu o‘g‘il o‘n beshga kirganda ilon chaqib o‘ladi, deb aytibdi.

Ikkinchisi, bu bola o‘n beshga kirganda balandlikdan yiqilib o‘ladi, debdi.

Uchinchisi, o‘sha yoshga yetganda bu bola suvga g‘arq bo‘lib o‘ladi, deb bashorat qilibdi.

Podshoh bu gaplarni eshitib, «bittasining so‘zi to‘g‘ri chiqishi mumkin, unda ikkinchi, uchinchisining so‘zi mutlaqo xato»,- deb o‘ylabdi va keyin bu munajjimlarni ko‘zdan qochirmaslikka, ularning bashoratlari noto‘g‘ri chiqsa, sharmanda qilishga ahd qilib qo‘yibdi.

Munajjimlar aytgan o‘sha mash’um kun kelibdi, podshoh o‘g‘lini bir mahalla odamga topshirib, ko‘z-quloq bo‘lib turishlarini tayinlabdi. Tepaliklarga chiqish va suvga yaqinlashishga yo‘l qo‘ymaslikni buyuribdi.

Bir mahalla odam bolaning muhofazasi bilan band bo‘libdi. Qiyom payti bola odamlarni g‘aflatda qoldirib, uydan chiqibdi, chorbog‘da biroz aylanib hovuz bo‘yiga borib qolibdi. Hovuz bo‘yidagi daraxtda qush uyasi bor ekan. Bola daraxtga chiqibdi-yu, inga qo‘l cho‘zibdi. Uyada ilon yotgan ekan, bolani chaqib olibdi va bola daraxtdan hovuzga yiqilib g‘arq bo‘libdi.

Posbonlar yugurib kelishsa, shahzoda allaqachon o‘lib yotganmish. Shu voqeadan keyin podshoh munajjimlarni ranjit-maydigan bo‘libdi.

PAYG‘AMBARLIK DA’VOSI

Birov payg‘ambarlik da’vo qilgan ekan, uni podshoh huzuriga olib kelishibdi. Haligi odam ko‘k to‘n bilan ko‘k salla o‘ragan ekan. Podshoh undan:

Kimsan? - deb so‘rasa, u:

Men payg‘ambarman! -debdi.

Payg‘ambar bo‘lsang, qanaqa mo‘jiza ko‘rsatolasan?

Nima istasang darhol hozir qilaman.

Unday bo‘lsa hozir mening ko‘z oldimda qovun ekasan, u palak yozsin, yetilsin, pishsin. Men undan bahra olay.

Bo‘lmasa menga uch kun muhlat ber, - debdi haligi odam.

Yo‘q, shu soatning o‘zida men totib ko‘rmoqchiman.

- Ey noinsof, o‘n sakkiz ming olamni yaratgan parvardigor ham uch oyda qovunni yaratadi-yu, sen menga loaqal uch kun fursat bermaysanmi?

O‘tirganlar kulib yuborishibdi, podshoh uning qiziqchi ekanini bilib unga in’omlar beribdi.

SIR SAQLASH HAQIDA

Shopur nomli podshoh o‘z vaziri va yana arkoni davlatidan bir kishi bilan davlat ishlari haqida kengashayotib, muqim davlat sirini ularga aytdi. Shohdan muhim davlat sirini eshitgan hamono vazir o‘rnidan turib yer o‘pib shohga ta’zim qilib: ≪Podshoh biz bandalarini o‘z siriga mahram qildi. Ammo, podshohga vojib edikim, bizni alohida-alohida chaqirib, sirni aytmog‘i lozim edi. Toki har birimiz ≪shoh o‘z sirini faqat menga aytdi≫, degan xulosaga kelmog‘imiz darkor edi. Ana shunda biz bir-birimizdan shubhalanmas edik va sirni saqlashga jon-jahdimiz bilan harakat qilardik. Mabodo, sir oshkor bo‘lgan taqdirda, sirni kim oshkor qilgan va kim sirni saqlay olganligini podshoh darhol aniqlashi mumkin bo‘lardi≫, dedi.

Shoh dedi: ≪Sening bu so‘zlaring, sir saqlash borasida nasihatlarning ming xil nasihatlaridan ko‘ra ming marta afzalroqdir≫.

QO‘SHNILAR XUSUMATI

Bir kishi qo‘shnisi bilan urishib qolibdi. Sababini so‘rashgan ekan, shunday javob qilibdi:

- Uyimga mehmon kelgan edi, o‘sha mehmon kalla-pocha bilan siylashimni iltimos qildi. Men uning iltimosini qondirib, kallapocha sotib oldim: mehmon yeb ketdi. Men dushmanlarimni kuydirish maqsadida kallaning suyagini eshigim ustiga osib qo‘ygan edim, bu noinsof uni o‘g‘irlab, odamlar bu kalla yegan ekan, desin deb, o‘z darvozasi ustiga osib qo‘yibdi. Insof bilan ayting-chi, bu adolatsizlikka qanday chidash mumkin?

QOG‘OZXO‘R VOLIY

Bir kishi sulton Mahmud G‘aznaviyning o‘g‘li - sulton Mas’ud huzuriga arzga kelibdi:

— Ey, sulton, G‘ur shahridan kelayotgan edim shahar amiri meni ushlab, bor-yo‘g‘imni tortib oldi,- debdi haligi odam.

— Sulton Mas’udning amriga binoan darhol G‘ur shahrining amiriga noma yozishibdi va jabrdiydaning narsalarini qaytarib berishini buyuribdi. Haligi kishi sultonning nomasini olib, G‘ur shahri amirining huzuriga boribdi.

Amir bu shaxsning qilmishidan qattiq ranjibdi va olib kelgan nomasini kaltak zarbi bilan o‘ziga yediribdi.

Jabrdiyda yana G‘aznaga borib, sultonga arzi hol qilibdi. Yana sultonning farmoyishiga ko‘ra kattaroq noma yozishibdi.

— Haligi odam sulton Mas'udga qarab:
— Sultonim, ayt, nomani qisqaroq va kichikroq qilib yozishsin, bu gal ham yutishga to‘g‘ri kelsa, qiynalib o‘tirmayin, - debdi.

DUNYODA ENG YAXSHI NARSA

Anushervon huzuriga uzoq-yaqindan vakillar kelgan yekan. Anushervon ilm-u donishda mumtoz vaziri Buzurgmehrning aql-u zakovatini mehmonlarga ko‘z-ko‘z qilish niyatida undan:
— Ey, hakim, dunyoda yeng yaxshi narsa nima?-deb so‘rabdi.
— Dunyoda uch narsadan o‘tadigan hech nima yo‘q,- debdi Buzurgmehr.
— Nima ekan ular?
— O‘lim, ayol va ehtiyoj.
— Anushervon bu javobdan xijolat bo‘libdi va hakim bema'ni gap aytib qo‘ydi, deb o‘ylabdi. Keyin qulay fursat topib bu nima deganing, durustroq sharhlab ber, debdi. Shunda Buzurgmehr:
— Ey, shahriyori olam, ayol bo‘lmaganda senga o‘xshagan zot qayerdan tug‘ilardi, o‘lim bo‘lmaganda otangning saltanati senga tegarmidi, ehtiyoj bo‘lmaganda menga o‘xshagan odam sening saroyingda turarmidi? -debdi.

XUSRAV VA BUZURGMEHR

Xusravning vaziri Buzurgmehrdan inson uchun yeng zarur narsa nima, deb so‘rashgan ekan, u:

-Tug‘ma zehn,- deb javob beribdi.

-Tug‘ma zehn bo‘lmasa-chi?-deb so‘rasalar:

-Odob va ilm o‘rgansin,-debdi.

-O‘rganolmasa-chi?-deb so‘rasalar:

-Mol-davlat, zar-u zevar orttirsin, bu ham ko‘p ayblarni berkitadi,-debdi.

-Eplolmasa-chi?-debdi.

-Bo‘lmasa sertavoze va seriltifot bo‘lsin, bu ham odamning ziynati,-debdi.

-Bu ham qo‘lidan kelmasa-chi?

-Unda bunaqa tiriklikdan o‘lgan afzalroq, ham odamlar undan qutuladi, ham o‘zi o‘zidan qutuladi,-debdi Buzurgmehr.

ARASTUNING NASIHATI

Qadimgi Yunonning eng buyuk faylasufi Arastu o‘limiga yaqin o‘g‘lini chaqirib shunday debdi:

-Bolajonim, o‘z umrimni ilm-u hikmatning sirlaridan voqif bo‘lish yo‘lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko‘p tugunlarni yechdim, ammo o‘limga kelganda chora topolmadim. Senga qiladigan vasiyatim shuki, o‘g‘lim, mol-davlat orqasida orttirilgan izzat-obro‘da baqo yo‘q. Izzat-hurmat, shon-sharaf ilmda. Ilm orqasida qo‘lga kiritgan shon-sharaf fano va zavolni bilmaydi, davlat va siyosatning o‘zgarishi unga ta’sir qilmaydi.

O‘g‘lim, shohlar sening otangni ilmi tufayli ulug‘lashdi, bo‘lmasa, otang ham ular qaramog‘idagi bir odam edi. Shohlar tobeligidagi odamlar shohlarga ta’zim qilishadi va sig‘inishadi. Obidlar va ma’budlar orasida yer bilan osmoncha farq bor.

Otangni ilmi bo‘lmaganda, uning podshohlar uchun kitob yuklagan eshakdan farqi qolmasdi. Ularga sig‘inadigan va xizmatni bajo keltiradigan bir g‘ulom bo‘lar edi, xolos.

Izzat-ehtiromga loyiq bo‘lay, nomim abadiy qolsin desang ilm orttir!

BUQROT HAKIM

Bir kun qadimgi Yunonning mashhur hakimi Buqrotni bir bemorning oldiga olib borishibdi. U kasalning tomirini ushlab debdi:

-Shuni bilgilki, men, sen va kasallik uch nafar bo‘lamiz, uchchalamiz ham bir-birimizga muxolifmiz. Agar sen menga yor bo‘lsang-u aytganimni qulog‘ingda tutsang, ya’ni yemagin, ichmagin degan narsamdan nafsingni tiysang biz ikki tan, ikki jon bo‘lamiz, kasallik tanho qoladi va biz uni yengamiz. Ikki jon, ikki tan birlashsa, hamisha bir kishini mag‘lub qilishi muqarrardir.

CHUMOLI VA QOVOG‘ARI

Qushlar tilidan yozilgan kitob “Latoif ul-ishorat” da shunday deyilgan.

Bir kun qovog‘ari bitta donni ming mashaqqat bilan uyiga tomon sudrab borayotgan chumolini ko‘rib:

-Hoy, chumoli, sho‘ring qursin, bitta donni deb shuncha zahmat chekasanmi. Kel, mening yemishim, ichishimni tomosha qil, qanday lazzatli taom bo‘lmasin, odamlar mendan ortganini yeyishadi. Agar qanotimni yozib bir osmoni falakka uchsam, istagan joyimga borib qo‘naman!-deb maqtanibdi.

Keyin u uchib qassobning do‘koniga boribdi va qanoradagi go‘shtga qo‘nibdi.

Qassob qo‘lidagi pichog‘i bilan qovog‘arini bir urgan ekan, ikkiga bo‘linib ketibdi.

Chumoli kelib arining oyog‘ini tortibdi.

Qovog‘ari:

-Meni qayoqqa sudrab ketyapsan?-deb so‘rabdi.

-Kimki biror yerga hasad ko‘zi bilan qo‘nsa, uni o‘zi istamagan boshqa yerga sudrab ketishadi,-debdi chumoli.

ARASTUNING ORZUSI

Arastu yoshi yetmishga yetganda barbat chalishni o‘rganibdi. Shogirdlari: “Oppoq sochingiz bilan barbat mashq qilgani uyalmaysizmi?”-deb so‘rashsa, shunday javob beribdi:

-Davrada o‘tirgan odamlar bu hunarni bilgan holda, men ko‘zimni mo‘ltillatib o‘tirsam o‘shanda uyat bo‘lur yedi. Har qanday ilm-u hunardan xabardor bo‘lish, uni o‘zlashtirish yo‘lida tortish mumkin bo‘lgan barcha aziyatlarni bilish odamning fazilatidir. Johil kishigina buning ma’nosiga tushunmaydi va foydasini bilmaydi.

BUQROT HAKIM VA VAZIR

Buqrot hakim ilm-u hikmatda ravnaq topib, shuhrati olamga yoyilgandan keyin uzlatni ixtiyor qilibdi va bir g‘orga kirib o‘sha yerda yashay boshlabdi. Bir kun podshoh xastalanib qolibdi va Buqrotni olib kelgani odam yuboribdi.

Buqrot uning iltimosini rad etibdi. Shundan keyin vazirning o‘zi Buqrot huzuriga borishga majbur bo‘libdi. Vazir bunday razm solib qarasa, Buqrot o‘t-o‘landan libos kiyib, har xil giyohni tamaddi qilib yuribdi.

Vazir Buqrotni podshoh qasriga taklif etibdi.

Buqrot shunday debdi:

-Men odamlarning dastidan qochib uzlatni ixtiyor qildim, minba’d podshohlarga xizmat qilmaslikka ahd etdim.

Vazir shuncha yalinsa ham Buqrot so‘zidan qaytmabdi.

Vazir undan qattiq ranjibdi va masxaraomuz:

-Podshohlarga xizmat qilish qo‘lingdan kelganida giyoh yeb o‘tirmas eding!-debdi.

Shunda Buqrot kulib:

-Giyoh yeyishni uddalay olganingda sen ham podshohlarning xizmatini qilmas eding!-debdi.

GUSHTASB VA HUNAR O‘RGANMOQLIK

«Mulki Ajam tarixi» degan kitobda shunday deyilgan: Eronning afsonaviy podshohlaridan Gushtasp Rumga borib shu yerda manzil

qurganida qo‘lida hech vaqosi yo‘q ekan. Birovdan biron nima so‘rashga izzat-nafsi yo‘l bermabdi.

Go‘daklik chog‘larida otasining saroyida bir temirchi bo‘lgan ekan. Gushtasp o‘sha temirchining pichoq, tig‘ va uzangi yasashiga havasi kelib, har gal uning oldiga borganida temirchining hunarini zavq bilan tomosha qilarkan.

Bepul qolganda temirchilarning oldiga borib, «men bu hunarni yaxshi bilaman», debdi.

Uni mardikor qilib olishibdi, kuniga qancha tushsa unga bir qismini berishibdi. Shu tariqa birovga muhtoj bo‘lmay o‘z tirikchiligini o‘tkazibdi. O‘z viloyatiga qaytib kelib taxtga o‘tirgandan keyin hamma, mol-davlatidan qat’iy nazar, o‘z farzandiga kasb-u hunar o‘rgatsin, hunari bo‘lsa odam hech qachon birovga muhtoj bo‘lmaydi, deb farmon beribdi. Al hirfa amon minal faqr, debdilar. O‘g‘ilginam, o‘rgan hamisha hunar, Hunar seni gadolikdan qutqarar.

QIMORBOZ VA HAMYOH

Rivoyat qilibdurlarki, bir kishi safarga chiqmoqchi bo‘ldi. Uning oltin to‘la hamyoni bor edi. U hamyonni Basra shahrining qozisiga olib bordi va uni to safardan qaytguncha omonat saqlab turishni iltimos qildi. Qozi dedi: «Bu hamyonni mendan ko‘ra ishonchliroq kishiga topshir». U kishi qozidan: «Sendan ishonchliroq kim bor?» deb so‘radi. «Falon mahallada bir qimorboz bor,- dedi qozi,- bu hamyonni o‘shanga omonat topshir!»

U kishi qozining ko‘rsatmasiga binoan qimorbozning oldiga borib, uni qimor o‘ynayotgan chog‘da uchratdi. Qimorbozning ahvolini ko‘rgach, orqasiga qaytib ketmoqchi bo‘ldi. Ammo qozining so‘zi esiga tushib, qozini so‘zi bema’ni bo‘lmasa kerak, deb unga salom berdi va omonat haqida gapirdi. Qimorboz dedi: «Mening saroyimning oldida kabutarxona bor. Hamyonni o‘sha kabutarxonaga olib kirib, o‘z qo‘ling bilan yerga ko‘mib qo‘y!»

U kishi qimorboz aytganday qilib, zarni kabutarxonaga ko‘mib, o‘zi safarga ravona bo‘ldi. U kishi safardan qaytgach, qimorbozning uyiga kelib, hamyonni talab qildi. Qimorboz dedi: «Hamyonni kimga bergan bo‘lsang, o‘shandan talab qil!» U kishi xijolat tortib dedi:

«Ey xoja, axir o‘zing aytganingdek kabutarxona ichiga ko‘mgan edim-ku!..»

«O‘sha yerdan talab qil», dedi qimorboz.

U kishi kabutarxonaga borib, eshikni ochib ichkari kirdi va hamyonni o‘zi ko‘mgan joydan bus-butun topdi va qimorbozga minnatdorchilik bildirdi. Shundan so‘ng qozining oldiga borib, qimorboz voqeasini gapirdi va qozidan so‘radi: «U qimorbozning omonatga xiyonat qilmasligini sen qayoqdan bilgan eding?»

«Bir vaqtlar men bir kanizak sotib olgan edim,-dedi qozi,- kanizakdan so‘radim, seni bir necha kishilar sotib olishgan, albatta. Shulardan birortasi iddang to‘lishini kutib sen bilan jinsiy aloqa qilmay yurgani bormi? - Bor,- dedi kanizak,- falon qimorboz ana shunday odamdir. Bildimki, agar u omonatga xiyonat qiluvchi, e’tiqodsiz kishi bo‘lganida edi, idda to‘lishini kutib o‘tirmagan bo‘lardi. Men esa idda muhlatini kutmay, hiylayi shar’iyni ishga soldim,

Shundan so‘ng, bildimki, qimorboz mendan ko‘ra diyonatliroq ekan», deb javob berdi qozi.

II BOB. AYOL BIR TILSIM SHAN VA OQILA QIZ

Arabistonda ilm-u hikmatda benazir Shan degan bir hakim o‘zimga o‘xshagan biror bilimdon qiz topilmaguncha uylanmayman, deb ahd qilgan ekan. Qayliq axtarib olamni bir necha bor kezib chiqsa hamki, o‘ziga munosib yor topolmabdi. Kunlardan bir kun shu niyatda sarson - sargardon bo‘lib yurgan ekan, bir odam unga hamroh bo‘libdi.

Shan hamrohiga:

— Sen meni ko‘tarasanmi yo men seni ko‘taraymi? - debdi.

— Ajab betamiz odam ekansan,- debdi hamrohi,- sallami zo‘rg‘a ko‘tarib yuribman-u seni qanaqa qilib ko‘taraman!

Shan indamabdi. Bir oz yo‘l yurganlaridan keyin barq urib yashnab turgan bir bug‘doyzorga yetibdilar. Shan ekinzorga qarab:

— Bu bug‘doyzorning donini yeb bo‘lishdimikan? -deb hamrohidan so‘rabdi.

— Toza jinni ekansan-ku! Bug‘doyi hali o‘rib olinmagan narsani qanaqa qilib yeb bo‘ladi?!

Yana Shanning nafasi ichiga tushib ketibdi. Bir necha manzil yo‘l yurgandan keyin ular tobut ko‘tarib borayotgan olomonga duch kelib qolishibdi.

-Bu odam o‘ldimikan yo haliyam tirikmikan?-deb Shan yana hamrohidan so‘rabdi.

— Astag‘firullo, umrim bino bo‘lib senga o‘xshagan ahmoqni ko‘rganim yo‘q. janoza o‘qilib, qabristonga olib borayotgan o‘likni bu tirikmi, o‘likmi deb so‘raydi-ya! Qip-qizil ahmoq ham bunaqa savolni bermaydi. Qo‘y, menga boshqa gapirma, ahmoqona gaplaringdan ko‘nglim ozib ketyapti,- debdi hamrohi.

Shunday qilib, ikkalasi “churq” etmay yo‘lda davom etishibdi. Yo‘lovchi manziliga yetgandan keyin, mayli, bu ham bir musofir ekan, qilgan qo‘polligimni ko‘nglidan chiqaray deb, Shanni uyiga olib kirib, mehmon qilibdi. O‘sha odamning husn-u malohat, aql-u farosatda hamma qizlarga dars beradigan qizi bor ekan, qizi dadasidan so‘rabdi:

-Hamrohing kim edi, yo‘lda nimalarni gaplashib kelding?

- Ey, qizim,-debdi otasi,- qip-qizil bir ahmoqqa ro‘baro‘ kelib qoldim. Kurakda turmaydigan, poyma-poy, mantiqsiz savollarni beraverib toza ta’bimni xira qildi.

-Nima dedi axir?- so‘rabdi qizi.

-Men bilan ko‘rishishi bilanoq: «Sen meni ko‘tarasanmi, yo men seni ko‘taraymi?»- deb so‘radi. O‘zim zo‘rg‘a borayotgan edim, uni qanday ko‘tara olardim, qizim. Bir ekinzorga yetganimizda: «Buning donini yeb bo‘lish- dimikan?»-deb so‘rab qolsa bo‘ladimi? Uchinchi savoli: qabristonga olib ketishayotgan tobutni ko‘rib. «Bu tirikmikan yo o‘likmikan?»-deb so‘radi.

Qizi otasiga:

— Uning ko‘nglini og‘ritib, bekor qilibsiz. Bu so‘zlar uning juda katta hakim va zo‘r bilimdon ekanligidan dalolat beradi.

— Birinchi savolning ma’nosi shu: «yo‘lnnig zahmatini kamaytirish uchun biror narsa so‘zlab berasanmi yo men aytib beraymi? Bu yerning g‘allasini yeb bo‘lishdimikan deganining ma’nosi shu: bu g‘allani ekkan odam biror sudxo‘rdan qarzdor bo‘lishi, uning qistovidan tezroq qutulish maqsadida, bug‘doyni o‘rishi bilanoq to‘g‘ri bozorga olib borib sotib, qarziga berishi mumkin. Mulohaza qilib ko‘rsang, ekin pishishidan oldin yeb ketilganday bo‘ladi. Tobutdagi murdani o‘likmi yoki tirikmi, deb so‘raganining ma’nosi shu: bu odam o‘lganidan keyin yodgorlik sifatida biror farzand yoki shogird qoldirdimikan, eslashga arzigulik biror xayrli ish qildimikan yoxud johil va fosiqligidan, o‘lishi bilanoq hammaning esidan chiqdi-ketdimi?

Sen darhol uning oldiga chiqib, uzr aytishing, ziyofat qilishing, aytgan so‘zlarining barisini sharhlab berishing kerak, aks holda u seni johil va ahmoqqa chiqarib qo‘yishi mumkin.

Shunda qizning otasi Shan huzuriga chiqib: «Yo‘lda men parishonxotirlik qilib savollaringga durustroq javob berolmagandim. Hozir hammasiga birma-bir, batafsil javob berishim mumkin», debdi.

Bunga javoban Shan:

-Bu so‘zlar sening tabiatingga mutlaqo xilof. Yaxshisi, ayt-chi, bu so‘zlarni kimdan o‘rganding va bu sirlardan kim seni voqif qildi,- debdi. Qizning otasi nima deyishini bilolmay, gangib qolibdi va rostini aytishga majbur bo‘libdi:

-Husn-u malohat va aql-u farosatda teng-u timsoli yo‘q bir qizim bor, bu so‘zlarning mag‘zini menga o‘sha chaqib berdi,- debdi.

Bu gaplarni eshitgan Shan shuncha yildan beri qidirib yurgan gavharimni endi topdim, deb suyunib ketibdi. Otasining roziligi bilan qizni nikohlab olibdi va nihoyat murod - maqsadiga yetibdi.

IDROK VA TADBIR SOHIBASI

Hind hakimlarining hikoya qilishicha, bir kishi safarga chiqib, yo‘lda to‘rt kishiga uchrab, ular bilan hamroh bo‘lib borardi. U kishining yonida qimmatbaho gavhari bo‘lib, gavharni huqqaga solib olgan edi. Gavharni podshohga sovg‘a qilib olib borardi. Shuning uchun ham tez-tez huqqaga qarab olar va doim uni etiyot qilardi. Nihoyat, to‘rt kishidan biri huqqa siridan voqif bo‘lib, payt poylab uni o‘g‘irladi. Huqqa egasi uyqudan uyg‘onib, uning yo‘qolganini bilib ko‘p iztirob chekdi. Hamrohlariga ko‘p zor-u tazarru’lar qildi, ammo foyda bermadi. Bechora xomush borardi. Nihoyat, yo‘lovchilar katta bir shaharga yetib, karvonsaroyga joylashdilar, gavhar yo‘qotgan kishi shoh saroyiga borib arz qildi:

- Men shoh xazinasiga qimmatbaho gavhar olib kelayotgan edim, yo‘lda to‘rt kishiga hamroh bo‘ldim. Ular gavharni o‘g‘irladilar. Qanchalik harakat qilmayin, gavharni qaytarib ololmadim.

Podshoh mazkur to‘rt kishini ushlab qamashga farmon berdi. Ularni zindonga tashlab so‘roq qildilar. Tabiiyki, ulardan hech qaysisi iqror bo‘lmadi. Podshoh nima qilishini bilmay hayron, iqror qildirish yo‘lini topolmay tajang edi.

Podshohning bir sohibjamol, har sohada barkamol, aql va idrok bobida benazir, har bir ilm-hikmatdan xabardor qizi bor edi. Qiz otasining iztirobga tushganini ko‘rib: «Mazkur to‘rt kishini mening oldimga yuboring, gavhar kimdaligini aniqlab beraman», dedi. Podshoh buyrug‘i bilan u to‘rt kishini qizning huzuriga keltirdilar. Ularning oyoq-qo‘llaridagi kishanlarni yechib, shohona ziyofat qildilar. Shundan so‘ng podshoh ularga, har kuni kelib, mening xizmatimda bo‘lishingiz lozim, dedi. Ular qabul qildilar. Podshoh ularni nihoyatda e’zozlar, sharob quyib berar hamda ular bilan jahon ajoyibotlaridan suhbatlashardi. Kunlar o‘tishi bilan ular ham asta-sekin xavf-xatarni unuta boshladilar.

Bir kun qiz ularga shunday dedi:

- Shu kunlarda bir nodir voqea va mushkul hodisa ro‘y berdi. Biz bu borada ko‘p kishilardan so‘rab ko‘rdik. Endi sizlardan ham so‘rab ko‘rmoqchimiz. Zero, sizlar jahongashta, har bir narsadan xabardor, oqil va hushyor kishilardirsiz. O‘ylaymanki, aql va idrok bilan javob berursizlar.

Ular qo‘l qovushtirib rozilik bildirdilar. Qiz hikoya boshladi:

- Bir podshohning qizi bor edi. Podshoh qizini nihoyatda yaxshi koʻrardi. Kunlardan bir kun shoh qizi oʻz kanizlari bilan bogʻ sayriga chiqdi. Sayr qilib yurarkan, ittifoqo, qizning koʻzi daraxt shoxiga chirmashib ochilib turgan gulga tushdi. Gul qizning koʻziga nihoyatda jozibali koʻrindi. Qizdan nariroqda bogʻbonning oʻgʻli turardi. Bogʻbonning oʻgʻli koʻrdiki, shoh qiziga gul maqbul boʻldi. U zudlik bilan daraxt shoxidagi gulni uzib qizga tutdi. Qiz oldi.

Oʻsha zamon malikalariga odat shu ediki, har kim ularga gul keltirsa, unga xohlagan narsasini in'om qilardilar. Qiz gulni olib xushnud boʻldi va bogʻbon oʻgʻlidan soʻradi: «Nima hojating bor?» Bogʻbonning oʻgʻli yoshlik qilib va kamoli nodonligidan: «Agar seni erga bersalar, sen u bilan birga boʻlmasdan avval mening oldimga kelsang, toki visoling bogʻidan gul tersam va shundan soʻng eringning oldiga borsang», dedi. Shoh qizi rozi boʻldi va kelishga ahd-paymon qilib xayrlashdi. Nihoyat, bir necha yil oʻtgach, vaqt-soati kelib, qizni erga berdilar. Nikoh kechasi qiz erini koʻrishi bilanoq, undan ijozat soʻrab: «Men bogʻbonning oʻgʻli bilan ahd qilgan edim. Hozir uning oldiga borishim shart. Zero, ahdning uddasidan chiqmoqlik eng yaxshi axloqdandir», dedi.

Er qizga ijozat berdi. Qiz yugurib koʻchaga chiqib, bogʻ tomon ketayotgan edi, nogoh oldidan bir sher chiqdi. Sher hamlaga hozirlandi. Qiz sherga qarab: «Ey sher, bilaman, odamzod qismatdan qochib qutulolmaydi. Biroq yoshligimda bogʻbon oʻgʻli bilan ahd-paymon qilgan edim, hozir uning oldiga ketayotgan edim. «Menga biroz vaqt bersang, men uning oldiga borib, ahdimning uddasidan chiqib qaytsam. Ana undan soʻng nima xohlasang shuni qil»,- dedi. Sher bu mojaroni eshitib, qizga yoʻl berdi.Qiz ketdi.

Qiz ozgina yoʻl yurgan ham ediki, uning oldidan bir oʻgʻri chiqdi. Oʻgʻri qizning husniga va qimmatbaho taqinchoqlariga suqlanib boqarkan: «Baxtim yor boʻldi, butun umrimga yetgulik boylikni qoʻlga kiritdim»; dedi.

Oʻgʻri fursatdan foydalanib, qizning qulogʻidagi baldogʻi, boʻynidagi marvarid, bilagidagi bilaguzuk va barmoqlaridagi uzuklarini olishga harakat qildi. Qiz oʻgʻriga:

«Agar juvonmardlik qilsang meni qoʻyib yuborgil, toki boqqa borib, ahdimning uddasidan chiqib, soʻng qaytib kelib, sening xizmatingda boʻlay»,- dedi. Oʻgʻri javohirlardan umid uzib, qizga ijozat berdi. Qiz bogʻ eshigiga keldi va eshikni taqillatdi. Bogʻbon

eshikni ochib, shoh qizini ko‘rgach, o‘zini qizning oyog‘iga tashladi. Qiz unga: «O‘g‘lingni chaqir!» dedi. Bog‘bon o‘g‘lini olib keldi. Qiz bog‘bonning o‘g‘liga qarab:

«Esingdami, sen bilan ahd qilgan edim. Ahd-paymon yo‘lida o‘z tanimni fido qilib, o‘sha ahdimning uddasidan chiqmoqlik uchun bu kecha sening oldingga keldim», dedi. Bog‘bon o‘g‘li yer o‘pib: «U paytda men kamoli yoshlikdan nodonlik qilgan edim. Bu yoshlik odobsizligidandir. Men o‘z nafsimdan kechdim, sen o‘z ahding uddasidan chiqding. Endi salomat uyingga bor!» dedi. Qiz bog‘dan qaytib, o‘g‘rining oldiga keldi va o‘g‘riga qarab: « Bog‘bonning o‘g‘li mardlik qilib, o‘z nafsidan kechdi. Mana endi mening barcha zebu ziynatim va ixtiyorim sening qo‘lingda, bu yog‘ini o‘zing bilasan», dedi. O‘g‘ri: «Sen ahdga vafo qilmoq borasida aql bovar qilmaslik darajasida jonbozlik ko‘rsatding. Bunday kishiga xiyonat qilish qo‘limdan kelmaydi», deb qizni qo‘yib yubordi.

Qiz sher yoniga bordi. Sher tilga kirdi: «Bilginki, men sher emasman, balki ruhoniylardan biriman. Seni sinash maqsadida yo‘l ustiga chiqib o‘tirgan edim. Sen vafodorlikda yaxshi ish ko‘rsatding, seni o‘ldirishga hojat yo‘q. Endi salomat uyingga ket!» Qiz salomat uyiga yetib keldi va yuz bergan voqealarni eriga so‘zlab berdi. Shoh qizi hikoyani tugatib, mazkur to‘rt kishiga qarab: «qani, aytinglar-chi, sizlar qizning eri, sher, o‘g‘ri va bog‘bonning o‘g‘li haqidagi hikoyani eshitdinglar. Bularning har biri o‘z navbatida qizga juvonmardlik qildi. Ammo bularning orasida eng juvonmardrog‘i qaysi biri edi?»

Ulardan biri javob berdi: «Bog‘bonning o‘g‘li juvonmardroqdir. Zeroki, uning boshiga baxt qushi qo‘ngan edi, ammo u xohlamadi. O‘z ixtiyori bilan o‘z nafsidan kechdi».

Ikkinchisi so‘z oldi: «Sher juvonmardroqdir. Zero, u tabiatan yirtqich bo‘lsa-da, nihoyatda ochligiga qaramay shunday laziz luqmadan voz kechdi».

Uchinchisi tilga kirdi: «Qizning eri juvonmardroqdir, zero, u o‘z xotiniga voqeani bila turib, bog‘bon o‘g‘li bilan uchrashishga ijozat berdi va zo‘r irodaga molik ekanligini ko‘rsatdi».

To‘rtinchi kishi o‘rnidan turib: «O‘g‘ri hammasidan ko‘ra juvonmardroqdir. Zero, u barcha zar va javohirlardan ixtiyori bilan voz kechdi», dedi. Shohning qizi mazkur to‘rt kishidan javobni eshitgach, o‘z otasi huzurida yer o‘pib, dedi:

- Ey shoh! Bu to‘rt kishi tabiatan bir-biriga zid kishilardir. Bog‘bon o‘g‘lini ta’riflagan kishi tabiatan shahvatparast, maishatparast kishidir, u doim shaytoniy yo‘lga kirib, maishat haqida o‘ylaydi. Uni dargohingdan uzoq tut. Sherni maqtagan kishi yeb to‘ymas kishidir va qorin bandasidir. Unga yeyish, ichish, uxlash bo‘lsa bas. Non berib ishga buyursang qilaveradi. Qizning erini maqtagan kishi behimmat kishidir. Kimki hayrat va himmatdan bahra olmasa, u hayvondir, hamda insoniyat sharafidan mahrumdir. Ammo o‘g‘rini maqtagan kishi gavhar o‘g‘risidir. Gavhar ushbu kishidadir. Zero, har kim o‘z tabiatiga mos gapni gapiradi,- dedi.

Shundan so‘ng u kishini qaytadan so‘roq qildilar, darhaqiqat, gavhar mazkur kishidan topildi.

DONO XOTINNING TADBIRI

Nihoyatda latif va go‘zal bir yigit bor edi. Uning g‘oyatda zukko xotini bor edi. Xotin doimo eriga: ≪Mabodo, shayton vasvasa qilib, eplay olsang birovga ishqibozlik qilgin. Agar tutilib qolsang, zinhor tezlik bilan menga xabar qil! Toki biror chora-tadbir o‘ylab topay va seni bu andishadan chiqaray≫, derdi.

Kunlarning birida yigit podshohning xos kanizaklaridan biri bilan sultonning bog‘ida suhbat qurardi. Sharob va mevalar muhayyo bo‘lib, visol onlari yaqin edi. Podshohning xos hojiblaridan birining nazari ushbu kanizakka tushib, uning hirsini qo‘zg‘atgan edi. Ammo kanizak uni yoqtirmas edi. Hojib esa doim uning izidan yurib ta’qib qilardi.

Nihoyat, hojibga podshohning kanizagi begona yigit bilan shoh bog‘ida suhbat qurdi, deb xabar yetdi. Hojib o‘zi bilan birga bir necha xizmatkorlarni olib keldi va yigit bilan kanizakni ushlab podshohning zindoniga olib ketdi va zindonbon qo‘liga topshirdi. Tong otgach, podshoh huzuriga arz qilib bormoq va uning farmoniga muvofiq ish qilmoqni o‘z oldiga maqsad qilib, hojib uyiga qaytib ketdi.

Yigit o‘zini balo domida ko‘rdi. Bog‘bonning shogirdini o‘z uyiga jo‘natib, o‘z ahvolidan xotiniga xabar yetkazdi. Xotin darrov bir tovoq holva pishirib, ustiga baliq va bir necha non qo‘ydi. Chodirasini yopinib, zindon oldiga kelib, zindonbonga dedi: ≪Mening boshimga bir ish tushdi. Zindondagilarga holva va taom berishni niyat qilgan edim. Agar sen bu xayrli niyatga xayrixoh bo‘lsang va eshikni ochsang, bu taomni ularning oldiga qo‘ysam. Senga xizmat haqini

bersam, shoyad xudoyi taolo lutf qilsa va men o‘z nazrimning uddasidan chiqsam≫.

Zindonbon zindon eshigini ochdi. Xotin zindonga kirdi. U taomni zindondagilarning oldiga qo‘ydi. O‘z chodirasini mazkur kanizakka berib dedi: ≪Chodirani yopinib tashkariga chiqib ketaver. Agar zindonbon sendan taomni mahbuslarga berdingmi?-deb so‘rasa,-berdim,-deb
javob ber!≫

Shundan so‘ng kanizak chodirani boshiga yopinib, bo‘sh tovoqni boshiga qo‘yib, eshik tomon yurdi va salomat chiqib ketdi.

Ertasi kuni hojib podshohning huzurida arz qildi:≪Kecha tunda falon kanizakni bog‘da nomahram begona yigit bilan qo‘lga tushirdim va zindonga soldim≫.

Podshohning rashk o‘ti alanga olib, taxtni maydon o‘rtasiga qo‘yib, jazo qurollarini muhayyo qilishni buyurdi. Shundan so‘ng, yigit bilan xotinni qo‘riqlab keltirishlarini buyurdi. Nihoyat, yigit podshoh oldiga kelgan edi, podshoh unga: ≪Bizning haramimizga ibosizlarcha qadam qo‘yib, kirishga qanday haqqing bor≫, deb baqirdi. ≪Ey shohim, bu ishda ayb xotinimdadir. U doim menga, podshohning bog‘iga borib tomosha qilaylik, derdi. Bog‘bon bizga do‘st edi. Shunday bo‘lsa ham men unga, yaxshi emas, bizning podshoh bog‘iga borishimiz odobdan emas, derdim. Xotinim mening so‘zimni e’tiborga olmadi. Mana endi podshohning qahr-u g‘azabiga giriftor bo‘lib turibmiz≫, dedi yigit.

Podshoh yigit yonidagi xotiniga yaxshiroq boqib ko‘rdiki, kanizak emas, balki yigitning xotini ekan. Podshoh juda qattiq ranjidi va xaloyiq o‘rtasida hojibga ming qamchin urishni buyurdi. Yigit bilan xotinidan uzr so‘radi va: ≪Mening bog‘im sizlarnikidir, qachon xohlasangiz o‘sha paytda kelib tomosha qilinglar≫, deb farmon berdi.

Yigitning balodan qutulib qolishiga sababchi xotinining aql va idroki edi. Agar xotin g‘ayrat qilmaganda edi, yigit g‘azabga uchrab halok bo‘lardi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, oqila xotinning fikridan ko‘ra ezguliroq iste’dod yo‘q.

XOJA VA ASHULACHI QIZ

Bu hikoya qozi Muhsun Tanuxiy tomonidan ≪Baxtsizlikdan so‘ng shodlik≫ nomli kitobdan olingan ulug‘ kishilarning sarguzashtlari haqidagi hikoyadir. Shoir Infiniy hikoya qiladi:

-Mening bir xojazoda qo‘shnimga otasidan juda ko‘p mol-mulk meros qolgan edi. Binobarin, sarf-xarajat borasida hech o‘ylamay sovurar va isrofgarchilik qilardi. Chunki bu mollarning qanday yig‘ilganidan bexabar edi. Shuning uchun uning qadriga yetmasdi.

Nihoyat barcha mol-mulkini yelga sovurdi. Oxirida uy, ro‘zg‘or asboblarini ham sotdi. So‘nggi dinor va dirhamlargacha ichib, qimorga boy berdi. Natijada, ahvoli shu darajaga yetdiki, uyining yog‘ochlari va saroyning eshiklarini bitta-bitta buzib, bozorga chiqarib sotar va shuning orqasida tirikchilik o‘tkazardi. Uning ayanchli ahvolini ko‘rgan do‘stlari undan yuz o‘girdilar va uning suhbatidan qochdilar.

Bir kun uning oldiga kirdim. U uyda uvadalarning orasiga kirib uxlab yotardi. Uni bu ahvolda ko‘rganimdan so‘ng dedim:

- Shu holga tushib qoldingmi?

- Ha…

- Biror hojating bormi?

- Bor. Hojatim shuki, menga bitta chopon qarz berib tursang, toki bir marta o‘sha ashulachi qizning uyiga borsam, uning husn-u jamolini ko‘rib, ko‘nglimni ravshan qilsam. Zero, to shu kungacha uning maftuni bo‘lib, barcha mol - mulkimni uning yo‘liga sochgan edim.

Men unga chopon keltirib kiygizdim va hammomga olib bordim. Hammomdan chiqqach, ashulachi qizning hovlisiga bordik. Qiz yigitning ust-boshiga boqib, yana davlatmand bo‘lganga o‘xshaydi, deb gumon qilib eshik ochdi va undan hol-ahvol so‘radi. Yigit oh-nolalar qilib, g‘am-anduh o‘tini sochdi.

- Ushbu omonat kiyimni kiyib sening huzuringga keldim, toki seni bir soatgina ko‘rib, husningga to‘ysam...

U qiz bildiki, bu bechora kambag‘al va benavodir. Shundan so‘ng u yigitni hovlidan haydab chiqardi va: ≪Devor yonida tur. Men tomga chiqib, senga bir-ikki og‘iz so‘z aytaman≫, deb uyga kirib, kosada qolgan sarqit oshni tomga olib chiqib, yigitning ustidan to‘kib yubordi. Yigitning ust-boshi rasvo bo‘ldi. Bu ahvolni ko‘rgan yigit menga qarab:

- Sen guvoh bo‘lgin, Xudoni o‘rtaga qo‘yib aytamanki, bundan buyon bu yerga hargiz qaytib kelmayman. Hech qaysi ashulachi qizga ko‘ngil qo‘ymayman. Astoydil tavba qildim, -dedi.

- Endi tavbaning foydasi yo‘q. Aqlsizlik tufayli dindor bo‘lmoqlikning e’tibori bo‘lmaydi, - deb yo‘l-yo‘lakay unga ta’na qilardim. Nihoyat, uyga qaytgach, men choponni qaytarib olib ketdim.

Shu voqeadan uch yil o‘tgach, kunlardan bir kun bozorda yurib edim, nogoh o‘sha yigitga ko‘zim tushdi. U otda, otning jilovini esa quli ushlab borardi. Uni bu holatda ko‘rgach, huzuriga borishga shoshildim. Uning oldiga borib, salom berdim, u alik oldi va oldidagi xizmatkoriga meni uyga olib borishni buyurdi. Men uning hovlisiga borgach, ajoyib imoratlarni ko‘rdim. Uyning ichiga chiroyli qandillar osilgan, latif gilamlar to‘shalgan edi. Biz bir uyga kirdik, bu uy ishratxona bo‘lib, juda did bilan bezatilgan va maishat asbobi muhayyo edi. Ushbu uyda o‘tirganimizdan so‘ng, uning xizmatida turgan juda ko‘p qul va mulozimlarni ko‘rdim. Bir ozdan so‘ng chiqib xizmatkorlarga ishorat qildi, toki meva keltirgaylar. Undan so‘ng dasturxon yozib laziz taomlar keltirdilar. Taomlarni tanovul qilib bo‘lgach, bazm taraddudiga tushdilar va uyning havosi anbar hidi bilan muattar bo‘ldi. Qadahlar to‘ldirilib, aylantirildi. Aqllar o‘tmaslashib, boshlar qizidi. Chunonchi sharob qonga o‘z ta’sirini o‘tkazib, o‘rtadan sharm-hayo ko‘tarilgach, dedim:

- Shuncha yillar azob-uqubatlardan so‘ng bunchalik mol-davlat va noz-ne’matlarga qaysi yo‘l bilan erishding? Agar malol kelmasa tafsilotini bayon qilsang...

- Yaratganning o‘z bandalariga lutf-ehson nazari ham bordir... Alhol sen sharob ichib, tomoshaga mashg‘ul bo‘lmog‘ing lozim.

Shundan so‘ng, uch nafar ashulachi qizlar kirib keldilar. Ularning har biri husn va malohatda bir-birlaridan ziyoda edi. Orombaxsh musiqalari bilan butun borliqni sehrladilar. Ularning ohu yanglig‘ ko‘zlariyu bodom qovoqlari musiqa sadolari bilan hamohang nola qilayotgandek edi. Binobarin, aql qushi musiqa sadolari bilan birga osmonda parvoz qilardi.

- O‘sha kuni u bevafo ashulachi qiz bizga nimalar qilgani esingdami? Xudo haqqi, bu cho‘ri qizlarning har biri husn-malohatda undan ming marta afzaldurlar, -dedim.

- Nimaiki bo‘lib o‘tgan bo‘lsa, biz uchun e’tiborga arzigulik saboq bo‘ldi. Bundan biz tajriba yo‘sinida foydalandik. Bizning hozirgi tirikchiligimiz isrof hamda yetishmovchilik orasida o‘tyapti. Sen ko‘rib turgan ot, gilamlar va choponlar ko‘p bo‘lmasa-da, rohat va farog‘atda yashashim uchun kifoya qiladi.

-Sen o‘sha kuni meni o‘sha ahvolda tashlab chiqib ketganingdan so‘ng, yana bir kecha-kunduz shu alfozda yotdim. Nogoh Misrdan bir kishi kelib shunday xabar qildi: ≪Misrda sening bir xizmatkoring bor edi. U otangdan ko‘p mol olgan ekan. Shuningdek, amakivachchang ham bor ekan. U ham o‘ziga to‘q, davlatmand kishi ekan. Ammo har ikkalasi bir kunda vafot qilib, ulardan senga qirq ming dinor meros nasib bo‘lmish≫.

Bu so‘zni eshitib, o‘sha kishidan bir oz pul qarz olib, Misrga bordim va barcha mol-mulkni o‘z tasarrufimga kiritdim. Shundan so‘ng Xudoni o‘rtaga qo‘yib, bundan buyon hargiz isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymayman deb, ahd qildim. Noahil va bevafo do‘stlar badkirdor bo‘lurlar; chunonchi davlating borida senga hamdard va hamsuhbat bo‘lib, baxt qushi boshingdan uchib, mol-mulk qo‘lingdan ketgach, sendan yuz o‘girarlar. Hatto, seni shumqadamlikda ayblab, tarki suhbat qilurlar.

Mening ahvolimni qanday ekanini eshitding. So‘ng u:

-Hoy qullar, bu kishini saroydan chiqarib yuboringlar! -deb buyruq berdi. Shundan so‘ng men u yerdan chiqib ketdim. Meni hargiz o‘z huzuriga qaytadan taklif qilmadi va hech kim bilan hamsuhbat bo‘lmadi.

MARHUMA ISMLI AYOLNING SARGUZASHTI

Bir taqvodor kishining iffatli va hayoli xotini bor edi. Xotinning nomi Marhuma edi. Ittifoqo, u kishi hajga jo‘naydigan bo‘lib, yo‘lga hozirlik ko‘rarkan, o‘z ukasiga: ≪Uyimdan xabardor bo‘l!≫ deb vasiyat qilgach, hajga jo‘nab ketdi. Bir necha muddat o‘tgach, xotinning uyiga erining ukasi keldi va eshik tirqishidan ichkariga qarab akasining xotinini ko‘rgach, ko‘ngli shaytoniy yo‘lga moyil bo‘lib, aka-ukalar o‘rtasidagi sharm-hayo ham yodidan ko‘tarildi. Nihoyat, xotinga o‘z ishqini izhor qildi. Xotin nomusli va pokdoman edi. Bu so‘zni eshitgach: ≪Ey behayo, uyalmaysanmi, ey benomus, or qilmaysanmi? Bu so‘zlaringdan qayt, hojatingga mendan ravo istama va muroding mendan hosil bo‘lmaydi. Hargiz zino qilib nomusimni barbod qilmagayman va hayotimning sof chashmasini bu jinoyatning anduhi bilan iflos qilmagayman≫, dedi. ≪Men bilan birga bo‘l va murodimni hosil qil! Agar rozi bo‘lmasang joningga qasd qilurman≫, dedi yigit. ≪Jondan kechsam kechaman, ammo bunday gunoh yo‘lga qadam qo‘ymayman≫, deb javob berdi xotin.

Yigit to‘rt nafar yolg‘on guvohlarni topib, xotinni qozi mahkamasiga olib bordi. Guvohlar xotinni zino qilishda ayblab, yolg‘ondan guvohlik berdilar. Qozi o‘limga hukm qildi. Gunohsiz xotinni biyobonga olib borib, toshbo‘ron qildilar. Ammo xudoyi taolo uning jonini omon saqladi. Xotin hushidan ketib yiqildi. Odamlar ≪o‘ldi≫ deb gumon qilib, xotinni tashlab, qaytib ketdilar.

Xotin hushiga kelib, oh chekib nola qilardi. Shu payt sahrodan o‘tib ketayotgan arab toshlar orasidan kelayotgan yurakni ezuvchi nolani eshitdi. Bu nolaga tosh ham erirdi. Arab xotinning ahvoliga achindi. Uni toshlar orasidan chetga olib chiqib, o‘zi bilan birga olib ketdi. Marhuma tuzalgach, uning qaddi-kamoli asliga qaytdi, Buni ko‘rgan arab Marhumani o‘z nikohiga kiritishga harakat qildi. Marhuma arabga javoban, mening erim bor, deb o‘z boshidan kechirgan voqealarni hikoya qildi.

Arab xudojo‘y va rahmdil kishi edi. Marhumani singlim deb atab, uni o‘z himoyasiga oldi. Arabning bir xizmatkori bor edi. Nihoyatda badkirdor va hayosiz edi. U Marhumaga oshiq bo‘ldi va o‘z ahvolini unga izhor qilib, hojatini ravo qilishini Marhumadan talab qilarkan, agar rozi bo‘lmasang, sendan o‘ch olurman, dedi.

Marhuma rad javobini berdi. Arabning hali yoshiga yetmagan o‘g‘li bor edi. Arab o‘g‘lini nihoyat darajada ardoqlar va sevardi. Xizmatkor mazkur bolani boshini kesib, uning qonidan Marhumaning choponiga surtdi va pichoqni uning yostig‘i ostiga qo‘ydi. Ertasi kuni bolani o‘lik holda topib, Marhumaning choponini qonli holda ko‘rishgach, uning yostig‘i ostidan pichoqni topib oldilar. Farzand dog‘ida kuygan arab va soxta qayg‘urgan xizmatkor Marhumani haddan tashqari kaltakladilar, u halokatga yaqinlashdi. Nihoyat Marhuma xudoga iltijo qildi: ≪Ey xudo, ko‘rib turibsan, o‘zing qo‘lla! O‘zing bilib turibsan, dodimga yet!!!≫

≪Ey Marhuma,- dedi arab,- mening farzandimni nima uchun o‘ldirding?≫

≪Men o‘ldirganim yo‘q≫, deb, bir necha qattiq qasamlarni ichib xizmatkor voqeasini bayon qildi Marhuma.

Arab Marhumaning rost gapirayogganiga ishondi. Marhumaga to‘rt yuz dirham oltin berib, o‘g‘limning onasi o‘z bolasining firoqida sening joningga qasd qilmog‘i muqarrardir. Binobarin, mening uyimdan chiqib ket, dedi,

Marhuma to‘rt yuz dirhamni olib, uydan chiqib boshi oqqan tomonga qarab ketardi. Shahar chetiga yetganda yo‘l ustida qurilgan dorga ko‘zi tushdi. Dor atrofiga jamoat yig‘ilgan edi. Marhuma ulardan sababini so‘radi.

≪Shahar amirining bir odati bor; agar kimda-kim xiroj to‘lamasa, uni dorga osdiradi. Dor tagida turgan yigit xiroj to‘lamabdi. Shuning uchun uni dorga osmoqchi≫, deb javob berdilar. ≪So‘rab ko‘ringlar-chi, uning qarzi qancha ekan≫, dedi Marhuma. ≪To‘rt yuz dirham≫, dedilar.

≪Mening to‘rt yuz dirhamim bor, musulmonchilik yo‘lida savobiylik uchun bu yigitning qarzini berib, uni o‘limdan xalos qilay. Mening rizqimni xudoning o‘zi yetkazar≫, deb oltinni berib, yigitni dordan qutqarib oldi.

Yigit dordan qutulgach, tashakkur aytish uchun Marhumaning oldiga kelib, uning husn - jamolini ko‘rib, qalbi ishq doriga osildi. Marhumadan visol talab qildi. Marhuma rad javobini berdi. Ammo yigit uning orqasidan ergashib borardi. Nihoyat, daryo labiga yetdilar. Marhuma kemaga tushmoqchi bo‘ldi. Biroq, nomard yigit: ≪Bu mening kanizagim edi. Mendan qochib bu yerga kelibdi≫, dedi. Kemaning egasi savdogar edi. U yigitdan Marhumani o‘n ming dirhamga sotib oldi va unga yaqinlashmoqchi bo‘ldi. Marhuma faryod chekib: ≪Men ozod kishidurman, erim bordir≫, dedi. Marhumaning faryodini eshitgan kemadagi kishilar uni savdogar qo‘lidan qutqarib oldilar. Marhumaning husn-jamolini ko‘rgan kemadagi barcha kishilar unga oshifta bo‘lib, uning bilan birga bo‘lishga qasd qildilar. Marhuma xudoga nola qilib yolbordi. Ollo-taolo o‘z inoyati bilan kemaga o‘t yuborib, kema ahlining barchasini halok qildi. Marhumaning yakka o‘zi kemada qoldi. Qattiq shamol turib, kemani daryo qirg‘ogiga olib bordi. Shahar xalqi kemani tomosha qilmoq uchun qirg‘oqqa kelgan edilar.

Marhuma yana biror baloga giriftor bo‘lmaslik uchun, erkakcha kiyim kiyib, kemadan tushib shahar amirining huzuriga bordi. Unga: ≪Senga bir hojatim bor. Chunonchi, ushbu kema to‘la mollarni senga berurman. Evaziga sen ushbu shahar chekkasida mening uchun bir hujra bino qildirsang. Men mazkur hujrada xudoning ibodatiga mashg‘ul bo‘lsam≫, dedi.

Podshohning buyrug‘i bilan shahar chekkasida Marhuma uchun hujra qurdilar. U o‘sha yerda toat-ibodatga mashg‘ul bo‘ldi va duosi mustajob bo‘ladigan bo‘ldi. Binobarin, biror dardga mubtalo bo‘lgan hojatmandlarni uning oldiga olib kelardilar. Marhuma esa duo qilardi va ular sihat topib ketardilar.

Marhumaning eri hajdan qaytib kelgach, ukasi uning xotinining kirdikori haqida hikoya qilib, xotining zino qilgan edi, uni toshbo‘ron qildilar, dedi.

Shundan so‘ng bir necha kun o‘tgach, ukasining ko‘zi ko‘r bo‘lib qoldi. Akasi daryo bo‘yida duosi mustajob bo‘ladigan zohid bor emish deb eshitdi va ukasini ko‘tarib zohid tomonga olib borardi. Ularning yo‘li arabning uyi oldidan o‘tardi. Arabning xizmatkori ham ko‘r bo‘lgan edi. Men ham sizlar bilan birga borurman, dedi-da, xizmatkorini ko‘tarib olib yo‘lga ravona bo‘ldi. Ularning yo‘li dor tagidan ozod qilingan yigitning qishlog‘iga tushdi. Yigitning qari onasi bor edi. Yigit ham ko‘r bo‘lgan edi. Onasi o‘g‘lini olib, ularga hamroh bo‘ldi.

Ular daryo bo‘yiga yetganlarida Marhuma o‘z hujrasidan ularni ko‘rib tanidi va ularga: ≪Ertaga bomdodda shahar amirini birga olib kelinglar, toki sizlarni uning huzurida duo qilay≫, dedi. Ertasi kuni hamma yig‘ilgach, Marhuma dedi: ≪Agar bu balodan xalos bo‘lishni istasanglar, har kim nima gunoh qilgan bo‘lsa rostini aytib, gunohiga iqror bo‘lsin≫. Erining ukasi avvaliga iqror bo‘lmay, so‘ngra barcha qilmishlariga iqror bo‘ldi. Yigit bilan xizmatkor ham o‘z jinoyatlarini bo‘yniga oldilar. Bu voqeani barcha shahar ahli eshitdi. Marhuma hojatmandlarni duo qildi, ular sihat topdilar.

Shundan so‘ng Marhuma: ≪Bilinglarki, bu mening erimdir va men o‘sha o‘ldirilgan Marhumadurman. Yaratgan ollo-taolo mening to‘g‘riligim va pokligim tufayli hamma balolardan omon saqladi≫, dedi.

RASHKCHI ER

Nihoyatda ziqna va rashkchi bir kishi bor edi. U uylanmoq fikriga tushdi. Shundan so‘ng hovli va uyning atroflarini baland devorlar bilan o‘radi. Toki biror nomahramning ko‘zi bu hovliga tushmasin, shuningdek, xotini hovlidan chiqolmasin va atrofga mo‘ralamasin deb barcha teshik-tuynuklarni berkitdi.

To‘y bo‘lib, xotin kelgach, erining fe’l-atvoriga chidab, bir necha kun yashadi. Nihoyat xotin zerika boshladi. Eri esa uyga qo‘ni-qo‘shnilarning ham kirishiga qarshilik ko‘rsatardi. Kunlardan bir kun xotin eriga dedi:

- Nima uchun mendan bunchalik xavfsiraysan va qamoqdagi mahbusdek muomala qilasan? Agar xotin kishi badkirdor va badbaxt bo‘lmasa, u hech qachon o‘z eridan boshqaga rag‘bat qilmaydi. Sen menga ishon va meni o‘z holimga qo‘y. Mening iffatim salomat, diyonatim esa har qanday fahshdan omon saqlaydi...

Er xotinining so‘zlariga parvo qilmadi. Aksincha, eshik-teshiklarni yanada mahkamroq berkitib qo‘ydi. Xotinidan shub-halanish yanada avj oldi. Xotin esa eri oldida o‘z so‘zining to‘g‘riligi borasida dalil keltirish chorasini qidira boshladi.

Xotinning qo‘shnilaridan biri qari kampir bo‘lib, goho-goho kelib, eshik tirqishidan hol-ahvol so‘rashib ketar, har kelganda yosh xotinning ahvoliga achinar va hamdardlik bildirardi.

Kunlardan bir kun kampir kelganda, xotin uning qo‘liga bir xat tutqazdi va qo‘shni yigitga berishni iltimos qildi. Xatda shunday deyilgan edi: ≪Ey yigit, men sening ishqingda ko‘pdan buyon yonaman. Ishq savdosi meni devona qildi≫.

Kampir xatni qo‘shni yigitga yetkazdi. Yigit xotinning husn-jamoli va vasfini eshitib yurgan edi. Binobarin, yigit nihoyatda sevindi va xotinning eshigi oldiga kelib:

- Sening oydek yuzingga, sanobardek qaddu-qomatingga jonim fido bo‘lsin. Men sening xizmatingga tayyorman. Ammo ering ko‘p g‘ayur va rashkchi, behimmat odamdur. Alhol, bizning bir-birimizga yetishmog‘imiz nihoyatda mushkuldur,- dedi.

- Agar maqsading menga yetishmoq bo‘lsa, u holda chorasi topiladi.

- Qanday qilib?

- Sen bugundan boshlab safarga jo‘nashing haqida ovoza tarqatasan. Bir katta sandiqni tayyorlab qo‘yasan. Ertaga kechqurun erimning oldiga kelib, ≪men safarga ketyapman. Mol-mulkimni bir katta sandiqqa solib qulflab qo‘ydim. Ammo sandiqni kimga topshirib ketsam ekan, deb ko‘p o‘yladim. Zamon notinch, har kimga ham ishonib bo‘lmaydi. Binobarin ushbu sandiqni to men safardan qaytgunimcha uyingizda saqlasangiz. Safardan salomat qaytsam,

albatta qaytarib olaman≫, deb iltimos qil. Erim bunga albatta rozi bo‘ladi. Sen erim bilan xayrlashib, ≪sandiqni ertaga xizmatkorim olib kelib beradi≫, deysan. Ertasiga o‘zing sandiqqa tushib olasan-da, xizmatkoringga ko‘tartirib, bu yerga kelasan.Ana shundan so‘ng, erim uyda bo‘lmagan vaqtlarda sandiqdan chiqib mening visolimdan bahramand bo‘lasan.

Yigitga bu tadbir ma’qul tushdi. Y igit zavq-shavq-bug^rati bilan ishning oqibatini o‘ylab ham utir-meni" ishga kirishdi. O‘sha kundan boshlab, ≪falonchi pib, I ^narmish≫, degan ovoza tarqaldi. Yigit kechqurun kelib xotinning eri bilan xayrlashdi va sandiqni keltirib qo‘yish uchun undan ijozat oldi.

Shundan so‘ng yigit sandiq ichiga kirib o‘tirdi. Xizmatkor sandiqni qulflab, hammolga ko‘tartirib xotinning uyiga olib keldi. Va’daga muvofiq, xotinning eri sandiqni joylashtirish uchun joy ko‘rsatdi. Xiz-matkor bilan hammol sandiqni ko‘rsatilgan joyga qo‘ydilar. Hammol ketdi. Xizmatkor ham ketish taraddudida edi. Ittifoqo, ichkaridan xotin chiqib keldi va sandiqni ko‘rib, hayron bo‘ldi va eriga savol nazari bilan qaradi. Er xotiniga voqeani tushuntirdi.

- Sandiqning ichida nima bor ekan?- deb so‘radi xotin."

- Bilmayman.

- Bu ishing aqldan uzoqdir. Birovlarning sandig‘ini omonat saklash uchun uyingga olib kirsang, ammo ichida nima borligini bilmasang. Mabodo, ertaga sandiq egasi qaytib kelib, ≪sandiq ichida, zaru javohirlar bor edi, topib berasan≫, desa nima javob qilasan?.. Qoziga chaqirsa, qasam bersa, har ikki o‘rtada xusumat vujudga kelib, badnomlikni orttirasan. Yaxshisi, xizmatkoriga buyurgil, toki sandiqni ochsin va nima borligini bizga ko‘rsatsin.

Xotinining so‘zi unga ma’qul ko‘rindi va yigitning xizmatkorini chaqirib, sandiqni ochishga buyurdi. Xizmatkor o‘z xojasini sandiq ichidaligini bilardi, shuning uchun sandiqni ochishga rag‘bati yo‘q edi. Biroq ochmaslikka ham iloji yo‘q edi. Nihoyat, sandiq qulfini ochib qopqog‘ini ko‘targan edi, sandiq ichidan yigit chiqib keldi. Yigit xijolatdan tili kalimaga kelmasdi. Shuningdek, xotinning eri ham taajjubda hayron edi, Xotin so‘zga kirdi: ≪Ey xoja, yigitda hech gunoh yuq. Bu ishlarning hammasini men qildim. Sen meni mux^’ qilishda haddan tashqari mubolag‘a qilding. Jtin kishining ko‘nglida

soflik bo‘lmasa, mi%inap va qilsang ham uni tutib turib bo‘lmaydi, deb necha marta aytdim. Sen gapimga ishonmading. Mana bugun o‘z ixtiyoring bilan uyga olib kelib qo‘yding. Agar men sandiqni ochib ko‘rishni talab qilmaganimda... Ammo mening bundan ko‘zlagan maqsadim o‘z so‘zim to‘g‘riligini isbotlash edi. Endi meni o‘z holimga qo‘y va bema’ni harakatlardan tiyilgin≫.

HOJA VA KANIZAK

Bag‘dodda bir yigit bo‘lib, unga otasidan hisobsiz boylik meros qolgan edi. Yigit bir sozanda kanizakka oshiq bo‘lib qoldi. Nihoyat, kanizakni egasi aytgan bahoda sotib oldi. Bir necha muddat kanizak bilan visol taxtida barqaror bo‘ldi. Oqibatda, barcha mol-mulkidan ajralib, qashsholik darajasiga yetishdi. Qashshoqlik ishvasi yorug‘ dunyoni unga tor qilib qo‘ydi. Kanizak unga qarab dedi: ≪Ey xoja, davlatmandlik davringda isrofga yo‘l qo‘yib, o‘z mol-mulkingni sovurding. Endi afsuslanishning foydasi yo‘q, biror ish qilginki, sababi tirikchilik bo‘lsin!≫

Yigit latif tabiatli va ziyrak edi. U kanizakka musiqa ilmidan ta’lim berish uchun har doim musika ilmining ustozlarini uyiga taklif qilardi va ularni g‘oyatda ehtirom bilan ko‘tardi. Yigitning musiqaga bo‘lgan havasi shunchalik ediki, u har doim o‘qishga kelgan sozandalar huzurida o‘tirib, ulardan musiqa ilmidan ta’lim olardi. Binobarin, yigitda musiqa ilmidan ko‘pgina bilim va tajriba vujudga keldi. Chunonchi, musiqa sohasida yetuk mahoratga erishdi. Qashshoqlik girdobiga tushgach, do‘stini o‘z huzuriga chaqirib, qanday chora-tadbir ko‘rish lozim ekanligi haqida u bilan maslahatlashdi: ≪Mol-dunyo qo‘ldan ketdi. Endi bu dardimni kimga aytib, ko‘nglimni g‘amdan bo‘shatishni bilmayman. Qanday chora topsam ekan?≫ Do‘sti unga maslahat berib: ≪Sening qo‘lingdan endilikda o‘zingni sozandalikda mashhur qilib, kanizak bilan birga badavlat kishilarning majlisida bo‘lib, undan tushgan daromad badaliga aysh-ishratda yashashdan boshqa hech ish kelmadi≫, dedi. ≪Sening bergan maslahatingga amal qilishdan ko‘ra, o‘lim afzalroq ko‘rinadi menga≫, dedi yigit.

Shundan so‘ng, bir necha vaqtgacha og‘ir ahvolda kun kechirdi. Kunlardan bir kun kanizak yigitga: ≪Ey xoja, agar ma’qul ko‘rsang, garchi o‘limimga teng bo‘lsa ham, senga bir yo‘l ko‘rsatay≫, dedi. ≪Qanday yo‘l ekan?≫ so‘radi yigit. ≪Gadolik boshimizga

tushmasdan turib, meni bozorga olib borib sot. Har holda meni badavlat puldor odam sotib oladi. Menga berilgan mablag‘ni kam-ko‘stingga sarflab o‘zingni tuzatib olasan va bu mashaqqatdan qutulasan≫, dedi kanizak.

Kanizakdan bu so‘zni eshitgan bechora yigit ko‘ngli dard-alam bilan to‘lgan holda kanizakni bozorga olib bordi. Basralik davlatmandlardan bir yigit tomosha uchun Bag‘dodga kelgan edi. U bozor aylanarkan, unga kanizakni ko‘rsatdilar. Basralik yigit kanizakni ko‘rib ma’qulladi va bir ming besh yuz dinor naqd oltinga sotib oldi. Yigit kanizak badaliga olgan oltinlarni qo‘lda tutib turarkan, ko‘zlaridan to‘xtovsiz yosh oqar va qalb faryodi oh-nola bilan uyg‘unlashardi. Kanizak ham oh-nolalar bilan yig‘lardi. Basralik yigit esa iztirob chekardi. Yigit kanizakni sotganiga pushaymon bo‘lib, savdoni qaytarishga harakat qilsa-da, foydasi bo‘lmadi. Bechora nochor yigit oltinni olib, boshini quyi solganicha hayronlikda uyi tomon ravona bo‘ldi. Yo‘lda ketayotib o‘zicha: ≪Agar uyga borsam, uyni kanizaksiz ko‘rsam, u holda jinni bo‘lib qolishim muqarrardir≫, deb o‘yladi va o‘zini bir oz ovutish uchun masjidga kirdi. U masjidga kirgach, juda ko‘p yig‘ladi va nihoyat uyqu g‘alaba qildi. U cho‘ntagidan hamyonni olib boshi ostiga qo‘yib, bir oz mizg‘idi...

Yigit hikoya qiladi:

-Uyqumda birov mendan bir narsani olgandek bo‘ldi. Nogoh uyqudan uyg‘onib bir yosh yigitni ko‘rdim. U mening boshim ostidagi hamyonni olib, ko‘chaga qarab qochdi. Men uning orqasidan quvmoqchi bo‘lib o‘rnimdan turgan edim, biroq oyoqlarimni chilvir bilan bog‘langanini ko‘rdim. To men chilvirni yechib ko‘chaga chiqqunimcha, yigit ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan edi. G‘am-anduh o‘ti qalbimni kuydirardi. Ko‘z yoshlarim to‘xtovsiz oqardi. Boshimga tuproq sochib, qismatimdan nolib, gohida yor, gohida dinor firoqida yig‘lardim. Nihoyat, o‘lishni o‘zimga ravo ko‘rib, daryo bo‘yiga bordim. Boshimdagi ro‘mol bilan ko‘zimni bog‘lab, o‘zimni daryoga tashladim. Suzishni bilmaganim tufayli g‘arq bo‘lishimga oz qoldi. Qayiqchilar meni suvga beixtiyor yiqilib tushdi deb o‘ylab, girdobdan olib chiqishdi. Har qaysilari ahvolimni so‘rardilar. Noiloj, ularga o‘z ahvolimni hikoya qildim. Ba’zilarining menga rahmi kelardi, ba’zilari esa devona deb qarardilar. Ular orasidan bir mo‘ysafid meni bir

chekkaga olib chiqib nasihat qila boshladi: ≪Jon bolam, boyliging, dildoring qo‘ldan ketdi, endi joningni ham yelga sovurmoqchimisan. Har kim o‘z joniga qasd qilsa do‘zax o‘tiga yo‘liqib, oxiratda azob-uqubatlarga giriftor bo‘lishini bilmaysanmi? Faqirlik kiyimini kiygan va qashshoqlik girdobiga tushib qolgan faqat birgina senmisan?.. Bu yomon fe’lingdan qayt! Umidingni xudodan so‘rab, uyingga bor, mashaqqatli tunning tongi va g‘aflatda qolgan baxtning ravnaqi kelsa ajab emas≫.

Mo‘ysafidning va’z-nasihatidan so‘ng menda biroz xushnudlik vujudga keldi. O‘rnimdan turib uyga keldim. Uyni kimsasiz ko‘rib, devona bo‘lishimga oz qoldi. O‘rnimdan turib, do‘stimning yoniga bordim va unga boshimdan kechirganlarimni hikoya qildim. Do‘stim ahvolimga achinib ko‘p yig‘ladi va yonidan ellik dinor chiqarib menga berarkan: ≪Bu arzimas mablag‘ni olib, nasihatimni qabul qil! Bu shahardan chiqib boshqa tomonga ket! Savodli kishisan, biror ustaxonaga borib iltijo qilsang xizmatga olurlar. Kotiblik bilan shug‘ullan! Shoyad tortgan mashaqqatla- ring halovatga mubaddal bo‘lib, Alloh taolo seni bu qora kunlardan yorug‘likka chiqarsa≫, dedi.

Men ellik dinorni olib daryo bo‘yiga keldim. Daryoda ustiga qimmatbaho mollar taxlangan va haddan ziyod ko‘p oziq-ovqat ortilgan shaxsiy kemani ko‘rdim. Men qayiqchilardan: ≪Oralaringizda biror kishi bormi, meni biror vosita bilan ushbu kemaga joylashtirsa≫, deb so‘radim.

≪Ikki dirham bersang, men seni ushbu kemaga joylashtirib qo‘yaman. Lekin shuni bilginki, bu kema basralik badavlat yigitning kemasidur. Ammo seni bu kiyiming bilan kemaga joylashtira olmaymiz. Sen qayiqchilar kiyimini kiyib ol. Toki xo‘jayin seni ko‘rib qolsa, qayiqchilardan biri, deb gumon qilsin≫, deb javob berdi qayiqchilardan biri.

Bu so‘zni eshitganimdan so‘ng, kemadagi mol-dunyo va asbob-uskunalarni ko‘rib, o‘z-o‘zimga dedim: ≪Bu kema hoynahoy, kanizagimni sotib olgan o‘sha yigitniki bo‘lsa kerak!..≫

Men qayiqchilar xonasining eshigi oldida o‘tirdim. Biror soatdan so‘ng o‘z kanizagimning kelayotganini ko‘rdim. Uning xizmatida yana boshqa ikki nafar kanizak ham bor edi. Ko‘zim yorning jamoliga tushishi hamono g‘ayb pardasi ostidan maqsud jamolini ko‘rsatgani

uchun Xudoga behad shukrlar keltirdim. Biror soatdan so‘ng basralik yigit ham bir necha xizmatkorlari bilan keldi. Ular kemaga chiqib o‘tirishgach, kema yo‘lga ravona bo‘ldi.

Birozdan so‘ng oshpazlar taom keltirdilar. Yigit bilan kanizakka alohida taom keltirib, qolganini xizmatkorlarga berdilar. Qayiqchilarga ham taom keltirdilar. Taomdan so‘ng yigit kanizakka xitobomuz: ≪Axir qachongacha oh-nolalar davom etadi?! Hali ham xursand bo‘lib, o‘zingni shirin va xush navolaring bilan menga mezbonlik qiladigan vaqt yetishmadimi?! O‘z mahbubidan ayrilib, dildoridan mahrum bo‘lgan faqat birgina senmisan?! Sendan ilgari ham ko‘p kishilar ushbu jomdan ayriliq mayini ichib, oxirida sabr libosini kiyganlar≫, dedi.

Shundan so‘ng, kanizakdan bir marta changda kuy chalib berishini iltimos qildilar. Kanizak torni qo‘lga olib, damsozi va yoridan ajralgani haqida g‘amgin kuyladi. Shundan so‘ng, kanizak chunon yig‘ladiki, ko‘zlaridan shashqator yosh oqardi. U qayg‘u-iztirobga tushgani tufayli soz chalishdan to‘xtadi. Kanizak atrofida o‘tirib musiqa tinglovchilarga bir nafaslik shod-xurramlik zahar-zaqqum bo‘ldi. Xuddi shu payt men behush bo‘lib yiqildim. Qayiqchilar esa meni yiqilib tushdi, deb gumon qildilar. Ba’zilari yuzimga suv separ va ba’zilari qulog‘imga azon aytib qichqirardilar. Biror soatdan so‘ng hushimga kelib qarasam, kemadagi kishilar kanizakni goh do‘q-po‘pisa, goh murosayu madora yuzasidan malomat qilardilar. Kanizak yana qo‘liga torni olib hijron baytlarini tarannum qildi.

Shundan so‘ng iliq shabada esib, ko‘ngillarni yumshatib, oradagi sovuq munosabatlarga xotima berdi. Kanizak esa yana yig‘iga tushib, soz chalishdan to‘xtadi. Men na’ra tortib hushdan ketdim. Ba’zi kishilar meni oxirat safariga ravona bo‘lgan bo‘lsa kerak deb gumon qildilar va bir-birlariga qarab dedilar: ≪Bu devona qayerdan bizga yo‘liqdi?≫

Ular biror qishloqqa yetib borgandan so‘ng meni tashlab ketishga qaror qildilar. Men bu so‘zni eshitgach, boshimga tog‘ qulaganday bo‘lib, hijron va ayriliq azobidan qaytadan o‘lishimga oz qoldi. Nihoyat, men o‘zimga o‘zim: ≪Bir oz sabr qil, toki ahvolimdan xabardor bo‘lsin≫, dedim.

Shundan keyin, kema shaharga yaqinlashdi. Kemani daryoning qirg‘og‘iga keltirib qo‘yib, har kim har qayoqqa tarqaldi. Men bir oz kutib turdim. Biror soatdan so‘ng kanizaklar tashqariga chiqdilar. Men darhol ichkari kirib, kanizakning torini olib, uning sozini boshqa sozga qo‘ydim. Bu sozni mendan boshqa odam chala olmas edi. Men torni yana o‘z joyiga qo‘yib, o‘rnimga qaytdim.

Nihoyat, kema ahli sayr qilib bo‘lgach, qaytib keldilar. O‘sha tun oydin edi. Oyning yog‘dusi kechani kundek yoritib turardi. Kema ahli kanizakdan: ≪Shunday oydin kechada o‘z kayg‘u-hasratlaring bilan bizni vaqtimizni olish o‘rniga, bizga mezbonlik qilsang nima bo‘ladi≫ deb iltimos qildilar. Kanizak qo‘liga torni olib, kamonchani torga tegizishi bilanoq, na’ra tortib: ≪Xudo haqqi, bu sozni mening xojam sozlabdi, u albatta biz bilan shu kemadadir≫, dedi.

≪Koshkiydi xojang shu kemada bo‘lsa, oh-nolani kamroq qilarding va biz sening xush ovozingdan bahramand bo‘lardik. Ammo bu yerda begona kishining bo‘lishi gumon, -dedi basralik yigit va qayiqchilarga qarab, -biror begona kishini kemaga olganmisizlar?≫ dedi, qayikchilar ≪yo‘q≫ deb javob berdilar. Men basralik yigitning qayiqchilar so‘ziga ishonib, men haqimda qayta surishtirmay qo‘yishidan qo‘rqib, ovoz berdim: ≪Ey xoja, sen surishtirib, qidirayotgan kishi men bo‘laman!≫

Shu payt oldimga bir qul kelib, meni o‘z xojasining huzuriga boshlab bordi. Basralik yigit mening ahvolimni ko‘rib rahmi keldi va mendan so‘radi. ≪Bu qanday hol?≫

Men o‘z ahvolimni boshidan oxirigacha hikoya qildim. Basralik yigitdan tortib kemadagi barcha kishilarning menga rahmi kelib, ko‘p yig‘ladilar. Ichkaridan kanizakning yig‘lagan tovushi qulog‘imga eshitilardi. Men g‘am-alamli qissamni tugatganimdan so‘ng basralik yigit qasamyod qilib, dedi: ≪Men bu kanizakni sendan sotib olganimdan buyon unga qo‘l tegizganim va uning xush navolaridan hech bahramand bo‘lganim yo‘q. Men davlatmand kishidurman. Bag‘dodga ashula va musiqa eshitish hamda tomosha qilish havasi bilan kelgan edim. Xalifa matlabimni berdi.

Bag‘doddan qaytayotib, bag‘dodlik sozanda kanizaklardan birini sotib olib o‘zim bilan birga olib ketishga qaror qildim. Basraga borgach, boshqa kanizaklar bilan birga gohi-gohi menga soz chalib bersa, degan umid bilan ushbu kanizakni oldim. Endilikda sizlarning

ahvollaringiz menga ma’lum bo‘ldi. Sen aslo g‘am yema. Men har vaqt yiqilganni suyab qolishni yoxud biror bechoraholga ehson qilishni istardim. Xudoni guvoh qilib aytamanki, Basraga yetib borgach, kanizakni ozod qilurman va senga xotinlikka berurman. Shuningdek, barcha asbob-ro‘zgoringizni muhayyo qilurman. Ammo bir shartim bor, agar menga vafo qilsang...≫

≪U qanday shart ekan?≫ deb so‘radim. ≪Shart shulki, qachonki menda uning ashulasini eshitish ishtiyoqi tug‘ilsa, uni o‘zing bilan birga olib kelasan va u parda ortidan men uchun soz chalib, tarannum qiladi. Uyga qaytayotganingda yana o‘zing bilan birga olib ketaverasan≫, dedi.

Men uning oyoqlari ostiga yiqilib, haqiga duo qilgach:

≪Meni yo‘qlik dunyosidan yana qayta hayotga qaytargan va halokat changalidan qutqargan kishiga qanday qilib yo‘q deyman≫, dedim. Shundan so‘ng, qulni chaqirib, mening kiyimlarimni almashtirishga buyurdi. Oldimga yaxshi taomlar keltirishdi. Men u in’om qilgan kiyimlarni kiyib, uning huzuriga bordim va eng yaqin kishilari qatoridan joy oldim. Kanizak xursandlik bilan tarannum qilardi. Men kanizakdan eng yaxshi va jozibali musiqa va ashulalardan tarannum qilishini iltimos qilardim. Kanizak esa ketma-ket tarannum qilardi. Kema ahlining hammasi g‘oyatda shod-xurram edilar.

Kema hamon daryoda ravon suzardi. Nihoyat, Muaqqad (sho‘x) daryo degan mavzega yetdik. Hamma mast va aqldan ozgan edi. Kemani daryo qirg‘og‘iga chiqardilar. Men biror soat pinakka ketib, o‘sha yerda uxlab qolibman. Kema ahli esa kemani yana suvga tushirib jo‘nab ketibdi. G‘aflatda qolgan baxtim tufayli, tong otib, quyosh chiqib, harorati menga ta’sir qilgunga qadar uxlab qolibman. Daryo bo‘yiga kelib, hech kimni uchrata olmadim. Shuningdek kemada shuncha kun birga suzib, basralik yigitning nom-nasabini ham so‘ramagan ekanman. Uning Basraning qaysi mavze’ida yashashini ham bilmas edim. Ranj va mashaqqat yana bir marta o‘zini ko‘rsatdi. Men daryo bo‘yida behush bo‘lib yiqildim. Bir ozdan so‘ng o‘zimga keldim. Biroq holdan toygan edim. Har dam o‘z-o‘zimga derdim: ≪Shuncha ko‘rganlarimni tushimda ko‘rdimmikan?≫

Nihoyat, bir qayiq men tomondan o‘tib qoldi. Ovoz qildim. Qayiqni daryo qirg‘og‘iga keltirdilar va men qayiqga o‘tirdim.

Basraga keldim. Basra ulkan shahar bo‘lib, xalqi ko‘p ekan. Men u yerda g‘arib edim. Huzuriga boray desam, aqalli biror tanishim ham yo‘q edi. Saroyga tushdim va bundan keyin nima qilishimni bilmay, hayronalikda qoldim. Qo‘lim va qalbim dildor og‘zi kabi tor, cho‘ntak esa xuddi yorning xipcha belidek nozik va ingichka edi. Biror tanish uchratish umidida kun bo‘yi shaharni kezdim. Nogoh ko‘zim bag‘dodlik yigitga tushdi. Meni u bilan tanishligim bor edi. Undan savol qilmoqchi bo‘ldim, biroq hayo yo‘l qo‘ymadi.

Uning orqasidan borib, uyi qayerdaligini bilib qaytdim. Shundan so‘ng, basralik do‘koniga borib, bir oz qog‘oz bilan siyoh oldim va baqqolning huzurida o‘tirib o‘z ahvolimni boshdan oxirigacha yozdim. Baqqol mening xatimni ko‘rgach, ma’qul tushib, mening ahvolimdan so‘radi. ≪Davlatmandlikdan qashshoklikka yuz tutgan bir kishiman. Bu shaharga g‘arib bo‘lib kelganman. Tirikchiligim og‘ir ahvoldadir. Binobarin, qanday bo‘lmasin zarurat yuzasidan bir kishiga xat yozmoqdaman. Shoyad menga tamaddi bo‘lguday biror narsa ehson qilsa≫, dedim.

≪Agar xizmat qilmokchi bo‘lsang, mening do‘konimdagi har kunlik kirim va chiqimni yozib turasan. Bu xizmating evaziga har kun yarim dirham haq to‘layman. Bundan tashqari, ovqating va kiyimingni ham berib turaman≫, dedi baqqol.

Nihoyat, men baqqolning xizmatiga kirishga rozilik berdim. Xatni esa yirtib tashladim. Bir oy davomida baqqol do‘konining kirim-chiqimini hisobga olib bordim. Mendan avval do‘konga ishga olingan qullar xiyonat qilib, baqqolning kiyimlari va mollarini o‘g‘irlar ekanlar. Ularning xiyonati va shumligi tufayli do‘kondan baraka ko‘tarilgan ekan.

Nihoyat, men bir oy davomida do‘konning kirim-chiqimini hisoblab, yozib baqqolning oldiga qo‘ydim. Baqqol chiqimning oz va kirimning ko‘payganini ko‘rgach, meni omonatga xiyonat qilmaganimni fahmladi. Bu xizmatim uchun menga ko‘p tashakkurlar aytib, kundalik ish haqimni bir dirham qilib belgiladi.

Shunday qilib, men baqqolning xizmatida qoldim. Sharoitga qarab ish olib borganim tufayli, baqqolning menga ixlosi oshdi. Uning qizini o‘z nikohimga kiritishimni mendan iltimos qildi, rozi bo‘ldim. Uning qizini nikohimga kiritdim va bir necha vaqt birga yashadik. Bu davr ichida men shikasta dil va g‘amgin bo‘lib yurardim va biror soat

yig‘idan o‘zimni to‘xtata olmas edim. Qachon sharobxo‘rlikka chaqirishsa albatta rad qilardim va derdim:

≪Sharob ichmaslikni aziz-avliyolar ruhiga nazr qilganman≫. Ikki yil shu tariqa o‘tdi. Kunlardan bir kun, barcha ko‘ngil ochadigan tomosha asboblarini ko‘tarib shahar darvozasi tomon ketayotgan bir guruh kishilarni uchratdim. Bu holni ko‘rib, ulardan sababini so‘radim. Ular: ≪Bugun ma’jusiylar hayitidir. Barcha hangomatalab kishilar Iblaga tomoshaga boradilar≫, deb javob berdilar.

Shundan so‘ng men ham tomoshaga bormoqchi bo‘ldim. Tomosha vaqtida basralik yigitning xos kishilaridan birortasini uchratib qolsam degan umidda edim. Ushbu maqsadda ko‘ngilga tugib, baqqoldan ijozat so‘radim. U ijozat berib, yaxshi taomlar tayyorlab berdi. Qull bilan birga kemaga o‘tirib, Basraning Iblasiga borardim. Kemalar ko‘p, odamlar esa undan ham ko‘p. Kemalar orasida basralik yigitning o‘sha kemasini ko‘rdim. Kemada o‘sha men ko‘rgan kema ahlining barchasi o‘tirar edilar. Ular bir necha xushovoz xonanda va sozandalar, shuningdek xushbichim, xushraftorlardan o‘zlari bilan birga olib, daryoning o‘rtasida o‘yin-kulgiga mashg‘ul edilar. Ularni ko‘rgach, shodligimdan aqlim boshimdan uchdi. Tortgan mashaqqatlarim esimdan chiqdi. G‘am-anduh lashkarini quvlab, o‘zimni ular tomonga otdim. Ular meni ko‘rib xudoga hamdu sano aytdilar. Meni o‘z huzurlariga chorlab, hol-ahvol so‘radilar. O‘z qissamni boshidan oxirigacha sharhladim.

-O‘sha kechasi kemadan tashqariga chiqqaningdan so‘ng tongotarda kemani suvga tushirib yo‘lga ravona bo‘ldik. Sen esa o‘sha yerda qolib ketding, -deb so‘z boshladilar kema ahli. -Seni qanchalik qidirsak ham topa olmadik. Qayiqchilar, seni o‘sha tunda qattiq mast holda daryoga tushgan edi, suvga g‘arq bo‘lgan bo‘lsa ajab emas, dedilar.

Kanizak bu so‘zni eshitgach, kiyimlarini yirtib, torini yerga urib sindirdi. Sochlarini yulib, chandon faryod chekdiki, jamiki qushlar va baliqlarning unga rahmi keldi. Biz unga tasalli berib, sizlarni bir-biringizga qo‘shmoqlikka xojangga va’da bergan edik. Ammo taqdir taqozosi bunga vafo qilmadi. ≪Endi sening uchun nima qilaylik≫, dedik.

Kanizak bizdan iltimos qilib: ≪Meni Basrada bir uyga qo‘ying. Har kun oz-oz tamaddi berib turing. Uyning ichiga bir qabr yasashga

ijozat bering. Toki, men kechayu kunduz ushbu bayt ul-exzonning mulozimi bo‘lay. Shoyad bu toshga aylangan jonim, tan qafasidan bir yo‘la ozod bo‘lib, ruh qushi tan qafasini sindirsa≫, deb qora kiyim kiyib. Ko‘z yoshini seldek quyardi. Biz o‘sha kuni o‘sha yerda bo‘lib, ertasi Basraga qaytdik. Meni kanizak huzuriga olib borib, uning uyiga kiritdilar. Bechora kanizak meni ko‘rishi hamono na’ra tortib, hushidan ketdi. O‘sha yerda hozir bo‘lganlar: ≪Magar kanizakning joni tanidan parvoz qilgan bo‘lsa kerak≫, -deb gumon qildilar. Biror soatdan so‘ng o‘ziga kelgach, bir-birimiz bilan quchoqlashib, boshdan kechirgan g‘am-kulfatlarimizni hikoya qilishdik.

Shundan so‘ng, basralik yigit menga shunday dedi: ≪U sening hukmingdadir, o‘zing bilan birga olib ket!≫

≪Ey xoja, uni ozod qilib, so‘ngra biz uchun bir qasri oliy bunyod qilib, barcha ro‘zg‘or asboblarimizni muhayyo qilib berishga qaror qilgan eding...≫ dedim. U barcha so‘raganlarimizni berib, yana besh yuz dinor oltin berarkan:

≪Men Basraga yetib kelgan kunimizdan boshlab, sen uchun ehson ajrata boshlagan edim. Endi vaqt-soati keldi, bu yig‘ilgan mablag‘ni olib, o‘z ehtiyojingga sarfla!≫ -dedi. Yana men bilan kanizakka har oyda muayyan maosh belgilab -shartimiz avvalgidek qoladi, qachonki menda uning ashulasini eshitish ishtiyoqi tug‘ilsa, parda orqasida turib men uchun soz chalib, tarannum qilsin. Qaytayotganingda yana birga olib ketaverasan! -dedi.

Basralik yigitning biz uchun qurgan qasriga bordik. O‘sha yerda yashay boshladik.

ABU NASRNING HIKOYASI

Debdurlarkim, sulton Yaminuddavla Mahmud Sabuqtegin bir necha vaqtdan buyon Ayozning singlisiga maftun bo‘lib, uni o‘z nikohiga olishni o‘ylab yurardi. A’yoni davlat va xoslardan andisha qilardi. Bir necha muddat shu ahvolda yurdi.

Kunlarning birida Abu Nasr (Mahmud G‘aznaviyning devonbegisi) sulton Yaminuddavla xizmatiga keldi. Abu Nasr shunday hikoya qiladi: ≪Kechasi sultonning majlisida o‘tirgan edim. Majlis tugagach, sulton oyog‘ini men tomonga uzatdi. U odatiga ko‘ra, bu ≪oyog‘imni uqala≫, degani va biror sir aytmoqchi bo‘lgani edi. Birozdan so‘ng sulton dedi: ≪Hakimlar uch kishidan sir saqlamaslik lozim, deganlar. Tabibdan, nasihatgo‘y do‘stdan, muxlis

va oqil xizmatkordan. Ko‘pdan beri ko‘ngilda bir andisha bor. Bu kecha ushbu sirni senga aytaman, qani, sen nima derkinsan≫. Agar podshoh meni o‘zlariga hamrozlikka munosib ko‘rgan bo‘lsalar, bu bandada ne haddur. Banda uchun har qanday xizmatga kamarbasta bo‘lib turmoqlik vojibdir≫, dedim. Sulton so‘z boshladi: ≪Ko‘p vaqtlardan beri Ayozning singlisini o‘z nikohimga kiritishni xohlayman. Ammo atrofdagi qo‘shni podshohlar meni aqlsiz va farosatsizlikda ayblashlaridan qo‘rqaman. Shuningdek, saroy a’yonlarining g‘iybatlaridan andisha qilaman. Bu borada sen nima deysan? Biror podshohning o‘z fuqarosiga uylanganini tarixda o‘qiganmisan? ≫

Men: ≪Bu borada misollar ko‘pdir. Somoniylar sulolasining barcha hukmronlari o‘z qo‘l ostlaridagi cho‘ri va xizmatkorlardan o‘z nikohlariga kiritganlar. Binobarin, bu xabarni eshitgan kishilar podshohni bu masalada gunohkor hisoblamaydilar. Podshohning o‘zlariga ma’lumki, Kubod Turkistonga ketayotib, Isfarayin shahrida bir dehqon qiziga uylandi. Bu nikoh natijasida Anushervon dunyoga keldi. Ajam tarixidan o‘qibdurmankim, Bahrom Go‘r kir yuvuvchining qizini o‘z nikohiga olgan≫, dedim.

≪Bu hikoyat qanday edi?≫ deb so‘radi sulton. Men hikoya qildim:

-Kunlardan bir kun Bahrom Go‘r ovga chiqqan edi. Nogahon bir kiyikning sharpasini sezib, uning orqasidan ot choptirib, uzoqqa ketdi va yo‘ldan adashdi. Nihoyat, tashnalikdan qiynalib, yurib-yurib bir qishloqning ustidan chiqdi. Qishloqning chetidan oqayotgan katta suv oldida kir yuvayotgan bir kishini ko‘rdi. U kishi o‘z xotini va qizi bilan bir necha choponlarni yuvayotgan edilar. Bahrom ular tepasiga borib: ≪Ey kir yuvuvchi, menga suv ber≫, dedi. Kir yuvuvchi o‘rnidan turib, Bahromga ta’zim qildi va xotiniga: ≪Ey xotin, podshohga suv ber≫, dedi. Xotin o‘rnidan turib jomni qo‘liga oldi va bir necha bor yuvgach, qiziga qarab: ≪Qizim, podshohga suv ber!≫ dedi. Qiz jomga suv to‘ldirib Bahromga olib bordi. Bahrom qizga boqib ko‘rdiki, Qiz husn-malohatda benazir va kamolot yoshida edi. Bahrom kir yuvuvchi kishiga qarab: ≪Ey kir yuvuvchi, bugun meni mehmon qilasanmi?≫ deb so‘radi.

Kir yuvuvchi podshohga javob berarkan: ≪Agar podshoh bizning qattiq nonimiz va ko‘z yoshimizga qanoat qilsalar, imkonimiz

boricha mezbonlik qilamiz≫, dedi. Shundan so‘ng, suv bo‘yiga pokiza joy solib, Bahromni o‘tqazdi. Bahromning otini olib daraxtga bog‘ladi. Shoh oldiga solish uchun toza dasturxonni qiziga topshirib, o‘zi shoshganicha qishloq tomon ketdi. Birozdan so‘ng taom va sharob keltirib, qadahni qiziga berib, ≪podshohga soqiy bo‘l!≫ -dedi. Qiz qadahni tozalab yuvib, so‘ngra sharob to‘ldirib podshohga tutdi. Podshoh, qizning qo‘lidan qadahni olgan edi, qiz Bahromning qo‘lini o‘pdi. Bahrom qizga qarab: ≪Bo‘saning joyi qo‘l emas, labdir. Toki, lab-labdan bahramand bo‘lgay≫, dedi. Qiz Bahromga javoban ta’zim qilib, ≪hali vaqt-soati yetganicha yo‘q≫, dedi. Podshoh, bu malohatdiydor va latofat-guftorlikdan hayratga tushdi. Qiz bilan podshoh, shu holda turganlarida, askarlar podshoh, izidan yetib keldilar.

Podshoh, qizga qarab, bu jamoatdan yuzingni yashir, dedi. Qiz darhol yuziga niqob tortdi.

Shundan so‘ng Bahrom qizni taxtiravonga o‘tqazib o‘z saroyiga olib ketdi va o‘z nikohiga kiritdi. Qizning husn-jamolidan Bahromning shabistoni munavvar bo‘ldi, deb hikoyani tugatdim.

Sulton Yaminuddavla bu hikoyani eshitib bo‘lgach, o‘z haramiga ketarkan, Abu Nasrga qarab, meni zo‘r mashaqqatdan qutqarding, dedi. Shundan so‘ng, ikki kun o‘tgach, Sulton Ayozning singlisini o‘z nikohiga kiritdi.

SULTON MAHMUD VA XOTIN PODSHOH

Sulton Mahmudning hukmronlik davrida Ray viloyatida bir xotin bor edi. U mazkur viloyatning podshohi edi. Uning nomini Rasida derdilar. U nihoyatda dono, bilimdon va ziyrak edi. U Faxruddavlaning xotini edi. Faxruddavla vafot etgach, undan Majduddavla ismli bir o‘g‘il qoldi. Majduddavla ulg‘ayib balog‘atga yetdi. Lekin u otasining o‘rnini bosa oladigan emas edi. U beandisha edi, binobarin, podshohlikka nomunosib edi. Shunday bo‘lsa-da, mamlakat uning nomiga atalib, davlat ishini onasi yuritardi. U Ray, Dahiston va Isfahon viloyatlarida o‘ttiz yil hukmronlik qildi.

Nihoyat, Sulton Mahmud Iroq podshohligi xotinning qo‘l ostida, deb eshitdi. U xotinning huzuriga elchi yuborib dedi: ≪Mamlakatingda mening nomimni xutbaga qo‘shib o‘qitishing, pulni mening nomimdan zarb etishiig va menga har yili xiroj yuborib turishing

kerak. Aks holda behisob askarlarim bilan sening diyoringga borib, arkoni davlatingni yer bilan yakson qilgumdir!≫
Elchi so‘zini tugatgach, Rasida Sulton Mahmud maktubiga javob yozishni buyurdi-da, so‘ngra elchiga dedi:

- Sulton Mahmudga shunday degin: ≪Erim Faxruddavla tirikligida bizning diyorga hujum qilishing haqida o‘ylab xavotirlanar edim. Ammo erim vafot qilib, hukmronlik menga tekkach, bunday andisha va qo‘rquvlar mening ko‘nglimdan butunlay ko‘tarildi. O‘zimcha, Mahmud ziyrak podshohdir, o‘zini bilgan podshohlar xotinlar bilan jang qilmoqqa bormasliklarini yaxshi bi-ladi, deb o‘ylardim. Endi men sen bilan jang qilishga tayyorman. Agar sendan yengilsam, menga nomus emas. Zeroki, podshohlikni saqlab qolmoqlik yo‘lida qilingan jangda mag‘lubiyatga uchramoq uyat emas. Agar sen mendan shikast yeb, mag‘lubiyatga uchrasang, u holda sening uchun katta sharmandalik bo‘lgay va men uchun nihoyatda zo‘r faxr sodir bo‘lgay. Chunonchi, odamlar ≪xotin kishidan yengildi≫, deb seni malomat qilurlar≫.

Bu so‘z Sulton Mahmudning qulog‘iga yetgach, aslo Iroqni tilga olmadi. Xotinning aql-zakovati tufayli, mamlakat dushmanlardan omon qoldi.

XOTINLAR MAKRINI O‘RGANUVCHI KISHI

Rivoyat qilishlaricha, bir kishi doim xotinlar makrini o‘rganish bilan ovora edi. Rashkning zo‘rligidan xotinlarga ishonmas va hech qaysi xotinni o‘ziga yaqinlashtirmas edi. U xotinlar makri yozilgan kitobni o‘qigani o‘qigan edi. Kunlardan bir kun u kishi safarga chiqdi. Yo‘l asnosida bir qabila qarorgohiga borib, u yerda tunamoqchi bo‘ldi. Musofir mehmon kirgan uyning xo‘jayini uyda yo‘q edi. Ammo uning xotini uyda edi. Mezbon xotin g‘oyatda nafosatli va nihoyatda odamshavanda edi. Xotin mehmonga xushfe’llik bilan iltifot ko‘rsatdi. Mehmon kavushini yechib, hassasini devorga suyab, yuqoriga chiqib o‘tirdi va yonidan kitobini olib,o‘qishga mashg‘ul bo‘ldi.

Xotin mehmondan so‘radi:

- Ey xoja, bu o‘qiyotgan kitobing qanday kitob?

- Bu kitobda xotinlar makridan hikoya qilingan.

- Daryo suvini g‘alvir bilan o‘lchab bo‘lmaydi hamda yer yuzida turib, suv ostidagi qumning hisobini olib bo‘lmaydi. Binobarin,

xotinlar makri ham rang-barang, behisobdir, - dedi-da, g‘amza o‘qini kamon qoshiga qo‘yib, mehmon qalbini nishonga oldi. Xotin yoqimli gaplar aytar, nozu karashmalar bilan ishqiy hatti-harakatlar qilib, mehmon ko‘nglini ovlashga kirishdi. Nihoyat, mehmonning ko‘nglini o‘ziga rom qildi. Binobarin, mehmon ham xotinning chiroyiga, shirin kalomiga va sho‘xchan harakatlariga mahliyo bo‘lib, hamma narsani unutdi. Xotin hamon iltifot bilan shirin guftorlikda davom etardi. Mehmon chidab turolmadi va o‘rnidan turib ishqibozlik qila boshladi. Xotin o‘zini olib qochar va mehmon uni tutib quchog‘iga tortardi. Ishqibozlik ayni avjiga chiqqanda, eshik taqilladi.

- Erim keldi,- dedi xotin,- erim emas, balo keldi. Hozir ikkalamizni ham o‘ldiradi.

- Nima qilmoq kerak?- dedi mehmon.

- O‘rningdan tur, - dedi xotin,- hu anavi sandiqqa kir.

Mehmon sandiqqa tushdi. Xotin sandiqni yopib qulfladi. Shundan so‘ng eshikni ochib, erini iltifot bilan qarshi oldi. Hamda dillarni rom qiladigan so‘zlar bilan erini jahldan tushirdi. Eri bir oz o‘ziga kelgach, xotin so‘z boshladi:

- Men boshimdan kechirgan bugungi voqeani senga hikoya qilmoqchiman.

- Ayt, - dedi eri. Xotin so‘z boshladi. «Bugun bizga bir mehmon keldi. O‘zi bag‘oyat chiroyli, xushso‘z, xushxulq va ajoyib tabiatli yigit ekan. Qo‘lida xotinlar makri haqida yozilgan kitobi ham bordir. Qachon qarasang ushbu kitobni o‘qigani o‘qigan. Ammo xotinlar makrini nazar-pisand qilmaydir. Yigitni bu ahvolda ko‘rganimdan so‘ng, uni o‘ynatmoqqa jazm qildim. Har xil noz-karashmalar bilan ko‘ngliga yo‘l topdim. Hushyor va oqil qush emas ekan, zero, don ostidagi tuzoqni ko‘rmadi. Mening chiroyimga mahliyo bo‘lib, ishqibozlik bisotini oldimga yozdi. Ish shu darajaga yetdiki, iltifot bilan aytilgan shirin iboralar amaliy bo‘salar va quchishlar bilan almashindi. Biroq hali lazzat onlari yetib kelmasdanoq, sen kelib qolding va aysh-ishratimizni buzding».

Xotin so‘zlagan sari erining qoni qaynab, g‘azabi ortar, bechora mehmon esa sandiq ichida o‘zini-o‘zi chimdilar va har daqiqada jonidan umidini uzardi. Shu payt g‘azablangan er xotinidan so‘radi:

- Xo‘sh, o‘sha yigit qayerda?

- Uni anavi sandiqqa solib, qulflab qo‘yganman. Mana, kalitini olib, sandiqni ochsang, ko‘rasan.

Er-xotin bir-birlarining qo‘lidan biror narsa olmaslikka garov o‘ynagan edilar. Agar esdan chiqib biri ikkinchisining qo‘lidan narsa olsa, albatta narsa olgan garovda yutqazgan hisoblanardi. Ammo garov o‘ynashgani-ga ancha vaqt bo‘lgan bo‘lsa-da, hanuzgacha bir-birlarining qo‘llaridan narsa olmasdilar. Biroq er nihoyatda g‘azablangani tufayli, garov o‘ynagani esidan chiqqan edi. U kalitni olib, sandiq tomon yurdi. Shu vaqt xotin eriga qarab: «Garovni yutqazganing muborak bo‘lsin», dedi. Eri bu so‘zni eshitib, kalitni yerga tashladi va: «Senga la’natlar bo‘lsinki, garovni yutish uchun meni olovga o‘tqazib qo‘yib, ajoyib tilsim ishlatib garovni yutding», dedi.

Xotin yana yaxshi so‘zlar bilan erini yupatib, dildorliklar bilan ko‘nglini xushnud qildi. Bir ozdan so‘ng, eri yana ko‘chaga chiqib ketdi. U sandiqni ochib so‘radi:

- Ey xoja, bunday makr-hiylani biror kitobda ko‘rganmiding?

- Tavba qildim, bundan buyon hargiz xotinlar makrini o‘rganmayman, qo‘limdagi bu kitobni ham kuydirurman, zero, xotinlarning makr-hiylasi kitobda yozilgandan ko‘ra ko‘proq ekan.

ZARGAR VA UNING KELINI

Rivoyat qilibdurlarki, hind shaharlaridan birida bir zargar yashar edi. U nihoyatda davlatmand va katta sarmoyaga ega edi. Uning bir o‘g‘li bo‘lib, bag‘oyat latif, xushbichim va xushxulq edi. Yigitning nihoyatda go‘zal, tannoz xotini bor edi. Ammo makkorlikda iblis undan saboq olardi.

Kunlardan bir kun zargarning uyiga ish bilan bir yigit kelib, hovlida yurgan yosh kelinchakni ko‘rdi. Yigit uning husnu malohatiga va noz-ishvalariga boqib, lol bo‘lib qoldi. Kelinchakning shirinsuxanligi, qiyo boqishlari yigit ko‘ksini o‘rtagan edi. U ishq-muhabbat haroratiga tob keltira olmay uyiga qaytdi. Yigit oromini yo‘qotdi, kechalari uxlamay to‘lg‘anardi. Qizga yetishmoq yo‘lini qidirardi. Nihoyat, yigit bir kampirning oldiga bordi va o‘z dardini bayon qildi. Kampir olamdagi barcha qabohat ishlari va qo‘shmachiligi bilan mashhur edi. Yigit kampirdan dardiga davo so‘radi va unga hadyalar berdi.

Kampir yo‘lga tushdi. U zargarning uyiga kelib qiz bilan ko‘rishdi va birga o‘tirib suhbatlasha boshladi. Kampir qizga har xil voqealardan gapirarkan, oxirida oshiq yigit haqida so‘z yuritdi. Nihoyat, maqsadga ko‘chib, oshiq yigitning talabini aytdi. Qiz o‘zini

jahli chiqqan qilib ko‘rsatdi va xizmatkorlariga buyurdi:≪Bu kampirni uringlar va yuzining yarmiga qorakuya surtinglar!≫

Xizmatkorlar kampirni urib, yuzining yarmiga qorakuya surkab jo‘natdilar. Kampir noiloj uyga qaytib keldi va voqeani yigitga bayon qildi. Yigit oh-nolalar bilan beqarorlik qilardi. Yigit to‘satdan oh-nolani to‘xtatib kampirning yuziga qaradi va: ≪Agar qizning maqsadi seni haqoratlash bo‘lsa edi, yuzingni batamom qopa qilib haydardi. Yo‘q... Bu yerda boshqa ishoratlar borga o‘xshaydi. Fikrimcha, qiz menga va’da ishorasini bergan. Ya’ni, bunday oydin kechalarda matlabing muyassar bo‘lmaydi. Oy shom yegan qorong‘i kechalarda ombor orqali boqqa kirsang, o‘sha yerda men bilan uchrashursan, degani bo‘ladi≫, dedi va kampirga ijozat berib, qorong‘i tusharini kuta boshladi.

Nihoyat, oydin kechalar tugab, qorong‘i kechalar boshlandi. Yigit ombor orqali qizning bog‘iga kirib, uni kuta boshladi. Kelinchak uygoq yotardi. Yigitning kelganini sezgach, u erining qo‘ynidan ohista turib, bog‘ tomon yura boshladi. Bu payt kelinchakning qaynotasi zargar uyg‘oq edi. Kelinini erining qo‘ynidan chiqib, bog‘ tomon ketganini ko‘rdi. Zargar hayron bo‘ldi. Yarim kechada yosh narsa bog‘da nima qilar ekan, degan andisha bilan sekin o‘rnidan turib, kelinini ta’qib qila boshladi. Kelin boqqa kirib oshig‘i bilan topishdi. Oshiq yigit kelinchakning mushk-anbar hidli sochlarini o‘z bo‘yniga solib, uni quchog‘iga oldi. Biri gapirdi, ikkinchisi tingladi, biri xohladi, ikkinchisi ma’qulladi. Nihoyat, yotib uxlashdi.

Shu payt zargar ohista-ohista yurib ularning boshiga bordi. Ko‘rdiki, har ikkalasi ham uxlabdi. Zargar o‘zicha: ≪Agar bularni jahl ustida uyg‘otsam, yigit menga zaxm yetkazishi muqarrardur≫, deb o‘yladi va nihoyatda ehtiyotkorlik bilan kelinining oyog‘idagi taqinchoqni yechib olib, o‘z o‘rniga borib yotdi. Kelin uyg‘onib ko‘rdiki oyog‘idagi halqani qaynotasi olib ketibdi. Kelinni badnomlikda ayblash uchun halqa yetarli vosita edi. Kelin tezda oshiqni uyg‘otib, undan uzr so‘radi hamda uni kuzatgach, erining oldiga kirdi. Ming xil takalluflar bilan erini uyg‘otib, dedi:

- Bahor faslida uyning havosi yaxshi bo‘lmaydi. Bahor shabadasi har xil muattar hidlarni kishi dimog‘iga keltiradi; kishida ajib xush tabiatlikni uyg‘otadi. Tur, boqqa kirib rohatlanib uxlaylik va bahor ayyomidan bahramand bo‘laylik.

Er o‘rnidan turdi va xotini ketidan boqqa kirdi. Kelin erini oshig‘i bilan yotgan joyga olib bordi, yotqizdi va o‘zi ham yotdi. Ertalab uyg‘onishdi. Kelin eriga shikoyatlandi: ≪Ko‘rdingmi, sening otang men haqimda badgumon bo‘lib, kechasi kelib oyog‘imdagi halqani yechib olib ketdi va men unga hurmat yuzasidan indamadim, bezovta qilmay deb seni ham uyg‘otmadim≫. Er xotini-ning makriga uchdi. Zargar o‘g‘li oldiga kelib, kelinining nobakor va makkorligidan shikoyat qildi va ko‘rganlarini hikoya qildi. O‘g‘il otasiga dedi:

- Ey ota, gumoningni qo‘y, mening xotinim bunday gunohlardan pok, hech qanday jinoyat qilgani yo‘q. Bog‘da birga yotgan men edim. Sen yaxshilab qaramagansan.

Aksincha, ustimizga kelib tomosha qilishdan uyalmabsan.

O‘g‘li harchand gapirsa ham, ammo zargar o‘z so‘zidan qaytmadi. Va takror-takror gapirardi. O‘g‘lining jahli chiqsa-da, biroq otaning hurmatini saqlardi. Nihoyat kelinga qasam bermoqqa qaror qildilar.

Bu davrda hind hukamolari tilsim yaratgan edilar. Tilsim katta hovuzdan iborat edi. Masalan, ikki kishi bir-biriga xusumat qilib qoziga borsa, qozi har ikkisini hovuz labiga o‘tqazib qasam berar va hovuzga tushirar edi. Hovuzga tushgan kishining gunohi bo‘lmasa, u kishini suv hovuzdan chiqarib tashlardi. Agar gunohkor bo‘lsa, g‘arq bo‘lardi.

Kelinchak o‘ziga ham shunday qasam berib, hovuzga tushirishlarini bildi. Tezlikda bir kishini topib oshig‘iga maktub yubordi... Maktubda: ≪Mening hayotim birgina sening harakatingga bog‘liq bo‘lib qoldi. Agar meni qutqarishni o‘ylasang, o‘zingni jinnilikka sol, boshingga tuproq sochib, kiyimlaringni yirtib, hovuz oldiga borib o‘tir. Meni olib kelib hovuz oldiga o‘tqazishlari hamono, o‘rningdan turib kelib meni quchoqla va yuzlarimdan o‘pgil≫, deyilgan edi.

Yigit kelinchakning ko‘rsatmasiga muvofiq harakat qildi. Hovuz oldida uni quchoqlab, yuzlaridan o‘pdi va nihoyat kelinchakning yuziga tarsaki bilan ura boshladi. Yig‘ilgan jamoat kelinchakni devona qo‘lidan ajratib oldilar va qozining huzuriga olib bordilar. Qozi kelinchakka qasam ichishni buyurdi. Kelinchak qoziga qarab: ≪Agar erimdan va mana bu devona yigitdan boshqa kishi menga yaqinlashgan bo‘lsa, ajab emaski hovuzda g‘arq bo‘lsam. Chunki bu

devona yigit bugun menga yaqinlashib ko‘p aziyat berdi≫, dedi va suvga tushdi.

Kelinchak suvdan salomat chiqdi va jamoat unga tasanno o‘qidilar. Zargarni malomat qildilar. Zargar g‘am-g‘ussadan ezilib, beqarorlik va uyqusizlik kasaliga mubtalo bo‘ldi. O‘ylashning zo‘ridan kechalari mijja qoqmay tong ottirardi. Nihoyat, zargarning kechalari uxlolmaslik xabari shahar podshohining qulog‘iga yetdi. Podshoh zargarni chaqirtirdi:

- Eshitishimga qaraganda, sen kechalari uxlamas emishsan, rostmi?

≪Rost, uxlolmayman≫, javob berdi zargar.

Podshoh unga:

-Meni qo‘riqlashni, haramimni va xazinamni qo‘riqlashni senga topshirishni xohlayman, zero posbonlikka sendan tuzukroq kishi topilmasa kerak, -dedi.

Zargar qabul qildi va o‘sha kechasiyoq posbonlikda qoldi. Nixoyat, yarim kechada, shohning filboni filxonadan bir filni yetaklab chiqdi. Filbon u yoq-bu yoqqa qarab, qasr tagiga kelib turdi. Bir ozdan so‘ng, podshohning xotini podshoh qo‘ynidan chiqib qasr tomida paydo bo‘ldi. Malika tomning labiga kelib o‘tirdi. Fil xartumini cho‘zib, malikani o‘z xartumiga o‘tqazib olib, yerga qo‘ydi. Filbon bilan malika bir necha vaqt birga bo‘ldilar. Ular bir-birlarining visollaridan bahramand bo‘lishgach, fil yana malikani o‘z xartumiga o‘tqazib, qasr tomiga chiqarib qo‘ydi. Filbon filni yetaklab filxonaga kirib ketdi.

Zargar bu ahvolni ko‘rib, o‘ziga-o‘zi dedi: ≪Mening g‘am yeyishim befoyda ekan. Modomiki, podshohlarning xotini shunday fahsh yo‘lga kirgan ekan, mening kelinim o‘g‘limni to‘shagini bulg‘asa ajablanarli hol emas≫.

Shundan so‘ng zargar yotib, peshingacha uxladi. Ertasi shoh zargardan ahvol so‘radi. Zargar tundagi voqeani bayon qildi. Shoh malikani va filbonni jazoladi va zargarni o‘zining eng yaqin nadimlaridan biriga aylantirdi.

KANIZAKNING XIYONATI

Marv shahrida bir badavlat va katta sarmoyador kishi bor edi. Uning nomini Abu Saomat deb atardilar. Unga bunday nom berilishining sababi, uning mol-mulki, naqdina oltin va zari hamda

dalada yilqilari nihoyatda ko‘pligidan edi. Bu kishining badaxloq va badsurat, ko‘rimsiz bir o‘g‘li bor edi. Abu Saomat doim o‘g‘liga baxillik va mol-mulkni avaylab saqlash, isrof qilmaslikni vasiyat qilardi. Shuningdek, bu borada amaliy yo‘l-yo‘riqlar ham ko‘rsatib: ≪Mol-mulkni avaylab saqlashning yo‘llaridan biri shuki, hech qachon eshiging yonidan do‘kon ochmagin, toki ortiqcha fisqu-fasodlar vujudga kelmagay≫, derdi.

Nihoyat, Abu Saomat bu dunyodan u dunyoga ravona bo‘ldi. Uning o‘g‘li barcha mol-mulklarni o‘z tasarrufiga kiritdi. Otasi hayotligida amalga oshmagan orzularidan biri chiroyli kanizakka ega bo‘lish edi. Ammo to alhol orzusiga musharraf bo‘lolmasdi. Nihoyat, otasi vafotidan so‘ng oy yuzli, go‘zal bir kanizakni sotib olib, uyiga keldi. O‘z hovlisining eshigi yoniga do‘kon qurdi. Savdo, muomala yuzasidan goho-goho do‘konda o‘tirardi. Kanizak yigitning uyiga kelgach, uning badaxloq, badbashara hamda o‘taketgan baxil va xasisligini bildi. Yigitning bema’ni axloqi, sandiq to‘la oltin-zaru yeyishga ovqati yo‘qligi, buning ustiga kun bo‘yi yolg‘iz o‘tiraverish joniga tegdi. Kanizak kun bo‘yi eshikka termulib, biror gamgusor kelishini intizorlik bilan kutardi.

Bir kun uning xojasi qishloqqa ketdi. Kanizak xojasining yo‘liga ko‘z tikib, eshik oldiga borib, do‘konga qaradi. Do‘kon oldida bir xushbichim, chiroyli yigit o‘tirardi. Kanizak yigitning husn-jamoliga va qaddu-qomatiga oshifta bo‘ldi. Kanizak taraddudlar qilib, yigitning nigohini o‘ziga qaratdi. Nozu karashmalar bilan yigitning ko‘ngil qushini o‘z zulfining domiga band qildi.

Yigit ohista o‘rnidan turib, kanizak oldiga keldi. Kanizak yigitga behad iltifotlar ko‘rsatib, dedi: ≪Bu yerda nima qilib o‘tiribsan? Uyimga qadam ranjida qilsang, maishat asbobini muhayyo qilgayman. Sen bilan birga dildorlik qilsak boshim osmonga yetardi. Bugun mening noshud xojam qishloqqa ketgan. Kechgacha kelmaydi. Agar visolimdan umidvor bo‘lsang, uyimga qadam ranjida qil! Qadamingga javohirlar sochgumdir≫.

Yigit uyga kirdi. Kanizak maishat asbobini muhayyo qilib, aysh-ishratga mashg‘ul bo‘ldilar. Bir-birlaridan komron va komyob bo‘ldilar. Kanizak o‘z xojasining xasis va ziqnaligi, badaxloq va badbasharaligi hamda ibosizligi haqida yigitga hikoya qilarkan, takror-takror xojasidan shikoyat qilardi. Yigit dedi: ≪Men bir g‘arib

kishiman. Mening aslim Gurgon shahridandir. O‘z shahrimda o‘zimga yetarli mol-mulkim bor. Ammo, buyerga jahl ustida arazlab kelganman. Agar bu yerda mol-mulkim bo‘lganda edi, har qanday bahoga bo‘lsa ham seni sotib olardim va sen bilan tinch-totuv yashardik. Nachora, qo‘lim qisqa≫, deb afsus va nadomatlar qildi. Yigit yana so‘zga kirib: ≪Agar meni o‘zingga muvofiq ko‘rsang, o‘rningdan tur, zero bugun kechasi karvon jo‘naydi. Toki seni o‘z shahrimga olib ketay≫, dedi.

Yigit bilan kanizak ahdu paymonni bir joyga qo‘yib, yo‘lga hozirlik ko‘rdilar. Kanizak ichkari uyga kirib, xojasining barcha oltin-zarlarini va qimmatbaho mollarini yig‘ishtirib chiqdi hamda yigit bilan birga hovlining eshigini ochiq holda tashlab ketdilar.

Ittifoqo, xoja o‘sha kuni qishloqdan qaytmadi. Kech kirdi. Gado eshik oldiga kelib xayr-sadaqa so‘radi. Gado harchand ovozini baland qilib qichqirmasin, ichkaridan hech qanday ovoz chiqmadi. Nihoyat, gado hovli ichiga kirdi, hech kimni uchratmadi. Yasatilgan uylarga kirdi, ammo hech qanday nazoratchini ko‘rmadi. Uy ichidagi bisotlarning rang-barangligidan gado hayrat barmog‘ini tishladi va tezkorlik bilan ishga kirishdi. Nihoyat gado yarim tungacha uyni shipshiydam qilib ketdi.

Ertasi kuni xoja qishloqdayi qaytib keldi va uyga kirib, xuddi o‘z qalbi xayr-ehson va muruvvatdan qanday xoli bo‘lsa, uy ham barcha bisot, mol-mulkdan shunday xoli bo‘lganini ko‘rdi. Xoja o‘ziga o‘zi: ≪Bu balolarning hammasi o‘zimning baxilligim, xasisligim va otam so‘zini quloqqa olmaganimdandir≫, deb afsuslandi.

XIYONATKOR SOHIBJAMOL

Hind yerida bir pahlavonning husnda barkamol xotini bor edi. U shunday sohibjamol ediki, yuzining shu’lasidan yorug‘ kun nur olardi. Sochining qoraligidan tunlar uzayib, yanada qorong‘uroq bo‘lardi. Pahlavon o‘z xotinini haddan tashqari sevardi. Hatto uning sochini o‘ynab esayotgan shabadadan va yuziga o‘z nurini sochayotgan quyoshdan ham rashk kelardi.

Ittifoqo podshoh pahlavonga bir muhim topshiriq berib, safarga jo‘natdi. Pahlavon jo‘nab ketgach, uning xotini daricha yoniga kelib, erining yo‘liga intizor bo‘lib o‘tirardi. Kunlardan bir kun, xotin daricha oldida o‘tirib, katta yo‘lni tomosha qilarkan. Nogoh o‘sha yerlik barahmanlardan

biri ko‘chadan o‘ta boshladi. Barahman yosh, soqol-mo‘ylabi endigina sabza urgan, chiroyli, latif qomatli va nihoyat oppoq ohorli chodirni yelkasiga tashlab olgan edi.

Xotin piyozga o‘xshash barg chaynab turgan edi. Barahmanning oq kiyimini ko‘rgach, og‘zidagi bargni uning kiyimiga tufladi. Barahman yuqoriga qarab ko‘rdiki, go‘yo oy unga tomon shafaq taratar va quyosh marvarid yanglig‘ tishlari orasidan la’l suvlarini sochardi,

≪Bizning zamonamizda barahmanlarning ahvoli shu darajaga yetibdiki, xotinlar barahmanlarga tuflaydigan bo‘lib qolibdilar. Men endi harom bo‘lib, endi meni hech qanday olov ham toza qila olmaydi, - deb chodirini yechib tashladi. - Hoziroq o‘zimni o‘ldiraman! Mazhab qoidalarini buzmoq bizlarga foyda bermaydi. Agar biror kishining vositasi bilan barahmanning qoni to‘kilsa, o‘sha xonadonning barchasi qirilmogi lozim bo‘ladi≫.

Xotin barahmanga takalluflar ko‘rsatib uyga taklif qildi. Tavba-tazarrular bilan: ≪Mendan o‘rinsiz gunoh sodir bo‘ldi. Iltifot yuzasidan kechirsang, evaziga qancha mol-dunyo istasang beraman≫, deb harchand tavallo qilsa ham, barahman chodirini ko‘kragiga qo‘yib, ≪men albatta o‘zimni o‘ldirishim kerak≫, derdi. Nihoyat xotinning yalinib-yolvorishlaridan so‘ng barahman shunday dedi: ≪Agar men bilan bo‘lishga rozilik bersang o‘zimni o‘ldirmayman. Aks holda har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham o‘zimni o‘zim o‘ldiraman! Seni ham mendan keyin qo‘ymaydilar va mening qonimniig uvoli sening bo‘yningda qolib, xonadoning qiyomatgacha badnomlikda mashhur bo‘lgay!≫

Xotin zarurat yuzasidan barahmanga rozilik berdi va maishat asbobini muhayyo qilib, o‘sha kunni lazzat va rohatda o‘tkazdilar. Barahman ketgach, bu voqeadan qo‘shni xabar topdi va xotinning oldiga kirib: ≪Bu qanday sharmandalik va rasvolik, bu qanday noahillik va yengil tabiatlilikki, sening ishqingda shaharning ulug‘ kishilari kuyib, tunlarni bedor o‘tkazsalaru, sen bo‘lsang bir gado bilan hamsuhbatbo‘lsang. Yosh yigitlardan biri bir necha vaqtlardan buyon sening visolingga yetishmoq orzusida yuribdi. Yigit meni senga vositachi qilgan edi. Ammo men buni senga aytishdan ibo qilib yurgan edim. Agar uni visolingdan bahramand qilishga rozilik

bersang, u holda bu sir pinhonligicha qoladi. Aks holda bu sirni eringga oshkor qilaman≫, dedi.

Shundan so‘ng, xotin unga rozilik berdi va qo‘shnisiningiuyiga bordi. Qo‘shnisi uning vasliga mushtoq edi. Yarim kechagacha ishratda bo‘ldilar. Tun yarimdan oshgach, barahman xotinning eshigi oldiga kelib faryod qildi. Kanizaklar eshik ochdilar, barahman ichkari kirib, xotinni ko‘rmagach, norozilik bildirib, faryod qila berdi. Kanizaklar sharmandalikdan cho‘chib, barahmanni tinchlantirib, xotinga xabar berish uchun uning oldiga ketdilar. Bechora xotin bu xabarni eshitib, hushi boshidan uchdi. Xotin qo‘shnisini tinchlantirib, ikkinchi oshig‘idan uzr so‘rab uyiga chiqdi va kaltak ushlab turgan barahmanga ko‘zi tushdi. Barahman esa kelib xotinni kaltaklay boshladi. Bechora xotin faryod qilardi. Shu payt xotinning eri eshikdan kirib keldi. Barahman hayron bo‘lib xotindan so‘radi. ≪Endi nima qilaman, chorasi qanday bo‘ladi?≫

≪Qo‘rqmasdan meni ura ber, afsun qilyapman, degin≫, deb o‘rgatdi xotin. Barahman xotinni ura berdi. Uning eri barahman oldiga kelib so‘radi: ≪Bu kishi kim? Bu begona kishi bu yerda nima qiladi?≫

≪Ikkinchi kundirki, xotiningga dev tegibdi. Afsun o‘qish uchun meni bu yerga olib keldilar. Agar ijozat bersang qaytib ketay≫, dedi barahman.

Er bu sohada shak keltirmasligini aytib, barahmanga tazarrular qildi. Barahman bir oz labini qimirlatib, afsun o‘qigan bo‘lib, xotinni guyo banddan xalos qilib, eriga topshirib salomat qaytib ketdi.

Shu voqeadan so‘ng, xotin qachon barahmanni sog‘insa, o‘sha kuni o‘zini devonalikka solar, eri esa barahmanga kishi yuborib, ko‘p iltijolar bilan uni olib kelib, pul berardi va undan parichehra devfe’lning aysh-ishrati uchun afsun o‘qishini iltimos qilardi. Bechora er bu qilmishlari bilan qo‘shmachilik qilar va o‘z xotiniga o‘ynashni pulga sotib olardi.

HAMMOM VOQEASI

Nihoyatda g‘ayur va rashkchi bir kishi bor edi. Xotinlarning makr-hiylalarini ko‘p o‘qib o‘rgangan va turli-tuman maxfiy ishlardan devorlari, darvoza va tomlarini begona kishi nazari tushmaydigan darajada mahkamlab, xotinini mahbus kabi saqlardi. Hatto, o‘zi ko‘chaga chiqqanda eshiklarni qulflab, qulf ustidan muhr

bosardi. Mana shunday ahvolda kun ketidan hafta, hafta ketidan oylar o‘taverdi.

Ammo xotinning bir oshig‘i bo‘lib, u bilan ko‘p vaqtlardan buyon visol onlaridan bahramand edi. Ular bir-birlarini nihoyatda qadrlar va do‘st tutardilar. Ma’shuqasining boshiga tushgan ahvolni ko‘rgan oshiq yigit, bir kampirning oldiga borib, hijron damlarining benihoya shafqatsizligidan zorlandi. Kampir el-yurt oldida qo‘shmachi va dallollikda mashhur edi. Yigit kampirni xotinning uyiga yubordi. Kampir xotinning darvozasiga kelib, tirqishdan yigitning salomini qizga yetkazdi. Xotin dedi: ≪Ey ona, mening salomimni unga yetkaz va degilkim, ey sevgilim, men qattiqqo‘l kishining domiga duchor bo‘ldim. Murodim ko‘zgusi jafo toshiga tegib sindi. |Qafasga solingan qushni uchmoqqa qanday imkoni bo‘lsin...

Ey ona, men bir hiylani o‘ylab qo‘ydim. Chunonchi, bugun kechasi oshig‘im sening uyingga kelib, ertalabgacha meni kutsin, sen ertalab o‘z uying oldiga ko‘proq suv sepib, ko‘chani loy qilib, mening o‘tishimni kutib tur!..≫

Kampir rozi bo‘lib uyiga qaytdi. Xotin kechasi eri bilan har xil mavzularda suhbat qurib, sho‘x maqollar aytib erini o‘ziga rom qildi. Shundan so‘ng, iltifot bilan eriga qarab: ≪Ko‘p vaqtdan buyon hammomga borishni orzu qilaman. Agar lutfan o‘zing birga hammomga olib borsang, yuvinib, toza bo‘lib, uyga qaytib kelib xizmatingda bo‘lsam yomon bo‘lmas edi≫, dedi. Er o‘zi birga borish sharti bilan ijozat berdi.

Bomdoddan so‘ng, xotin chodirasini yopinib, eri bilan ham-momga yo‘l oldi. Xotin oldinda, eri esa keyinda borardi. Yo‘l asnosida xotin kampir darvozasi oldidan o‘tdi. Va’daga muvofiq, kampir eshik tagiga ko‘p suv sepib, ko‘chani loy qilgan edi. Xotin loydan o‘tayotib, qasddan o‘zini yerga tashladi. Xotinning chodirasi iflos bo‘ldi. Xotin o‘rnidan turib, hayronlikda eriga boqib, dedi: ≪Marhamat qilib, eshik oldida o‘tirgan kampirdan ijozat so‘rasang, toki uyiga kirib, chodiramni yuvib olsam!≫ Er kampirning oldiga kelib: ≪Ey momo, bu nima qilganingki, eshiging tagini bunchalik loy qilibsan. Umum yo‘liga ziyon yetkazibsan. Endi bir oz suv bersang, xotinim chodirasini yuvib olsa, ziyoda lutf qilgan bo‘larding≫, dedi. Kampir rozilik berdi: ≪Mening ham uyimda xotiningga o‘xshagan

qizim bor. Mayli, bu ham qizimdek narsa, ayt, kirsin, chodirasini yuvaylik≫.

Shundan so‘ng xotin kampir bilan uyga kirdi; chodira va kiyimlarini yechdi. Kampir chodirani yuvar, xotin esa o‘z oshig‘i bilan visol lazzatidan bahra olardi. Er hamon ko‘cha eshikda xotinining chiqishini kutardi. Nihoyat oshiq - ma’shuqlar bir-birlarining visollaridan komyob bo‘ldilar. Makkora xotin chodirasini yopinib, tovusi xiromondek yurib erining oldiga chiqdi. Er-xotin hammomga bordilar. Xotin hammomda yuvindi. Eri tashqarida kutib o‘tirdi. Nihoyat, xotin hammomdan chiqqach, yana er-u xotin birga uyga qaytdilar.

Uyga yetib kelgach, xotin eriga qarab: ≪Ey xoja, xotinni qo‘riqlay olmaysan. Yo mendan umidingni uz, taloq qil, yoki qo‘riqlashni bas qil! Sen meni qo‘riqlashda qanchalik sabot ko‘rsatmagin, baribir, eplolmaysan... Zotan, o‘zing meni hammomga olib bording, biroq yo‘lda chodiramni yuvish uchun kampirning uyiga kirdim. Mabodo uyda erkak kishi bo‘lsa-yu va men bilan qo‘shilsa, qayerdan bilarding? Shuning uchun yo meni taloq qil, yoki qo‘riqlashdan voz kech!

Chunki men bu qafasda diqqinafas bo‘lib ketdim≫, dedi.

Er oqil kishi edi. Bildiki, xotini makr ishlatibdi. Darhol uni taloq qildi va shundan so‘ng xotinlarga ishonmay qo‘ydi.

ZINONING KASRI

Din peshvolaridan biri hikoya qiladi:

- Bir yili hajga jazm qilib sahroda ketib borardim.

Sahro o‘rtasida bir xotinni ko‘rdim. U qo‘liga hassa ushlab, oyog‘iga kovush kiyib olgan va ozuqa solingan to‘rvani orqalagan holda ketib borardi. Rahmim kelib, unga yaqin bordim va ≪Ey, zaifa, nima uchun piyoda ketyapsan? Agar tuya kira qilishga puling bo‘lmasa men kafil bo‘lay, yo‘lda qolib ketmagin≫, dedim.

≪Ey begona kishi, - dedi xotin, - men hajga piyoda borishni niyat qilganman. Shu alfozda o‘n to‘rt marta haj qildim. Hali yana bir necha marta haj qilishim kerak≫.

≪Bunday niyat qilmog‘ingga sabab nedur?≫ dedim. ≪Bu qissaning sababi uzun. Agar manzilga yetsak, u yerda bir - birimiz bilan yana uchrashib qolsak, o‘shanda senga hikoya qilib beraman≫, dedi xotin.

Nihoyat, manzilga yetdik. Kunlardan bir kuni u xotinni uchratib, uyimga olib ketdim. So‘ngra undan bo‘lgan voqeani so‘radim. ≪Unday bo‘lsa voqeani senga aytaman, bashartiki, mening nomussizligimdan g‘azablanmaslikka so‘z bersang≫, dedi. ≪Xotirjam bo‘l≫, dedim.

U hikoyasini boshladi:

- Mening otam Isfaroyin shahrining muftisi va mudarrisi edi. Mendan boshqa farzandi yo‘q bo‘lib, uyimizda xizmatkor ham yo‘q edi. Otam o‘z shogirdlariga nimaiki ta’lim bersa, men hammasini o‘rganib olardim. Ko‘p kishilar meni o‘z nikohiga kiritish uchun harakat qilardilar, ammo men ulardan hech qaysisini yoqtirmas edim. Otam esa bu sohada mening ra’yimga qarardi.

Ittifoqo, bir kun otam shogirdlariga dars berish uchun masjidga ketgan edi. Men uydan tashqariga chiqib, bir yigitni ko‘rdim. Soqol-mo‘ylabi endigina chiqa boshlagan, sohibjamol va latif qomatli edi. Uni ko‘rdim-u ishq o‘ti qalbimni rom etdi.

Shundan so‘ng men o‘zimni unga ko‘rsatdim. U ham menga maftun bo‘lib qoldi. Undan biror soat birga bo‘lishni va chaqchaqdashib, hordiq chiqarishni iltimos qildim. Yigit keldi. Bir-birimizning og‘ushimizga kirib, huzur-halovatga mashg‘ul edik. Shu payt otam kitob olib ketmoq uchun masjiddan qaytib kelib eshikni taqillata boshladi. Yigit qo‘rqdi, endi qayerga boraman, dedi. G‘alladan bo‘shagan xum bor edi. ≪Xumga tusha qol!≫ dedim.

Yigit xumga tushdi, men xumning qopqog‘ini yopib qo‘ydim va borib otamga eshik ochdim. Otam uyga kirib qidirgan kitobini olib yana orqasiga qaytib ketdi.

Men xum oldiga kelib, uning qopqog‘ini ochib ko‘rdimki, yigit dimiqib o‘lib qolgan edi. Nima qilishimni bilmay hayron bo‘lib qoldim.

Shundan so‘ng yigitning loshini tomga olib chiqdim. Tomda tandir bor edi. Biz goho-goho ushbu tandirda non yopib turardik. Yigitning jasadini mazkur tandirga yashirdim va uni qanday qilib dafn qilishning harakatiga tushdim.

Tomdan atrofga nazar soldim. Bizning saroyimiz yonida podshohning tuyaxonasi bor edi. Barcha tuyabonlar shu yerda istiqomat qilardilar. Tuyabonlar orasida qora yuzli zanjini ko‘rdim. Uni imlab chaqirdim. Zanji tomga chiqqach: ≪Men sening

xizmatingga hojatmanddurman. Nima istasang ham mayli, hojatimni ravo qilsang bo‘lgani, zar-javohirdan qancha istasang shuncha beraman≫, dedim.

≪Xizmatga tayyormen≫, deb javob berdi zanji. ≪Meni sharmanda qilmaslikka qasam ich≫, dedim. Zanji qasam ichdi. Shundan so‘ng, voqeani unga bayon qildim va yigitning jasadini unga ko‘rsatdim. Zanji faryod solib: ≪Bu mening xojazodamdur, bu badfe’l shum tole’ qayerdan kelibdi≫, dedi. Men zanjining oyog‘iga yiqilib, meni sharmanda qilmaslikni so‘radim. ≪Agar o‘z taningni menga bag‘ishlasang, seni bu balodan qutqarurman. Aks holda hoziroq sharmanda bo‘lursan≫, dedi zanji.

Men zarurat yuzasidan rozi bo‘ldim. Zanji mening bokiraligimni barbod qildi. Jasadni esa molxonaga olib ketdi. Hayronlikda qoldim. Tunda zanji bizning mo‘rimiz yoniga kelib, tosh bilan mo‘rini tiqillatib, bizni notinch qildi. Sharmanda bo‘lishdan cho‘chib tomga chiqdim. Zanjini mast holda ko‘rdim. Zanji menga qarab: ≪Mening do‘stlarim sharob ichmoqdalar. Har qaysisining o‘z ma’shuqasi bor. Men bilan yur, biror soat tomosha qilaylik. Agar bormasang hoziroq seni sharmanda qilaman≫, dedi.

Men ming xil hiyla-nayranglar bilan bir oz to‘xtab turishni so‘radim. Otam uyquga ketgach, sharmanda bo‘lishdan cho‘chib, uning oldiga keldim va u bilan birga tomdan tushib uyga bordik. Bizning qarshimizda to‘qqiz tuyabon o‘tirardi. Har birining yonida ma’shuqasi bor. Ular sharob ichib, bazmga mashg‘ul edilar. Zanji esa ularning o‘ninchisi edi. Zanji meni ham ichkariga olib kirdi, hamma menga boqardi. O‘tirgan xotinlardan ba’zilari meni tanib, avvalgi iffat va taqvodorlik qaniyu, bugungi sharmandalik qayerdan paydo bo‘ldi, dedilar. ≪Ey opa-singillar, sharmandalikda ayblash yaxshi emas. Kishining boshiga kulfat tushganda, uning aybini yopib ketmoqlik muruvvatdandir≫, dedim. Ular menga sharob tutdilar. Men qabul qilmadim va: ≪Men hali bu ishda tajribasizdirman. Bu kecha men sizlarga soqiy bo‘lay, toki sharobxo‘rlikning tartib-qoidalarini o‘rganib olay. Keyingi o‘tirishlarda esa sizlar bilan birga ichay≫, dedim. Ular mening uzrimni qabul qildilar. Men o‘sha kechasi ularga juda ko‘p sharob quyib berdim. Hammalari mast bo‘lib yiqildilar.

Shundan so‘ng, ulardan birining yonidan pichog‘ini olib, erkak va xotinlarning hammasini so‘ydim. Chunonchi biror kishi ham tirik

qolmadi. So‘ngra o‘rnimdan turib, o‘z uyimga ravona bo‘ldim va salomat uyga yetib keldim.

Ertasi kun bu xabar shaharga tarqaldi. Ammo bu ishni kim qilganini hech kim bilmadi va hech kim mendan gumon ham qilmadi.

Bir oz muddat o‘tgach, otam meni o‘zining yaqinlaridan biriga xotinlikka berdi. Zarurat yuzasidan bu nikohga rozi bo‘ldim. Bozordan o‘zim bilan tengqur kanizak qiz sotib oldim. Unga ko‘p parvarishlar qilib, haddan tashqari e’tibor berardim.

Kunlardan bir kun unga shunday dedim: ≪Men seni bir ish yuzasidan parvarish qilayotirman. Sendan yaxshilik ko‘rish umididaman≫, dedim. Kanizak ta’zim qilib, vafodorlik va yaxshilik qilishga so‘z berdi. Nihoyat, kelinni kuyovning huzuriga kiritiladigan kecha yetib keldi. Meni kuyovning huzuriga kiritish uchun chaqirdilar. Men esa kanizakni bir burchakka olib borib: ≪Bilginki, mening boshimga bir mushkul ish tushgandir. Chunonchi, mening bokiraligim barbod bo‘lgan va men bu haqda hech kimga aytmaganman. Chunki uyalganman. Endi sening menga ko‘rsatadigan lutf-ehsoning shundan iboratki, men erim bilan ko‘rpaga kirgach, bir bahona topib tashqariga chiqaman va o‘z kiyimlarimni senga kiydiraman. Sen lutfan bir dam erimning yoniga kirib yot, toki sening bokiraligingni olsin. Shundan so‘ng, sen tashqariga qaytib chiq, men esa o‘rnimga kiray. To tirik ekanman, sening haqingni ortig‘i bilan uzaman va lutf-ehson qilishdan to‘xtamayman≫, dedim. Kanizak qabul qildi.

Nihoyat, meni yotoqxonaga olib bordilar. Kuyov kirgach, meni xilvatxonaga olib bordilar. Ittifoqo, kuyov sharob ichgan edi. Men bahona qilib tashqariga chiqarkanman shamni o‘zim bilan birga olib chiqdim. O‘z bezak va kiyimlarimni kanizakka berdim va uni ichkariga kiritib yubordim. Kuyov kanizakdan o‘z murodini hosil qilgach, mastlik uyqusiga ketdi. Men ichkari kirib kanizakka dedim:

- Meni lutfan qutqazding, endi tashqariga chiq!

- Ey nobakor, - dedi kanizak, - o‘z nomusingni barbod berib, o‘zingni yana hech nima bo‘lmagandek tutasan. Boz ustiga murodingga yetishmoqni ham xohlaysan. Men hargiz o‘z erim va xojamni qo‘ldan chiqarmayman!

Men bu so‘zlarni eshitib hushim boshimdan uchdi va sharmandalik hamda rasvolik boshlandi, deb kanizakning kekirdagiga chang solib, o‘zimni kuch bilan uning ustiga tashladim. Kanizakni yerga

yiqitib, kekirdagini chunon siqdimki, yotgan joyida o‘ldi. Erim hanuz mastlik uyqusida edi. Kanizakning jasadini uning oldidan ming mashaqqatlar bilan olib chiqib, o‘tin taxlangan uyga qo‘ydim. Ichkaridan chiroqni olib chiqib, o‘tinlarning tagiga qo‘ydim. O‘tinlar yona boshladi. Men esa uydan chiqib erimning yoniga kirib yotdim. Yong‘in kuchaydi. Odamlar uyg‘ondilar. Kanizak esa kuyib kul bo‘lgan edi. Yong‘inni o‘chirdilar. Sir pinhonligicha qoldi. Shu voqeadan bir necha yil o‘tgach, otam vafot qildi.

Shundan so‘ng men erimga: ≪Mendan qo‘lingni tort, men hajga borurman!≫ dedim. Erim mendan voz kechdi. Mana shundan buyon men o‘ldirilganlarning har birining nomiga bir marta piyoda hajga boraman. Zeroki, Xudoyi taolodan umidvordurman, shoyad o‘ldirilganlarni haj tufayli mendan xushnud aylasa. Hozircha o‘n to‘rt marta haj qildim. Bunisi o‘n beshinchisidir. Agar umrim boqiy bo‘lsa, bundan tashqari yana olti marta haj qilurman, - dedi.

Men unga darhaqiqat makr va hiylada senga tenglashadigan kishi aslo bo‘lmasa kerak, dedim.



III BOB. FORMUSHNAVO HIKOYALARI (SARGUZASHT HIKOYATLAR) ISKANDAR VA CHIN SHOHI

Iskandar jahonnni zabt qilmoq qasdida Chin mamlakatiga kirib bordi va shohning saroyi ro‘baro‘sida o‘z lashkargohini qurdi. Bir kuni Iskandarning xos hojibi Chin shohining elchisi eshik orqasida kutib turgani va kirishga ruxsat so‘rayotgani haqida xabar qildi, Iskandar elchini olib kirishlarini buyurdi. Elchi Iskandar huzuriga kirgach, unga ta’zim qildi va tik turaverdi. «Nima gaping bor?» so‘radi Iskandar. «Chin shohi menga, Iskandarga nimaniki gapirsang xilvatda gapir, uning oldida hech kim bo‘lmasin, deb buyurgan», dedi elchi. Iskandar hammaning chiqib ketishini buyurdi. Hamma chiqib ketdi. Faqat Iskandarning xos qullaridan ikkitasi qoldilar, xolos. «Mahramlar oldida Iskandarga aytadigan so‘zim yo‘q», dedi elchi.

Iskandar elchini tintib ko‘rishni buyurdi. Shundan so‘ng mahramlariga uni holi qoldirishni buyurdi va elchiga qarab: «Chin shohining yo‘llagan xabari nimadir?» dedi. «Chin shohi men erurman. Sening huzuringga keldim, toki qanday farmon bersang barchasini qabul qilgayman», dedi elchi.

Iskandar taajjubda dedi:

Nimaga ishonib bunchalik jur’at qilding? Bilginki, men seni odil va oqil podshoh deb bilar edim. Qadimdan to hozirgacha o‘rtamizda hech qanday kin va adovat yo‘q edi. Men senga hech qachon qasd qilganim yo‘q. Shuningdek, bu yerga lashkargoh qurib, sening ham niyating bu mamlakatni ozod qilish emas. Mabodo sen meni o‘ldirganing bilan mening o‘rnimga boshqasini o‘tkazadilar va odam o‘ldirishda badnom bo‘lasan.

Iskandar Chin shohining oqilligiga tahsinlar o‘qidi va: «Mamlakatingning uch yillik xirojini xohlayman», dedi. Chin podshosi rozilik bildirdi.

Iskandar Chin shohining darhol rozi bo‘lganini ko‘rib: «Bu xirojni to‘lab, ado qilganingdan so‘ng ahvoling ne kechgay», deb so‘radi.

-Shunday bo‘ladiki, kim mamlakatimga hujum qilsa, albatta halok qiladi.

-Agar ikki yillik xirojingga qanoat qilsam-chi?

-U holda, avvalgi ahvolidan bir oz yaxshiroq bo‘ladi.

-Agar bir yillik xirojingga qanoat qilsam-chi?

-U holda mamlakatimga xalal yetmaydi. Agarchi bu mol bilan xazinam bo‘shab qolsa-da, ammo xushbaxtligim yo‘qolmaydi.

-Men yarim yillik xirojingga rozidurman.

Chin shohi shukur qildi va: «Falon kuni diydor ko‘rishsak, o‘z arkoni davlatingiz bilan bizning dasturxonimizga marhamat qilib, tanovvuldan keyin xirojni olib, so‘ngra qaytsangiz», dedi.

Tayinlangan kuni Iskandar o‘z arkoni davlati va askarlari bilan birga Chin shohi huzuriga jo‘nadi. Qarshi tomondan Chin shohining behisob askarlari kela boshladi. Oz fursat o‘tmay Chin askarlari Iskandar qo‘shinini ham o‘rab oldi. Chin shohining askarlari oldida Iskandarniki go‘yo daryodan tomchidek edi. Bu ahvolni ko‘rgan Iskandar vahimaga tushib, jang taraddudiga tushdi. Shu payt Chin shohi yetib kelib, Iskandarga ta’zim qildi. Iskandar Chin shohiga qarab: «Makr-hiyla qildingmi?» dedi.

-Kuchli podshohlar makr-hiyla qilmaydilar. Makkorlik ojizlar ishidir.

-U holda hisobsiz askarni yig‘ishning boisi nima?

-Bu hali hamma askarim emas, faqat o‘rta (qalb) qismi xolos. Maymana va maysara qismlari yetib kelishmadi. Men ojizligim tufayli senga itoat qilayotganim yo‘q. Senga shuning uchun o‘z askarlarimni ko‘rsatmoqdaman. Biroq shunga aminmanki, senga osmon davlati yordir. Kimki sen bilan bellashsa, u albatta yiqilajagini sezdim. Shuning uchun ham senga farmonbardor bo‘ldim.

-Sen izzat-ehtirom va ehsonlarga sazovor kishisan. Men sendan olmoqchi bo‘lgan mollarning bahridan kechdim, - dedi Iskandar.

Shundan so‘ng Chin shohi Iskandarni qarorgohiga boshladi. Keng sayxon yerga gilamlar to‘shalgan, butun askarga yetib ortgudek noz-ne’matlar dasturxonga qo‘yilgan. Maydonning yuqori qismiga la’ldan gul solingan, atlasdan chodir qurilgan. Chodir qimmatbaho zeb-ziynatlar bilan bezatilgan edi. Zarrin dasturxonlar ustiga qo‘yilgan oltin kosalar marvarid va javohirlar bilan to‘lg‘azilgan ediki, ularning qiymatini baholash amrimahol edi.

Chin shohi Iskandarni dasturxonga o‘tqazib, tanovul qilishni taklif qildi. Iskandar dedi:

-Bu javohirlar odamlar uchun ovqatlik qilmaydi.

-Bo‘lmasa, sen nima yeysan?

-Barcha inson yeydigan non yeyman.

-Vo ajab, Rumda non topish shunchalik mushkulmidi? Shuncha mashaqqatlar chekib bu yerlarga kelibsan?..

Iskandar yig‘ladi va: «Mening bu safarimdan hech qanday foyda bo‘lmasa-da, sening bu hikmatli panding barcha maqsad va talabimga

javob bo‘ldi», dedi. Shundan so‘ng Iskandar o‘z askarlariga orqaga qaytishga farmon berdi.

DONISHMAND VA SHER

Shariat qonunshunoslaridan biri ehtiyoj yuzasidan Kufadan chiqib borardi. Pichan o‘ruvchilarga o‘xshab eshagi ham bor edi. Eshakka o‘z choponlari va kitoblarini ortib olgan bo‘lib, gohida minib yana piyoda yurardi. U Kufa qishloqlaridan biriga bormoqchi, qishloq esa uzoq edi. Nihoyat, ko‘zlagan qishlog‘iga yetdi. Ammo kech kirib qishloqning darvozasi berkitilgan edi. Chunki, ularning odatiga ko‘ra, namozshomda daladan tuyalarni qishloqqa olib kirib so‘ng darvozani mahkam berkitardilar.

Donishmand qishloq darvozasini taqillatdi, hech kim eshikni ochmadi va unga shunday javob qildilar:

≪Bu kecha tashqarida orom olgin, tong otgach, ichkari kirarsan!≫

Bechora donishmand hayajonga tushdi. Qishloq darvozasining oldida masjid bor edi. Masjid yonida kunduz kunlari muazzin uchun ajratilgan uy bor edi. Donishmand mazkur uyning eshigidagi halqaga eshakni bog‘lab, o‘zi ichkariga kirdi. Bir oz o‘tin yig‘ib kelib, olov yoqdi. Shundan so‘ng, kitob ochib mutolaaga mashg‘ul bo‘ldi.

Kechaning bir qismi o‘tganda, nogoh sher kelib eshakka hamla qildi. Eshak sherdan hurkib uyning ichkarisiga kirdi. Eshak esa uydan qochib tashqariga chiqdi. Eshakning no‘xtasi eshik halqasiga bog‘langani tufayli eshak qochib tashqariga chiqqach, no‘xta tortilib, eshik zarb bilan yopildi. Donishmand bilan sher uyning ichida qoldilar. Sher hayrat ichida olovga tikilib turardi. Donishmand sherning hayratga tushganini ko‘rib, gulxanga olov qalay boshladi. Shu yo‘l bilan sherdan o‘zini himoya qilardi. Nihoyat, o‘tin tugadi. Donishmand esa o‘rnidan qimirlayolmas edi. U kitoblarni varaqma - varaq olovga tashlab, natijada hamma kitoblarni yoqib tugatdi. Tun bo‘yi xavf-xatarda bo‘ldi. Nihoyat tong otdi. Qishloq darvozasi ochilib, muazzin azon aytish maqsadida masjidga kelib, mehrob atrofini eshak axlati bilan ifloslangan holda ko‘rdi.

Muazzin baqirib, haqoratlar qilib eshik halqasidan eshakni yechdi. Bu bema’nilikni kim qilganini bilmoqchi bo‘lib, eshikni ochib ichkariga qaradi. Shu payt sher muazzinga chang solib uni masjiddan

tashqariga olib chiqib, majaqlab o‘ldirib yeb bo‘lgach, yana o‘z yo‘liga qarab ketdi.

Olloh-taoloning irodasi bilan sher yonida tun bo‘yi bo‘lgan donishmand uning changalidan salomat xalos bo‘ldi. Tashqaridan kelgan muazzin esa sherning qurboni bo‘ldi.

NASIHAT

Ahmad Abu Tayb amirulmo‘minin Mo‘tasadning eng yaqin va ishonchli kishilaridan biri edi. U Mo‘tasadga doim quyidagi pand-nasihatni ta’kidlardi: «Sen uch kishini o‘ldirishda hech tahammul qilma. Birinchisi, mulkingni egallashga harakat qilgan kishini, ikkinchisi, molingni o‘g‘irlagan kishini, uchinchisi, siringni fosh qilgan kishini».

Kunlardan bir kun amir Mo‘tasad o‘z vazirini ishdan bo‘shatish haqida Ahmad Abu Tayb bilan maslahat qildi. Vazir oqil va dono kishi edi. U Ahmad Abu Taybni uyiga ziyofatga chorlab, unga jon-dili bilan xizmat qildi va ko‘proq sharob ichirdi. Ahmad Abu Tayb ziyofat oxirida mast bo‘lib amirning vazir haqida gapirgan gaplarini vazirga so‘zlab berdi.

Ertasi kun vazir o‘z mol-mulkini ro‘yxat qilib, amirning oldiga qo‘ydi va: «E, amirulmo‘minin, ushbu mol-mulkning barchasi senikidir va men bu mollarga faqat posbondurman. Mazkur mollarni qabul qil va meni dushman deb gumon qilma», dedi. Amir vazirni e’zozlab, uni kechirdi. Amir Ahmad Abu Taybni chaqirib: «Men sirimni faqat senga aytgan edim, vazirga kim xabar berdi?» deb so‘radi.

Ahmad javob berib: «Sirni dushmanga aytishim, ajalim yetganidan dalolat beradi. Garchi mastlik bilan aytgan bo‘lsam-da, ammo mastlik uzr qatoriga o‘tmaydi. Endi senga qilgan pand-nasihatimga ko‘ra, meni o‘ldirishga farmon bermasang bo‘lmaydi. Aks holda saltanatingga katta zarar yetadi», dedi.

Amir Ahmad Abu Taybning ra’yini qaytarishga ko‘p harakat qildi. Biroq u o‘z so‘zidan qaytmadi. Amir noiloj uni o‘ldirishga farmon berdi.

BAQQOL QISSASI

Rivoyat qilibdurlarki, Fazl Sahlning boshiga davlat qushi qo‘nmasdan avval, u bag‘dodlik bir baqqol bilan do‘st tutingan edi.

Baqqolning nomini Xudobard deb atardilar. Fazl Sahl har vaqt Bag‘dodga kelsa, albatta baqqolning oldiga borar va baqqol ham uning yo‘liga peshvoz chiqib, sidqidil bilan xizmatda bo‘lardi.

Nihoyat, baxt Fazl Sahlga kulib boqdi va u Ma’munga vazir bo‘lib tayinlandi. Biroq taqdirning xilma-xil nayranglari avjga chiqib, Fazl Sahlning boshiga baxt qushi qo‘nganda, baqqolning ishi inqirozga yuz tutdi. Baqqol tijorat bobida harchand harakatlar qilmasin, baribir, foydasi bo‘lmadi. Qaysi matoni olmasin, kasod bozorida sarson bo‘laverdi. Nihoyat, bora-bora davlatmandlik darveshlikka mubaddal bo‘ldi.

Baqqol tirikchilik zarurati yuzasidan Bag‘doddan chiqib Xurosonga yuz o‘girdi va Fazl Sahl huzuriga tashrif buyurdi. Fazl Sahl baqqolning kelganidan xabar topib, darhol uni o‘z huzuriga taklif qildi va ko‘p iltifotlar ko‘rsatdi. Baqqolga shohona kiyimlar in’om qildi. Baqqolning sharafiga katta ziyofat berdi. Ziyofatga yig‘ilganlarga baqqolni tanishtirarkan: «Bu mening birodarim va eng yaqin do‘stimdir», dedi. Shundan so‘ng unga ikki yuz ming dinor in’om qildi va o‘zining xos anjumanlarida eng yaqin maslahatgo‘ylaridan biriga aylantirdi.

Kunlardan bir kun baqqol odati bo‘yicha Fazl Sahlning huzuriga kirdi va uni g‘amgin ahvolda ko‘rdi, undan parishonxotirlikning sababini so‘radi.

Hozir bizning lashkarlarimiz Bag‘doddadir,-deb javob berdi Fazl Sahl,- ayni dushman boshqa tomondan bizga hujum qilib kelmoqda. U tomonda esa dushmanga barobar keladigan darajada lashkarimiz yo‘qdir.

-Vazir bu borada g‘amgin bo‘lmasa ham bo‘ladi, zero bugun osmon ham bu davlatning ravnaqi uchun harakatda va falak ishboshilari kamarbastadirlar. Sennig birgina ishorating kifoyadir, barcha dushmanlar yer bilan yakson bo‘lurlar. Agar buyursang, men borib, bu mushkulotni sening boshingdan daf qilay.

Sahlga baqqolning fikri ma’qul tushdi va o‘zicha o‘ylarkan, yaxshisi, uni lashkar bilan jo‘natay, agar dushmanga g‘olib kelib uni yer bilan yakson qilsa, murod hosil bo‘lgay, agar ish aksincha bo‘lgan taqdirda ham... U baqqolga kamoli ishonch yuzasidan boshqa harakatni qilmadi va lashkarboshi, pahlavonlar hamda lashkarni yig‘madi. Baqqolni bir guruh askar bilan dushmanga qarshi yubordi. Baqqol dushmanga yaqinlashgach, o‘z askarlariga murojaat qildi:

«Sizlarga ma’lum bo‘lgayki, sizlar haqqoniyat ishi uchun bormoqdasizlar. Dushman esa adolatsizlik yo‘lidan kelmoqda. Adolatsizlikning umri esa qisqadir. Har kim dushmanni bandi qilib mening oldimga keltirsa, ul kishiga yuz ming dinor in’om qilurman».

Bu so‘zni eshitgan askarlar dushmanga barobar yopirilib hujum qildilar. Bu hujumda dushman askarlari tor-mor qilinib, lashkarboshini bog‘lab, baqqolning oldiga keltirdilar. Baqqol Fazl Sahl huzuriga maktub yo‘lladi. Maktubning mazmuni quyidagicha edi: «Amirga ma’lum bo‘lgayki, men bozor kishisidurman, fathnoma yozishni uddasidan chiqa olmayman va lekin shuni bildiramanki, maktub ortidan o‘zim ham yetib borurman va dushman boshlig‘ini bog‘lab olib borgayman, vassalom».

Fazl Sahl maktubni o‘qib ziyoda xursand bo‘ldi va amirulmo‘mininga xushxabarni yetkazdi.

Debdurlarki, o‘sha kecha Fazl Sahl tush ko‘ribdi, go‘yo Xudobard baqqolning fathi Fazl Sahlning baqqolga qilgan yaxshi ahdu paymonidan emish. Zotan, har kim yaxshi ahdu paymon bilan o‘z davlatidan do‘stlarni sarfaroz qilsa, u kishining o‘zi ham, bolalari ham ezgu fazilatlar bilan ta’minlangay.

BAHROMGO‘R VA KISRO

Yazdijurd sosoniylar sulolasiga mansub kishi bo‘lib, Eronning eng g‘addor va zolim podshohlaridan hisoblangan. Uning farzandlari voyaga etmay, nobud bo‘laverganidan podshohning ko‘ngli benihoya g‘am-anduhga to‘libdi. Bir kuni u shunaqayam xushbichim va xushsurat bir o‘g‘il ko‘ribdiki, kelajakda uning shahriyor bo‘lishi tash-qi qiyofasidan ko‘rinib turarkan.

Yazdijurd bu farzandining ham o‘lib qolishidan qo‘rqib, uni tarbiyalashni arab amiri Nu’mon Munzirga topshiribdn. Nu’mon Munzir Iroq shaharlaridan biri bo‘lgan, Ko‘fa yaqinidagi bahavo va xushmanzara erga joylashgan Hipa shahrining podshohi ekan.

Otasinnng amriga binoan go‘daknn o‘sha shaharga olib borishibdi. Nu’mon mehribon enagalar va g‘amxo‘r murabbiylar topib, bolannng tarbiyasini o‘shalarga topshirmog‘i lozim edi. U ko‘zga ko‘ringan, etuk uch xonadondan uch enaga topibdi. Bulardan biri Arabdan, ikkinchisi Ajam (Fors)dan, uchinchisi Turkdan ekan. Arabning gapga chechanlign, ajamning ochiq ko‘ngilligi, turkning shijoati Bahromgo‘rda mujassamlashibdi. Buning ustiga, uchala tilda ham erkin so‘zlasha oladigan bo‘libdi

Nu’mon Munzir uning sharafiga ikkita muhtasham qasr soldirib, biriga Sadir, ikkinchisiga Havarnaq deb ot qo‘yibdi. Arab mulki bino bo‘lib bunaqangi go‘zal imoratni ko‘rmagan ekan. Bahrom shu erda ulg‘ayib, kamol topibdn. Shijoat va jasorat bobida shu darajaga etibdiki, otgan o‘qi osmoni falakni teshib o‘tar, dushman kallasini tanasidan shartta uzib tashlar ekan.

Nu’mon Munzirning shamolday uchqur, aylanishda er kurrasi bilan bellashadigan bir oti bor ekan. Bir kun o‘sha otni va bir dunyo mol-davlatni Bahromga tortiq qilib:

-Nimani o‘zingga loyiq ko‘rsang, xammasi seniki, men hech narsani sendan darig‘ tutmayman,- debdi.

Bahrom uning lutf-u marhamatini bir olam uzr va tashakkurlar bilan qabul qilibdi. Shu bilan u mol-davlat va shon-shavkati oshib, hayotini shod-u xurramlik hamda kayf-u safo bilan o‘tkaza boshlabdi.

Unga Bahromgo‘r deb laqab qo‘yishining sababi shunda ekanki, bir kuni u Nu’mon bilan cho‘lda ov qilib yurganida gurxar (qulon)ga hujum qilib, uni g‘ajib tashlamoqchi bo‘lib turgan sherga ro‘para kelib qolibdi. Shunda Bahrom o‘q uzibdi. O‘q sherni teshib o‘tib, gurxarning qorniga sanchilibdi. Sher ham, gurxar ham o‘sha zahoti til tortmay o‘libdi. Shundan keyin u Bahromgo‘r laqabini olibdi.

Bahrom ulg‘ayib, dovrug‘i olamni tutibdi, u otasining xizmatiga bormoqchi, uni ziyorat qilmoqchi bo‘libdi. Bu haqda Nu’mon bilan maslahatlashgan ekan, u:

Shunday qilsang, savob ish bo‘lur edi,- debdi. Senga o‘xshagan o‘g‘il otasining xizmatini bajo keltirishi, yning duosini olishi ham farz, ham qarz. Senga o‘xshagan o‘g‘ildan har qanaqa ota jonini ham ayamasa kerak. Ammo esingda bo‘lsinki, sening otang johil va badfe’l odam. Mabodo dilingni ranjitib qo‘ysa, xafa bo‘lma, ko‘nglingga og‘ir olma.

- Mayli, shunday bo‘lsa ham,- debdi Bahrom,- yana bir bor uning diydorini ko‘rish, jamolidan bahramand bo‘lish ishtiyoqidaman.

So‘ng Nu’mon yo‘l tadorigini ko‘rib. bir qancha e’timodli odamlariga qo‘shib uni Madoin shahriga yuboribdi. Bahrom otasining saroyiga kelibdi, ammo otasi unga e’tibor bermabdi. Huzuriga chaqirmabdi ham, iltifot ham ko‘rsatmabdi. Uni o‘z holiga tashlab qo‘yibdi. Bunga Bahromning juda xo‘rligi kelibdi.

Bir kuni Bahrom uyqu g‘alaba qilib, ustunga suyanganicha

pinakka ketgan ekan, otasi bu holni ko‘rib darg‘azab bo‘libdi. Unga qattiq ozor berib zindonga solibdi. Bahrom birmuncha vaqt zindonda yotibdi. Ittifoqo Qaysari Rumning ukasi Madoinga elchi bo‘lib kelibdi va bu holdan voqif bo‘libdi. Bahrom undan madad so‘rabdi. U Yazdijurdga murojaat etib:

-Bu go‘dak arablar orasida ulg‘aygan, arablarning fe’li atvori hazrati oliylariga ayon: uni ozod qilib, Nu’monning huzuriga yuborsangnz ko‘p savob ish bo‘lardi,- debdi.

Yazdijurd Bahromning gunohidan o‘tibdi, hech qanaqa lutfu marhamat ko‘rsatmasdan, uni Nu’mon oldiga qaytarib yuboribdi.

Nu’mon esa uni zo‘r dabdaba bilan kutib olibdi, oyog‘i ostiga poyandozlar to‘shatibdi. Bahrom boshi osmonga etib, birmuncha vaqtni xursandchilik. ayshu ishrat va shikor bilan o‘tkazgandan keyin otasining o‘limi haqida xabar kelibdi.

Yazdijurdning vafotidan so‘ng a’yonu ashrof va sarlashkarlar yig‘ilishib shunday deyishibdi: «Biz Yazdijurdning dastidan juda ko‘p jabru zulm, xo‘rliklar ko‘rdik. Endilikda duolarimiz mustajob bo‘lib, uning zo‘ravonligidan qutuldik. Arabistonda uning o‘g‘li bor, lekin u g‘addorning naslidan birov podshoh bo‘lishini, otasi ko‘rsatgan kunlar qayta takrorlanishini xudo ko‘rsatmasin».

Ularning orasida sosoniylar davlatining asoschisi, Ardasherning o‘g‘illaridan Kisro (Xusrav I) bor ekan. Hammalari baravariga ixlos qo‘yib, toj-taxtni unga topshirishibdi.

Bahrom bu xabarni eshitib juda xafa bo‘libdi, ruhi tushibdi. Shom shahri pahlavonlaridan lashkar tuzib Madoinga yo‘l olibdi.

Eronning kazo-kazolari Bahromning bostirib kelayotganini eshitib vahimaga tushibdi, fitna qo‘zg‘alib, xalqning qoni bekorga to‘kilishidan tashvishlanishibdi.

Bir guruh arkoni davlat Bahromnnng oldiga borib, arzi hol qilnshibdi: «Nega keldnng? Biz otang dastidan juda ko‘p ranju alamlar chekdik. Endilikda, albatta, uning avlodidan barov bizga podshoh bo‘lishini aslo istamaymiz».

Bahrom ularni ochiq chehra bilan qarshi olibdi va shunday debdi:

-Otamning adl-insofdan ynroq podshoh bo‘lganligi menga ma’lum. Ammo mening istagim, aksincha, dodxoh bo‘lish, u nimani yirtgan bo‘lsa, o‘shani qaytadan tikib, yamash, nimami sindirib tashlagan bo‘lsa o‘shani qaytadan chegalab, o‘z holiga keltirish, u

qilgan yovuzliklar uchun sizlardan uzr so‘rashdir. Madomiki, shu odamni podshoh qilib ko‘targan ekansizlar, sizlarning istaklaringga qarshi borolmayman. Faqat bir iltimos, ertaga podshohlik tojini olib kelib, ikki och sherning o‘rta- siga qo‘yinglar. Kimki ikki sher orasidan tojni olishga jur’at etsa o‘sha odam podshoh bo‘lsin.

Bahromning bu so‘zlarini eshitgan, maqsadini anglagan, qaddu qomati, husnu jamolini ko‘rgan ashrofu a’yonlar qaytib kelib, davlat arkonlariga shunday deyishibdi:

- Bahrom hech kim bilan tenglashtirib bo‘lmaydigan bir siymoga o‘xshaydi...

Ertasiga davlat a’yonlari yig‘ilishib majlis qurishibdi va sherxonadan ikki och sherni olib chiqib, tojni ularning oldiga qo‘yishibdi-da, zanjirlarni echib yuborishibdi. Podshoh bo‘lishi kerak bo‘lgan ikki shahzoda - Bahrom bilan Kisro sherlarga yaqin-lashibdilar. Kisro och sherlarni ko‘rgach, jon shirin tuyulib, «men uchun jon mulkdan azizroq», debdi.

Bahrom: «Toj havasiga tushgan kimsa boshning bahridan o‘tmog‘i darkor», deb shaxdam olg‘a intilibdi va gurzini olib sherlarga hamla qilibdi. Sherlar unga tashlanmoqchi bo‘lib turganlarida, u otdan tushib, bir sakrashda sherlardan biriga minib olibdi-yu, ikkinchisining qulog‘idan mahkam ushlab, boshlarini bir-biriga uraveribdi. Miyalarini qatig‘i chiqib ketguncha ularni qo‘yib yubormabdi.

Shundan keyingina tojni erdan olib, boshiga kiyibdi. Birinchn bo‘lib unga ta’zim qilgan kishi Kisro bo‘libdi. Qolganlar ham bosh egishibdi. Shunday qilib Bahrom saltanat taxtiga o‘tiribdi...

O‘YINQAROQ SHAHZODA

O‘yinqaroq bir shahzoda otasining vafotidan so‘ng yurtni idora qilishni unutib, aysh-u ishratga berilibdi va sal vaqtda butun xazinani ko‘kka sovuribdi. Bu holdan xabar topgan bir qarindoshi, vaziyatdan foydalanib, mamlakatni bosib olibdi.

Podshohlikka havasi yo‘q shahzoda parvo qilmay toj-u taxtni topshiribdi-da, o‘zi bir guruh tekinxo‘rlar bilan yallo qilib yuraveribdi. Oqibatda bor-yo‘g‘idan ajralib, kafangado bo‘lib qolibdi.

Eski yor-do‘stlaridan birortasi uning holidan xabar olmabdi, aksincha, hammasi undan yuz o‘giribdi.

Shahzoda har kuni bozor boshiga chiqib o‘tirar va otasining g‘ulomlaridan biri uning qornini to‘yg‘izarkan.

Bir kun ko‘chaga chiqib o‘tirgan ekan, bezori o‘rtoqlaridan bir guruhi uni bir mazax qilish niyatida, oldiga kelishibdi.

-Yur, bir aylanib, dam olib kelamiz,- deb taklif qilishibdi. Shahzoda ularning taklifini qabul qilib, birga ketibdi. Boqqa borib sayr-u tomosha qilishibdi, oshpazga ovqat buyurishibdi. Oshpaz o‘choqqa o‘t yoqib, qozonga go‘sht solibdi.

Hamma kayf-u safoga berilib ketibdi. Shu chog‘, tasodifan, bir it kelib, qozondagi go‘shtni ilib ketibdi. Bir mahal qarashsa, qozonda go‘sht yo‘q emish. Bu faqat shahzodaning ishi, chunki necha kundan beri go‘shtning aftini ko‘rmagani uchun sabri chidamay, bizning ko‘zimizni shamg‘alat qilib, go‘shtni berkitib kelgan, deyishibdi.

Bu malomatdan shahzodaning ko‘ngli nihoyatda ranjibdi, go‘shtni men yeganim yo‘q, deb qasam ichsa ham baribir ishonishmabdi va uni kalaka qilishaveribdi.

Shahzoda, xayoli parishon, u yerdan chiqib ketibdi, bir chekkada o‘tirib olib, qon-qon yig‘labdi.

Buni eshitgan enagasi uning oldiga kelib:

— Bolajonginam, senga nima bo‘ldi?- deb so‘rabdi.

Shahzoda bo‘lgan voqeani aytib beribdi.

Kampir unga achinibdi va otasining muhri bosilgan xaritani olib kelib, unga beribdi.

- Bir vaqtlar otang: «Bolamnnig podshohlik qilishga qurbi yetmaydi, biror kun kelib muhtoj bo‘lib qolsa, shu xaritani unga ber», degan edi,- debdi.

Shahzoda xaritaning qatini ochgan ekan, orasidan uchta qog‘oz chiqibdi. Birida shunday deyilgan ekan: «Falon bog‘da kaptarxona bor, o‘sha kaptarxonaga borib, o‘sha yerdan falon tomonga yetti qadam yursang, sakkizinchisida o‘n ming dirham ko‘mib qo‘yibman, olib ehtiyojingga sarf qil. Ikkinchi qog‘ozda, falon kishiga o‘n ming dinor omonat berib qo‘yibman, uchinchisida esa, falon mag‘ribiyga o‘n ming dinor berib qo‘yibman, o‘sha pullarni shu odamlardan olsang, umringning oxirigacha hech kimga muhtoj bo‘lmaysan», deb yozilganmish.

Shahzoda bu uch qog‘ozni o‘qib suyunib ketibdi, darhol boqqa yuguribdi, kaptarxona yonidan o‘n ming dinorni, ikki kishidan o‘n mingdan yigirma ming dinorni olibdi-da, yana ilgarigiday kayf-u safo, aysh-u ishratga berilib yuraveribdi.

Shahzodaning ishi yurishib ketganidan xabar topgan eski jo‘ralari yana xira pashsha bo‘lib uning oldiga kelishibdi, qilmishlariga pushaymon bo‘lib undan uzr so‘rashibdi va u bilan yana apoq-chapoq bo‘lib ketishibdi.

Bir kun shahzoda ziyofat beribdi. Bazmga o‘sha jo‘ralarini ham taklif qilibdi.

Shahzoda, may ichib, sarhush bo‘lgandan so‘ng, o‘tkir olmos bilan bir nechta joyi teshib qo‘yilgan bir tegirmon toshini o‘ziga yaqinroq yerga keltirib qo‘yishlarini buyuribdi va o‘zi tashqariga chiqibdi.

Majlis ahli o‘sha toshni ko‘rib:

— Vo ajabo, bu toshni kim teshib qo‘ydi ekan, bunda qandoq hikmat bor ekan, - deb hangu mang bo‘lib qolishibdi.

Bu holatni uzoqdan kuzatib turgan shahzoda qaytib kelib, nima gapligini so‘rabdi.

— Bu tegirmon toshini kim teshdi ekan, deb taajjublanib o‘tiribmiz,- deb javob berishibdi do‘stlari.

— Otam zamonida, - debdi shahzoda,- Arabistondan bir odam birtalay chumoli olib kelgan ekan, o‘sha chumolilar toshteshar chumolilar ekan, bu teshiklar o‘shalarning hunari.

-Shunday bo‘lishi ham mumkin. Biz ham shunga o‘xshagan bir gapni eshitgan edik,- deyishibdi o‘rtoqlari.

Bu so‘zlarni eshitgan shahzoda o‘zicha shunday debdi:

«Subhonollo, bir burda go‘sht uchun o‘sha kuni chinakamiga shuncha qasam ichsam hech qaysisi ishonmagan edi. Hozir hech qanday aql bovar qilmaydigan yolg‘onni aytsam, hammalari tasdiqlab o‘tiribdi. Demak, bularning bari yaxshi kunimgagina yaraydigan do‘stlar ekan. Ammo menga yomon kunimga yaraydigan. nonim uchun emas, jonim uchun do‘st bo‘ladigan odamlar kerak...

SHOH VA TO‘RT POSBON

Hind mulki shohining eng ishonchli va ixlosmand to‘rt nafar xizmatkori bor edi. Ular yoshlikdan ishonch kamarini bog‘lab, ixlos jilovini qo‘lga kiritgan edilar. Mazkur to‘rt kishidan ikkitasi shohning xos posboni va qolgan ikkitasi uning maslahatchisi edi.

Posbonlar har kecha navbatma-navbat shohni qo‘riqlardilar. Ular yakka-yakka posbonlik qilar edilar. Bir kuni kechasi shoh istirohat qilib yotgan edi. To‘rt birodardan biri shohning yotog‘i oldida o‘tirib posbonlik qilardi. Nogoh uyning shiftidan katta bir ilon

pastga tushib keldi va shohning o‘rni tomon keldi. Ilon shohning xotinini zaharlash qasdida boshini ko‘tarib zarbaga hozirlandi. Buni ko‘rib turgan posbon o‘ylanib qoldi. «Agar bu ilon xotinni chaqsa, albatta o‘ldiradi. Ilonni daf qilmoq uchun xotinning boshiga borsam shoh uyg‘onib qolsa kerak...»

Shundan so‘ng o‘qni kamonga joylab, ilonga otdi. Bir o‘q bilan ilonni o‘ldirdi. So‘ng ilonni olib taxtning tagiga qo‘ydi. Ammo posbon malikaning ko‘kragida ilonning bir tomchi zahrini ko‘rgach, o‘zicha: «Agar malikaning ko‘kragidagi zaharni artib olmasam, u holda ta’sir qilishi muqarrardir va agar qo‘l tegizsam, nomus, muruvvat va diyonatdan yiroqdur», deb o‘yladi. Shundan so‘ng, bir oz lattani kamonning uchiga bog‘lab xotinning yotgan o‘rni yaqiniga bordi va kamonning uchidagi latta bilan xotinning badanidagi zaharni artib, orqasiga qaytayotganda shoh uyqudan uyg‘onib ko‘rdiki, posbon uning o‘rni yonidan ketib boryapti. Shoh undan gumonsiradi. Posbonning navbati tugab uyiga qaytdi. Uning o‘rniga boshqa posbon keldi. Shoh posbonga ovoz qildi: «Bu yoqqa kel va amrimga itoat qilib, borib birodaringning boshini kesib keltir!» dedi.

Yigit birodarining uyiga borib ko‘rdiki, u o‘rnida bamaylixotir istirohat qilib uxlab yotibdi. Yigit o‘z-o‘ziga dedi:

«Agar u gunohkor bo‘lganda edi, hargiz bunday uxlab yotmas edi”. Shundan so‘ng yigit shoh huzuriga qaytdi. Shoh so‘radi: «Boshini keltirdingmi?»

«Yo‘q”, - dedi yigit.

«Nima uchun?»

«Shuning uchunki, esimga bir hikoya tushdi. Ushbu hikoyani oliy zotning diqqat-e’tiboriga havola qilay, so‘ngra agar posbonlikka farmon bo‘lsa itoatda bo‘lsam», dedi yigit.

“Ayt-chi” - dedi shoh.

Yigit hikoyani boshladi:

Qadimda bir shoh bo‘lgan ekan. U ovga o‘ta ishqiboz ekan. Uning bir lochini bor edi. Chunonchi, har bir parvoz qilganda osmondagi semurg‘ni ham pastga olib tushardi. Shoh lochinini nihoyatda yaxshi ko‘rardi.

Ittifoqo, bir kuni shoh ovga borganda qarshisidan bir kiyik chiqib qoldi. Shoh kiyik orqasidan quvlab, izini yo‘qotdi va askarlaridan ajralib qoldi. Askarlari uni qidirib topolmadilar. Shohga tashnalik g‘olib keldi. Xizmatkor yo‘q edi. Otining egariga osib

qo‘yilgan jom bor edi. Shoh esa biror suvlik buloqni yoki biror soyalik daraxtni uchratish umidida u yoqdan-bu yoqqa ot solardi. Uzoqdan ko‘ziga daraxt ko‘rindi. Shoh o‘sha tomonga ot choptirdi va daraxt yoniga yetgach, o‘zini daraxt soyasiga oldi. O‘sha daraxtga ilon chiqib olgan edi. Shohni ko‘rishi bilan og‘zidan zahar toma boshladi. Shoh azbaroyi tashnalikning zo‘ridan buni havoning nami bo‘lsa kerak, deb o‘yladi. Jomni arqondan yechib olib daraxt ostiga qo‘ydi. Jom zahar bilan to‘ldi. Shoh jomni simirmoqchi bo‘lgan edi, lochin qanot qoqib shohning qo‘lidan jomni tushirib yubordi. Shoh ranjib, g‘amgin bo‘ldi. Jomni yana daraxt ostiga qo‘ydi. Ilon zahar sochardi va jomga tomardi. Shoh jomni ichmoqchi bo‘lgan edi, lochin yana qanoti bilan urib jomni to‘kib yubordi. Shoh tashnalikka chidolmay, darg‘azab bo‘lib, lochinni ko‘tarib yerga urdi va o‘ldirdi. Shu payt shohning xizmatkori yetib keldi va shohning xizmatiga qoyim bo‘ldi. Ammo lochinni o‘lik va shohni tashna holda topdi. Darhol jomni tozalab yuvib, toza suv quyib shohga tutdi.

«Lochinning o‘lishiga sabab nimadir?» deb so‘radi xizmatkor.

«Men tashna bo‘lib, g‘oyatda betoqat edim. Havo rutubatidan vujudga kelgan suvdan biroz olib, ichmoqni ixtiyor qilgan edim. Lochin qanotini qoqib jomni to‘kib yubordi. Ikkinchi marta yana shunday harakat qilib, suvni to‘kib yubordi. G‘azab o‘ti miyamga urdi. Lochinni yerga urdim va o‘ldirdim», dedi shoh.

Xizmatkor daraxt tepasiga qarab ilonni ko‘rdi. Ilon boshini yerga osiltirib zahar sochardi. Xizmatkor shohga dedi: «Lochinni begunoh o‘ldiribsiz. Yaxshilab tekshirib ko‘rmasdan turib, shunday aziz jonivorni bejon qilibsiz. Qarang! Lochin sizni qanday balodan qutqarib qolganini ko‘ring! Siz ko‘rgan suv havo rutubatidan vujudga kelgan suv emas, balki, zahri qotil ekan... »

Shoh ilonni ko‘rgach, lochinning o‘limiga ko‘p qayg‘urdi. Shoshqaloqlik bilan lochinni o‘ldirganiga ko‘p pushaymon bo‘ldi, lekin pushaymondan foyda yo‘q edi.

O‘z birodarimning boshini olsam va ertaga shoh o‘z qilmishidan pushaymon bo‘lsa, u holda afsuslanishning foydasi bo‘lmaydi, degan andishaga bordim. Podshoh indamadi. Posbonning vaqti tugab, o‘rniga boshqasi keldi. Podshoh unga buyurdi: «Farmonim shulki, borib falon birodaringning boshini tanidan judo qilib kelgin. Kimki shohlar haramiga xiyonat qilsayu va lekin jazolanmasa, uning oqibati butun mamlakatga zarar yetkazadi».

Posbon ta’zim qildi va birodarining uyiga bordi. Uni uxlab yotgan holda ko‘rdi. Posbon ko‘rdiki, birodarining ahvoli podshoh aytgan xiyonatga mone’lik qilardi. Posbon orqasiga qaytdi. Podshoh undan so‘radi: «Nima qilding?»

«Podshohning hukmiga muvofiq birodarimning boshini olmoqchi bo‘ldim. Biroq bir hikoyat esimga tushib, qaytib keldim. Toki janob oliyning diqqat-e’tiborlariga havola qilgayman», deb javob berdi posbon, «U qanday hikoya?» so‘radi podshoh.

«Hind kitoblaridan birida keltirilgandirki, zabardast va muzaffar bir podshoh bor ekan. Ko‘p muddatlardan buyon farzand ko‘rish orzusida ekan. Olloh uning murodini beribdi. Latif suratli, pokiza tal’at, peshonasida ulug‘vorlik namoyon farzand ko‘ribdi. Uning hatti-harakatidan xushaxloqlik zohir edi. Podshoh o‘g‘lining taqdiri uchun qayg‘urib, uning tarbiyasi uchun sog‘lom tanli, to‘g‘ri ko‘ngilli va yaxshi xulqli doyalar tayinladi.

Podshohning laychasi bor edi. Podshoh doim u bilan o‘ynashardi. Laycha doim podshoh o‘g‘lining beshigi oldida turardi.

Kunlardan bir kun uyning shiftidan katta bir ilon pastga tushdi va go‘dak yotgan beshikka qarab yurdi. Bu payt doya bolaning oldida yo‘q edi. Ilon bolaga zahar solmoq qasdida beshik tomon yura boshlagan edi, laycha ilonga hujum qildi. Ko‘p harakatlardan so‘ng ilonni o‘ldirdi va beshikning ostiga tashladi. Doya kelgach, laychaning og‘zi qon ekanini ko‘rdi, ammo nima uchun qon ekanligini tekshirib ko‘rmasdan, bolani laycha yeb qo‘yibdi, degan xayolga borib. darhol podshohning huzuriga chopdi. «Laycha o‘g‘lingni yeb qo‘yibdi», dedi.

Podshohga farzand dog‘i ustun kelib, anig‘ini bilmay turib. gurzi bilan laychaning boshiga urdi va uni o‘ldirdi. Shundan so‘ng, beshik oldiga kelib, farzandini salomat topdi. Beshik ostini qarab, katta ilon o‘ligini ko‘rdilar. Shundan so‘ng bildilarki, bu ilonni laycha o‘ldirgan ekan.

Podshoh laychaning o‘limiga juda ko‘p qayg‘urdi, ammo foydasi bo‘lmadi. Zotan, shoh ham laychani o‘ldirgan podshoh kabi ertaga pushaymon bo‘lib o‘tirmasin», dedi posbon.

Shoh bu so‘zni eshitgach, gunohkor posbonni chaqirib kelishga buyurdi. Gunohkor posbon hozir bo‘ldi. Shoh unga dedi: «O‘tgan kechasi sen bizning yotoqdan chiqib kelayotgan eding. Sen podshohlarning rashki xuddi otashdek bo‘lib, ozgina shamol tursa

alanga olishini va bu alangani minglab chelak suv bilan o‘chirib bo‘lmasligini bilmasmiding?»

«Shoh mening iffat va pokdomonligimni balodan nariroq va tuhmatdan tashqari tutsin. U bilan birga bo‘lmoq xato ekan. Hukmdorning o‘z muxlislari haqidagi gumoni yanglishdir. Agar shoh bu borada dalil-isbot talab qilsa, taxt ostini ko‘rsin, toki bandaning iffati va sidqidilligi unga ayon bo‘lgusidir», dedi posbon.

Shundan so‘ng shoh taxtning ostiga qarab, ilonni ko‘rgach, u sodiq xizmatkorni o‘ldirmaganiga xudoyi taologa benihoya shukrlar qildi. Uning birodarlari qilgan nasihatlari uchun ularga tahsinlar o‘qidi. Hammalariga in’omlar berdi.

Shundan so‘ng hech bir ishda shitobkorlik qilmadi va davlat boshqarish ishlarida sabr va matonat bilan ish tutdi.

HASADGO‘Y QO‘SHNI

Rivoyat qilibdurlarki, bir o‘taketgan baxil va hasadchi bor edi. Uning qo‘shnisi esa diyonatli, oqko‘ngil va oqil odam edi. Hasadchi o‘z qo‘shnisiga doim hasad qilar va undan ranjib yurardi. Binobarin, bir amallab qo‘shnisiga zarar berish yo‘llarini o‘ylar va turli-tuman vositalar bilan ozor yetkazardi. Ammo hasadchining otgan o‘qlari hammavaqt ham nishonga tegavermasdi. Mana shunday vaqtlarda hasadchi nima qilishini bilmay, armonda yurardi.

Nihoyat hasadchi bozordan bir qulbachcha sotib oldi va unga zo‘r iltifotlar ko‘rsatdi. U doim qulbachchaga: ≪Men seni o‘z maqsadim yo‘lida parvarish qilyapman. Mening bu maqsadimni, inshoollo, sen ro‘yobga chiqargaysan≫, derdi.

Vaqt-soati kelib, qulbachcha ulg‘ayib, kuchga to‘ldi. Bir kun kechasi hasadchi qulbachcha bilan qo‘shnisining tomiga chiqib, dedi: ≪Bilgil va ogoh bo‘lgilkim, men bu qo‘shnining dastidan jonimdan to‘ydim. Bir amallab uning boshiga kulfat tushishini istayman. Ammo orzuyim shu damgacha muyassar bo‘lmadi. Har kuni hasad o‘tidan yurak-bag‘rim biryon bo‘ladi. G‘am-g‘ussadan hayotim zaharlangan. To alhol, men seni shu maqsadim yo‘lida parvarish qildim. Endi shu kecha mana shu tomda meni o‘ldirasan va o‘ligimni qo‘shnimning tomiga tashlab ketasan. Ertalab odamlar o‘ligimni qo‘shnimning tomida ko‘rishgach, qo‘shnimni meni o‘ldirishda ayblaydilar. Nihoyat, mol-mulki talon-taroj qilinib, o‘zini zindonband qiladilar.

Men seni ozod qilaman va ozodlik vasiqangni qo‘lingga beraman. Toki bu shahardan chiqib boshqa shaharga borib maskan qurgaysan.

Qul dedi: ≪Eh, xoja, hech bir oqil odam bunday ishni qilmaydi. Dushmaning baxtsizligini hayotligingda ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Zotan, sen o‘lganingdan so‘ng dushmaningni o‘lik-tirikligini qayoqdan bilasan?..≫

Qul har qancha gapirsa ham hojasiga maqbul bo‘lmadi. Nihoyat qul hojasining qat’iy talabiga muvofiq, qo‘shnining tomida uni o‘ldirdi. O‘zi Isfaxon shahriga jo‘nab ketdi va o‘sha yerda istiqomat qila boshladi.

Sulton odamlari kelib, qo‘shnini odam o‘ldirishda ayblab, zindonband etdilar. Gunohsiz holda bir necha vaqt zindonda yotdi. Sulton odamlari u kishining gunohini bo‘yniga qo‘ya olmasdilar. Chunki, u kishini bilgan odamlar har kuni zindonga kelib: ≪Bu odamda bunday jinoyat aslo sodir bo‘lmaydi, chunki u bag‘oyat sofdil, diyonatli va yaxshi xulqli kishidir≫, deb guvohlik berardilar.

Kunlardan bir kun, u kishini taniydigan savdogarlardan bir guruhi Isfahonga borib, ittifoqo hasadchining qulini uchratib qoladi. Qul savdogarlardan qo‘shnining ahvolini so‘raydi. Ular qo‘shnining boshiga tushgan falokatlarni batafsil hikoya qiladilar. Qul o‘z hojasining kirdikorlarini hikoya qilib berdi. Savdogarlar o‘z shaharlariga qaytgach, bu haqda sulton odamlariga guvohlik berdilar va u begunoh kishi zindondan xalos bo‘ldi.

Oqillarga ma’lum bo‘lgayki, hasad o‘ti hasadchi jonini kuydiruvchi kushandadir.

VAFODOR IT

Qilgan sayohatlarimning birida Rumning eng ichkari shaharlaridan birida bo‘ldim. Men shahar voliysining suhbatida bo‘ldim. Uning qasri oldida bir maqbara bo‘lib, unda qabr bor edi. Voliy o‘z odati bo‘yicha har kun mazkur qabrni ziyorat qilardi.

Kunlardan bir kun, odamlardan: ≪Bu kimning qabri? deb so‘radim. ≪Bu itning qabridir≫, deb javob berdilar. Men hayron bo‘ldim.

Voliy bilan bo‘lgan navbatdagi suhbatda: ≪Itning qabri podshohlar uchun ziyoratgoh bo‘lib qolishdek sharafga it qanday qilib erishdi. Buning sababi nima?≫ deb so‘radim.

- Mening itim bor edi, - deb so‘z boshladi voliy. U katta ovchi it edi. Qachon ovga chiqsam uni o‘zim bilan birga olib chiqardim. Ovga bormagan vaqtlarimda u uyda bo‘lardi.

Ittifoqo, bir kun bir muhim ish bilan mashg‘ul bo‘lib, oshpazga ovqat buyurdim. O‘sha kuni ovga bormaganim uchun itni ham uyga kiritgan edim. Oshpaz qozonning qopqog‘ini ochib qo‘yib, ovqat pishgunga qadar o‘z ishi bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Nogoh, uyning shiftidan bir zaharli ilon qozon ichiga yiqilib tushadi. It buni ko‘rgan. Itdan boshqa hech kim bu voqeani ko‘rmagan. Oshpaz kelgach, it faryod chekib vovillar va qozonning yoniga kelib o‘zini qozonga urardi. Oshpaz esa voqeadan bexabar bo‘lgani uchun itga ahamiyat bermasdi. Nihoyat, men ishdan bo‘shab o‘z borgohimga chiqib o‘tirdim. Oshpaz ovqatni kosalarga suzib, mening oldimga olib keldi. It ham oshpaz bilan birga mening oldimga faryod chekib, g‘ingshib kelardi. Hozir bo‘lganlar bu voqeadan hayratga tushgan edilar.

Nihoyat, oshpaz kosalarni bizning oldimizga qo‘ygach, it kosalarga hamla qildi. Uni urib haydadilar, biroq u ketmadi. It tumshug‘ini kosaga tiqib ovqatdan yedi, o‘sha zahoti dasturxon ustiga yiqilib o‘ldi. O‘z aziz jonini menga fido qildi. Bergan tuzimni o‘z hayotini men uchun nisor qilish bilan oqladi.

Shundan so‘ng, biz taftish qilib ko‘rdik. Zaharli ilon voqeasi ma’lum bo‘ldi. Itning kamoli vafodorligi ma’lum bo‘ldi. Bu joyni uning uchun bino qildim.

PARVEZ VA BAHROM QISSASI

Bahrom Cho‘bin Parvezning pahlavonlaridan edi, Parvez uni g‘oyatda ulug‘lar va unga ehtirom nazari bilan qarardi. Bir kun bir xiradmand kishi Parvezga quyidagi xabarni yetkazdi: ≪Bahrom Cho‘binga tegishli xizmatkorlardan biri xiyonat qilgan edi. Bahrom Cho‘bin xizmatkorni ushlab yigirma tayoq urishga farmon berdi≫.

Parvez rind tabiatli shoh bo‘lgani sababli, bu so‘zdan nafratlanib, g‘oyatda ranjidi. Ertasi kuni Bahrom saroyga kelgach, Parvez xazinachiga xazinadan ikki qilich va bir qin keltirishni buyurdi. Ikki qilich va bir qinni keltirib Bahromga berib: ≪Har ikkala qilich qanaqa ekan≫, deb so‘radi. ≪Nihoyatda yaxshi qilichlar ekan≫, deb javob berdi Bahrom. ≪Buyur! Har ikkala qilichni bir qinga solsinlar≫, dedi Parvez. ≪Ikki qilich bir qinga sig‘maydi≫, dedi Bahrom.

≪Shunday,-deb davom etdi Parvez,- ikki hukmdor ham bir shaharga sig‘maydi!≫

ROSTGO‘YLIK ISBOTI

Rivoyat qilibdurlarkim, bir savdogar doim Chin mulkiga safar qilardi. Chin mulkining xoni bu savdogarni nihoyatda e’zozlab, in’omlar berib turardi. Kunlardan bir kun savdogar Chin mulkining xoni bilan suhbatlashib o‘tirarkan, har xil ajoyibotlardan so‘zladi. Suhbat asnosida savdogar shunday dedi: ≪Arab yerida bir qush bor, nihoyatda ulkandur. Uning forscha nomi ushturmurg‘ondur, oyoqlari tuyaning oyoqlariga o‘xshash. Bu qush olov yeydi...≫

Savdogardan bu naqlni eshitib, Chin mulkining xoni g‘azablandi: ≪Vallohi azim, yolg‘on gapirding. Dunyoda qanaqa jondor borki, u olov yesa! Bunday yolg‘onchi kishilar bilan birga o‘tirish xato, so‘zlashish ham gunohdir, - deya o‘rnidan turdi va darbonlarga buyurdi: - Bu kishini ko‘chaga chiqarib tashlanglar va bundan buyon saroyga kiritmanglar≫.

Saroydan haydalgach, savdogar o‘ylab-o‘ylab Iroq mamlakatiga yo‘l oldi. U Iroqdan o‘n nafar tuyaqushni sotib oldi. Ularning har birini alohida-alohida qafaslarga solib, daryo yo‘li bilan Chin mamlakatiga keldi. Ammo tuyaqushlardan to‘qqiz nafari dengiz kasaliga chiday olmay yo‘ldayoq o‘ldi. Faqat bir dona tuyaqushgina Chin mamlakatiga salomat yetib kelgan edi. Savdogarning kelishidan xonga xabar berdilar. Xon savdogarni qabul qilmadi va posbonlarga buyurdi: ≪U yolg‘onchini ko‘rishga toqatim yo‘q. U yana qanday yolg‘onlarni olib keldiykin? Uni hargiz bu yerga kiritmanglar!≫ Savdogar xonga bir qissa yozib kiritdi. Unda shunday deyilgan edi: ≪Xon hazratlari mendan bekorga ranjidilar va meni behurmat qildilar. Men xon hazratlariga aytgan so‘zimni oqlash niyatida o‘n dona tuyaqush keltirdim. Ulardan to‘qqiztasi yo‘lda o‘ldi. Bittasi tirik holda yetib keldi. Xohlardimki, ushbu qushni o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rsangiz va bundan buyon savdogarlarni yolg‘onchilikda ayblamasangiz. Shuningdek, Alloh taoloning nimani xohlasa shuni yaratishga qodir ekanligiga ishonch hosil qilsangiz. Zeroki, yaratuvchining qudrati va karami benihoya kengdir. Xudoyi taolo uchun mazkur qushni va buning misolida boshqa xil jonivorlarni yaratmoq mahol emasdur≫.

Xon qissani o‘qigach, savdogarni o‘z oldiga chaqirdi va qushni keltirishni buyurdi. Tuyaqushni keltirdilar. Savdogarning taklifiga

binoan har bittasi yuz dirham qiymatga ega bo‘lgan zarrin toshlardan 200 tasini qizitdilar. Toshlar xuddi olovdek shu’la sochardi. Shundan so‘ng toshlarni tuyaqush oldiga keltirib qo‘ydilar.

Tuyaqush esa toshlarni cho‘qib - cho‘qib yuta boshladi. Toshlar tuyaqush me’dasiga borib qizdirgach, ularni rad qilib chiqarib tashlardi. Buni ko‘rgan xon va saroy a’yonlari hayratdan lol bo‘lib qoldilar. Xon savdogarning bu yo‘lda sarflagan barcha xarajatlarini ortig‘i bilan qaytardi va savdogarga qarab: ≪Hargiz bunday rost so‘zni so‘zlamagilkim, zero, so‘zingni isbotlash uchun umring azob-uqubat va mashaqqatda o‘tmog‘i muqarrardur≫, dedi.

BEHRO‘Z VA RO‘ZBEH

O‘tgan zamonda Javhariy ismli bir kishi bo‘lgan ekan. U javohirlarni bilishda yetuk ustod va javohirot ilmida mahorat paydo qilgan edi.

Ittifoqo, viloyat podshohlaridan biri o‘z mamlakatida bo‘lgan javohirlarni saralash va xazinaga loyig‘ini ajratib, qolganini xarj qilish maqsadida Javhariyni o‘z viloyatiga taklif qildi. Javhariy safar taraddudiga tushdi. Uning xotini homilador edi. Binobarin, safar oldidan xotiniga:≪Agar homilang yetib, o‘g‘il tug‘sang nomini Ro‘zbeh deb atagin. Agar qiz tug‘sang, o‘zing munosib ko‘rgan nomni qo‘yarsan≫, deb jo‘nab ketdi. Bir necha muddatdan so‘ng uning xotini ikki o‘g‘il tug‘di. Birining nomini Ro‘zbeh qo‘ydi, ikkinchisini Behro‘z deb atadi.

Javhariy podshohning xizmatida bir yil qolib ketdi. Xotini esa bolalarining ahvoli va tirikchiligi haqida Javhariyga xat yozib turdi. Javhariyning qalbida xotin, bola-chaqasini ko‘rish ishtiyoqi kundan-kunga ortib borardi. Bir yildan so‘ng podshohdan ijozat so‘radi. Javhariyga javoban podshoh, shunday dedi: ≪Senga ijozat bermayman, albatta. Ammo biror ishonchli odamni yuborib, xotin va bolalaringni shu yerga olib kel≫. Yana bir oz sabr qilay, deb o‘yladi Javhariy.

Yana bir yil o‘tgach, ijozat so‘radi, boz ijozat bo‘lmadi. Shunday qilib, olti-yetti yil o‘sha yerda qolib ketdi. Bu vaqtda uning farzandlari o‘sib, xat yozish, qur’on o‘qishni o‘rganib, axloq-odob ilmidan saboq oldilar. Javhariyning yuragida o‘z farzandlarini ko‘rish orzusi nihoyatda tug‘yon urgan edi. Biroq podshohdan ijozat ololmasdi.

Nihoyat, zarurat yuzasidan xotini va bolalarini olib kelish uchun odam yubordi.

Xotin va bolalari safar taraddudini ko‘rib yo‘lga chiqdilar. Nihoyat, ular Javhariy istiqomat qilayotgan shaharga yaqinlashdilar. Shahar tashqarisidan katta anhor o‘tar edi. Javhariyning xotin va bolalari o‘sha anhor yoqasiga tushdilar va o‘zlarining kelganlari haqida Javhariyga xabar berdilar.

Javhariy otga minib, farzandlarining istiqboliga chiqib, anhor labiga keldi. Uning farzandlari tomosha maqsadida anhor labiga kelib, bir-birlari bilan o‘ynashmoqda edilar. Javhariy ularni ko‘rmaganligi sababli, ular o‘z farzandlari ekanini bilmasdi. Javhariy tahorat qilib boshqa joyga o‘tib, namozga mashg‘ul bo‘ldi. Namoz asnosida bir bo‘lak oltinni anhor labida qoldirib kelgani esiga tushdi. Darhol mazkur joyga qaytib bordi va oltinni qidira boshladi, ammo topolmadi. Ko‘zi o‘ynab yurgan go‘daklarga tushdi va ulardan so‘radi: ≪Men bu yerga bir bo‘lak oltin qo‘ygan edim, mabodo sizlar olmadilaringmi?≫

≪Biz ko‘rmadik≫, deb javob berdi bolalar. Suv bo‘yida sizlardan boshqa hech kim yo‘q, oltinni topib beringlar, bo‘lmasa azob-uqubatga giriftor qilaman≫, dedi Javhariy.

Go‘daklar hayron bo‘lib Javhariyga tikilib turardilar. Javhariy jahli tez odam edi. U har ikkala bolani anhorga tashladi.

Bir ozdan so‘ng bolalarning onasini ovozi keldi: ≪Ey mening Ro‘zbehim va Behro‘zim, qayoqdasizlar axir, bu yoqqa kelinglar!≫

Javhariy xotinini ovozidan tanib, otini u tomonga burdi, otdan tushib xotinini quchog‘iga oldi va farzandlarini so‘radi. Anhor bo‘yini tomosha qilgani ketganlar, deb javob berdi xotini. Javhariy farzandlarining belgilarini so‘rab bilgach, yoqasini yirtib dod-faryod qila boshladi.

Farzandlarining firoqida biror soat yig‘lagach, Javhariy, ≪mening hayotim farzandlarim tufayli xush edi, ularni o‘zim nobud qildim. Endi bu viloyatdan ketishim lozim≫, dedi.

Shundan so‘ng Javhariy o‘sha yerning o‘zidan boshqa shaharga qarab ravona bo‘ldi. Ittifoqo, suv go‘daklarni bir-biridan ajratib, birini boshqa qirg‘oqqa, ikkinchisini yana boshqa qirg‘oqqa chiqarib tashlagan edi. Mazkur qirg‘oq bo‘yiga qo‘shni mamlakatning

podshohi shikorga kelgan edi. U yerda xushsurat go‘dakni ko‘rib, undan so‘radi: ≪Sen kimsan?≫

Go‘dak o‘z ahvolini podshohga bayon qildi. Go‘dakka podshohning rahmi keldi va undan so‘radi:≪Seni isming nedur?≫

≪Ismim Behro‘zdir≫, dedi bola.

Podshoh Behro‘zni o‘ziga o‘g‘illikka qabul qilib, uni o‘zi bilan birga saroyga olib ketdi.

Ro‘zbehni esa qaroqchilar jamoasi topib oldilar va uni sotib pulini bo‘lishib olishga qaror qildilar. Qaroqchilar Ro‘zbehni shaharga olib keldilar.

Ittifoqo, ushbu shaharga Javhariy ham yetib kelgan edi. Kunlardan bir kun Javhariy qul bozoridan o‘tayotib qaroqchilar tomonidan bozorga keltirilgan yosh bolaga ko‘zi tushdi. Javhariyning otalik mehri jo‘sh urib, bolani sotib olishga qaror qildi. Oltin berib, bolani sotib oldi va uyiga olib keldi. Javhariyning xotini ko‘zi bolaga tushishi hamono faryod chekib, bu sening o‘g‘ling-ku, dedi.

Javhariy o‘g‘lini topganidan behad xursand bo‘ldi. Ro‘zbeh qalbida otaning mehri jo‘sh urdi. ≪Bitta farzandimizni topdik. Endi yana o‘sha podshohning huzuriga qaytib borishimiz lozim≫, dedi Javhariy. Shundan so‘ng o‘sha podshoh huzuriga ravona bo‘ldilar. Podshoh Javhariyga mulozamat ko‘rsatib, uning martabasini oshirdi, Javhariy o‘z ilmini Ro‘zbehga o‘rgatardi. Shuningdek, unga to‘g‘rilik bilan egrilikning bir-biridan farqi nimada ekanligini tushuntirib borardi. Nihoyat, Ro‘zbeh o‘z ilmida mahorat qozondi. Javhariy Ro‘zbehga sarmoya berib, savdogarchilikka yubordi. Ittifoqo, Ro‘zbeh birodari Behro‘z istiqomat qilayotgan shaharga borib qoldi. Behro‘zni o‘g‘illikka qabul qilgan podshoh vafot etib, o‘rniga Behro‘zni valiahd qilib tayinlagan edi. Ayni vaqtda, Behro‘z podshohlik qilar va fuqaroni tinch, osoyishta saqlardi. Ro‘zbeh Behro‘zning huzuriga bordi.

Uzoq muddatlar davomida ko‘rishmaganliklari tufayli, bir-birlarini tanimadilar. Shoh Behro‘z Ro‘zbehga turar joy va ozuqa berishlarini buyurdi. Ro‘zbehning olib kelgan javohirlarini qimmat bilan sotib oldilar. Ro‘zbeh katta foyda ko‘rdi. Shoh Behro‘z Ro‘zbehga, ≪mening xizmatimda qolsang barcha maishat asbobini muhayyo qilardim≫, deb xabar berdi. ≪Podshohga xizmat qilmoq men uchun vojibdir, ammo menda bir mone’lik bor. Ota-onam

diydorimga mushtoqdurlar, ularga xizmat qilmoqlik menga farzdir≫, deb javob berdi Ro‘zbeh.

≪Maktub yoz! Toki ota-onang shu yerga kelsinlar≫, dedi podshoh Behro‘z. Ro‘zbeh ota-onasiga maktub yozib, kelishlarini iltimos qildi va podshohning marhamati hamda dildorligi haqida bayon qildi.

Itgifoqo, shu davrda shoh Behro‘zning mamlakatiga dushman hujum boshladi. Shoh Behro‘z o‘z lashkarlarini yig‘ib, dushmanni daf qilmoq uchun yubordi. Saroy yolg‘iz qolgandi. Kechasi u Ro‘zbehni o‘z huzuriga chorlab, u bilan sharobxo‘rlik qildi. Behro‘z uxlash uchun yotdi. Ro‘zbeh esa o‘zicha: ≪Bugun tunda posbonlar yo‘qdir, men tong otguncha posbonlik vazifasini bajarishim lozim≫, dedi. Shundan so‘ng, qilichini yalang‘ochlab, shohning bosh tomoniga o‘tib o‘tirdi.

Shoh Behro‘z yuborgan lashkar dushmanga zarba berolmay orqaga chekindi. Lashkarboshilar shohga o‘z odamlarini yuborib, undan o‘z g‘amini yeb harakat qilishini iltimos qildilar. Yuborilgan odamlar saroyga kelib, shohni uxlagan va Ro‘zbehni esa shoh boshida yalang‘och qilich ushlab turgan holda ko‘rdilar. Ular bong urib, podshohga qasdi bor ekan, deb Ro‘zbehni ushlab bog‘ladilar, Shoh uyqudan turgach, sodir bo‘lgan ahvolni unga hikoya qildilar. Shoh Ro‘zbehga qarab: ≪Men senga nima yomonlik qildimki, menga bunday mukofotni ravo ko‘ribsan?≫ dedi. ≪Shohning umri uzoq bo‘lsin!.. Bu kecha posbonlar yo‘qligi tufayli, dushman ayg‘oqchilari fursatdan foydalanmasligi uchun tong otguncha posbonlik xizmatini o‘tadim. Binobarin, ko‘zim uyquga ketmasin uchun butun vujudimni bir oyoqda tutib turgan edim. Meni dushman deb bilma≫, dedi Ro‘zbeh. ≪Uni zindonga olib boringlar! Jangdan qaytib kelgach, bu voqeani tuzukroq tekshirib ko‘rarman≫, dedi podshoh.

Ro‘zbehni zindonga olib ketdilar. Qo‘l-oyog‘iga zanjir solib, qatl qilmoq taraddudida bo‘ldilar. Podshoh jang maydoniga borib, dushmanlarni tor-mor qilib, saroyga qaytdi.

Xuddi shu kuni Ro‘zbehning ota-onasi mazkur shaharga yetib keldilar. Ular farzandlarining ahvolini surishtirgach, bildilarki, ularning farzandi bandda ekan. Ular podshoh huzuriga borib arz qildilar: ≪Ey adolatli shoh, bizlar ikki notavon bechoralardurmiz. Bizlar shohning adolatli ovozasi bilan bu yerga kelgan edik. Behro‘z

va Ro‘zbeh nomli ikki farzandi dilbandimiz bor edi. Qazoyi muallaq har ikkisini bizning qo‘limizdan tortib oldi va ikkalasi suvga g‘arq bo‘ldi. Ko‘p ranj-mashaqqatlardan so‘ng Xudoyi taolo Ro‘zbehni bizga yana qaytarib berdi. Ammo Behro‘zdan xabar bo‘lmadi. Biz bu yerga kelib eshitdikki, podshoh Ro‘zbehni zindonga solibdur. Ne bo‘lgayki marhamatli shoh biz tufayli uning gunohidan kechsa hamda Ro‘zbehni biz g‘arib-benavolarga in’om qilsa...≫

Behro‘z ularning qissasini eshitib bo‘lgach, ko‘zlaridan yosh oqib, o‘zini taxtdan pastga tashlab, ota-onasining poyqadamlarini bo‘salar qildi va: ≪Men o‘sha sizlarning Behro‘zlaringizman va zindonda yotgan mening birodarimdir≫, deb darhol zindonbonga odam yuborib Ro‘zbehni zindondan olib keltirdi. Onasini esa haramga jo‘natdi. Ular qolgan umrlarini haramda o‘tkazdilar.

Bu voqeaning barchasi shoshmashosharlik va sabrsizlikning natijasidir.

Donolarga ma’lum bo‘lg‘aykim, bir kishi o‘zining shoshqaloqligi natijasida ranj va beqarorlikka giriftor bo‘lsa, ikkinchi kishi o‘zining sabr va matonati tufayli murodiga yetgusidir.

SODDA ODAM

Bag‘dod ko‘chalaridan birida bir sodda odam eshak minib ketayotgan ekan, ketidan bo‘yniga qo‘ng‘iroq osilgan echkisi qo‘ng‘irog‘ini jiringlatib borar ekan. Uch o‘g‘ri uni ko‘rib qolib, biri:

Men hozir borib, bu odamning echkisini o‘g‘irlab kelaman,- debdi.

— Agar sen shu ishni qilsang,-debdi ikkinchisi,- men unnng eshagini o‘g‘irlab kelaman.

— Shu ham ish bo‘ptimi,- debdi uchinchisi,-men, hozir uning egnidagi to‘nini o‘g‘irlab kelaman.

O‘g‘rilardan biri darrov soddannig ketiga tushibdi va qulay fursat topib, qo‘ng‘iroqni echkining bo‘ynidan yechib, eshakning dumiga bog‘labdi.

Eshak dumini qimirlatgan sari qo‘ng‘iroq jiringlayveribdi, sodda odam echki orqada kelyapti, deb o‘ylab, bemalol ketaveribdi.

Ikkinchi o‘g‘ri bir tor ko‘chaning boshida turib olib:

— Dunyoda ajab sodda odamlar bor-da,- debdi,- hamma qo‘ng‘iroqni eshakning bo‘yniga ossa, bu odam dumiga taqibdi.

Sodda orqasiga qarasa, echkisi yo‘q. «Echkimni kim o‘g‘irladi?»-deb dod solibdi.
O‘g‘ri soddaga:
— Birov mana shu tor ko‘chaga echki yetaklab kirganini hozirgina ko‘rib qoldim,- debdi.
Sodda unga:
— Hoy, birodar, umringdan baraka topkur, birpas eshagimga qarab tur, men echkimni topib kelay,- debdi.
— Mayli,- debdi o‘g‘ri,- lekin tezroq kel. Men shu machitnnng so‘fisiman, uzoq qarab turishga fursatim yo‘q.
Sodda ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi bilanoq o‘g‘ri eshakni olib qochibdi.
Uchinchi o‘g‘ri bir quduqning labiga borib o‘tiribdi. Ham echkisi, ham eshagidan ajralgan sodda paydo bo‘lishi bilan dod sola boshlabdi. Sodda bu holni ko‘rib:
— Hoy birodar, senga nima bo‘ldi?-debdi.- Mening echkim bilan eshagimni o‘g‘irladilar, sen nega dodlaysan?
— Qo‘limdagi durr-u javohirlar solingan quticham quduqqa tushib ketdi, o‘zim quduqqa tusholmayman. Agar qutichani olib chiqsang, senga o‘n dinor oltin beraman,-debdi o‘g‘ri.
Sodda to‘nini yechib, quduqqa tushibdi. O‘g‘ri fursatdan foydalanib, to‘nni olib qochibdi.
Sodda quduqning ichidan, bu yerda hech narsa yo‘q-ku, deb baqiribdi. Hech qanday javob bo‘lmabdi. Quduqdan chiqib qapasa, haligi kishidan nom-nishon yo‘q emish.

Sodda odam ikkita cho‘pni bir-biriga urib o‘tiraveribdi. Odamlar buni ko‘rib:
— Hoy birodar, jinni-pinni bo‘ldingmi, nega bekordan-bekorga shaqillatib o‘tiribsan? - deb so‘rashgan ekan, u:
-Nima qilay, mabodo o‘zimni ham o‘g‘irlab ketishmasin deb ehtiyot chorasini ko‘rib o‘tiribman,- debdi.

HAROMDAN PARHEZ

Dengiz savdogarlaridan biri Basra shahrida yashardi. Har yili kemani yuk bilan to‘ldirib, hammadan ilgariroq Chin mamlakatiga safar qilardi. Kunlarning birida savdogar kemani tayyorlab, safarga hozirlik ko‘rardi. Har kim mol olib kelib savdogarga berar va u kemaning safarda salomat bo‘lishi uchun ularning molini qabul qilardi. Nogoh bir mo‘ysafid o‘zi bilan birga bir qop qalayi olib keldi va: ≪Ey hoja, men sening oldingga hojattalab bo‘lib keldim.

Chunonchi, ushbu qopdagi qalayini kemangga solib, dengizning o‘rtasiga borganda suvga tashlab yuborsang. Toki qilgan nazirim ijobat bo‘lsa≫, dedi. Savdogar mo‘ysafidning molini qabul qildi va uning ismi, nasabi va turar joylarini so‘rab daftariga yozib qo‘ydi. Shundan so‘ng qalayini kemaga solib safarga chiqdi. Kema dengiz o‘rtasiga yetganda, shamol turib to‘lqin kuchaydi.

Dengizning quturishi natijasida mo‘ysafidning aytgan vasiyati savdogarning xayolidan ko‘tarildi. Nihoyat, kema salomat Chin mamlakatiga yetib bordi. Mollarni xaridorlarga ko‘rsatdilar. Savdogar mollarni birin-ketin sotardi. Bir kuni bir yigit bandargohga kelib: ≪O‘zlaringiz bilan birga qalayi olib keldingizlarmi?≫ deb so‘radi.

Savdogarning esiga mo‘ysafid va u bergan qalayi tushdi va yigitga qarab: ≪Bir kishi menga biroz qalayi berib, ushbu qalayini dengizga tashlashimni vasiyat qilgan edi. Ammo dengizdaligimda esimdan chiqqan ekan. Endi ushbu molni senga sotib, puliga boshqa mol olib egasiga olib borib topshirganim ma’qul ko‘rinadir≫, dedi.

Shundan so‘ng, mazkur bir qop qalayini yigitga sotdi va puliga yaxshi mollardan olib Basraga jo‘nadi. Savdogar Basraga yetgach, mo‘ysafidni topib, Chin mamlakatidan olib kelgan molni unga topshirmoq uchun ko‘p qidirdi. Nihoyat, mo‘ysafidning mahallasiga borib uni so‘radi. ≪Mo‘ysafid vafot qilgan≫, deb javob berdilar.

Savdogar odamlardan mo‘ysafidning biror vorisini so‘radi. Ukasining o‘g‘li bor edi. Ammo mo‘ysafid uni ko‘p ranjitar edi. Doim jiyaniga, sen meni o‘limimni kutyapsan, deb ranjitar edi. Nihoyat, jiyani bu shahardan bosh olib ketdi va g‘ariblikni ixtiyor qildi. To alhol yigitning qayerda ekanini haligacha hech kim bilmaydi≫, deyishdi.

Savdogar mo‘ysafid uchun olib kelgan mollarini 700 dinorga sotdi. Pulni mo‘ysafid nomiga o‘tkazib, to vorisi topilguncha omonat saqlab turib, voris topilgach, omonatni topshirmoqqa qaror qildi.

Bir necha muddat o‘tdi. Bir kun savdogar o‘z do‘konida o‘tirgan edi, bir yosh yigit kelib unga salom berdi va: ≪Ey hoja, meni tanidingmi?≫ dedi. ≪Yo‘q≫, deb javob berdi savdogar. ≪Men o‘sha Chin elida sendan qalayi sotib olgan yigitman. Men qalayini uyga olib borib sindirib ko‘rsam, barchasining orasiga oltin quyilgan ekan. Men o‘zimcha, oltin emas, qalayi sotib olgan edim. Binobarin, bu oltinlar

menga haromdir, deb sening orqangdan izma-iz qidirib bu yerga keldim. Toki, oltinlaringni o‘zingga topshirgayman≫.

≪Ey xoja, -dedi savdogar, -mazkur qalayi falon mahallalik falon mo‘ysafidning moli edi. U menga qalayini topshirayotib, dengizning o‘rtasiga borganda qalayini suvga tashlab ketishimni vasiyat qilgan edi≫.

Yigit bu so‘zni eshitib tabassum qildi va Xudoga hamd-u sanolar o‘qib, dedi: ≪Ey hoja, bilginki u mo‘ysafid mening amakim edi. Bu boylikni suvga g‘arq qilishdan maqsadi, meni boylikdan mahrum qilish edi. Ammo Alloh taolo mazkur mablag‘ni menga nasib qilgan ekan. Zotan, turli vosita va vasilalar bilan menga yetkazdi≫.

Yigit o‘zining kim ekanligini va mo‘ysafidga merosxo‘r ekanligini isbotladi. Savdogar o‘z qo‘lidagi 700 dinorni ham yigitga topshirib, dedi: ≪Xudo senga bu boylikni omonatga xiyonat qilmaganing tufayli berdi. Sen haromdan parhez qilding, Xudoyi taolo senga halol boylikni ato qildi≫.

O‘ZGAGA CHOH QAZISANG...

Rivoyat qilishlaricha, qaysidir mamlakatning shohi har xil tabaqaga mansub kishilarni o‘z saroyiga chaqirdi.Yig‘ilganlar orasidan bir kishi o‘rnidan turib podshohga dedi: ≪Shoh, men sening huzuringga bir hikmatli so‘z keltirdim. Agar ijozat bo‘lsa aytay?≫ Shoh ijozat berdi. Donishmand hikmatga og‘iz ochdi: ≪O‘z-o‘zidan ma’lumki, yaxshi kirdikorli kishiga yaxshi mukofot berasan. Ammo yomon kishini jazolashga oshiqma, garchi mashaqqatli bo‘lsada, sabr qil, toki u o‘zining yomon kirdikorlaridan jazo topgay≫, dedi.

Podshoh bu so‘zni ma’qul ko‘rdi va shayxga ma’lum miqdorda moyana belgilab, dedi: ≪Sen har kuni saroyga kelib, ushbu hikmatli so‘zni takrorlaysan, toki hamma eshitsin≫. Shunday qilib, shayx kunda saroyga kelib, jamoat o‘rtasida yuqoridagi hikmatli so‘zni takrorlardi. Shoh, unga in’omlar berib, xushnud kelardi.

Shayxning oshnalaridan biri shayxga o‘xshash voiz edi. U shayxning podshohdan olayotgan in’omlariga hasad qilar har doim o‘z-o‘ziga, ≪Ozgina harakat bilan katta davlatga ega bo‘lish... bunga aslo chidab bo‘lmaydi≫, derdi. Nihoyat, hasad o‘ti shu’lalandi. Bir kun u podshohning oldiga borib shayx ustidan ig‘vo boshladi: ≪Shoh, sen bir tagi past, badkirdor shayxga bag‘oyat ko‘p iltifotlar ko‘rsatib, uni suhbatingga noil qilibdursan. Boz ustiga katta moyana

belgilabsan. Ammo u ko‘rnamak har yerda har xil odamlar o‘rtasida seni mazah qilib, ustingdan kulib yuradur. Chunonchi, ≪Podshohning og‘zidan badbo‘y va noxush hid keladur≫, deydi≫. Shoh so‘radi: ≪Bu so‘zingni qanday dalil bilan isbot qilasan?≫

≪Bunga isbot uldurkim, -dedi hasadchi, -shayx ertaga va’z aytmoq uchun bu yerga kelsa, uni o‘z yoningga o‘tqazib, u yoq-bu yoqdan suhbatlash. Shunda u darrov qo‘li bilan og‘zi va burnini berkitib oladi≫.

Ertasi bomdoddan so‘ng, hasadchi shayxning uyiga borib, uni mehmonga taklif qildi. Shayx podshoh saroyiga ketayotib, yo‘l ustida hasadchinikiga kirdi. Hasadchi ugra oshga ko‘proq sarimsoq solib, shayxning oldiga qo‘ydi va zo‘r berib, ugrani ichishga undadi. Shayx ovqatni tez-tez ichib, o‘z vaqtida saroyga yetib keldi. Podshoh hasadchining so‘zidan haligacha beqaror va g‘azabda edi. Shayxni o‘z oldiga chaqirib u bilan suhbatlasha boshladi. Suhbat asnosida shayx o‘zining og‘zidan kelayotgan sarimsoq hidi magar podshohning dimog‘iga kirib noxush qilmagay, degan andisha bilan o‘z og‘zi va burnini qo‘li bilan berkitib turardi. Podshoh bu ahvolni ko‘rib o‘zicha o‘yladi: ≪Kechagi odamning so‘zi to‘g‘ri ekan...≫ Podshoh, bir xat yozdi. Xatda shunday deyilgan edi: ≪Ushbu xat olib boruvchini darhol o‘ldir!≫ U xatni posbonga olib borishni va undan in’om olishni tayinladi.

Shayx xursand, xatni olib, shohning oldidan tashqariga chiqdi. Eshik oldida hasadchi oshnasi turardi. Shayxni xushnud ahvolda ko‘rib, so‘radi:

-Nima gap?

-Shoh menga in’om tayinladi, -deb qo‘lidagi maktubni ko‘rsatdi. Hasadchi hayron bo‘lib, o‘ylardi: Shunchalik harakat qilsam ham bari bir bo‘lmadi≫. Hasadchi shayxdan iltimos qila boshladi: ≪Ushbu in’omni bir safar menga ber. Meni minnat va zahmatdan qutqar. Vaqti kelib albatta buning mukofotini ko‘rarsan≫, dedi.

Shayx ertalab uning uyida ovqatlangani tufayli hech narsa deya olmadi. Xatni hasadchiga berdi. Hasadchi xatni olgach, posbon oldiga yugurdi. Posbon ul kishini qattiq qiynoqlar bilan o‘ldirdi. Bu xat boshqa odam uchun yozilgan edi, deb hasadchi faryod qildi, foydasi bo‘lmadi.

Ertasi kun shayx saroyga kelib, yana o‘sha hikmatli so‘zni

takrorladi. Podshoh shayxni oldiga chaqirib, xatni kimga berganini so‘radi.

-Siz bergan in’omni falonchi kishi mendan iltimos qilib oldi. Men xudo yo‘lida unga berdim, -dedi shayx. Podshoh ajablandi va shayxga qarab:

-Qiziq o‘sha kishi bizga kelib sening haqingda xunuk xabar bergan edi. Chunonchi, sen har yerda ≪podshohning og‘zi sassiq≫, der emishsan, -dedi. Shayx hech qachon va hech qayerda bunday so‘zni aytmaganligiga qasam ichdi va dedi: ≪O‘sha kuni og‘iz-burnimni berkitishimning sababi, ul kishi meni uyiga olib borib, ovqatga sarimsoq qo‘shib bergan edi≫.

Podshohga shayxning begunohligi ma’lum bo‘ldi va dedi: ≪Sen aytgan hikmatli so‘zning hikmatini amalda ko‘rdik: O‘zi qazigan chohga o‘zi yiqildi≫.

GADOYLIKNI O‘RGANGAN SAVDOGAR

Nishopur shahrining savdogarlaridan bir guruhi har xil mavzularda o‘zaro suhbatlashardilar. Nogoh ularga latofatda yagona, malohatda durdona, qomati barkamol va andomi oshuftaxol bir qiz yaqin keldi. Qizning kiygan kiyimlari yirtiq va yag‘iri chiqqan edi. Juldur kiyimning yirtig‘idan ko‘rinib turgan qizning badani xuddi bulutlar orasidan yartirab turgan quyoshdek nur sochib turardi. Qiz o‘z badanini yopishga harchand urinmasin, baribir uddalay olmasdi. Bir tomonini yopsa, ikkinchi tomoni ochilib ketardi. Shu alfozda qiz savdogarlarga takalluflar qilib qo‘l cho‘zarkan: ≪Ey ahli davlatmand, rahm qiling! Ey, katta sarmoya va boylik egalari, mendek zahmatga giriftor bo‘lgan baxtiqaro, usti yupun qizga xayr-sahovat ko‘rsatinglar≫, derdi.

Savdogarlar shunday malaksiymo qizning tuban ahvoliga sidqidildan achindilar va o‘z ehsonlarini qizning qo‘liga tutqazdilar.Nihoyat, savdogarlardan biri qizga dedi: ≪Ey qiz, sen bag‘oyat go‘zal va zebo ekansan. Shunchalik husn-malohating bo‘la turib, nima uchun biror kishini xohlab, uning nikohiga kirmaysan? Yoki bu mushkul ahvoldan qutulsang...≫

≪Ey hoja, - dedi qiz, - fuqaro va kambag‘al bilan quda bo‘lishni va darveshlar bilan hamsuhbat bo‘lishni kim xohlaydi?≫ Haligi savdogar dedi: ≪Mana men xohlayman! Mening behisob mol-mulkim bor. Agar sen xohlasang

nikohimga olaman va barcha mol-mulkimni sening yo‘lingga fido qilaman≫.

- Mening valine’matim bordir. Agar u ijozat bersa, men nikohingga kirishga rozidurman.

- Valine’mating qayerda, meni uning oldiga olib bor, toki uning rizoligini olayin!

- Mening orqamdan yur, seni uyimizga olib boray.

Qiz oldinda, uning ketidan savdogar borardi. Nihoyat, bir ko‘chaga kirdilar, ul ko‘chada bir do‘kon bor edi. Qiz savdogarga do‘kon oldida kutib turishni tayinlab, o‘zi pastki ko‘chaga kirib ketdi. Biror soatlardan so‘ng bir kishi kelib, savdogarni chaqirdi. Savdogar ul kishining ketidan borib, bir saroyning eshigiga yetdi. Saroy eshigidan kirgach, katta bir bog‘ namoyon bo‘ldi. Bog‘ning yuqori qismida bir necha imoratlar bo‘lib, savdogarni o‘sha uylardan biriga olib kirdilar. Uyning ichi chandon bezatilgan, orasta ediki, kishi har qancha tomosha qilmasin, ko‘zi to‘ymas edi. Chunonchi, uyning devorlariga zarrin dorpechlar, oyoq ostiga ipak gilamlar to‘shalgan edi. Savdogarning istiqboliga xushtabiat, shirinsuxan, nuroniy bir mo‘ysafid peshvoz chiqib u bilan quchoqlashib ko‘rishdi va qadamlariga hasanot o‘qidi, mehmon supaga o‘tirgach, mezbon tashqariga chiqib, sharbat keltirdi. Sharbat ichib tugatilgach, xilma-xil laziz taomlar keltirdilar. Taomlardan yeb, forig‘ bo‘lishgach, mo‘ysafid mezbon mehmondan so‘radi: ≪Mehmonning sharob ichmoqqa rag‘batlari qalay, toki, hazmi taom, sababi istirohat bo‘lgay!≫ Savdogar sharobga mayli borligini bildirdi. Mezbon xizmatkorlarga sharob keltirishni buyurdi. Sharob keltirdilar. Paydarpay qadahlar ko‘tarildi. Sarxush savdogar sharob ta’sirida so‘zamollik doirasiga kirdi va o‘zini hayratga solgan g‘aroyib voqeani mo‘ysafiddan so‘rab bilishga oshiqdi:

- Men bugun bu yerga kelib, uyingizdagi jihozlar va boyliklarni ko‘rib hayratga tushdim. Zero, sizdagi boylik va jihozlar zamonamizning davlatmand va sarmoyadorlarida ham yo‘qdir. Ammo men bir narsaga hayrondurmanki, shunday badavlat xonadon qizining ko‘cha-ko‘yda xayr-ehson so‘rab, tilanchilik qilmog‘iga bois nedur?

- Ey xoja, - dedi mezbon, - men bir gado kishidurmen, bu mening kasbimdir. Men qizim bilan birga har kun bir Nishopur dinori keltiramiz. Xotinim ham taxminan shuncha keltiradi. Men ham, qizim

ham xotinimdan kam olib kelmayman. Mening daromadim asosan mana shu. Sen bugun qizimning tilanchiligini ko‘rding. Endi erta tongda masjidga kelgil, toki meni va xotinimning kasbini ko‘rib, mushohada qilgaysan.

O‘sha kecha mezbon savdogarni yaxshilab mehmon qildi va behad iltifotlar ko‘rsatdi. Kechasi mehmonga toza ko‘rpalardan o‘rin solib berdilar. Tong otgach, savdogar uyg‘onib o‘rnidan turarkan, mezbon: ≪Tahorat qilib bo‘lgach, bozor o‘rtasidagi masjidga bor, toki men va xotinimning kasb-korimizdan ogoh bo‘lgaysan≫, dedi.

Savdogar bilan mo‘ysafid masjidga bordilar. Odamlar masjidga kela boshladilar. Masjid sahni odamlar bilan to‘lgach, mo‘ysafid o‘rnidan turib, yoqimli xushovoz bilan ajoyib, kulgili latifalardan so‘zlay berdi. Toki odamlarning ko‘ngli erib, dillarida rahm-shafqat iplari tortildi. Shundan so‘ng mo‘ysafid asl muddaoga ko‘chib, dedi: ≪Ey xaloyiq bilinglarkim men nontalab, muhtoj bir kishidurman. Xudoyi taolo barcha bandalarning rizqini azal qismatda yaratgandur. U kam ham bo‘lmaydi, ko‘paymaydi ham. Shuning uchun siz yaxshilarning in’omlaringizdan bahramand bo‘lmoq uchun bomdod vaqtida masjid eshigiga keldim. Nogoh oyog‘im ostida hamyonni ko‘rdim. Yerdan olib qarasam, ichi to‘la oltin taqinchoqlar ekan. Men o‘z-o‘zimga:≪Bu hamyon biror kishiniki bo‘lsa kerak. Albatta tushirib ketgan. Har narsa bo‘lsa ham masjidga olib kiray, balki egasi topilib qolar≫, degan andisha bilan bu yerga olib keldim. Mana o‘sha hamyon, muhtaram imomimiz marhamat qilib hamyonni ochib jamoatga ko‘rsatsinlar. Agar hamyonning egasi topilsa, hamyon ichidagi oltin buyumlarning nishonasini aytsin va buyumlarini qaytarib oling...≫

Imom hamyonni ochib ahli jamoatga ko‘rsatdi va ≪hamyon yo‘qotgan kishi bo‘lsa o‘rtaga chiqsin≫, deb nido qildi. Ammo hamyon egasi topilmadi. Shundan so‘ng, hamyon ichidagi oltin buyumlarni hisoblab ko‘rdilar va ikki yuz dinordan ortiqroq baholadilar. Hamyonning to egasi topilguncha, imomga topshirdilar. Masjidga yig‘ilgan ahli jamoat mo‘ysafidni olqishlab duo qildilar. Zero, bir nontalab kishining ko‘chada hamyon topib, unga xiyonat qilmay masjidga olib kelishi har qancha maqtovga arzigulik ishdur, deb ofarin va tasannolar o‘qidilar. Shu payt mo‘ysafid o‘rnidan turib, jamoatga qulluq qilib, dedi: ≪Ey xaloyiq, meni bir oylik tirikchilik

mashaqqatidan xalos aylab biroz in’om qilsalaringiz, bag‘oyat xushnud qilur edingiz≫.

Ahli jamoat sidqidildan o‘n dinor miqdorida mo‘ysafidga in’om qildilar. Shundan so‘ng, bomdod namozini o‘qidilar va masjiddan chiqmoqchi bo‘lib, eshik tomon yura boshladilar. Nogoh masjid eshigi tagida faryod chekib yig‘layotgan xotinni ko‘rdilar. U o‘z boshiga musht urib tinmay faryod qilardi. Odamlar undan hol so‘radilar; ≪O‘zing kimsan, nima uchun bunchalik faryod chekib, bezorilik qilasan?≫ Xotin: ≪Men kelinlarning sochini tarab, oro beruvchi pardozchi xotinman. Qo‘shnilarimdan bir darvish qizini erga berayotgan edi. Qo‘shnim mendan to to‘y o‘tguncha, boy xonadonlardan oltin taqinchoqlarni omonat keltirib qizimga oro bersang savobga qolarding, deb iltimos qildi. Men bir necha xonadonlardan omonatga taqinchoqlar olib, ko‘zga oro berdim. To‘y o‘tdi. Men qizdan taqinchoqlarni yechib olib, kecha kechqurun o‘z egalariga tarqatish maqsadida ko‘chaga chiqdim. Ammo, qaysi til bilan aytayki, taqinchoqlar solingan hamyonni ko‘chada tushirib ketibman. Tuni bilan ko‘chalarni kezib qidirdim, ammo topmadim. O‘zim birovlarning xizmatini qilib, bolalarimni boqib yurgan notavon ayol bo‘lsam, mening gapimga kim ham ishonardi. Endi bugun egalariga oltin buyumlarini qayoqdan olib beraman... Endi men xarob bo‘ldim, bolalarim yetim qoladigan bo‘ldi≫, deb zor-zor yig‘lab abri bahordek ko‘z yoshini to‘kardi.

Ahli jamoat xotinga dedilar: ≪Qo‘rqma, buyumlaring insofli va diyonatli kishining qo‘liga tushgan. Sen yo‘qotgan narsalaring nishonasini aytsang, hozir qo‘lingga topshiramiz≫.

Xotin oltin buyumlarning nishonasini birma-bir aytdi. Ahli jamoat tahsin va ofarinlar aytib, hamyonni xotinga topshirdilar. Xotin ahli jamoatga qarab dedi: ≪Ey musulmonlar, Xudoni o‘rtaga qo‘yib aytamanki, bundan buyon hargiz pardozchilik kasbini qilmayman. Xudo yo‘lida menga biroz in’om qilinglar, toki bozordan paxta olib, ip yigirib sotib, bolalarimni boqay≫, deb zorlandi. Unga odamlarning rahmi keldi va rahm-shafqat yuzasidan bir necha dinor oltin yig‘ib berdilar. Shu bilan ahli jamoat masjiddan tarqaldilar.

Mo‘ysafid esa savdogarni o‘z uyiga boshlab bordi. Savdogarni o‘tqazib, oldiga taomlar qo‘yarkan, dedi: ≪Ey xoja, bugun sen bizning kasb-korimizdan voqif bo‘lding. Bu ko‘rganing gadoychilik

hunarining yetmish ikki xil nav'idan birgina latifadir. Binobarin, biz ushbu yo‘llar bilan mol-dunyo to‘playmiz. Endi sen mening irodamga bo‘ysunsang, menga kuyov bo‘lishga sendan ko‘ra tuzukroq odam bo‘lmaydi. Lekin men mahrni gadolikdan hosil bo‘lgan mablag‘dan olmoqqa ahd qilganman. Agar shu ish amalga oshsin desang, gadoychilik qilasan. Gadolikdan ma'lum mablag‘ni qo‘lga kiritganingdan so‘ng, qizimni senga nikohlab berurman≫. Savdogar dedi: ≪Men behad mol-mulkka egaman. Meni hamma taniydi. Qanday qilib odamlar oldida qo‘l uzatib xayr-ehson so‘rayman? Yo‘q, sharm-hayo bunga yo‘l qo‘maydi...≫

Mo‘ysafidni shayx Abbos der edilar. U dedi: ≪Men senga o‘rgatay, sen bir necha kun uydagi mulozim va xizmatkorlaringga tundlik bilan muomala qil. Xalq o‘rtasida o‘zingni tangdil va noumid ahvolga kirit. Shubhasiz, oshna-og‘aynilaring sendan hol-ahvol so‘raydilar. Ularning ichidan eng oqil, eng fozil kishini tanlab, o‘z ahvolingni quyidagicha bildir: ≪Men shu kunlarda katta baxtsizlikka uchradim.

Barcha mol-mulkim talash bo‘ldi. Ahvolim shu darajaga yetdiki, ikki kundan buyon xarj qilish uchun hech vaqo yo‘q. Birovdan qarz so‘rashga uyalaman. Hech kimda o‘tkazib qo‘ygan molim yo‘q. O‘limdan boshqa chora qolmadi. Zero, ochlikdan yiqilib, oshna-og‘aynilar oldida rasvo bo‘lgandan ko‘ra o‘lganim ming marta yaxshiroqdir≫, degin va bu so‘zlarni chandon baland ovoz bilan bayon qilginki, eshitgan odamga ta'sir qilsin. Ana shundan so‘ng, savdogarlar sening uchun pul yig‘ib beradilar≫.

Savdogar o‘z ≪ustozidan≫ bu so‘zlarni eshitgach, uyiga borib, bir necha kun hech kimga ko‘rinish bermay, o‘zini ma'yus va nihoyatda g‘amgin ko‘rsatdi. Nihoyat, savdogarning ahvolidan xabar topgan uzoq-yaqindagi oshna-og‘aynilari uni ko‘rgani kela boshladi. Ular savdogarning boshiga tushgan g‘am va anduh sababini so‘radilar. Ammo savdogar hech narsa demas, ilgarigidek g‘amga botib o‘tiraverardi.

Kunlardan bir kun uning oldiga yaqin og‘aynisi ko‘rgani keldi va g‘am-g‘ussaning sababini so‘radi. Savdogar shayx Abbosdan olgan saboqlariga amal qilib, o‘z ahvolini unga batafsil bayon qildi. So‘z oxirida, bu mash'um sirni hech kimga aytmaslik va maxfiy saqlashni do‘stidan iltimos qildi. Ammo u kishi savdogarning uyidan chiqib,

do‘stlarining davrasiga bordi va savdogarning boshiga tushgan voqeani hikoya qildi.

Do‘stlar o‘zaro mablag‘ yig‘ib, yordam tariqasida savdogarning qo‘liga topshirdilar. Savdogar mazkur mablag‘ni olib shayx Abbosning oldiga bordi. Shayx Abbos savdogarni birinchi g‘alaba bilan muborakbod qildi va dedi: ≪Endi qizimni senga beraman, shu shart bilanki, bundan buyon hargiz savdogarchilik qilmaysan...≫

-Subhonolloh, -dedi savdogar. -Ko‘p zamonlardan savdogarchilik qilardim. Molim xatarda, jonim azobda; boz ustiga shuncha azob-uqubatlar bilan qo‘lga kiradigan foyda o‘n dinor, juda ko‘p bo‘lsa, yigirma dinordan oshmas edi. Endi-chi, sarmoyasiz, hech narsa sarf qilmasdan yuz dinor qo‘lga kiritdim. Endi bu ishdan aslo tavba qilmayman va bu doimiy g‘animatni qo‘ldan chiqarmayman.
Shayx Abbos dedi: ≪Endi bu ish dilingga mahkam o‘rnashdi≫. Shundan so‘ng shayx Abbos qizini savdogarga nikohlab berdi.

OMONATNI SAQLAGAN MARD YIGIT

Damashq shahrida bir savdogar har kimning omonat molini saqlar va bu xizmati uchun ma’lum darajada haq olardi. Savdogarning asosiy daromadi ana shu omonat saqlashdan kelardi. Kunlardan bir kun savdogar omonatga xiyonat qilib qo‘ydi. Bu xabar shaharning hamma aholisiga ma’lum bo‘ldi. Shundan so‘ng barcha savdogarlar, boyonlar va hunarmandlarning undan ixlosi qaytdi. Savdogar yakkalanib qoldi. Sekin-asta ishi orqaga ketib, kambag‘allashdi va ko‘p kishilardan qarz so‘rab, qarzdor bo‘ldi. Savdogarning ko‘p oqil va dono bir o‘g‘li bor edi. O‘g‘li otasining boshiga tushgan baxtsizlikni eshitdi. Ammo yordam qilishga ojiz, binobarin, chidam va matonat bilan sabr qildi.

Savdogarning o‘g‘li Abdumalik Marvon lashkarboshisining qo‘shnisi edi. Ittifoqo, Abdumalik Marvon lashkarboshini bir guruh askarga boshliq qilib Rum mamlakatiga qarshi urushga yubordi. Lashkarboshi savdogarning o‘g‘lini o‘z uyiga chaqirdi va uyni holi qilib: ≪Bilgilki mening bir yosh qizim bordir. Shunga atab birmuncha mablag‘ to‘plaganman. Hozir Rumga safarga ketmoqdaman. Binobarin, ushbu mablag‘ni senga omonat topshirmoqchiman. Agar safardan salomat qaytsam, seni ko‘p xursand qilurman. Mabodo, biror shikast yeb, qaytmasam, u holda ushbu omonatning o‘ndan biri senga haloldir. Qolganini esa farzandim

ehtiyoj sezganidagina farzandimga berursan≫, dedi.

Lashkarboshi o‘n ming dinor oltin chiqarib, yigitga topshirdi va hech qanday hujjat talab qilmadi. Shundan so‘ng lashkarboshi Rumga jo‘nab ketdi va ko‘p o‘tmasdan urushda halok bo‘ldi. Yigit esa hamon omonatni bezarar saqlab kelardi. Nihoyat, savdogar o‘z o‘g‘lining qo‘lidagi omonatdan xabar topdi.

- Ey, o‘g‘lim, - dedi savdogar, - kambag‘allik va tangdastlikdan azobdaman. Qo‘limizda shuncha naqdina oltin turibdi. Agar ijozat bersang ushbu oltindan bir miqdorini olib qarzlarimga bersam va tiriklik ehtiyoji yo‘lida sarf qilsam. Baribir, bu oltinlarni sendan talab qiluvchi biror muayyan kishi yo‘q-ku...

- Sen omonatga xiyonat qilib shu ahvolga tushding. Mening esa jonim ketsa ham, omonatga xiyonat qilmagayman.

Shu voqeadan bir necha vaqtlar o‘tgach, lashkarboshi farzandlarining ahvoli mushkullashdi. Ro‘zg‘or, tirikchilik vajhidan qiynalishdi. Shundan so‘ng, lashkarboshining farzandlari yigitning oldiga kelib, Abdumalik Marvon nomiga ariza yozib berishni iltimos qildilar. Lashkarboshi farzandlari arizada otalarining yaxshi xizmatlari evaziga Abdumalik Marvondan yordam so‘radilar. Arizani o‘qib ko‘rgan Abdumalik Marvon ularga quyidagi javobni berdi:≪Har kim o‘ldirilgan bo‘lsa, u kishining nomi bayt ul-mol daftaridan o‘chiriladi...≫

Ular saroydan noumid bo‘lib qaytdilar. Yigit ulardan ahvol so‘radi. Ular Abdumalik Marvondan eshitgan va ko‘rgan muomalalarini hikoya qilib, ma’yus bo‘lib, jim qoldilar. Shunda yigit ularga qarab: ≪Otalaringiz menga omonat mol topshirib, ushbu moldan o‘ndan biri seniki, deb vasiyat qilgandir. Yana degan ediki, farzandlarimning ahvoli yomonlashgan taqdirda ushbu oltinlarni ularga topshirursan. Men to shu damgacha omonatga xiyonat qilmay, mollaringizni saqlab keldim. Otangizning muhri bosilgan hamyon to alhol salomat saqlanib kelmoqda. Mana endi sizlarning ehtiyojlaringiz menga ma’lum bo‘ldi. Endi molni sizlarga topshirsam bo‘ladi. Menga vasiyat qilgan ulushni o‘z qo‘llaringiz bilan berursizlar≫.

Yigit o‘n ming dinorni ularning oldiga olib chiqib qo‘ydi. Ular ming dinorni yigitga berib, qolganini olib ketdilar. Shu bilan ularning og‘ir ahvoli yaxshilandi.Qiyinchilik va yo‘qchilikdan qutuldilar.

Bir necha muddatlardan so‘ng xalifa marhum lashkarboshini

esladi va uning farzandlarining ahvoli haqida surishtirdi. Saroy a'yonlari marhum lashkarboshi farzandlarining ahvoli ancha yaxshilanib ketgani va aysh-ishratda umr kechirayotganlari haqida so‘zladilar. Xalifa hayron bo‘ldi: ≪Axir, ular o‘zlarining miskin ahvollari haqida ariza yozib yordam so‘ragan edilar-ku≫, deb ularni topib saroyga keltirishni buyurdi. Yasovullar lashkarboshi farzandlarini saroyga keltirdilar. Xalifa ulardan ahvol so‘radi. Ular dedilar: ≪Haqiqatan ham bizning ahvolimiz yomonlashib, qashshoqlik girdobiga cho‘kayotgan edik. Ammo otamiz savdogarning o‘g‘liga o‘n ming dinor oltinni omonat bergan ekan. Bundan hech kimning xabari yo‘q edi. Savdogar o‘g‘liga bizning ehtiyojmandligimiz ma'lum bo‘lgach, o‘sha omonatni bizga topshirdi≫. Bu so‘zlarni eshitgan xalifa:

- Omonatga xiyonat qilmay diyonat bilan saqlamoq shunchalik bo‘lgay. Birov kattagina mablag‘ni birovga omonat bersa va o‘zi o‘lib ketsa, molni talab qilib oluvchi egasi bo‘lmasa-da, u kishi o‘zi qidirib kelib omonatni egasiga topshirsa. Bunday zot hamma sohada yetuk va mo‘tabar shaxsdir, - dedi.

Xalifa savdogar o‘g‘lini saroyga chaqirtirib, unga faxrli liboslar in'om qildi va xazinadorlik mansabini topshirdi.

Omonatga xiyonat qilmaganligi tufayli savdogar o‘g‘lining boyligi shu darajaga yetdiki, Bag‘dod shahrida undan ko‘ra badavlatroq odam yo‘q edi.

SAYYOH VA RABOTBON

Jahongashtalardan biri hikoya qiladi: kunlardan bir kun yo‘lda ketayotib, bir kishiga hamroh bo‘ldim. U kishi mendan qayoqqa ketishimni so‘radi. ≪Safarga otlandim≫ dedim. U ≪hamrohsiz hech yo‘lga chiqma va karvonsiz karvon yo‘lida hech qachon yurma≫, dedi. Men undan sababini so‘radim. U kishi shunday dedi: ≪Men yoshligimda bir mudhish voqeani boshdan kechirganman. Bu voqea to alhol menga saboq bo‘lib qoldi≫.

U qanday voqea ekan, deb so‘radim. U kishi o‘z boshidan kechirganlarini hikoya qildi:

- Men yoshlik chog‘imda kuch-quvvatli, nihoyatda qo‘rqmas va botir yigit edim. Shuning uchun bo‘lsa kerak, yo‘lda yolg‘iz yuraverardim va hech narsadan qo‘rqmas edim.

Kunlardan bir kun kimsasiz biyobonda otliq ketayotgan edim,

to‘rtburchak rabotga ko‘zim tushdi. Rabotbon qo‘rqmas va hech narsadan tortinmaydigan odam edi. Uning bir yomon odati bo‘lib, kimki bu rabotga yolg‘iz kelsa, uni o‘ldirib, mol-mulkini olar va shu ahvolda kun o‘tkazar ekan.

Nihoyat, men rabotga yetib bordim. Rabotbon meni ustimdagi qimmatbaho kiyimlarim va ostimdagi semiz otimni ko‘rib, menga tama nazari bilan boqdi. Meni otdan tushirib, ichkari olib kirdi. Oldimga taom va sharob qo‘ydi. Birga ovqatlandik. ≪Sharobga rag‘bating qalay? ≫ - so‘radi rabotbon. ≪Agar bo‘lsa hazmi taom va farog‘at yuzasidan biror qadah ichsak bo‘ladi≫, deb javob berdim.

Rabotbon sharob quyib qadah tuta boshladi. Men qadahni olib ichdim. Mehmonnavozlik yuzasidan o‘zi ham ichardi. Shunday qilib, bir necha qadah sharob ichdik. Rabotbonning o‘g‘li ham biz bilan o‘tirardi. Uning o‘g‘li menga yoqib qoldi...

Nihoyat, uxlash vaqti ham yaqinlashdi. Rabotbon men uchun uyning to‘riga, o‘g‘li uchun esa eshik yoniga o‘rin soldi. Men va rabotbonning o‘g‘li uxlash uchun yotdik. Biror soat o‘tgach, uni dast ko‘tarib, o‘z o‘rnimga olib-kelib yotqizdim va o‘zim uning o‘rniga o‘tib yotdim. Shu ahvolda biror soat vaqt o‘tdi. Nogoh rabotbon qo‘lida xanjar ushlab uyga kirib keldi hamda mening ustimdan hakkalab o‘tib, o‘g‘lining ustiga o‘tirdi va uning ko‘ksiga xanjar urdi. Darhol, men angladimki, u badbaxt mening qasdimda kirgan ekan. Biroq o‘rindan adashib, meni deb o‘g‘lini so‘yib qo‘ydi.

Men darhol o‘rnimdan turib, shamshirni qo‘limga olib unga hamla qildim. Rabotbon o‘g‘lining o‘lganini va mening tirik qolganimni ko‘rgach, jonidan umidini uzib zor-u tavallolar bilan menga yolvorardi: ≪Ey birodar, men o‘z g‘addorligimning jazosini ko‘rdim. Senga tayyorlangan sharbatni o‘zim ichdim. Men senga yomonlik istadim, ammo salomat qolganing shukronasi uchun meni o‘ldirma...≫. Men unga: ≪Xanjarni tashla va qo‘lingni orqaga qil≫, dedim. Rabotbon xanjarni tashlab, majburan qo‘lini bog‘lashga tutdi. Men uning qo‘lini bog‘lab ko‘chaga chiqdim. Bir necha otliqlar yetib keldilar. Ularga bo‘lgan voqeani so‘zladim. Ular rabotga kirib hisobsiz mol-dunyo topdilar va bir necha kishining jasadini olib chiqdilar. Ma’lum bo‘ldiki, bu mal’un odamlarni o‘ldirib, mollarini olib, boylik orttirar ekan.

Mana shundan so‘ng karvonsiz hargiz yo‘lga chiqmayman va

hamrohsiz hech qayerga bormayman, deb ahd qilganman, deya hikoyasini tugatarkan, darhaqiqat, ≪avval do‘st topmoq, so‘ngra yo‘l bosmoq lozim≫, degan naql ham bor, dedi.

MIS QASR

Jahonning ajoyib tilsimotlaridan biri, Sulaymon alayhissalomning buyrug‘iga muvofiq Andalus yaqinidagi biyobonda devlar tomonidan qurilgan Mis qasrdir.

Mis qasrning ovozasi Marvoniylar sulolasidan bo‘lgan Abdumalik Marvonning qulog‘iga yetdi. U Muso ibn Nasrga farmon yuborib: ≪O‘z lashkaring bilan o‘sha tomonga borib, mazkur qasrning ahvoli va uning sirlarini bilib kelishing lozim≫, dedi.

Muso ibn Nasr Marvon buyrug‘iga muvofiq, o‘sha tomonga askar tortdi. Yo‘lda ishbilarmon va jahongashta kishilarni o‘ziga yo‘lboshchi qilib tayinladi. Qasrga boradigan yo‘l hech qanday jonzod yashamaydigan biyobon bo‘ylab borar edi. Qirq kecha-yu kunduz yurishgach, Mis qasrga yetib bordilar. U joylarning havosi nihoyatda musaffo va zilol suvlarga boy edi. O‘sha xushhavo yerning o‘rtasida Mis qasr savlat to‘kib turardi. Chunonchi, Mis qasrning shu’lasidan kishining ko‘zi xiralashar, devorlarining balandligidan aqllar hayron qolardi.

Muso ushbu qasr atrofidagi joylarni aylanib chiqish uchun ikki guruh askarga farmon berdi, ertasi kuni ming otliq bilan binoning atrofini aylandi. Biror eshik yoki tuynuk topib, binoning ichkarisiga kirish uchun ko‘p harakat qildi.

Ammo hech qanday yo‘l topa olmadi. O‘zining xos kishilaridan biriga ming otliq askar berib, qasr atrofini kezib birorta odamni uchratib, qasr haqida mukammal tafsilot olib kelishga farmon berdi. Ammo ular hech kimni uchrata olmadilar.

≪Biz shuncha yo‘l yurib, bu yerga yetib keldik. Endilikda, biz bu qasrning ichida nima borligini bilib ketmog‘imiz shartdur!≫ dedi Muso. Qasr ichiga kirish uchun har kim har qanday hiylalar o‘ylab ko‘rdi. Oqibatda, yer ostidan lahm qazib qasr ichiga kirishga qaror qildilar.

Shundan so‘ng, bir necha kishilarni lahm qazishga buyurdilar. Ammo lahm qazuvchilar qanchalik qazimasinlar, bari bir qasrning ostiga yeta olmasdilar. Nihoyat, bu tadbirdan murod hosil bo‘lmadi. Muhandislar maslahatlashib qasrning yoniga devor bilan barobar qilib

minora qurishga va minoraga chiqib qasrning ichkarisini ko‘rishga qaror qildilar.

Shundan so‘ng tosh kesib ganch va ohak bilan uch yuz gaz balandlikdagi minorani qurdilar. Hali minorani qasr devori bilan barobarlashtirish uchun yana ikki yuz gaz ko‘tarmoq lozim edi. Ammo yuqoriga tosh olib chiqishning imkoni topilmadi. Shundan so‘ng, minoraning ustiga yog‘ochdan boloxona qurdilar. Uning balandligi bir yuz sakson gaz bo‘lib, uning ustiga o‘ttiz gazlik narvon yasadilar. Boloxona bilan narvonni bir-biriga mahkam bog‘ladilar. Shundan so‘ng narvonning uchi qasr devoriga barobar bo‘ldi.

Hamma tayyorgarlik bitgach, Muso ibn Nasr askarlariga nido qildi:

≪Lashkar ahlidan kimki ushbu narvon bilan qasr devoriga chiqib, qasr ichkarisidagi ahvoldan bizga ma’lumot keltirsa, ming dinor berurmiz≫.

Mardonalikda mashhur bo‘lgan bir jur’atli kishi ming dinor mablag‘ olish ishtiyoqida narvonga chiqdi. Nihoyat, qasr devoriga yetib chiqqach, baland ovoz bilan qahqaha urib kula boshladi va o‘zini qasrning ichiga qarab otdi. Qasr ichidan jang-jadal ovozlari lashkarlar qulog‘iga eshitildi. Bu ovozlar uch kecha-yu kunduz davomida kelib turdi. To‘rtinchi kuni bir necha mardi maydon kishilar qasr atrofida aylanib g‘oyib bo‘lgan sheriklarining nomini olib chaqirdilar. Biroq hech qanday javob eshitmadilar.

Muso ibn Nasr narvondan yuqoriga chiqib qasr ichkarisidagi ahvoldan xabar olib kelish borasida avvalgi ahdini takrorladi. Bir kishi bu shartni qabul qilib yuqoriga chiqdi va o‘zidan avvalgi sherigi nima qilgan bo‘lsa, u ham o‘shanday qilib, o‘zini qasrning ichiga tashladi. Qasr ichidan avvalgidek ajoyib ovozlar lashkarlar qulog‘iga eshitildi. Bu safar ham jang-jadal, dod-faryod ovozlari uch kecha-yu kunduz eshitilib turdi.

Shu voqeadan bir necha kun o‘tgach, Muso ibn Nasr askarlarga qarab: ≪Kimki menga qasrning ichkarisidan xabar olib kelsa, ikki ming dinor oltin hadya qilurman≫, deb nido qildi.

Bir kishining qalbida oltin havasi jilo qildi.U kishi bunday mushkul ishga jur’at qilib, bel bog‘lab shunday dedi: ≪Mening belimdan arqon bilan bog‘lab, arqonning uchini mahkam ushlab turinglar. Qasr devoriga chiqib, qasr ichiga nazar tashlagach, men ham

avvalgi chiqqan kishilar kabi o‘zimni qasr ichiga tashlashga harakat qilsam, sizlar darhol arqonni tortinglar!≫

U kishining belidan arqon bilan mahkam bog‘ladilar. U narvondan ko‘tarilib qasr devoriga chiqib, qasr ichkarisiga nazar tashlashi hamono, qattiq ovoz bilan qahqaha urib kula boshladi va o‘zini qasr ichiga tashlamoqchi bo‘ldi. Pastdagilar darhol arqonni tortdilar.U kishining gavdasi devor ustiga tushib, ikkiga bo‘lindi. Bir bo‘lagi qasr ichiga tushib ketdi va bir bo‘lagi esa qasr tashqarisida qoldi.

Shundan so‘ng Muso ibn Nasr noumid bo‘lib, shoyad bu mavzeda jinlar jamoasi yashasa,- deb mazkur mavze’dan vodiy tomonga qarab yurishga farmon berdi.Mazkur mavzedan yo‘lga chiqib, taxminan bir farsang masofadan minoralar ko‘rindi. Minoralarning balandligi yigirma sarjin miqdorida bo‘lib, oq toshlardan kesib ishlangan edi. Shuningdek, u yerga xatlar yozilgan edi. Xatlarda Sulaymon alayhissalomdan boshlab, bir necha payg‘ambarlarning nomlari zikr qilingandi.

Muso ibn Nasr mazkur xatlardan nusxa ko‘chirib yozishga buyruq berdi. Xatlardan nusxa ko‘chirib yozdilar. Muso ibn Nasr askarlari orasida ushbu xatni biladigan olimlar bor edi. Xatni tarjima qildilar. Ular mazkur vodiyda bir mis lavhani ko‘rdilar. Mis lavhada quyidagi so‘zlar yozilgan edi: ≪Bu yerdan o‘tishning hojati yo‘q, chunki halokatga sabab bo‘ladi≫.

≪Subhonolloh!-dedi Muso ibn Nasr,-ajoyib yerlar, mevali daraxtlar, ravon oqar suvlar bo‘lsa-yu, qanday qilib bu yerlar halokatga sababchi bo‘ladi?≫

Muso ibn Nasr lavhadagi so‘zlarning haqiqatini bilish maqsadida darhol qo‘shindan ikki otliqni ajratib, vodiyning oxirgi chegarasigacha borib kelishni buyurdi.

Nihoyat, otliqlar vodiy chegarasidan o‘tib, minoralarga yaqin-lashishlari bilanoq, daraxtlar orasidan har bittasi bo‘ridek keladigan chumolilar chiqib kelib har ikki otliqni otlari bilan birga pora-pora qilib yana o‘z joylariga qaytib kirib ketdilar.

Muso ibn Nasr bu yer tilsim ekanligi va bu jonivorlar tilsimdan nariga o‘tmasliklarini bildi. Shundan so‘ng, Muso ibn Nasr darhol qo‘shinga orqaga qaytishga buyruq berdi va Mag‘rib tomonga qarab yo‘l oldi.

HOJI VA DONISHMAND

Imomi A’zam Abu Hanifa davrlarida Bag‘dod ulamolaridan bir donishmand kishi bo‘lgan ekan. U kishi soxta zohidlik niqobi ostida riyokorlik va tovlamachilik yo‘liga kirgan edi.

Bir kun Xurosondan bir kishi haj qilmoq niyatida Bag‘dodga kelgan. Kishining yonida bir necha ortiqcha dinori bor edi. Ushbu dinorlarni ehtiyot yuzasidan biror kishiga omonat qoldirib ketish harakatiga tushdi. Nihoyat dinor to‘la hamyonni mazkur donish-mandning huzuriga olib bordi va unga omonat topshirdi. O‘zi esa hajga ravona bo‘ldi. Nihoyat, Ka’bani ziyorat qilib, marosimlardan forig‘ bo‘lib, qaytib kelayotganda, karvonga qaroqchilar hujum qildi. Barcha karvon ahlini tunadilar. Jumladan, mazkur kishining ham bor-yo‘g‘ini shilib oldilar. Hoji bor-yo‘g‘idan ajralib, och-yalang‘och holda Bag‘dodga yetib keldi va donishmandning huzuriga bordi. Hoji donishmanddan o‘z hamyonini talab qildi.U kishi dedi: ≪Sen devona bo‘lganga o‘xshaysan, yo‘l mashaqqatlari senga asar qilgan ko‘rinadi. Savdoyi bo‘lib qolibsan. Men seni hech qachon ko‘rganim yo‘q≫.

Bechora hoji qancha tavallo bilan yolvormasin, bari bir uning so‘zini inobatga olmadi.

Hoji noumid bo‘lib, o‘z do‘stiga bo‘lgan voqeani hikoya qildi. Do‘sti unga shunday dedi:

“ Sen bu dardning davosini imom Abu Xanifadan topishing mumkin. Bu voqeani unga bayon qil! Uning madadi bilan moling qo‘lingga kirsa ajab emas.

Xoji imomning huzuriga kelib, bo‘lgan voqeani so‘zlab berdi. ≪Men sening hojating haqida o‘ylab ko‘rishim lozim. Binobarin, bugun uyingga ketaver. Ertaga yana kelarsan!≫ dedi imom.

Imom A’zam donishmandga odam yuborib, uni o‘z huzuriga chaqirib: ≪Balki eshitgandirsan, ko‘p vaqtlardan buyon amir mendan Bag‘dodning qozilik mansabini qabul qilishimni taklif qiladi. Men esa iymanib qabul qilmay kelaman. Nihoyat, agar o‘zing qabul qilmasang, o‘rningda olim va zohid bir kishini topib, nomzodini ko‘rsat, deb talab qilyapti. Men o‘ylab-o‘ylab seni esladim. Endi sen rozi bo‘lsang,

nomingga farmon yozilib, mazkur mansab senga havola qilingusidir≫, dedi.

Mansabparast donishmand bu so‘zni eshitgach, gapni qanday maqsadda aytilayotganini o‘ylab ham ko‘rmay, quvonib darhol rozilik berdi.

Imom A’zam unga qarab dedi:

-Bugun uyingga borib, yaxshilab o‘ylab, ertaga kel. Agar rozi bo‘lsang, sening nomingga farmon yoziladi.

Shodlikdan tun bo‘yi donishmandning ko‘ziga uyqu kelmadi. Ertasi kuni donishmand Imom saroyiga keldi. Shu payt eshikdan hoji ham kirib kelib, salom berdi. Donishmand hojini ko‘rgach, tanidi va qozilik mansabining umidida hojiga dedi: ≪Ey shayx, sen qayoqlarda yuribsan? Har kun seni so‘roqladim. Nihoyat, kelib ketuvchilar ro‘yxatini tekshirib xabaringni shu yerdan topdim. Endi mening esimga tushdi. Omonatingni mendan olishing lozim. Zeroki, shuncha muddat ichida senga biror voqea yuz berib qolgan bo‘lsa haq egasiga tegmay qoladimi, degan xayollar bilan menda na uyqu va na halovat bor edi≫.

Imom donishmandga dedi:

-Iqror bo‘ldingmi, endi egasiga topshir!

Donishmand hamyonni keltirishni buyurdi. U hamyonni Imom huzurida egasiga topshirdi. Shundan so‘ng Imom donishmandga dedi: ≪Endi salomat uyingga bor! Bizning maqsadimiz bir musulmonning haqini o‘ziga qaytarish edi. Shuningdek, sening omonatga qilgan xiyonating, hukumat va qozilikka bo‘lgan xohish – rag‘bating menga ravshan bo‘ldi. Binobarin sendan ixlosim qaytdi≫.

Bu xabar butun Bag‘dodga yoyildi. Donishmand ilgari eng ishonchli kishilardan edi. Endilikda xoinlar qatoriga qo‘shilib, amirning in’om va ehsonlaridan mahrum bo‘ldi. Nihoyat, azob-uqubatda, mashaqqatda tirikchilik qila boshladi.

QUL VA XOJA

Bir kishi qul sotib olish uchun bozorga bordi. Unga bir qulni maqtab dedilar:

- Bu qul hunarmanddir, ammo bir aybi bordir...
- U qanday ayb ekan?
- Buning aybi shulki, yolg‘on so‘zlab, vahima ko‘taradi.

- Bu unchalik yomon ayb emas,- deb qulni o‘sha aybi bilan sotib oldi va uyiga olib keldi. Qul bir necha kun xojaning uyida yurdi.

Kunlarning birida qul o‘z xojasining xotinini xilvatda uchratib, dedi: ≪Ey bibi, bir necha muddat bo‘ldiki, sen menga ko‘p yaxshiliklar qilding. Shu damgacha bunday in’om-ehsonni hech kimdan ko‘rganim yo‘q. Binobarin, bu yaxshiliging haqini qaytarmoq menga vojibdur. Xojaning sir-asroridan seni voqif qilmoqchiman, bashartiki, sirni xojaga aytib qo‘ymasang. Bilginki, xoja sendan biror ayb qidirish maqsadida meni olib kelgan. Boshqa xotinga uylanmoqchi. Har kuni u bilan uchrashib ishq-muhabbat izhor qiladi. Seni taloq qilib, o‘rningga o‘sha xotinni o‘z nikohiga kiritishi haqida gapiradi. Men senga jonim kuyganidan bu sirni aytdim. Endi o‘z g‘amingni yemog‘ing lozim.

Xojaning xotini qulning bu xizmati uchun unga minnatdorchiliklar bildirdi va qulga dedi: ≪Bu dardning darmoni haqida biror chora-tadbir o‘ylab top! Zero, bu asrordan o‘zing meni voqif qilding, endi meni bu balodan yana o‘zing qutqar!≫

≪Men buning chorasini bilmayman,- dedi qul va yana,- bu shaharda bir ulug‘ kishi bor. Nujum va ma’rifat ilmida benazir. Uning nafasi shunchalik o‘tkirki, dam solib, osmondagi oyni yerga tushiradi. Daryodagi baliqni quruqlikka chiqaradi. Erkak kishining bo‘ynidagi mayda tuklaridan tilsimlar yaratadi va sehr-jodu qiladi. Erkakni xotin kishining shaydosi qilib qo‘yadi. Agar istasang, o‘tkir ustara olib kelib beray. Qachonki, ering uxlasa uning bo‘ynidagi mayda tuklardan qirib ol! So‘ng bir oz tukdan va eringni kiyimidan birini menga bersang, men u ulug‘ zotning oldiga borib, afsun o‘qitib kelaman. Ana shundan so‘ng ering sensiz bir lahza ham sabr qilolmay qoladi≫, dedi. ≪Minnatdorman, sening bu xizmating uchun rozi qilurman≫, dedi xotin.

Shundan so‘ng, qul borib o‘tkir ustara olib xotinga berdi va o‘zi xojasining oldiga bordi. Uni xilvatga tortib:

- Men xayrixohlik kasaliga giriftor bo‘lganman.Menga sendan yaxshiroq xoja hargiz topilmagan. Menga qilgan lutf-ehsonlaringni hech kim o‘z farzandiga ham qilmagan. Mening uchun ozodlikdan ko‘ra sening qo‘lingda qul bo‘lib yurganim yaxshiroq ko‘rinadi. Sening haqingda bilganlarimni bugun senga aytishim lozimdir. Shoyadki, bergan tarbiyang va noz-ne’matlaring evaziga ushbu

xizmatim bilan javob berolsam. Bilginki, uyingning bekasi boshqa bir kishiga ko‘ngil qo‘yibdi. Ishq o‘ti sabr viloyatini xarob qilibdi. Faqat, sening salobating unga mone’lik qilib turibdi. Orzusini ro‘yobga chiqarish maqsadida, seni halok qilish payiga tushgan. Buning uchun o‘tkir ustara ham tayyorlab qo‘ygan. Agar haqiqatni bilmoqchi bo‘lsang, hozir uyingga yugur, boshingni yostiqqa qo‘yib, o‘zingni uyquga sol! Ana o‘shanda haqiqat holni bilasan,- dedi.

Xoja bu so‘zdan ta’sirlanib, uyiga bordi va boshini yostiqqa qo‘yib o‘zini uyquga soldi. Xotini ustarani olib, erining boshiga keldi. Eri bu holni ko‘rib, ≪qul to‘g‘ri aytgan ekan≫, deb gumon qildi va o‘rnidan sakrab turib xotinining qo‘lidan ustarani tortib oldi va uni o‘ldirdi. Xotinning yaqinlari kirib qasos uchun xojani o‘ldirdilar. Qulning shumligi natijasida ikki kishi o‘lib, xonavayron bo‘ldi.

G‘ULOM IBN ALMOR

G‘ulom ibn Almor shunday deydi:

- Men Basra yaqinidagi Iblada savdogarning xizmatini qilardim. Xo‘jayin besh yuz dirham olib kelib berdi; lattaga o‘rab yonimga solib Basradan Iblaga borishga qaror qildim. Dajla daryosi labiga borib, bo‘sh qayig‘ini bog‘lab qo‘ygan qayiqchini uchratdim. Men qayiqchini kiraga olib, unga o‘tirib, pul o‘ralgan lattani o‘z oldimga qo‘ydim. Nihoyat, qayiqda suza boshladim. Qayiq bandardan o‘tishi bilan, qur’on o‘qib o‘tirgan qorini ko‘rdim. U daryo bo‘yida o‘tirib, hazin ovoz bilan shunday qur’on o‘qirdiki, ko‘ngil orom olardi. Kemachi moyillik ko‘rsatardi. Shu payt qori kishi:

≪Ey qayiqchi, men kecha yirtqich hayvondan zahmat chekdim, binobarin qo‘rqyapman. Meni qayig‘ingga tushirsang nima bo‘ladi≫, deb nido qildi. Qayiqchi qayiqni ko‘r tomonga haydab bordi. Ko‘r qayiqqa tushib olib, yana qur’on o‘qishga kirishdi. Men esa butun vujudim bilan qur’on tinglardim.

Biz Iblaga yaqinlashganimizdan so‘ng ko‘r qur’on o‘qishni to‘xtatdi va qayiqdan tushishga harakat qila boshladi... Qarasam yonimda pul solingan hamyon yo‘q. ≪Mening oltinlarim qayerga ketdi?≫ deb faryod ko‘tardim.

Qayiqchi mening faryodimni eshitishi bilan: ≪Qayiqda sen bilan birga bo‘ldik, biror joyda to‘xtamadikki, u yerda sening hamyoningni yashirib qoldirgan bo‘lsak≫, deb koyiy boshladi. Ko‘r ham ming xil

nola-fig‘onlar bilan faryod chekardi. Qayiqchi bilan ko‘r kiyimlarini yechib, o‘zlarini yalang‘och holda menga ko‘rsatdilar.

Men, oltinlar qayerga ketdi, deb hayron bo‘lib qoldim. Agar bular olgan bo‘lsalar, qayerga berkitdilar ekan, deb o‘ylardim.

Nihoyat, bulardan shubha qilishdan murodim hosil bo‘lmasligiga ko‘zim yetdi. Shundan so‘ng, ulardan umidimni uzib o‘zimga dedim: ≪Oltinlarni shu ahvolda yo‘qotganimga baribir xo‘jayin ishonmaydi va meni qiynoqqa solib o‘ldirishi muqarrar. Avlodim esa ushbu arzimas oltin tufayli umrbod asirlikka mahkum bo‘lgusi≫.

Nihoyat, g‘ariblikni bo‘yinga olib, shuningdek, vatanni, uyimni va ahli ayolimni tark qilishga qaror qildim. O‘sha kecha uyimga bormadim. Ertasi kuni o‘z qarorimni amalga oshirish maqsadida tashqariga chiqdim. Ko‘ksim g‘am-g‘ussa bilan to‘lib-toshgan va har qadamda nola qilardim. Har qadamda jonim chiqib ketayotganday bo‘lardi.

Yo‘lda menga bir kishi duch keldi. Mening chekkan oh-nolalarim uning ko‘nglida rahm-shafqat uyg‘otdi. ≪Bu qanday alomat? Nima sababli bunday ayanchli ahvolga tushib qolding?≫ deb so‘radi kishi. O‘z ahvolimni unga hikoya qildim.

≪G‘am yema, men senga bir tadbir o‘rgatayki, oltinlaring naqd holda qo‘lingga kirsin,- deb menga yo‘l-yo‘riq o‘rgatarkan,- hozir bozorga borib yaxshi lazzatli taomlar bilan ko‘proq non sotib olib, zindonga olib bor! Zindonbondan ichkariga qo‘yib yuborishini iltimos qil! Zindonga kirganingdan so‘ng, zindon ichkarisida bir kishi bordir. Uning nomini Abu Bakr Naosh deydilar. Olib borgan taomlaringni uning oldiga qo‘y! U ovqatdan yeb bo‘lib, qo‘lini yuvgach, sendan ≪nima hojating bor≫, deb so‘raydi. Ana shunda sen voqeani unga bayon qil. U oltinlaringni topib beradi≫, dedi.

Men uning aytganidek qilib, bozordan non va qovurilgan go‘sht olib, zindonga bordim va zindon ichiga kirib, Abu Bakr Naoshning huzuriga kirib, taomlarni uning oldiga qo‘ydim. U ovqatni yeb bo‘lgach, mening ahvolimni so‘radi. Bo‘lgan mojaroni bayon qildim. U menga qarab: ≪Hozir bu yerdan chiqqaningdan so‘ng, bani halol qabilasiga bor! Falon darvoza orqali borsang Biyobon mahallasida falon alomatli saroy bor. Saroyning eshigi qulf turadi. Eshikni ochib saroyning ichkarisiga kir! Devorlariga mixlar qoqilgan va bo‘yra to‘shalgan to‘rt supani ko‘rasan. Choponingni yechib, o‘sha mixlardan

biriga ilib, o‘zing bir burchakka borib o‘tir! Bir necha kishilar keladilar. Ular ham senga o‘xshash harakat qiladilar. Sen ularga iltifot qilma. Ular ovqat keltirib yeya boshlaganlarida, sen ham ularga qo‘shilishib ovqatlan. Ovqatdan so‘ng sharobxo‘rlik qilsalar, bir necha davra ichilgandan so‘ng, sen qadah ko‘tarib shunday degin: ≪Mening barcha shodligim va baxt-saodatim tog‘am Abu Bakr Naoshdur!≫

Ular mening nomimni eshitishgach, xursand bo‘lib, menga hamd-u sano aytadilar va sendan hol-ahvol so‘raydilar. Shunda sen, u kishi sizlarga salom yo‘lladilar va sizlar kecha olib ketgan hamyon mening singlimning o‘g‘liniki ekan, deb aytdilar, degin. Endi bor, shunday desang albatta hamyoningni qaytarib beradilar≫, dedi.

Men unga ta’zim qilib, zindondan tashqariga chiqdim. Men o‘sha kishi aytgandek qilib, mazkur saroyga bordim. Abu Bakr Naosh aytgan kishilarni o‘sha yerda uchratdim. Men Abu Bakr Naosh o‘rgatgan tartib bilan ularga muomala qildim va ular bilan kabob va sharobxo‘rlikda birga bo‘ldim. Bir necha davra qadah aylangach, qo‘limga qadah olib, yuqoriga o‘tib dedim:≪Bu qadahni tog‘am Abu Bakr Naosh uchun ichaman≫. Abu Bakr Naoshning nomini eshitgan hammalari o‘rinlaridan turib, shodlanib: ≪Barchamizning jonimiz ustozimiz xizmatlari yo‘lida fido bo‘lsin!≫ dedilar.

Men Abu Bakr Naoshning salomini ularga yetkazib, hamyonni talab qildim. Darhol, hamyonni keltirdilar va aqalli muhri buzilmagan holda qo‘limga topshirdilar. ≪Sizlar bu hamyonni tog‘am tufayli menga qaytarib berdingiz. Ammo sizlardan boshqa iltimosim bor. Aytinglar-chi, bu hamyonni mendan qanday qilib olgan edingiz?≫ deb so‘radim.

Ular bir oz ikkilanib turdilar. Nihoyat, ulardan biri: ≪Meni taniysanmi?≫ dedi. Men unga qaradim. U daryo qirg‘og‘ida qur’on o‘qib o‘tirgan ko‘r edi. Ikkinchisi qayiqchi edi. U shunday dedi: ≪Bizning uchinchi sherigimiz savat kiyib, qayiqning ostida suvda yuradi, qachonki molning egasi qur’on tilovatiga mahliyo bo‘lib, ko‘rdan ko‘zini uzmay o‘tirib qolsa, men darhol hamyonni olib qayiq ostidagi sherigimizga ishorat qilaman. U darhol savatni tutadi va men hamyonni savatga tashlayman. U esa darhol hamyonni daryodan olib chiqib ketadi. Ertasi kuni hamyonni bo‘lishamiz. Mana bugun sening hamyoningni taqsimlaydigan kunimiz edi. Biroq ustozimizning buyrug‘iga muvofiq, hamyoningni o‘zingga topshirdik...≫

Men o‘z hamyonimni olib, balodan qutulganimga xudoga shukur qildim.

Bu hikoyaning foydasi shuki, har qanday odam o‘zining hifzi himoyasiga loqaydlik bilan qaramasin. Shuningdek, har qanday tanimagan va sinashta bo‘lmagan odamga ishonib e’tiqod qilmasin. Aks holda, pushaymonga o‘rin qolmaydigan voqealarning sodir bo‘lmog‘iga sababchi bo‘lishi muqarrardur.

SAYYOH VA KAFAN O‘G‘RISI

Ushbu kitob muallifi o‘z do‘sti tilidan shunday hikoya qiladi:

- Safarda yurgan vaqtimda bir shaharning darvozasiga yaqinlashdim. Vaqt kech bo‘lgan edi. Ko‘nglim bir narsani sezgandek, kech bo‘lganda shaharga kirgim kelmadi. Shaharga kunning boshlanishida kirishga qaror qildim.

Shahar darvozasi yonida qabriston bor edi. Men qabristondagi gumbazlardan biriga kirib, qilichni yalang‘ochlab boshim ostiga qo‘yib, orom olishga harakat qildim. Vahm va qo‘rquv mendan ustunlik qilib, uyqu ko‘z ziyoratiga kelmasdi. Biror soatdan so‘ng atrofga qarab, bir hayvon paydo bo‘lganini ko‘rdim. Xuddi bo‘riga o‘xshar edi. Men yotgan gumbazning yonidagi gumbaz ichiga kirib ketdi. Biroz hayallagach, u yerdan odam suratida qaytib chiqib, u yoq-bu yoqqa qaragach, yana gumbaz ichiga kirib ketdi. U qo‘liga temir panja kiyib olib tuproqni kovlab chiqara boshladi. Bildimki qabriston o‘g‘risidir. Qilichni yalang‘ochlab uning ketidan sekin-asta yurib qabr ichiga kirdim. U meni ko‘rgach, temir panja bilan yuzimga chang solishga qasd qildi. Men qilich solib, uning qo‘lini uzib tashladim. U qilich zarbidan faryod chekib, mening oldimdan qochib, tashqariga chiqdi. U chopib ketib borardi. Men esa uning orqasidan quvardim. Oydin kecha edi, hammayoq nurafshon edi. Yo‘lni adashtirmaslik uchun har mavze’ni nishonga olib borardim. U hamon chopib ketardi.

Nihoyat, bir saroyga yetib, eshikni ochib, ichkariga kirib, eshikni ichkaridan mahkamladi. Men qabristonga qaytib keldim. O‘sha kesilgan qo‘lni topdim. Temir panja yerga tushgan ekan, topdim. Kesilgan qo‘l nihoyatda nozik va latif, hamda barmoqlarida ikki uzuk bor edi. Bildimki, bu qo‘l xotin kishinikidir. Qo‘lni olib o‘z joyimga borib yotdim. Tong otib, quyosh chiqib olam munavvar bo‘lgach, o‘rnimdan turib farz namozini ado etib, so‘ng shaharga kirdim.

Kechasi belgilab ketgan saroy eshigini qidirib topdim. O‘sha yerlik qo‘shnilardan mazkur saroyning egasi kim ekanligini so‘radim.

≪Bu uyning egasi shu dahaning qozisidir, ko‘p yaxshi, insofli va davlatmand kishidir≫, dedilar. ≪Qozi bormi?≫

≪Uning bir qizi bordurki, husnu jamoli kishini shaydo qiladi. Nazzora ahlini taajjub va hayratga soladi≫.

Bu so‘zlarni eshitgach, qozining mahkamasiga bordim va qoziga: ≪Mavlononing umri uzoq bo‘lsin, men bir g‘arib kishi-durmen, senga arzim bordur, agar lozim topsalar faqat xilvat joyda arzimni ayturman≫,dedim.

Qozi masjidning bir burchagiga bordi, men uning qarshisiga o‘tirdim va o‘sha kesilgan qo‘lni uning oldiga qo‘yib: ≪Buni taniysanmi?≫ deb so‘radim. Qozi kesilgan qo‘lga nazar tashlab: ≪Qo‘lni tanimayman, ammo uzuklar tanish ko‘rinadi≫, dedi.

Men bo‘lgan voqeani qoziga hikoya qildim. Qozi meni o‘z uyiga boshlab bordi.

Uyga kirganimizdan so‘ng eshiklarni ichidan mahkamladilar va mening oldimga taom keltirdilar. Shundan so‘ng qozi xotinini chaqirib: ≪Bu yoqqa kelib biz bilan birga taomdan tanovul qil!≫ dedi. ≪Axir, begona kishi bor-ku, uning oldiga qanday qilib chiqaman≫, dedi xotini. Qozi xotinidan tashqariga chiqib, biz bilan hamtovoq bo‘lishini qat’iy talab qildi, aks holda taloq qilishga qasamyod qildi. Bechora xotin yuz ming sharmi-hayo bilan tashqariga chiqib, ularning oldiga kelib o‘tirdi va ovqat yeya boshladi. ≪Qizingni chaqir!≫dedi qozi.

≪Magar mavlononing aqliga qusur yetganmi,-dedi qozining xotini,-begona odamning huzurida balog‘atga yetgan qiz qanday qilib o‘tiradi. Bunga shariat qanday ruxsat beradi?≫ Harchand shu ma’nolarda so‘z yuritsa ham xotinining so‘zi qoziga ta’sir qilmadi va avvalgi so‘zini takrorlayverdi. Xotin zarurat yuzasidan qizini chaqirdi va qiz kelib ular oldida o‘tirdi.

Hikoya qiluvchi shunday deydi:

- Men nihoyatda go‘zal va qad-qomati kelishgan qizni ko‘rdim. Ammo qo‘lining dard-alami tufayli rangi za’faron bo‘lib ketgan edi. Qiz o‘tirgach, chap qo‘li bilan taom yeya boshladi. ≪O‘ng qo‘lingga nima bo‘lgan?≫deb so‘radi qozi. ≪Chipqon chiqib ko‘p azob berdi, malham bog‘lab qo‘ydim≫, deb javob berdi qizi.

≪Qani ko‘rsatchi, qanaqa chipqon chiqqan ekan va qanday malham qo‘yding?≫ dedi qozi.

≪Hadeb qistovga olib, surishtirib, qoniga tashna qilmang!- deb so‘zida davom etdi xotin. -Bu qizning ahvolidan hargiz mening xabarim yo‘q ekan. Kecha yarim kechada qizim mening yostig‘im oldiga kelib: ≪Ey ona, meni qutqarib qol, men halok bo‘lyapman≫, dedi kesilgan qo‘lini menga ko‘rsatib. Qon to‘xtamayapti. Men faryod ko‘tardim. U esa mening oyoqlarimga yiqilib, meni otam oldida sharmanda qilma va biror chora o‘ylab topki, jonim salomat qolsin, deb yolvorardi. Men zaytun moyini dog‘lab, uning qo‘liga bosdim. Qon to‘xtadi. Shundan so‘ng undan bo‘lgan voqeani so‘radim. ≪Bir necha muddatlar bo‘ldikim, shayton meni to‘g‘ri yo‘ldan urdi. Binobarin, hech qanday ehtiyoj bo‘lmasa-da, biroq menda kafan o‘g‘irlash havasi paydo bo‘lgan. Bir necha vaqtdan buyon har kecha qabristonga borib, oxirat safariga ravona bo‘lganlarning kafanini yechib olaman. Natijada, bir qancha kafan to‘pladim. Mening bir kanizak mahramim bordur. Agar shaharda biror davlatmandroq kishilardan vafot qilsa, kanizak borib uning qabrini bilib qaytadi va menga ko‘rsatadi. Men esa kechasi borib, qabrni ochib, kafanni yechib olib kelardim. Kecha tunda birov menga hujum qildi va men uni daf qilmoqchi bo‘ldim. U menga qilich urib, qo‘limni kesib tashladi≫, dedi. Men undan bu alamli qissani eshitgach, uning qo‘lini o‘rab qo‘ydim. Mana endi qizingni bu jinoyati uchun unga berilgan jazodan ortiq jazo berolmasang kerak. Shuningdek, rasvo bo‘lmasligi lozim≫.

Qozi qiziga qarab: ≪Sir oshkora bo‘lmasligi uchun seni ushbu yigitga xotinlikka berurman≫,dedi.

Qiz faryod qilib yig‘larkan, - bu kishi menga shunchalik musibat bergan bo‘lsa, undan qasd olish o‘rniga qanday qilib unga tanmahram bo‘lolaman?- dedi va ko‘p iztiroblardan so‘ng rozilik berdi. Qozi mening tug‘ilgan joyim va kelib chiqishimdan surishtirdi. Men unga o‘zim haqimda so‘zladim.

≪Men davlatmand kishidurmen, biroq shu qizdan boshqa farzandim yo‘qdir. Agar ushbu nikohga rozi bo‘lsang, muhtojlik va ehtiyojmandlik zahmatidan qutulursan hamda qolgan umringni osoyishtalik va farog‘atda o‘tkazursan. Bizning sendan iltimosimiz shulki, ushbu sirni maxfiy saqlab, birovga fosh qilmasang!≫ dedi qozi. Men rozilik berdim. Qozi mashhur kishilarni yig‘ib, qizini menga berdi. Men qiz bilan xilvat qilgach, uning husn-jamolidan bahramand bo‘ldim.

Har vaqt qizning qo‘liga ko‘zim tushganda, o‘z qo‘limdan nafratlanardim va bunday ish qo‘limdan kelganiga ko‘p iztiroblar chekardim. Ish shu darajaga borib yetdiki, men uning shaydosi bo‘lib qoldim. Biror soat uning jamolini ko‘rmasam toqat qilib tura olmas edim. Shu tariqa bir necha oylar o‘tdi. Qiz avvalgi odati bo‘yicha yana keta boshladi.

Bir kechasi butun a’zoyi-badanim uvishib, uxlab yotgan edim. Nogoh ustimda og‘irlik sezdim va ko‘zimni ochib qizni ko‘rdim. U ko‘kragimga minib, qo‘llarimni har ikki tizzasi bilan yerga bosib, qo‘lidagi o‘tkir tig‘ni bo‘ynimga taqab turar edi. Bu ahvolni ko‘rganimdan so‘ng zor-tavallo qilib yalindim. Qiz esa menga tikilib: ≪Ey gado, qo‘limning evaziga ushbu tig‘ bilan boshingni taningdan judo qilurman!≫ dedi. ≪Ey mastura qiz, seni taloq qildim va shu bugunoq shahardan chiqib keturman va siringni hech kimga izhor qilmaydurman≫, dedim.

Shu so‘zni eshitgach, ustimdan tushib, tig‘ni yana joyiga bekitdi. Mening oldimga kelib, u uzrlar ayta boshladi:≪Bularning hammasi hazil edi≫, deya, mening oldimga kelib, quchoqlamoqchi bo‘ldi. Men o‘zimni tortib:

≪Sen menga endi harom bo‘lgansan. Bundan keyin senga yaqinlashish lozim emas≫, dedim.

Mendan bu so‘zni eshitgach: ≪Ko‘nguldan taloq berganing endi menga ma’lum bo‘ldi≫, deb uyga kirib, yuz dinor qizil oltin olib chiqib, uzrlar aytib, oltinlarni menga hadya qildi. Men yuz dinor oltinni va shu davrgacha yiqqan mol-dunyolarimni olib, yo‘lga tushdim. Men u shahardan o‘z yurtimga salomat yetib keldim. Xudoyi taolo meni balodan va ul shayton makkoraning qo‘lidan qutqardi.

HUNARMAND SHAHZODA

Kasbning foydasi haqida shunday hikoya qiladilar: Kirmon shahrining oqil va odil podshohi bo‘lgan ekan. Podshohning odobli, o‘qimishli va hushyor yakkayu yagona o‘g‘li bor ekan. Shahzoda o‘n to‘rt yoshga yetganda otasi uni uylantirishga qaror qilibdi. Ammo shahzoda otasi oldida ta’zim qilib: ≪Men ustozimdan kasb-hunar kishini halokatdan, noqulay safarda esa ranj-mashaqqatdan qutqaradi, deb eshitganman. Binobarin, men avval hunar o‘rganib, so‘ngra safarga chiqmagunimcha, hech qanday nikohni qabul qilmayman≫, dedi. ≪Shohlar uchun hunarning nima keragi bor, podshohlarning

hunari o‘tkir tig‘ bilan mamlakat jilovini qo‘lda tutmoqlikdir. Sen ana shunday hunarlarga qodirdursan≫, dedi podshoh. ≪Podshohlarning otgan o‘qlari hammavaqt ham nishonga tega bermaydi: iqbol arig‘i hammavaqt ham to‘la oqavermaydi. Binobarin, podshoh davlatga e’timodini oshirmasligi lozim≫, deb e’tiroz bildirdi shahzoda.

Podshoh o‘g‘lining so‘zlaridan taajjubda qolib, shaharga jar soldirdi: ≪Shaharning barcha hunarmandlari, o‘z hunarlarining sifatini va afzalligini ko‘rsatish uchun bir joyga to‘plansinlar. Toki shahzoda har bir hunarmandning hunarini ko‘rsnn va qaysi bir hunar unga maqbul bo‘lsa, uni o‘rgansin.

Shundan so‘ng shaharning barcha hunarmandlari o‘z mahsulotlarini bir joyga to‘pladilar. Shahzoda ular orasidan yurib, har bir matoga alohida nazar tashlab o‘tarkan, banogoh ajoyib bir narsaga ko‘zi tushdi. Bu Kirmon chiptasi edi. Chiptaning egasi gurgonlik bo‘lib, Kirmon shahrida yashar va Kirmon chiptasini to‘qishda unga teng keladigani yo‘q edi. U to‘qigan chipta nihoyatda go‘zal va latif edi. Shahzoda bu hunarni ixtiyor qildi. Gurgonlik ustani olib keldilar. Usta chipta to‘qish san’atini shahzodaga o‘rgatdi. Oz fursatda shahzoda chipta to‘qishda mohir usta bo‘lib yetishdi.

Shundan so‘ng shahzoda safarga chiqish uchun otasidan ijozat so‘radi. Kirmon shohi har yili odatga ko‘ra, amirning huzuriga borar va turli-tuman hadyalar yuborib turardi. Shoh o‘g‘lini safarga hozirlab, o‘ziga qarashli xos kishilar bilan birga qo‘shib Bag‘dodga jo‘natdi. Shahzoda Bag‘dodga yetib bordi. Shahzodaning quli bor edi. U ham shahzoda bilan bir yoshda hamda bir joyda katta bo‘lgan edi. Binobarin, qul shahzodaning eng ishonchli kishisi edi. Shahzoda quliga dedi:-Agar biz bugun amir qabuliga borsak, bizni dabdaba bilan qabul qilib, so‘ngra yana shu alfozda yotoqxonaga jo‘natadi. U holda shaharni tomosha qilishdan mahrum bo‘lamiz. Yaxshisi, bugun kechqurun Bag‘dodni tomosha qilaylik. Ertaga ertalab esa amirning huzuriga boraylik.

Shundan so‘ng har ikkisi Bag‘dod tomon yo‘lga tushdilar. Shaharning o‘rtasiga borganlarida, avval ovqatlanib olishni, so‘ngra tomoshani davom ettirishni ma’qul ko‘rdilar. Ular bir oshxona oldiga kelib to‘xtadilar. Bu oshxonaning egasi yahudiy bo‘lib, ko‘p yillardan buyon oshxonadorlik qilardi. Yaqudiy ikki yosh yigitni ko‘rgach, chopib ularning oldiga keldi, ta’zim qildi. Marhabolar aytib, ularga,

sizlarning ulug‘ kishilar ekanligingiz yurish-turishlaringizdan yaqqol ko‘rinib turibdi. Binobarin, sizlarga bu do‘konda ovqatlanish uyatdir. Agar buyursangiz ichkarida bir uy bor, o‘sha yerga marhamat qilinglar. Men taomni o‘sha yerga olib boray, dedi.

Yahudiy yigitlarni uyga kiritgach, o‘zi qaytib chiqdi. Ko‘p o‘tmay ikki barzangi yigit uyga kirib, shahzoda bilan uning sherigini yerga yiqitib, qo‘llarini bog‘ladilar. Saroyning o‘rtasida bir choh bor edi. Har ikkisini uydan olib chiqib, bellariga arqon bog‘lab chohga tashladilar. Shahzoda chohga tushgach, o‘ziga o‘xshash bir necha kishilarni ko‘rdi. Ular shahzodadan hol-ahvol so‘rashgach: ≪Bu yahudiyning odati biror bizga o‘xshash sho‘ringqurg‘urni aldab qo‘lga tushirgach, uni o‘ldirib, go‘shtidan taomlar tayyorlab odamlarga sotadi. Bizlar ham sizlar kabi uning domiga tushganlardanmiz≫, dedilar.

Ular o‘zaro gaplashib turganlarida yahudiy kelib, shahzodani chohdan yuqo riga chiqarib oldi va so‘yish harakatiga tushdi.
Shahzoda dedi:

-Meni o‘ldirishdan maqsading pul topishdir. Biroq meni o‘ldirganing bilan ko‘zlagan mablag‘ni qo‘lga kirita olmaysan. Lekin mening bir hunarim bordir, agar istasang shu hunar sababi bilan katta mablag‘ga ega bo‘lasan.

-U qanday hunar?

-Men xalifa va uning vazirlarining uylariga munosib bo‘lgan chipta gilam to‘qiyman. Agar so‘zimning rostligini bilmoqchi bo‘lsang, sahrodan chipta uchun kerak bo‘ladigan giyohlardan olib kelishni buyur!-dedi shahzoda. Shahzodaning so‘zi yahudiyga ma’qul bo‘ldi. O‘z xizmatkoriga sahrodan chipta uchun kerakli giyohlardan terib kelishni buyurdi. Xizmatkor giyohlarni keltirdi. Shahzoda va uning quli ajoyib chipta gilam to‘qidilar.

Yahudiy chipta gilamni bozorga olib borib, yaxshi bahoga sotdi. Ikkinchi kuni yana giyohlardan keltirib berdi. Ular yana chipta gilam to‘qidilar. Uchinchi kuni har kundagidan ko‘ra yaxshiroq chipta gilam to‘qib, bu gilam vazir xonadoniga munosibdur, buni vazirning huzuriga olib bor va katta mablag‘ga sot, dedi shahzoda.

Yahudiy chipta gilamni vazir huzuriga olib bordi. Vazir gilamni ko‘rib, tahsinlar o‘qidi va katta mablag‘ berib, yahudiyni xushnud qilib jo‘natdi. Yahudiy mo‘may boylik orttirish ko‘yiga tushib, shahzodaga dedi:

-Bundan ham yaxshiroq to‘qiy olasanmi? Agar to‘qiy olsang, shunday gilam to‘qiginki, amirning xonadoniga munosib bo‘lsin!

- Shunday gilam to‘qiyki, hatto amir ham bunday gilamni hanuzgacha ko‘rmagan bo‘lsin! Ammo buning uchun ko‘proq giyoh tayyorlash lozim,- dedi shahzoda.

Yahudiy barcha asbobni muhayyo qildi. Shahzoda ajoyib gilam to‘qidi. Chipta gilamning o‘rtasiga yahudiyning barcha kirdikorlari va o‘zining ayanchli ahvolini gul o‘rnida yozib bayon qildi va gilamni o‘rab:

- Buni saroyga borguncha ochmagin, taxi buziladi,-dedi.

Yahudiy gilamni amirning huzuriga olib bordi. Xalifa gilamni ochib ko‘rdi. Gilamning rang-barang gullari va to‘qilish san’atiga barcha tahsinlar o‘qidi. Nihoyat, xalifa gilam o‘rtasidagi xatga ko‘zi tushib, uni o‘qib chiqqach, darhol yahudiyni o‘z oldiga chaqirib, gilamni qayerdan olib kelganini so‘radi.

- Mening xizmatkorim Gurgon tomonga tijorat uchun borgan edi. O‘sha yerda ushbu gilamni amir uchun to‘qitib olib kelibdi,- deb javob berdi yahudiy.

- Yaxshisi, bu gilamni qayerdan qo‘lga tushirganingni ayt! Bu gilamni olib kelgan xizmatkoringni bu yerga keltir, toki undan anig‘ini bilaylik,- buyurdi amir.

Yahudiy nima qilishini bilmay, og‘ziga kelganini vaysar edi. Amir yahudiyni qamoqqa solib, uning uyiga mulozimlarni yubordi. Mulozimlar yahudiyning xizmatkorlarini qiynoqqa solib, uyni tintuv qildilar. Xizmatkorlar noiloj chohni ko‘rsatdilar. Shahzoda va uning quli hamda chohdagi barcha mahbuslar ozod qilindilar. Shaxzoda mulozimlar bilan birga amirning huzuriga borib, uni ziyorat qildi. Amir yahudiyni qattiq qiynoqlar bilan qiynab o‘ldirishga hukm qildi. Yahudiyning uyidan topilgan barcha mol-mulklarni shahzodaga in’om qildi. Shuningdek shahzodaga qimmatbaho choponlar kiydirib, izzat-ikrom bilan o‘z vataniga jo‘natdi. Shahzodaning hunari uni o‘limdan olib qoldi.

TUZ HAQI

Mazkur kitobning muallifi shunday hikoya qiladi:

- Yoshlik vaqtlarimda bobom bilan Buxoroning ba’zi bir qishloqlariga borar edik. Bir kun qishloq tomon ketib borardik, choshgoh vaqtida havo nihoyatda isib ketdi. Biz qishloq yaqinidagi bir azim daraxtning soyasida o‘tirib, issiqdan jon saqlardik, toki havoning

tafti pasaysa so‘ngra ko‘zlangan qishloq tomon yo‘lga tushsak. Shu payt biz dam olayotgan qishloq kishilaridan biri bobomning oldiga keldi va bobom bilan ko‘rishgach:

- Bu yerda mening bog‘im bor, agar darig‘ tutmasang, marhamat qilsang, bir kosa ugra osh bilan mezbonlik qilsam va o‘z boshimdan kechirgan sarguzashtimni senga hikoya qilsam,- dedi.

Bobom Sayidning so‘zini inobatga oldi va biz uning bog‘iga kirdik. Katta hovuzning bo‘yiga palos yozib, ko‘rpachalar soldi va biz o‘sha yerga o‘tirdik. Mezbon nihoyatda saxiylik qilar va har xil voqealardan hikoya qilardi. Nihoyat, o‘zi haqida so‘z yuritib shunday dedi:

- Men ilgari vaqtlarda yomon ishlarga berilib, o‘g‘rilik qilardim. Kunlardan bir kun Marv shahriga bir savdogar kelibdi, uning bir necha ming dinorlik javohiri va nafis mollari bor ekan. Savdogar shaharning falon rastasiga joylashibdi, deb eshitdim. Shundan so‘ng meni shu javohir va mollarni qo‘lga olish havasi boshimni aylantirdi. Nihoyat, Marvga borib bir ko‘chada istiqomat qila boshladim. Ikkinchi kuni savdogar qo‘ngan saroy darvozasiga bordim. Darhaqiqat savdogarning omborxonasi o‘sha yerda ekan. Omborxona oldida sherdek bahaybat bir itni bog‘lab qo‘yibdi. Hatto savdogarning mulozimi u yerdan o‘tguday bo‘lsa, it unga shunday hamla qilardiki, agar yaqinlashsa, tutib pora-pora qilardi. Men ertasi kuni bozordan qovurilgan kalla go‘shti va non olib itning yonidan o‘tdim. It menga dahshatli hamla qildi. Men go‘sht bilan nonni itning oldiga tashladim. It non bilan go‘shtni yedi. Shundan so‘ng har kuni itga go‘sht bilan non berib turdim.Tez kunda it menga o‘rganib qoldi va men bilan ishi bo‘lmay qoldi. Kechqurun tim atrofini aylanib yurgan edim, nogoh ko‘zim katta mis qozonga tushdi. Men o‘zimni panaga olib fursat kutdim. Bir ozdan so‘ng fursat topib qozonning qulog‘idan ko‘tarib tagiga kirib oldim. Kech kirib, xalq tarqadi, timning eshigini qulfladilar. Tun yarimlab, odamlar g‘aflat uyqusiga kirgach, qozonning ostidan sekin chiqib, omborxona tomon yurdim. It meni tanigani tufayli, menga hamla qilmadi. Omborxona qulfini ochib ichkari kirdim va jazohirlarni olib, yana borib qozonning ostiga kirib yashirindim.

Tong otgach, timning eshiklarini ochdilar. Men birovga sezdirmay qozon ostidan sekin chiqib, o‘z yo‘limga ketdim. Javohirlarni bir yerga ko‘mib, yana saroy tomon yo‘l oldim. Saroyga

borishdan maqsadim, javohirning egasi nima qilayotgani, shuningdek, javohirning o‘g‘irlanishi haqida odamlarning fikri qanday ekanini bilish edi.

Men timning eshigi oldiga borib biroz turdim. Savdogar eshik oldida o‘tirardi va odamlar kelib hamdardlik bildirishardi. Savdogar keluvchilarga hayratomuz tikilardi. Shahar voliysining mulozimlari gumondor kishilarni ushlab, tuhmat qilib so‘roq qilardilar. Men biroz turgach, o‘z qilmishimdan zavqlanib, orqaga qaytib ketmoqchi bo‘ldim. Savdogar o‘rnidan turib mening ro‘paramga kelib:

- Ey yigit, qo‘rqma, ustalik bilan javohirlarni olib ketibsan. Ammo lutf qil, javohirlarni qaytarib ber! O‘zingni sharmanda qilma,- dedi.

- Nima deyapsan, tush ko‘rdingmi?- dedim.

- Yo‘q... uyg‘oqlikda aytyapman, yaxshilikcha javohirlarni qaytarib ber, bo‘lmasa, zo‘r uqubatlarga giriftor qilaman,- dedi.

- Men bir g‘arib kishidurmen, menda javohir nima qilsin. Menda biror nishona ko‘rdingmi? Mendan nima istaysan o‘zi,- deb rad javobini berdim. Savdogar voliy kishilariga meni ko‘rsatib dedi:

- Mening javohirlarimni ushbu odam olgan!

Voliy kishilari meni tutib, amir saroyiga olib bordilar. Savdogar amirga dedi:

- Qasam ichib aytamanki, mening javohirlarimni bundan boshqa odam olgan emas... Talab qilsinlar, toki javohirlarimni qaytarib bersin!

- Men sayidlarni gumon bilan jazolay olmayman,- dedi amir.

- Har bir urilgan kaltak uchun dinorning oltidan bir qismi barobarida haq to‘layman,- dedi-da, yuz dinor sanab amirga tutarkan, olti yuz kaltak ursinlar, toki javohirlarimni qaytarib bersin,-dedi.

Amir menga ko‘p nasihatlar qildi, ammo menga kor qilmaganini ko‘rgach, ikki yog‘och o‘rtasiga bog‘lashga buyurdi. Shundan so‘ng olti yuz kaltak urdilar. Har kaltak tushganida og‘riqqa chidamay javohirni olganimga iqror bo‘lishga qasd qilardim. Yana o‘z-o‘zimga, ≪Ey nafs, biroz sabr qil, barcha boylik sening qo‘lingda-ku. Baribir dalil va isbotsiz seni o‘ldira olmaydilar≫, deyman va shunday xayollar bilan o‘zimda quvvat paydo bo‘layotganini sezaman. Meni juda ko‘p savaladilar. Yig‘ilgan jamoat savdogarni la’natladilar va shahar voliysiga: ≪Bir g‘arib sayidning jinoyatini aniqlamay, hech

narsadan hech narsa yo‘q, bekorga shuncha kaltaklashga buyurding. Bu kishi xorijiydur≫, deb malomat qildilar. Jamoat hadeb voliyni malomat qilavergach, voliy savdogarga: ≪Agar sen haqiqatan ham javohir yo‘qotganingda edi, biror isbot, dalil yoki guvoh olib kelgan bo‘larding. Sen sababsiz ravishda bir musulmonni shuncha tahlikaga solding. Endi bu kishini o‘z uyingga olib bor va yaxshilab parvarish qil, toki tuzalib salomat o‘rnidan tursin. Agar bu kishi ushbu kaltak zarbidan o‘lib ketsa, u holda uning o‘rniga o‘zingni qatl qildirurman. Hargiz qasos olmay qo‘ymayman≫, dedi.

Shundan so‘ng savdogar meni o‘z hujrasiga olib bordi va ikki tabibni chaqirib qo‘llariga pul berdi. Ular meni parvarish qila boshladilar. Ular har kuni men uchun laziz taomlar tayyorladilar. Savdogar men nimani orzu qilsam hammasini muhayyo qilardi. Bir oy davomida meni shunday parvarish qilib, mehmondorchilik qildiki, eng yaqin kishilarim ham bunday qila olmagan bo‘lardi. Quvvatga kirib, tuzalganimdan so‘ng bir kun savdogarga Buxoroga qaytmoqqa jazm qilganimni aytdim. Menga yaxshi chopon berdi va yo‘l xarji uchun biroz oltinni oldimga qo‘yib:

-Juvonmardlik va tuz haqini rioya qilmoqlik o‘g‘rilar jamoatining odatlaridan biridir. Sen musulmon farzandidursen. Haromda baraka bo‘lmasligini yaxshi bilmog‘ing lozim. Agar tuzimni rioya qilsang, mardlik qilib javohirimni olgan eding. Yana mardlik yuzasidan qaytib ber! Toki sening noming juvonmardlar ro‘yxatining boshida turgay,-dedi. Bu so‘z ko‘nglimni yumshatdi va:

-Endi... bu boshqa gap,-dedim,-javohiringni men olganman va undan bir tiyinini ham xarajat qilganim yo‘q. Men bilan yur, toki javohiringni o‘zingga topshiray!

Shundan so‘ng, javohirni ko‘mgan yerga olib bordim va hamyonni yerdan qazib olib savdogarning qo‘liga topshirdim. Savdogar o‘z javohirini ko‘rgach, meni qo‘limdan ushlab o‘z hujrasiga olib keldi va hamyonni ochib ikki yuz dinor sanab menga berarkan:

-Bu oltinlarni senga hadya qilaman, bu senga haloldur. Shart shuki, bundan buyon o‘g‘rilik qilmaslikka ahd-paymon qilasan,-dedi.

-Bundan buyon hargiz bu kasbni qilmayman,-deb so‘z berdim.

Shundan so‘ng, oltinlarni yonimga solib Buxoroga keldim. Mazkur bog‘ni va bir necha tanob yerni sotib olib imorat va ziroatga

mashg‘ul bo‘ldim. Xudovandi karim kasbimga rivoj berib, topganimga baraka va o‘zimga osoyishtalik, farovon hayot ato qildi. Mol-mulkim ko‘payib, davlatim ortgach, ilgari kimdan nimani o‘g‘irlab olgan bo‘lsam, o‘sha kishining huzuriga borib haqini to‘lay boshladim. Bundan hamma xursand bo‘lardi.

Kishi yaxshi fazilatni ko‘ngliga jo qilsa va unga amal qilsa, shubhasiz, yomonlar yo‘liga g‘ov, yaxshilar yo‘lida dov bo‘ladi.

CHUMCHUQNING AYTGANLARI

Rivoyat qilishlaricha, bir kishi chumchuqni qafasga solib bozorga olib keldi va sotmoqchi bo‘ldi. Ikkinchi bir shaxs chumchuqni qafasi bilan sotib oldi va o‘z uyiga olib keldi. Uni so‘ymoqchi va pishirib yemoqchi bo‘ldi. Chumchuq qafas ichida faryod qilib, odamzod tilida so‘zga kirdi: ≪Ey yaxshi odam, meni o‘ldirishdan senga nima foyda? Meni o‘ldirmay qo‘yib yubor. Men senga uchta
pand-nasihat aytay, toki senga nafi tegsin. Ammo pand-nasihatning birini qafas ichida, ikkinchisini qo‘lingga qo‘nib turib, uchinchisini esa, daraxtga qo‘nganimdan so‘ng aytaman≫.

U kishi qafasni ko‘tarib sahroga chiqdi va chumchuqqa qarab,- qani endi gapir-chi, nima demoqchi eding?-dedi. Chumchuq:

- Qo‘lingdan chiqib ketgan narsaga aslo xafa bo‘lma, zero u hech qachon qaytib kelmaydi, - dedi. Kishi qafasni ochib chumchuqni qo‘liga oldi va so‘radi:

- Ikkinchisini ayt-chi, u qanday nasihat ekan?

- Agar biror kishidan aqlga sig‘maydigan gap eshitsang ishonmagin.

U kishi chumchuqdan bu so‘zni eshitgach, ≪yaxshi nasihat ekan≫, deb chumchuqni uchirib yubordi. Chumchuq daraxtga qo‘ndi va u kishiga qarab:

- Ey nodon, mening qornimda yigirma misqolga teng keladigan gavhar bor edi. Sezmading, meni qo‘yib yubording, - dedi. Kishi bu so‘zni eshitgan hamono o‘zini yerga tashlab, boshlariga mushtlab, o‘zini-o‘zi koyiy boshladi.

Bu ahvolni ko‘rgan chumchuq u kishiga qarab:

- Ey inson, hozir ikki nasihatimni eshitding. Ammo tezda esingdan chiqarding. Men senga qo‘lingdan chiqib ketgan narsaga aslo xafa bo‘lma, dedim. Mana ko‘rding, men qo‘lingdan chiqib

ketdim. Endi ming qilsang ham qaytib kirmayman. Bas, shunday ekan, afsuslanmoqdan ne foyda? Ikkinchi nasihatimda agar biror kishidan aqlga sig‘maydigan gap eshitsang ishonmagin, dedim. Bu nasihatimni ham esingdan chiqarding. Axir o‘zing o‘ylab ko‘r, mening butun vujudim o‘n misqol kelmaydi. Qanday qilib yigirma misqol gavhar qornimga sig‘sin...

Kishi o‘rnidan turib, chumchuqqa yolvora boshladi:

- Uchinchi nasihatingni ayt, shoyad menga foydasi tegsa.

Chumchuq dedi:

- Menga katta lutf-u ehson ko‘rsatding. Sen endi ushbu daraxt tagidagi oltinga to‘la obdastani kovlab olgin-da, o‘z xarjingga ishlat, - dedi.

U kishi daraxt tagini kovlab oltin to‘la obdastani oldi va chumchuqqa: ≪Ajabki, yer tagidagi oltin to‘la obdastani ko‘rasan-u, ammo xaspo‘shlab qo‘yilgan tuzoqni ko‘rmaysan≫, dedi.

Chumchuq javob berdi: ≪Eshitmaganmisanki, g‘aflat g‘alaba qilganda, ko‘rar ko‘z ham ko‘rmas bo‘lib qoladi...≫

HAMYON YO‘QOTGAN SAVDOGAR

Bir savdogar Ka’batullo ziyoratiga borishga jazm qildi. Bino-barin, yo‘l xarajati va tijorat uchun bir oz mablag‘, yana uch ming dinorli bir gavharni ham qo‘shib hamyonga tugib, beliga bog‘lab yo‘lga tushdi. Yo‘lda nafs taqozosi bilan tahorat qilmoq uchun to‘xtadi. Belidagi hamyonni yechib yerga qo‘ydi. Hojatdan forig‘ bo‘lgach, hamyonni o‘sha yerda unutib qoldirib, yo‘lga ravona bo‘ldi. Biroz yurgach, hamyon esiga tushib orqasiga qaytdi. Ammo hamyonni qoldirgan joyida topmadi. Biroq boshqa mol-mulki borligi tufayli haj yo‘lidan qaytmadi va yo‘qolgan mablag‘ga uncha achinmadi. Nihoyat haj rusumlarini ado qilib, o‘z vataniga qaytdi. Turli-tuman mashaq-qatlarga duchor bo‘la boshladi. Chunonchi qayerga tijorat uchun bormasin, o‘z ziyoniga hal bo‘lar va qaysi tarafga maqsad o‘qin otmasin, baribir, xatoga ketardi. Oz muddat ichida mol-mulkidan ajraldi. Avvalgi boylikdan hech narsa qolmadi. Do‘st-dushman oldida izza va sharmanda bo‘lishdan qo‘rqib, vatani va maskani bilan vidolashib, xotinini o‘ziga hamroh qilib tunda shahardan chiqib ketdi. Savdogar xotini bilan ketib borarkan, na aniq bir maqsadi va na aniq boradigan joyi bor edi. Mana shunday gumrohlik bilan manzil va marohillarni bosib, nihoyat bir qishloqqa kirib bordilar. Qishloqda

xarob va vayrona saroy bor edi. Savdogar o‘sha saroyga joylashdi. Qish fasli edi, binobarin, sovuqning shiddatidan yorug‘ jahonning barcha kushoyishlar eshigi baxillar qo‘lidek yopiq edi. Savdogarning xotini homilador edi, shu kecha, ittifoqo, to‘lg‘oq tuta boshladi. Saroyda na chiroq va na issiqroq joy bor edi. Savdogar o‘z-o‘ziga derdi: «Hozir hasrat va nadomatning vaqti emas, biror chora ko‘rmoq darkor». Savdogar ana shunday xayol va andeshada turganda xotini dedi: «Chiroq yoqib mening uchun biror joy hozirlab meni joylashtirsangiz-chi, axir».

Savdogar hikoya qiladi: Mening yonimda yarim dinor kumush pulim bor edi. Darhol o‘rnimdan turib, qorong‘ida baqqolning do‘koniga bordim. Ko‘p yalinib-yolvorib o‘z holimni unga bayon qilganimdan so‘ng, do‘kon eshigini ochdi va biroz shakar bilan yog‘ berdi. Men yog‘ bilan shakarni kosaga solib keltirdim. Yo‘l juda ham loy edi. Men ming xil hiyla bilan avaylab kelardim. Banogoh oyog‘im toshga tegib, qoqilib yiqildim. Kosa sinib, shakar bilan yog‘ yerga to‘kildi. Nazarimda go‘yo qiyomat qoyim bo‘ldi, bo‘g‘zimdan faryod alangasi beixtiyor ko‘kka tutashdi. Ovozim boricha yig‘lay boshladim. Zero, o‘z qadr-u qiymatimga yig‘lardim. Shu payt nariroqdan bir kishining ovozini eshitdim:

- Ey shayx, senga nima bo‘ldiki yarim kechada faryod chekib odamlarga uyqu bermaysan?

-- Hozir xotinimni to‘lg‘oq tutib azobda yotibdi. Yonimda yarim dirham pulim bor edi. Shunga biroz shakar bilan yog‘ olib kelmoqda edim. Yiqilib tushdim va kosa sinib, yog‘ bilan shakar yerga to‘kildi.

- Bu iztiroblarning hammasi faqat yarim dirham uchunmi?

- Ey xoja, hech qachon ta’na va afsus qilmaginkim, yaratguvchi o‘z bandalarining ahvolini o‘zgartiruvchisi hamdir. Bir vaqtlar mening ham katta sarmoyam va hisobsiz mol-mulkim bor edi. O‘shanda men bir hamyon yo‘-qotgan edim. Hamyonda kattagina mablag‘, shu jumladan uch ming dinorga teng keladigan javohir bor edi. Ammo u vaqtda yo‘qolgan hamyon uchun hech g‘am yemagan edim va iztirob ham chekmagan edim. Biroq hozir mening qo‘limda shu yarim dirhamdan boshqa hech narsa qolmagan. Bu ham talaf bo‘ldi. Endi menda boshqa naqdina mol qolmadi. Shuning uchun iztirob chekib faryod qilmoqdaman.

- Beri kel, hamyonning sifatlarini ayt!

- Ey xoja, afsuslanishning bahridan kech va bechora mazlumlar holiga kulma!

- Bu so‘zni ta’na yuzasidan aytayotganim yo‘q. Hamyonni qachon va qayerda yo‘qotganingni bayon qil!

Men unga o‘z qissamni boshdan oxirigacha bayon qildim. U kishi meni o‘z oldiga chaqirib, dedi: «Menga ma’lum bo‘ldiki, sen taqdir taqozosi bilan xo‘rlangan va bunday mashaqqatlarga duchor bo‘lgan kishi ekansan. Xotining qayerda?» Men manzilgohni ko‘rsatdim. U kishi o‘z xizmatkorlaridan bir nechasini yuborib bizni o‘z saroyiga ko‘chirib keldi va o‘z haramidagi xotinlardan bir nechasini xotinimni parvarish qilishga buyurdi. Ertasi kun menga dedi:

- Alhol, muayyan biror maqsading yo‘qqa o‘xshaydi. Agar shu yerda tursang va mening yonimda bo‘lsang, men senga sarmoya beray, toki tijorat ishini davom ettirgin. Tijoratdan qo‘lingga biroz davlat kirmog‘i muqarrardur.

Men rozilik bildirdim. U kishi menga uch yuz dinor berdi. Men bu pul bilan tijorat ishini yo‘lga qo‘ydim. Oz kunda uch yuz dinor besh yuz dinorga yetdi. Men besh yuz dinorni u kishining oldiga qo‘ydim. Ul kishi menga qarab: «Endi senga davlat keldi, qo‘lingga sarmoya kirdi va qashshoqlik mashaqqatidan qutulding. Agar o‘sha yo‘qotgan hamyoningni ko‘rsang taniysanmi?» dedi. Men, «albatta taniyman», deb javob berdim. U kishi hamyonni olib chiqib, mening oldimga qo‘yib, dedi: «Hamyon seniki ekanligini o‘sha kuniyoq bilgan edim, binobarin o‘sha soatda hamyonni senga bermoqchi ham bo‘ldim. Biroq seni nihoyatda qashshoq ahvolda ko‘rib, o‘ylanib qoldim. Agar shu ahvolingda hamyonni bersam, hamyonni ehtiyojga qarab sarflashga nafsing qanoat qilmasdi. Binobarin, senga o‘z sarmoyamdan uch yuz dinor berdim, toki ko‘zing to‘yib, qo‘ling o‘rgangay. Mana endi hamyoningni o‘z tasarrufingga olsang bo‘ladi...»

Men hamyonning og‘zini ochib u odamning oldiga qo‘ydim va: «Qancha xohlasang shunchasini ol!» dedim.

U kishi: «Ey xoja, necha yildirkim, men bu hamyon muhofazasida edim. Mana bugun xudoning irodasi bilan men bu kulfatdan xalos bo‘ldim va haqni o‘z egasiga topshirdim», deb olmadi.

Men uning haqiga duo qildim. Davlat va iqbol yana mening istiqbolimga chiqib, mashaqqatdan rohatga yetkazdi.

SAVDOGAR VA HAMYON

Karx bozorining dallollaridan biri shunday hikoya qiladi:

- Har yili Xuroson viloyatidan bir savdogar Bag‘dodga mol olib kelardi. Men unga dastyorlik qilardim. Uning barcha mollarini sotib, puliga Xurosonbop mollarni olib berardim. Bu dallollikdan menga katta foyda kelardi. Chunonchi bir yillik ro‘zg‘orimga yetadigan pulni ishlab olardim. Savdogar, ittifoqo, bir yil kelmadi. Buning natijasida mening ishimga nuqson yetdi va qashshoqlikka yuz tutdim. Ishim kundan-kun orqaga ketdi. Nihoyat, do‘konni yopib, uyga kirib o‘tirib oldim. Oy ketidan oy o‘tardi. Nihoyat, haj mavsumi yaqinlashdi. Men xurosonliklar qo‘nadigan saroyga borib, ulardan savdogar haqida biror xabar berishlarini so‘radim. Ammo, baxtga qarshi, savdogar haqida hech kim hech narsa bilmadi. Saroydan umidsizlanib, g‘amgin holda orqaga qaytdim. Ittifoqo, yo‘lim orolga tushib havoning harorati sababli Dajlaga va biroz sayr qilib, u yerdan chiqib daryo qirg‘og‘iga bordim. U yerda qum ko‘p edi. Oyog‘im qumga botdi. Bir amallab oyog‘imni qumdan tortib olgan edim, bir narsa oyog‘imga o‘ralib chiqdi. Qarasam, oltinga to‘la hamyon ekan. Hamyonni olib uyga keldim va oltinlarni tortib ko‘rdim, ming dinor ekan. Men o‘z-o‘zimga: ≪Faqir va bechora holligim ma’lumdir. Bu oltinlarni o‘z tasarrufimga kiritay, egasi topilsa topshirarman≫, dedim. Shundan so‘ng oltinlarni olib, savdo ishini qaytadan boshlab yubordim. Xudoyi taolo mening molimga baraka ato qildi. Tez kunda mening molim o‘n ming dinordan oshib ketdi. Ushbu muddatdan yetti yil o‘tdi.

Kunlardan bir kun do‘konning eshigi oldida o‘tirgandim, eski chopon kiygan bir kishi kelib salom berdi va men alik olib, biror sadaqatalab bo‘lsa kerak, deb gumon qildim. Darhol men unga sadaqa bermoqchi bo‘lgan edim, u kishi mendan yuzini o‘girib keta boshladi. Ko‘ngul taqozosiga ko‘ra, men uning orqasidan borib, yuziga yaxshiroq tikilib qaragan edim, o‘sha har yili keladigan savdogarligini ko‘rdim. Uni bu ahvolda ko‘rib, yuz-ko‘zidan o‘pdim. U dunyoning bevafoligidan gapirib ko‘p yig‘ladi. Yo‘lda hammomga olib kirib, yangi kiyimlar kiygizib: ≪Endi o‘z ahvolingdan gapir!≫ dedim.

≪Yaratgan tangrim menga katta boylik bergan edi. Chunonchi, har yili kelib, sen bilan savdo qilganimga o‘zing shohidsan. Bu yerdan oxirgi yili o‘z yurtimga qaytganimdan so‘ng, viloyat amiri meni o‘z

huzuriga chaqirib: ≪Menda bir dona yoqut bor, kaftdek tekis. Uning bahosini aniqlashga barcha bilimdonlar ojizlik qilmoqdalar. Bu narsa amirul-mo‘mininda ham yo‘q. Ushbu yoqutni senga beraman: Bag‘dodga olib borib sotasan va puliga har xil mollar olib berasan≫, dedi. Amirdan yoqutni oldim. Haqiqatan ham maqtaganidan ziyodroq edi. Yoqutni hamyonning orasiga tiqdim va uning yoniga ming dinor oltinni solib Bag‘dodga keldim. Bir kun Dajla daryosining orolchasiga borib, bir oz istirohat yuzasidan suvga tushdim. Hamyonni suv yoqasida qoldirib, bir soat chamasi suvda istirohat qildim. Nihoyat, suvdan chiqib, kiyimni kiyib, hamyonni olishni esdan chiqarib qoldirib ketibman. Biror soatdan so‘ng hamyon esimga tushib, Dajlaga keldim. Harchand qidirdim, topmadim. ≪Yoqutning bahosi uch ming dinor turadi. Viloyatga borgach, amirga o‘z molimdan uch ming dinor beraman, deb o‘yladim. Nihoyat viloyatga qaytib borgach, amirning oldiga borib, bo‘lgan voqeani boshdan-oyoq so‘zlab berdim va o‘z molimdan uch ming dinorli mol ajratib amirga berdim. Biroq amir menga qarab: ≪Men bergan yoqutning qiymatiga ellik ming dinor baho qo‘yibdilar yo ellik ming dinorni ber, yoki yoqutning o‘zini ber!≫ dedi. Shundan so‘ng meni ushlab qamadi. Barcha mol-mulkimni o‘z tasarrufiga oldi. Men yetti yil zindonda yotdim. Nihoyat, shahar a’yonlari ahvolimga achinib, kafillikka so‘radilar. Ularning iltimosiga ko‘ra, amir meni zindondan ozod qildi. Ammo bundan buyon ig‘vogarlar va dushmanlar ko‘z oldida yashay olmasdim. Shuning uchun shahardan chiqib bu yerga keldim. Maqsadim seni topib, sen bilan tirikchilik haqida maslahatlashmoq edi≫, deb so‘zini tamomladi.

-Sening olijanobliging va pokiza e’tiqoding tufayli Xudoyi taolo molingni ba’zi bir qismini qaytib berdi.

-Qanday qilib?

- Bundan yetti yil muqaddam hamyon topib olgan edim. Uni o‘sha sen aytgan joydan topib olganman. Hamyonda bir ming dinor bor edi. Dinorlarni o‘z dastmoyamga aylantirdim. Hozir o‘sha sening ming dinor oltining mening zimmamda turibdi. Binobarin, oltinlaringni mendan qaytarib olgin va o‘z ehtiyojingga sarf qil!

Mendan bu so‘zni eshitgach, savdogar: ≪Hamyon joyida turibdimi?≫ deb so‘radi. Men: ≪Bor, turibdi≫, dedim.

Hamyonni uning huzuriga olib keldim. Savdogar hamyonning ichini ag‘darib, ostki qismini teshgan edi, u yerdan bir bo‘lak yoqut chiqdi, uning shu’lasidan go‘yo uy yorishib kettanday bo‘ldi. Savdogarning nazari yoqutga tushgan hamono, behush bo‘lib yiqildi. Birozdan so‘ng hushiga kelib yaratganga hamdu sanolar o‘qidi. Men ming dinorni uning oldiga qo‘ydim. Ammo olmadi. Ko‘p iltijo qildim. Shundan so‘ng yo‘l xarajati deb uch yuz dinorni olib, qolganini menga hadya qildi. Ertasi kuni karvonga qo‘shilib o‘z shahriga ravona bo‘ldi. Nihoyat, o‘z shahriga yetganda, shahar a’yonlaridan bir to‘dasi uning istiqboliga chiqdilar. Savdogar ularga hamyon va yoqutning topilishi hangomasini bayon qildi hamda ulardan yoqut mojarosiga vositachilik qilishlarini iltimos qildi. Ular savdogarning iltimosini qabul qilib, birgalikda amir huzuriga bordilar va yoqutni amirga topshirdilar. Shuningdek, yoqutning qayta topilish tarixini bayon qildilar. Amir o‘z qilmishidan uyalib, savdogarning barcha mol-mulkini qaytarib berdi. Bir necha yillik zahmatdan so‘ng savdogarning yuziga baxt-saodat eshigi ochildi.

MISR MALIKASI VA HALAB SHAHZODASI

Halabda bir podshoh o‘tgan edi. Uning adadsiz mol-dunyosi va hisobsiz xizmatkorlari bor edi. Podshoh odillikda nom chiqargan edi. Uning yengiltabiat va shitobkor o‘g‘li bor edi. Podshoh o‘g‘lini qattiq sevardi va uning ra’yidan tashqari ish qilmas edi.

Halabga Misrdan bir savdogar keldi. Savdogar Misr kiyimlaridan olib kelgan edi. Podshoh savdogardan o‘g‘li uchun bir necha kiyimlar sotib oldi. Savdogar sotilgan mollarining pulini yig‘ib olmoq maqsadida kunda saroy darvozasi oldiga kelardi. Savdogar ko‘pni ko‘rgan, dunyoning issiq-sovug‘ini tatib ko‘rgan kishi bo‘lgani sababli, shahzoda undan atrofdagi boshqa shohlarning ahvolidan so‘rardi. Savdogar esa har bir mamlakat podshohining o‘ziga xos ahvolidan shahzodaga hikoya qilardi.

Bir kun savdogar Misr podshosi haqida hikoya qilayotib, so‘z orasida Misr shohining bir sohibjamol qizi borligi, unga teng keladigan qiz yorug‘ dunyoda topilmasligini ta’kidlab o‘tdi. Chunonchi, Misr malikasining suratini chizish uchun barcha Chin naqqoshlari ojizlik qiladilar. Uning husn-u jamoli vasfi uchun barcha arab vassoflarining siyohdonlaridagi siyoh etmaydi-, dedi.

Savdogar Misr malikasi vasfida shunday mubolag‘alar qildiki, qizning ishqi shahzodaning qalbiga g‘ulg‘ula soldi. Shahzodaning

shitobkor qalbi, avval yaxshilab o‘ylab ko‘rmasdanoq, mehr-muhabbat g‘avg‘osiga giriftor bo‘ldi. Shahzoda darhol otasiga maktub yubordi. Maktubda: «Mening boshimga mushkul ish tushibdur. Men Misr podshohining qiziga oshiqi beqaror bo‘libdurmen. Agar o‘sha qizni menga olib bersang jonimni bu tubsiz daryodan sohilga chiqargumdir. Bo‘lmasa hayot bilan vidolashurman», deyilgandi. «Jon o‘g‘lim, Misr podshosi bizni o‘ziga teng ko‘rib, quda-andalikka rozi bo‘larmi-kan? Bizning mulkimiz uning mulki oldida qatra desa bo‘ladi», deya, xuddi bebosh daryo qarshisida turgandek iltijo qildi podshoh.

Halab podshosining yakka o‘g‘lidan boshqa farzandi yo‘q edi. Zarurat yuzasidan rozilik berdi. Podshoh Misrga yubormoq uchun elchilar tayinladi. Haddan ziyod hadya va tuhfalar hozirladi. Shuningdek, Misr podshosining qizini o‘z o‘g‘liga so‘rab, benihoya shikastaholliklar bildirib bir maktub yozdi.

Maktubda: «Agar bandani bu sharafga musharraf tutsalar, bu banda ham ul zotning bandalaridan biriga aylanurmen va jonim Podshohning inon-ixtiyorlaridadir», deyilgan edi.

Nihoyat elchilar Halabdan jo‘nab Misrga yetdilar. Hadya va tuhfalarni topshirdilar. Misr podshosi haddan ziyod iltifot va tavoze’larni ko‘rgach: «Men Halab podshosining o‘g‘lini kuyov qilishdan or qilmayman. Ammo uni mol-mulkdan imtihon qilishim mumkin. Agar uddasidan chiqolsa, u holda sidqidildan jazm qilgani ma’lum bo‘ladi, qizimni unga beraman», dedi va elchiga javob berarkan: «Qizning onasi kimki mening qizimga uylanmoqchi bo‘lsa, oltmish ming misr dinori barobarida kobin talab qilaman», degan. Bu borada u tomonning fikrini bilib kelsangiz murodingiz hosil bo‘lg‘usidir, dedi.

Elchilar Misrdan Halabga jo‘nadilar va Misr podshosining aytgan so‘zlarini shohga bayon qildilar. Shoh xazinadagi barcha naqdinalarni to‘pladi, qirq ming dinor bo‘ldi. Dinorlarni Misrga jo‘natarkan, Misr shohiga maktub ilova qildi: «Hozircha xazinamizda mavjud bo‘lgan oltinlarni jo‘natdik. O‘rtamizda ahd-paymon bog‘langandan so‘ng yana qolganini jo‘naturmiz».

Oltinlarni Misr shohiga olib borib topshirdilar. U nikohga rozilik berdi. Shundan so‘ng Misr shohining qizini Halab shahzodasiga fotiha qildilar. Bu xabar Halabga yetdi. Shitobkor shahzoda otasiga dedi:

«Menda bunchalik intizorlikka toqat yo‘q. Bugun barcha viloyatlarga soliqni taqsimla, toki to‘lasinlar va Misrga yuboraylik!»

«Jon o‘g‘lim, zulmning oqibati dahshatlidir. Azbaroyi sening to‘ying deb minglab beva-bechoralarning xonadonini g‘am-motamga qo‘ya olmayman. Bir kishi ko‘nglining osoyishtaligi uchun yuz minglarcha kishilarning ko‘nglini g‘am-anduhga to‘ldirolmayman. Sabr qil! Toki odamlardan yig‘ib olinadigan soliq manbai vujudga kelib, xirojni to‘lash va mollarni yig‘ib olish mavsumi kelsin. Ana undan so‘ng, sekin-asta mazkur mablag‘ni to‘plab so‘ng Misrga jo‘naturmiz», dedi podshoh.

Shahzoda devonatabiat hamda oqillik va vazminlikdan yiroq edi. O‘zining navqiron yoshligi va kuchiga mag‘rurlanib, otasining huzuridan darg‘azab bo‘lib chiqib dedi: «Modomiki ot mening hukmimda va baquvvat, epchil qo‘llarim farmonimda ekan, menga mol topish qiyin ish emas!»

Shahzoda otboqarga bong urdi va ikki ot bilan shahardan chiqib, biyobon tarafiga ravona bo‘ldi. Ittifoqo, biyobonda qimmatbaho mollar ortilgan katta karvon Misr tomonga ketib borardi. Karvonda mashhur savdogarlar va xojalar bor edi. Shahzoda adadsiz mol ortgan karvonni ko‘rgach, ularga qarshi hujumga o‘tib, har tomondan hamla qilardi. Karvondagi mashhur savdogarlar orasida E’zob mag‘ribiy nomli shijoatkor va mardonavor bir kishi bor edi. E’zob mag‘ribiy yigitning jur’atini ko‘rib, guruhdan tashqari chiqib, shahzoda tomon ot solib unga hamla qildi. Birinchi hamladayoq shahzodani egardan ko‘tarib yerga urdi. Shahzodaning qo‘lini bog‘lab, tuyaning bo‘yniga ilib, yo‘llariga ravona bo‘ldilar. Misrga yetishgach, Mag‘ribiy Misr podshohiga loyiq tuhfalar tayyorlab uning huzuriga olib bordi. Misr podshohining oldida Mag‘ribiyning hurmati ancha baland edi. Mag‘ribiy Misr podshohining huzurida o‘tirgan paytda Halab shohining choparlari yetib keldilar va Misr shohiga maktub topshirdilar. Maktubda: «Muddatidurki, bandazoda yolg‘iz o‘zi bandaning huzuridan g‘oyib bo‘lmish. O‘sha qolgan mollarni topib, podshohning xizmatlariga olib borgan bo‘lsa kerak. Agar baxti yor bo‘lib, mol topib, u dargohga shitob qilgan bo‘lsa, bizga xabar qilgaylar. Toki xotirimiz taskin topgay», deyilgan edi.

Maktub o‘qilgach, E’zob mag‘ribiy bildiki, bugun unga asir bo‘lgan yigit Halab shohining o‘g‘lidir. Mag‘ribiy uyiga kelib, shahzodani o‘z huzuriga chaqirib: «Sening bunday jur’at

qilmog‘ingga sabab nima ekanligi menga ma’lum bo‘ldi. Yo‘l to‘sib, xaloyiqning molini olib ketmoq har qanday yakkabosh, o‘tkinchining ishi emas», dedi.

«Yoshlik g‘ururi va shayton vasvasasi meni shu yo‘lga olib kirdi. Mana endilikda sening asiringman. Agar menga lutf qilib, mollaringning omon qolgani shukronasiga meni ozod qilsang, kamoli yaxshilik bo‘lar edi. Agar pul badaliga ozod qilishni xohlasang, qancha baho qo‘ysang ham mayli, mendan tilxat ol! Qaysi joyni tayinlasang, o‘sha yerda o‘z xohishim bilan pulni senga olib kelib topshiray», dedi shahzoda.

E’zob mag‘ribiy shahzodaga ta’zim qildi va uning oyog‘idan bandni yechdi hamda undan uzr so‘radi. E’zob mag‘ribiy shahzodani yengiltakligi uchun malomat qilarkan: «Agar sening ishing yigirma ming dinor bilan bitsa, senga mazkur miqdor mablag‘ni qarz berarman va tilxat olaman: Halabda menga qaytarursan», dedi.

Shahzoda Mag‘ribiydan bunchalik lutfni ko‘rib, unga hadsiz minnatdorchiliklar bildirib, mollarni oldi. Zebu-ziynatlardan nimaiki istasa, barchasini muhayyo qilib, Misr shohining huzuriga bordi. Misr shohiga kuyov maqbul bo‘ldi. Unga qimmatbaho sarupolar kiydirib, hisobsiz hadyalar berdi. Shundan so‘ng to‘ygacha shahzodani maxsus parvarish qilib to‘y harakatini boshladilar.

Bir kun kelinni kuyovga ko‘rsatmoq uchun ularni yasantirardilar. Shu kuni shahzoda sharobxo‘rlikka mashg‘ul edi. U biror soat sharob ichgach, sayr qilmoq maqsadida bo‘stonga chiqdi va yolg‘iz o‘zi bo‘stonni kezarkan, nogoh ko‘zi bir manzaraga tushdi. U yerda shohona o‘tov tikilgan bo‘lib, shahzodaning qaylig‘ini yasantirmoqda edilar.

O‘tovning boqqa qaragan darichasi bor edi. Shahzoda darichadan ichkariga qaramoqchi bo‘ldi. Unda hali yoshlik g‘ururi mavjud edi. Binobarin, darichadan ichkariga yaxshiroq qarab, haramdagi xotinlar jamoasini tanib olishga qaror qildi va tasodif yuz berdi.

Chunonchi, qizning ko‘zi shahzodaga tushib, biror begona kishi haramni tomosha qilish uchun kelibdi, deb gumon qildi. Kanizlarga ikki shoxli temir panshaxani keltirishni buyurdi. Kanizlar panshaxani olib kelib, shahzodaning ikki ko‘ziga sanchdilar. Shahzoda oh urib yiqildi. Xizmatchilar yugurishib kelib, shahzodani ming mashaqqatlar bilan boshqa joyga olib bordilar. To‘y motamga aylandi. Bir necha

muddat tabiblar shahzodaning muolajasiga ovvora bo‘ldilar, ammo foydasi bo‘lmadi.

Bir necha muddatlardan so‘ng shahzodani kelin bilan birga taxtiravonga o‘tqazib Halabga jo‘natdilar.

Shahzoda shitobkorlik va yengiltaklik tufayli ikki ko‘zidan ajraldi.

MO‘YNADO‘Z VA NO‘SHIRAVON QISSASI

Sulton Mas’udning Kichik Sinbal degan bir xodimi bor edi. Uning son-sanoqsiz mol-mulki bor edi. Sinbal Bahromshoh zamonasiga kelib vafot etdi. Uning mollari odamlar qo‘lida qoldi. Sinbalning Rayhon ismli xizmatkori bo‘lib, u xojasining kimda qancha moli borligidan xabardor edi. Rayhon odamlardan mollarni qaytarib berishlarini talab qila boshladi. Ba’zi kishilar Sinbaldan olgan mollarini qaytarib berdilar. Ba’zi kishilar shahardan chiqib qochdilar. Ba’zi kishilar Sinbalning o‘lganiga ichlarida sevinib, undan olgan mollariga munkir keldilar. Marhum Sinbaldan mol olgan uning eng yaqin va ishonchli kishilaridan biri Muhammad mo‘ynado‘z ismli kishi edi. Unda Sinbalning ko‘p moli bor edi. Muhammad mo‘ynado‘zdan molni talab qildilar. Ammo Muhammad molning hajmini kamaytirib to‘lashga harakat qilardi.

Kunlardan bir kun Muhammad mo‘ynado‘z Shayx Abul Mavid huzuriga kelib, undan iltimos qildi:

- Sening muridlaring jumlasidandurman. Marhum Sinbalning molidan ikki ko‘za oltin mening qo‘limda omonat turgan edi. Ushbu ikki ko‘za oltinni qaytarib berdim. Ammo mendan yana sakkiz ko‘za oltin talab qilib meni ranjityaptilar. Azob-uqubatlarga giriftor bo‘layinki, menda boshqa oltin yo‘q. Agar mavlono shafoat qilib, meni qutqarsalar ko‘p ulug‘ savobga doxil bo‘lardilar.

Imom Abul Mavid uning iltimosini qabul qildi va otga minib sulton saroyiga ravona bo‘ldi. Imomning kelayotgani haqida sultonga xabar yetdi. Sulton imomni haddan tashqari hurmat qilardi. Binobarin, imomga peshvoz chiqib, uni izzat-ikromlar bilan o‘z o‘rniga o‘tkazdi va o‘zi uning xizmatida qoyim turdi.

Imom payg‘ambarning ≪odil shohlar onadan odil bo‘lib tug‘iladilar≫, degan hadisidan rivoyat keltirib, mazmunini sharhlagach, Muhammad mo‘ynado‘z ahvoli haqida gapirdi. Sulton dedi:

- Shubhasiz Muhammad alayhissalom o‘zining bu hadisini No‘shiravonning[43] oxirgi hukmronlik davriga monand qilib aytgan. Zeroki, No‘shiravon o‘z hukmronligining oxirgi davrlarida adolatga moyil ekanligini oshkor qilgan edi. Ammo No‘shiravon o‘zining dastlabki hukmronlik davrida shunday zolim ediki, Ajam shohlari orasida hech kim unchalik sitamkor bo‘la olmagan edi. Uning oxirgi paytlarda adolatga moyil bo‘lishiga sabab shu ediki, uning yonida bir kishi qo‘shnilikda yashardi. U kishi nihoyatda muruvvatli, qo‘li ochiq, sermulozamat va baland himmatli edi. Uning uyida doim mehmonlar bo‘lardi. To mehmon kelmaguncha ovqat yemasdi. No‘shiravon o‘z qasridan turib, u odamning uyiga qachon qaramasin, doim uning uyida turli-tuman kishilarni ko‘rardi. Nihoyat, No‘shiravon uning kimligi va qanday odam ekanligi haqida surishtira boshladi. Odamlar uning juvonmardligi va yaxshi fazilatlari hakida hikoya qilardilar.

No‘shiravon u kishini sinab ko‘rmoqchi bo‘ldi. Bir kun erta tongda savdogarlar kiyimini kiyib, o‘zini tanib bo‘lmaydigan holga keltirib, u kishining eshigi oldiga keldi.

"U kishi No‘shiravonni uyga kiritib, ko‘p dildorliklar qildi. Biroz o‘tirishgach, biroz qo‘g‘irmoch bilan shakar keltirdilar. Uni yeyishgach, xo‘jayinning ishoratisiz xizmatkorlar xilma-xil laziz taomlar keltirdilar. Taomlarni tanovul qilib bo‘lishgach, supaga bordilar. Supaning atrofi katta bog‘ bo‘lib, uzumlar ishkomlarda osilib turardi. Bog‘ning atrofi panjara bilan o‘ralgan edi. O‘sha supada o‘tirib anjuman qurdilar. Sharob keltirdilar.

Bog‘ga mutanosib ravishda go‘zal va xushbichim soqiylar, nafis va bejirim qadahlarda sharob quyib bera boshladilar. Shunday qilib, kunning oxirigacha mezbon chandon muruvvatlar ko‘rsatdiki, mehmon g‘oyatda hayratga tushdi.

Nihoyat kunning oxirida No‘shiravon dedi: ≪Men savdogarman. Bu viloyatga shu bugun keldim. Xizmatkorlarim va hamrohlarim mening ketimdan kelayotirlar. Binobarin, men ularga peshvoz chiqishim zarur. Sen menga juda ko‘p lutf ko‘rsatding. Ayt, senga nima olib kelay?≫

- Xojaning baxtiga mening hamma narsam tayyor va mamludir. Ammo, yo‘ling tashqaridagi bog‘lardan biriga tushsa, mening uchun ozroq uzum sotib olib kelsang, ko‘p minnatdor bo‘lardim≫, dedi mezbon. No‘shiravon hayron bo‘lib, dedi: ≪Bosh ustiga.

Minnatdorman. Ammo men senda ajoyib narsalarni ko‘rdim. Mening mushkullarim xotiramda qolib ketmasdan sen orqali hal bo‘lsa ajab emas≫.

- U nima ekan?

- Avval olib kelgan narsang, qo‘g‘irmoch bilan shakarda qanday hikmat bor?

- Uyga kelgan mehmonga yo‘l harorati ta’sir qilgan bo‘lsa, qo‘g‘irmoch ham taom va ham sharob ta’siri o‘rniga o‘tib, tabiiy haroratni bir me’yorda tutib turadi. Bundan tashqari buni yegan mehmon, to taom kelguncha taomga ehtiyoj sezmaydi,- deb javob berdi mezbon.

- Ikkinchi savolim shulki, juda ko‘p takalluflar qilding. Ammo xizmatkorlarga hech qanday ko‘rsatma bermading va hech kimga sir aytmading.

- Chunki mening odatim shunday. Men har kuni ma’lum vaqtgacha sabr qilaman. Shu davr ichida mehmon kelsa, taomni mehmon bilan yeyman. Agar mehmon kelmasa, u holda o‘z xonadonimdagi barcha odamlarni chaqirib, ular bilan birga ovqatlanaman. Zero taomni yolg‘iz yemoqlik muruvvatdan yiroqdur.

- Uchinchi savolim shuki, ushbu anjumanda o‘tirganimizda men sening bog‘ingda juda ko‘p uzumlarni ko‘rdim. Ammo sen mendan uzum keltirishimni iltimos qilyapsan.Bunda qanday hikmat bor?

- Bizning podshohimiz zolim, sitamkor va noinsofdir. Shuningdek, mening millatim va dinimda emas. Har yili bog‘imda uzum pishgach, uzumdan tashqari uzumzor egallagan yer uchun alohida xiroj oladilar. Mening shohga qo‘shniligimni nazarda tutib, boshqalardan keyinroq xiroj oladilar. Hamma joydan xirojni undirib kelishgach, so‘nggida mening bog‘imni o‘lchaydilar. Demak, mening uzumimda shohning haqi bo‘lsa, u holda men uzumdan yesam, shohning haqiga xiyonat qilgan bo‘laman. Mening millatimning e’tiqodiga ko‘ra xiyonat haromdir. Otashparastlarga mansub bo‘lgan uzum tufayli qiyomatda javob berishni istamayman.

Binobarin, uzum g‘o‘ra tugishi bilan bog‘ni mehr bilan parvarish qila boshlayman va hech kimni boqqa kirgani qo‘ymayman. Podshohning odamlari kelib uzumni o‘lchashgandan so‘ng ushr[44] to‘layman. Shundan so‘ng o‘z uzumimga qo‘l tekkizaman.

Bu so‘zni eshitgan No‘shiravon yig‘lab dedi:

- Mendurmen o‘sha zolim, sitamkor podshoh! Endi sening diyonating tufayli g‘aflat uyqusidan uyg‘ondim va sening xirojingni o‘zingga bag‘ishladim. Bundan buyon hech kimdan ortiqcha ushr olmaslikka va hech bir maxluqotga zulm qilmaslikka ahd qildim.

Shundan so‘ng No‘shiravon tavba qilib, adolat dastgohini olamga yoydi. Agar Muhammad No‘shiravonning ilk hukmronlik yillarida tug‘ilganda edi, bu hadisini hargiz buyurmagan bo‘lardi. Zotan, No‘shiravonning fuqarosi yo‘ldan adashgan edi, binobarin, fuqaro shunday qismatga mahkum edi. Bizning fuqaro o‘z ahdimizdadir. Binobarin biz ularga indamasak, ular musulmonlarning mollarini olib, zulm qiladilar. Talab qilgan vaqtda sizdek buzurg kishilarga zahmat berib, yana shafoat qilishingizni so‘raydilar. Bu bilan bizlarning molimizni olib ketishni istaydilar. Bunday kishilarga qanday chora ko‘rishim haqida mavlononing fikrlari qanday?

- Zulm va zahmatni tugatish, - deb javob berdi Abul Mavid va o‘rnidan turarkan:- shoh so‘zi - so‘zlarning shohidir,- dedi.

Abul Mavid o‘z uyiga kelgach, uning huzuriga Muhammad mo‘ynado‘z keldi. Abul Mavid unga shunday dedi:

- Men sening aytgan gaplaringni sultonga hikoya qilib berdim. Sultonning javobidan menga ma’lum bo‘ldiki, barcha haq va huquq sultonning ixtiyorida ekan, sen qarib oyog‘ing go‘r labiga borib qolgan kishisan. Binobarin, Sinbaldan olgan mollaringni to‘liq qaytarib berishing lozim. Bu isnodni farzandlaringga qoldirma, toki ularning nazaridan tushib, qiyomatda yakka o‘zing qolmagaysan.

Muhammad mo‘ynado‘z qaytib keldi va qolgan sakkiz ko‘za oltinni keltirib xazinaga topshirdi. Ammo Abul Mavid bundan buyon bu sohada hech kimni shafoat qilmaslikka ahd qildi.

ABU TAMOM QISSASI

Bir podshohning Abu Tamom degan vaziri bor edi. U nihoyatda oqil, fozil va tadbirkor kishi edi. Kunlardan bir kun podshoh Abu Tamomdan shubhalanib, uni o‘ldirish qasdiga tushdi. Podshohning qora niyatini payqagan Abu Tamom, o‘z boyligidan eplaganicha oltin-javohirlardan olib, kechasi saroydan qochdi. Abu Tamom shaharma-shahar, manzilma-manzil yurib, nihoyat Olon mamlakatining chegarasiga yetdi. Abu Tamom shaharga kirmay, tog‘ etagida chodir qurib, o‘sha yerda yashay boshladi. Tog‘ning ob-havosi, oqar suvlari Abu Tamomga lazzat bag‘ishlardi. Shuning uchun u har kuni atrofga chiqib sayr-tomosha qilar va goho-goho u-bu sotib olish maqsadida

shaharga ham tushib turardi. Sekin-asta odamlar Abu Tamomni taniy boshladilar va uning ahvolidan o‘z podshohlariga xabar berdilar.

Shoh Abu Tamomni o‘z saroyiga chaqirdi. Abu Tamom shoh saroyiga kirib, shohga ta’zim qildi. Abu Tamom shohlar huzurida qanday harakatlar qilinishi lozim ekanligini bilgani uchun, shohga ma’qul tushdi. Abu Tamomning odobi, yaxshi axloqi, suxandonligi podshohga maqbul bo‘ldi. Podshoh Abu Tamomga iltifotlar ko‘rsatib, uning ahvolidan so‘radi. Abu Tamom o‘z boshidan kechirganlarini bayon qildi. Podshoh uning ahvolidan voqif bo‘lgach, dedi: ≪Sen bizning xizmatimizda maqom tutsang har qanday xavf-xatardan omon va ehsonimizdan bahramand bo‘lursan≫.

Abu Tamom shohning xizmatida bo‘ldi. Shoh Abu Tamomga ko‘p ehsonlar qildi va uni doim ulug‘ladi. Shuningdek, har xil hunarda uni imtihon qilib ko‘rar va Abu Tamomning har ishda barkamolligini ko‘rib, uni izzat-hurmatini yana yuqori ko‘tarardi. Hech qanday ishni uning maslahatisiz qilmas edi.

Kunlardan bir kun Abu Tamom shohga dedi: ≪Men bir g‘arib kishidurman, ammo shoh hazratlari menga nihoyatda yuqori e’timod bilan qaraydilar. Har bir sohada mening fikrimni so‘rab, ish tutadilar. Zero, bir g‘arib kishiga bunchalik e’timod qo‘ymoqlik, jamoat o‘rtasida har xil nomaqbul gaplarning sodir bo‘lishiga yo‘l ochmog‘i muqarrardir. Qo‘rqamanki, saroy ahli hasad domiga tushib, hasad gulxanini baland ko‘targaylar... Binobarin, menga adovat qilib, rostlik va to‘g‘rilik yuziga qorakuyani niqob aylagaylar≫.

≪Dushmanlar seni haqingda har qancha bo‘hton qilmasinlar, baribir, quloq solmayman!≫ dedi shoh.

Kunlar ketidan kunlar o‘tardi. Abu Tamom davlat ishlarida fazl va adolat o‘rnatardi.

Podshohning to‘rtta vaziri bor edi. Mamlakat ishlari mana shular qo‘lida edi. Ammo, Abu Tamom kelgach, podshohning ko‘nglini o‘ziga rom qilib, mamlakat ishlarini o‘z qo‘liga oldi va vazirlarning ishi orqaga ketdi. Ularning dilida hasad olovi kundan-kunga alangalana bordi. Ularning to‘rttalasi birgalashib Abu Tamomga qarshi har xil tuhmatlar o‘ylab chiqarardilar.

Nihoyat, har to‘rttalasi shunday qarorga keldilar: Turkiston xonining bag‘oyat zebo qizi bordir. Qizni o‘z nikohiga kiritish maqsadida bir necha shahzodalar elchi yubordilar. Ammo Turkiston

xoni borgan elchilarni o‘ldirardi. Ertaga saroyga borib, Turkiston xoni qizining husn-malohati va barkamolligini hadsiz mubolag‘alar bilan shohga tavsif qilsak. Zora shohning ko‘ngli ul qizga rom bo‘lsa. Ana shundan so‘ng shoh Turkistonga elchi yubormoq harakatiga tushadi va biz Abu Tamomni elchilikka tavsiya qilamiz. Ushbu yo‘l bilan Abu Tamomdan qutulamiz.

Ertasi kuni vazirlar podshohga Turkiston qizining husnu-jamoli va oy tal’at visoli haqida chunon mubolag‘alar qildilarki, u qizni bir ko‘rmoq havasi, vasl chashmasidan bahramand bo‘lmoq tamannosi shohni beorom qildi. Shoh kecha-yu kunduz qizning visoliga yetish borasida o‘ylar, hatto, yemak-ichmakda, huzur va uyquda halovatini ham yo‘qotdi. Nihoyat, vazirlarni o‘z huzuriga chaqirib, maslahat so‘radi: ≪U mahbubga yetishmoq uchun qanday tadbir qo‘llamoq kerak?≫ Vazirlar javob berdilar:

- Elchi yubormoq darkordir. Agar Turkiston xoni sizni o‘ziga kuyovlikka loyiq topsa, elchi qizni sizning nikohingizga kiritib qaytmog‘i muqarrardir.

- Elchilikka kimni munosib deb bilursizlar?

- Bu ishni bajarishda Abu Tamomdan munosibroq kishi hargiz topilmaydi. Abu Tamom shohlar xizmatida ko‘p yillar davomida behad tajriba orttirgan hamda odob va axloq doirasining eng nozik tomonlaridan ham voqifdir.

Bu so‘z podshohga ma’qul bo‘ldi va Abu Tamomni chorlab voqeani bayon qildi. Abu Tamom xizmat kamarini beliga bog‘lab, shohga ta’zim qilarkan, dedi:

- Podshohga jonim fido bo‘lsin. Agar buyursalar boshim bilan boray, toki shohimning maqsudlari bo‘lmish ul mahbubni bu yerga keltiray.

Shoh safar anjomini muhayyo qilishga buyruq berdi. Bir qancha tuhfa va hadyalar hozirlandi. Ertasi tongda Abu Tamom Turkistonga yo‘l oldi. Turkiston xoni Abu Tamomni bag‘oyat ulug‘lab, yaxshi iltifotlar ko‘rgazdi. Abu Tamom tuhfa hadyalarini topshirgach, o‘zining elchilik vazifasini ado etib, shohning nomasini xonga tutdi. Qabul so‘ngida xonning qizini shoh uchun so‘radi. Xon dedi: ≪Men o‘z qizimga Olon shohidan ko‘ra munosibroq kishini topolmayman. Zero, u buyuk podshohdir, shuningdek, viloyati beadad, mamlakati bepoyondir. Binobarin, bunday quda-andachilikni o‘zimga baxt deb

bilurman. Lekin men qizim uchun biroz mol-mulk va jihozlar tayyorlaganman. Erta bomdoddan so‘ng borib qizimni ko‘rginda, tayyorlagan jihozlarimni birma-bir ko‘zdan kechir. Agar qizim va uning jihozlari shohingga maqbul bo‘lishiga ishonching komil bo‘lsa, o‘sha yerda nikoh qilib kelursan. Mabodo qizim yoki uning jihozlari senga maqbul bo‘lmasa, u holda nikoh qilmaganing yaxshiroqdir, toki, nadomat va pushaymonga sabab bo‘lmagay≫.

Abu Tamom ta’zim qilarkan: ≪Ul javohir sendek ulug‘ podshohning zurriyodi bo‘lsa, boz ustiga, ulug‘ bir podshohning haramiga borsa, qanday haddim borki, ul javohirga nazar solgayman. Shuningdek, jihozni ko‘rish masalasiga kelganda, bizning podshohimiz mol-mulk uchun emas, balki visol kamoli uchun qudachilik qilmoqchi≫, dedi. Turkiston xoni dedi: ≪Sendek xizmatkorga ega bo‘lgan podshohga rahmatlar bo‘lsin! Bilgilki, bundan avval qizimni o‘z nikohiga kiritmoqni istagan podshohlardan elchilar kelardi. Men elchilarga sinamoq uchun yuqoridagi fikrimni aytardim. Ular qizimni borib ko‘rishga oshiqardilar. Ularning qilmishlaridan g‘azablanardim va yo‘ldayoq o‘ldirib yuborishga buyruq berardim. Men bugun senda odob va idrokni mushohada qildim va bildimki, sening podshohing mard va oqil kishidir. Chunki, elchining odobi podshohning ulug‘ligi va oqilligidan dalolat beradur≫.

Shundan so‘ng, xon ulamo va hukamolarni yig‘ib, yaxshi soatda qizni podshohga nikoh qildirdi. Olon shohi nomidan Abu Tamom qabul qildi. Qizni hisobsiz jihozlari bilan birga Olonga jo‘natdilar. Abu Tamom kelinni olib shohning huzuriga kelib, ta’zim qildi. Abu Tamomning obro‘si yanada oshdi. Vazirlar esa nima qilishini bilmay hayronlikda qoldilar.

Ular yangi hiyla va nayranglar o‘ylab topdilar. Ular podshohning oyog‘ini uqalovchi ikki qulbachchasidan foydalanishga qaror qildilar. Vazirlar qulbachchalarni katta oltin evaziga o‘zlariga og‘dirib oldilar va ularga quyidagi so‘zlarni o‘rgatdilar: ≪Kechasi podshoh o‘z o‘rniga yotgach, sizlar odatdagidek podshohning oyog‘ini uqalayverasizlar. Podshoh ko‘zini yumgach, sizlar biringiz biringizga shunday deysizlar: ≪Ko‘rdingmi, Abu Tamom Turkiston xonining qiziga oshiq ekan. Abu Tamom aytadiki, agar qiz meni sevmaganida o‘z otasining viloyatidan bu yerga aslo kelmas edi≫.

Ertasi tunda qulbachchalar, odatdagidek, podshohning oyog‘ini uqalardilar. Shoh, ko‘zini yumgan holda uyg‘oq yotardi. Qulbachchalardan biri ikkinchisiga dedi: ≪Hoy birodar, bu haromzoda Abu Tamom shohimizning tuz haqini unutdi va kufrga yuz o‘girdi. Agar Turkiston xonining qizi meni sevmaganda aslo bu yerga qadam qo‘ymas edi, deydi≫.

Bu so‘zni eshitgan shohning g‘azabi qo‘zg‘ab, ko‘ziga qon quyildi va o‘z-o‘zicha o‘ylardi: ≪Bu so‘zni boshqa kishilardan eshitganimda edi, u holda hasad qilyapti deb o‘ylasam bo‘lardi. Ammo bu qulbachchalarning Abu Tamomda qanday gina-quduratlari bo‘lishi mumkin?..≫ Shoh tun bo‘yi uxlayolmay, iztirob chekar va g‘azablanardi. Nihoyat tong otgach, Abu Tamom shoh huzuriga kelib ta’zim qildi. Shoh undan so‘radi. ≪Agar podshoh bir kishini tarbiya qilsa, unga in’om-ehsonlar berib iltifotlar ko‘rsatsa, ammo u kishi o‘z valine’matining bergan tuzini unutsa va uning haramini badnom qilsa, bunday kishining jazosi nima bo‘lishi kerak?≫

- Unday odamning jazosi o‘limdir, toki uning iflos va razilona ishlaridan yer yuzi tozalangay.

- Unday bo‘lsa, jazongni ol!- deb, shoh Abu Tamomga shamshir urdi va uni halok qildi.

Shoh Abu Tamomni o‘ldirgach, endi Turkiston xonining qizidan nafratlanar va uning yoniga kirgisi kelmasdi. O‘sha kechasi shohning uyqusi qochdi va har xil xayollarga berilib qasr atrofini aylanib yurardi. Nogoh qulbachchalar kulbasi oldidan o‘tayotib, uy ichidan g‘ovur-g‘uvur ovozlar qulog‘iga chalindi. Shoh qiziqsinib kulba eshigidan ichkariga quloq soldi. Qulbachchalar oltinlarni o‘zaro taqsimlasharkan; biri ikkinchisiga:≪Axir bu so‘zlarning hammasini men gapirdim-ku, binobarin mening hissam senikidan ko‘proq bo‘lishi kerak!≫ derdi. Ikkinchisi unga javoban: ≪Biror qal’ani zabt qildingmi yoki biror lashkarni yakson qildingmi? Faqat uch-to‘rt og‘iz yolg‘on so‘zni so‘zlading, xolos, buncha kerilmasang≫, derdi.

Shoh qulbachchalarning mojarosini eshitgach, ularni o‘z oldiga chaqirib, do‘q-po‘pisa qilib, voqeaning rostini aytishga majbur qildi. Ular Abu Tamom voqeasining rostini so‘zlab berdilar va vazirlar bizni oltin bilan aldab, yolg‘on gapirishga majbur qildilar, dedilar. Shoh voqeani anglagach, Abu Tamom hasratida nadomatlar chekar va

begunoh bir kishini qatl qilgani uchun o‘zini-o‘zi koyirdi. Ertasi kuni vazirlarni o‘limga hukm qildi.

Hasad natijasida bir necha kishilar halok bo‘ldilar. Hikoyatdan maqsad, odamlar hasad o‘qining qasoskorligidan va hasadchining hasadidan doim hushyor bo‘lib, g‘ofil bo‘lmasinlar.

HAJJOJNING DEGANLARI

Zayd bin Muso bin Ja’far Tabariston sari hujum qildi. Uni daf qilmoq uchun Hasan Sahl askar tortib Tabaristonga bordi va Zayd bin Muso askarini tor-mor keltirib, o‘zini asirga oldi. Zayd bin Musoni o‘ldirmoq qasdiga tushdi. O‘z askarlaridan eng zabardast va jasurlarini to‘pladi va Zayd bin Musoni olib keltirib unga: ≪Nima qilaringni bilmay esankirab, fitna uyushtirib, qonlar to‘kding, viloyatlarni xarob qilib, xalq o‘rtasiga ig‘vo solding≫, dedi va o‘z askarlariga qarab, sizlar bunga qanday jazoni loyiq ko‘rasizlar, deb so‘radi. Hamma jim turardi. Shu vaqt Qusam bin Ja’far o‘rnidan turib: ≪Yo amir, uni qatl qil, agar sen uvolidan qo‘rqsang, uvoli mening bo‘ynimga≫, dedi.

≪Jallodni chaqiring!≫ dedi Hasan Sahl. Jallod kelgach, Zaydning kallasini olishga farmon berdi. Ammo bu majlisda basralik hajjoj Xaysma ham bor edi. U musulmonchilikka e’tiqodi, donoligi bilan Basra shahrida mashhur edi. Hajjoj o‘rnidan turib: ≪Yo amir, jamoatga maslahat solgan ekansan, har bir kishining fikrini so‘rashing lozim edi. Mening bir nasihatim bor; eshit, so‘ngra farmoningni beraver!≫ dedi.

Hasan Sahl Hajjojni o‘z huzuriga chaqirib,- bu borada sen qanday maslahat berarding?- deb so‘radi.

- Agar Zaydni asir olsang, uni o‘ldir deb amirulmo‘minin senga farmon berganmi?- deb so‘radi Hajjoj.

- Yo‘q,- deb javob berdi Hasan Sahl.

- U holda sen bu tomonga kelayotib, agar Zaydni asir olsam uni o‘ldiraymi deb amirulmo‘minindan so‘raganmiding?

- Yo‘q.

- Bu kishi (Zayd ibn Muso) amirulmo‘minin amakisining o‘g‘lidir. Agar sen uni ijozatsiz o‘ldirsang va qaytib borib, amirulmo‘minindan o‘ldirishga ijozat so‘rasang, u e’tiroz bildirsa, u holda nima deb javob berasan?... Sen Ja’far Yahyo Barmakiy qissasini eshitmaganmisan?

- U qanday bo‘lgan ekan?

≪Amirulmo‘minin Horun ar-Rashid, - deb qissani boshladi Hajjoj.- Abdullani saqlab turish uchun Ja’far Yahyo qo‘liga topshirdi. Biroq Ja’far Yahyo botirlik qilib, amirulmo‘minin Horun ar-Rashidning og‘zaki farmoniga ko‘ra Abdullani qatl qildirdi. Abdullaning kallasi bilan bir necha qimmatbaho narsalarni birga qo‘shib amirning huzuriga yubordi. Ittifoqo, Horun ar-Rashid bilan Barmakiylar o‘rtasiga nifoq tushdi. Horun ar-Rashid o‘z jallodi Masrurni chaqirib:≪Sen borib Ja’far Barmakiyning kallasini kesib olib kel! Agar Ja’far sendan: ≪Mening qanday gunohim uchun amirulmo‘minin o‘ldirishga buyurdi≫, deb so‘rasa, unga: ≪Men Ja’farni amakimning o‘g‘li Abdulla Fatsni mening farmonimsiz qatl qilgani uchun o‘ldirishga buyurdim≫, degin.

Mabodo, sen ham Zayd ibn Musoni amirulmo‘minindan ijozat olmay o‘ldirsang, u holda Horun ar-Rashid Ja’far Barmakiydan o‘ch olgandek, sendan ham amir o‘z amakisining o‘g‘li uchun o‘ch olishi muqarrardir.≫

Hasan Sahl Hajjojdan bu so‘zni eshitib, uning bergan maslahatiga ofarin o‘qidi va ko‘p minnatdorchiliklar bildirdi. Zayd ibn Muso haqida bergan hukmini kechiktirishga qaror qilib, amirul-mo‘mininga bu haqda maktub yo‘lladi. Uch oy o‘tmasdan maktubga javob keldi. Maktubda Zaydni izzat-ikrom bilan bizning huzurimizga jo‘nating, deyilgan edi. Hasan Sahl Zaydga ko‘p xizmatlar qilib, uni amirulmo‘mininning huzuriga jo‘natdi.

Hasan Sahl Hajjojga qayta-qayta minnatdorchilik bildirdi. Shundan so‘ng hajjojning maslahatini olmay turib hech qanday ishga qo‘l urmaydigan bo‘ldi.

ZOLIM UMAR LAYS

Lays sulolasining hukmronlari orasida hech kim qo‘pollikda Umar Laysga teng kelolmas edi. Men uning lashkarida xizmat qilgan davrimda, u tog‘ etagiga lashkargoh qurdirgan edi. Yeyishga hech narsa yo‘q edi. Umar Laysning yaqin kishilari har tomonga tarqalishdi. Menga esa o‘tirishni buyurdi. Men uning huzurida o‘tirdim. U biror soat boshini quyi solib o‘tirdi-da, so‘ng boshini ko‘tarib, Jondorga dedi: ≪Falon yerdagi bog‘ning eshigiga bor! Ul bog‘ning Ishoq nomli bog‘boni bordir. Mazkur bog‘bonni bu yerga keltir!≫

Jondor ketdi. Bir ozdan so‘ng o‘rta yoshli bir kishini olib keldi. Ul bechora titrab turardi. Umar Laysning ko‘zi ul kishiga tushishi bilan buyurdi: ≪Olib chiqing va belidan ikki bo‘lakka bo‘ling!≫

Shundan so‘ng uni qatl qildilar. Bir begunoh kishini qaysi gunohi uchun o‘ldirdi ekan, deb hayron bo‘lardi odamlar. Umar Lays yana boshini quyi solib o‘tirdi va nihoyat boshini ko‘tarib, dedi: ≪Bilaman, bu bir begunoh bechorani nima uchun o‘ldirdi ekan, degan andishada turibsan. Bilginki, men hali u vaqtlarda podshohlik martabasiga yetolganim yo‘q edi. Yo‘lto‘sarlik bilan kun kechirardim. Nihoyat, yomon ishning oqibati shu darajaga yetdiki, ikki kecha-kunduz yeyishga hech narsa topolmay, och holda shu qishloqqa yetib keldim va mazkur bog‘ning eshigi oldiga bordim. Bog‘ning eshigi ochiq ekan, boqqa kirdim va ancha meva terib yedim. Hovuz labiga keldim, u erda bir kosa qatiqning ustiga yetti-sakkizta arpa nonni yopig‘lik holda ko‘rdim. Darhol o‘tirib hammasini yedim va nihoyatda qornim to‘yib ketdi. Shundan so‘ng daraxtlardan biroz meva terib olib, eshik tomon yurdim. Nogoh ul kishi devdek paydo bo‘lib, mendan mevalarni tortib oldi. Men esa bog‘ eshigidan tashqariga chiqdim. Qornim to‘yib ketgani sababli chopishga toqatim yo‘q edi. U kishi hovuz oldiga borib, qatiq bilan nonni topa olmagach, tepa sochi tikka bo‘lib ketdi. Uch-to‘rt bolani o‘zi bilan birga olib, har birining qo‘lida katta-katta tayoqlar bilan mening orqamdan quvib keldi. Ular meni chunon kaltaklardilarki, toqatim toq bo‘lib, behush yiqildim. Shundan so‘ng, ular meni tashlab ketishdi. Men oyoqlarimni sudrab, yiqilib - surilib qishloq chetidagi masjidga bordim va masjid eshigi oldida yiqilib qoldim. Bir mo‘ysafid qassob kelib, meni shu ahvolda ko‘rgach, uyiga olib bordi va ovqat berib, tarbiyat qildi. Meni o‘ziga bir oy qorovul qilib tayinladi. Bir oydan so‘ng menga ish haqimni berib: ≪Agar shu yerda qolsang, har oyda shunchadan ish haqi berib turaman≫, dedi. Men unga rahmat aytib, uning oldidan ketdim. Xudoyi taolo menga davlat eshigini ochdi va iqbol yuzini qaratdi. Binobarin, men mana shu darajaga yetishdim.

Bugun bu yerga qadam qo‘yib, o‘sha voqealar esimga tushdi. O‘sha bog‘bonni qatl qildirdim.

Rivoyatchi aytdi: ≪U kishining jazosi bundan ham battarroq bo‘lishi, uni azob-uqubatlar bilan o‘ldirmoq kerak ekan, chunki u shunday baxil va past himmat kishi ekan. Agar pastkash odam

bo‘lmaganida non bilan qatiq uchun kishini shunchalik azoblab, ranjitmas edi. Bu davlatni podshohga xudoyi taolo marhamat qilgan ekan, uning rahmat va qudratining dalilidir. Alloh u yomonni o‘z qahriga olib, jazosini beribdi. Shoyad endi u mo‘ysafid qassob yaxshiligining xayrini bersa...≫

Men ushbu so‘zni aytishim bilanoq podshohning avzoyi o‘zgardi, ko‘zlari qizarib, menga baqirdi:

-Ey, ablah odam, seningcha men mo‘ysafid qassobga rahm qilib, lutf-ehson qilsam. Shundan so‘ng u meni tanib olib, ≪podshoh bir vaqtlar mening qorovulim bo‘lgan edi≫, deb har yerda maqtanib, natijada, mening obro‘yim va shon-shuhratimni yer bilan yakson qilsinmi?

Menga xavf-xatar yaqinlashib, halok bo‘lishimga bir baxya qolgan edi. Shundan so‘ng uning oldidan turib, tashqariga chiqdim. Endi uning oldiga qaytib kirolmasdim. Meni o‘ldirishga qasd qilganini sezdim. Zeroki, u o‘z sirini menga aytib qo‘yganidan pushaymon edi.

Nihoyat undan qochib, Bag‘dodga bordim. U yerdan Shomga o‘tdim. To u tirik ekan, men Xurosonga qaytib kelolmadim. Agar men uning qahriga uchragan mamlakatda qolganimda, har qanday yo‘l bilan meni o‘ldirishiga ishonchim komil edi.

Natijada, uning qahr-g‘azabiyu zulmidan xalq bezdi va undan cho‘chib qoldi. Nihoyat, amir Ismoil unga qarshi urush ochib, bir hiyla bilan uning barcha askarlarini yengdi. Podshoh esa baloga giriftor bo‘ldi.

BARMAK BILAN MARVON

Barmak balx edi. Hamma hunarlarni bilar, tibbiyot, ilmi nujum, hisob va boshqa ilmlarda kamol topib, mahorat qozongan.

Xukmronlik taxtiga Abdulmalik Marvon o‘tirgach, Barmak zudlik bilan Balxdan chiqib Damashqqa, Marvon xizmatiga keldi.

Barmak Damashqqa kelgach, Marvonning xodimlari bilan do‘stlashib, ularga o‘zining fazilatlari haqida izhor qildi. Ular esa Abdulmalik Marvonning huzurida doim Barmakning fazilati haqida so‘z yuritardilar. Abdulmalik Marvonning Barmakka ixlosi oshdi. Barmakni uning huzuriga olib kelishlarini buyurdi. Uni olib kirishlari bilan Abdulmalikning nazari unga tushgach, darhol xizmatkorlariga buyurdi: ≪Bu itni tarsaki bilan uringlar!≫ Xizmatkorlar Barmakning yuziga tarsaki uraverdilar. Oxiri Barmak ularning oldidan qochib,

tashqariga chiqdi. Bu voqeani ko‘rganlar hayron edilar, sababi nima ekanligini bilmasdilar.

Bir necha kun o‘tgach, nadimlar Abdulmalik huzuriga kirib, undan: ≪Barmakni tarsaki bilan urishning sababi nima ekanligi, biz bandalariga mavhum bo‘lib qoldi. Barmak xiradmand va dono kishidur. Undan hech qanday gunoh sodir bo‘lgani yo‘q edi. U, amirulmo‘mininning menga bergan odob jazosidan hayron bo‘lib qoldim. Men o‘z gunohimni bilishim kerak, demoqda≫, deb so‘radilar.

≪Barmak o‘zi bilan birga zahar olib kirgan edi, - deb so‘z boshladi Abdulmalik, -mening bilagimda qiyg‘ir shaklida ikki bilaguzuk bor. Biror kishi zahar bilan mening huzurimga kirsa, bilaguzuklar bir-birlariga uriladilar. Men Barmakni ko‘rgan zahotim mazkur bilaguzuklar bir-birlariga chunon urildilarki, bilagim og‘riy boshladi. Men unda zahar borligini bilib, odob jazosini berishga buyurdim≫, dedi.

Ular bu so‘zni Barmakka aytganlarida:

- Amirulmo‘minin to‘g‘ri aytibdilar, -dedi Barmak.-Ajam zodagonlariga o‘zi bilan birga zahar olib yurish odatdir. Agar dushman qo‘lida muztar yoki biror baloga giriftor bo‘lib qolsalar, zahar ichmoqni afzal ko‘radilar va bu balodan xalos bo‘ladilar.

Bu so‘zni Abdulmalikka aytganlarida, ≪uni mening huzurimga olib kelinglar. Zaharni birga olib kirsin≫, dedi.

Barmakni Abdulmalik huzuriga olib kirayotganlarida, u bilagidagi har ikkala bilaguzukni yechib olib, o‘rindiq ustiga qo‘ygan edi. Barmak ichkariga kirishi bilan har ikkala bilaguzuk bir-birlariga chunon urildilarki, sinishga yaqinlashdilar.

≪Barmakka aytinglar, yonidagi zaharni o‘zidan nariroq qo‘ysin!≫ buyurdi Abdulmalik. Barmak qo‘lidagi ko‘ziga zahar solingan uzugini yonidagi mulozimga berdi, u esa uzukni tashqariga olib chiqdi. Darhol, bilaguzuklar tinchidilar. Barmak hayratga tushdi.

≪Sen ko‘p nodir ajoyibotlarni ko‘rgan jahongashta kishidursen, bundan ham ajoyibroq biror narsa ko‘rganmisan?≫ so‘radi Abdulmalik.

≪Xuddi shunday, amirulmo‘minin, - dedi Barmak,- Gurgonda ajoyibot ko‘rganman. Bir kun Gurgon amirining huzurida daryo bo‘yida suhbat qurardik. Har sohada so‘z yuritardik. Gurgon

amirining ikki bo‘lak qizil yoquti bor edi. Yoqutlarning bahosi qirq ming dinor turardi. Amir mazkur yoqutlarni qo‘lida o‘ynab o‘tirardi.

Nogoh yoqut amirning qo‘lidan daryoga tushib, cho‘kib ketdi. Bundan men nihoyatda xafa bo‘ldim. Zeroki, toza va qimmatbaho gavhar edi. Ahvolimning o‘zgarganini ko‘rgan Gurgon amiri xizmatkorga qarab: ≪Xazinadan falon qutichani olib kel!≫ deb buyurdi.

Xizmatkor borib bir zarrin quticha olib keldi. Amir o‘z cho‘ntagidan zarrin kalit olib, qutichaning qulfini ochdi. Quticha ichidan oltindan yasalgan baliqni olib, daryoga tashladi. Biror soatdan so‘ng mazkur baliqning suv labiga kelganini ko‘rdim. Yoqut esa baliqning og‘ziga mahkam yopishib turardi. Amir baliqning og‘zidan yoqutni ajratib olgach, baliqni yana qutichaga solib qo‘ydi. Men amirning huzurida bundan boshqa ajibroq narsani ko‘rmadim.

≪Sen favqulodda qiziq gapni aytding va bu voqea shu kunning nodir voqealaridan bo‘lmog‘i lozim≫, dedi Abdulmalik. U o‘sha zahoti Gurgon amirining huzuriga elchi yuborib, mazkur baliqni o‘z huzuriga olib keltirdi. Barmakni o‘zining xos kishilari qatoriga qo‘ydi. Abdulmalik vafotidan so‘ng Barmak Balxga qaytmoqchi bo‘ldi. Ammo Hishom ibn Abdulmalik (arab xalifasi) Barmakka ijozat bermadi. Barmakka uchta qishloq in’om qildi. Mazkur yerdan har yili olinadigan hosilning qiymati besh ming dirham dinor bo‘lib, Barmakning Iroqda istiqomat qilishi Hishomning lutf-ehsonidan edi.

SHORIH VA O‘G‘RI

Shorih nomli kishi shunday hikoya qiladi:

- Men safarga chiqish taraddudini qilarkanman, odamlar menga, ≪yo‘lda bir o‘g‘ri bor, yakka o‘zi karvonga hujum qiladi. Hech kim u bilan tenglasholmaydi≫, dedilar. Bu so‘zni eshitgach, men andishaga tushdim. Nihoyat, safarga chiqdim. Yo‘lda bir otliq menga hamroh bo‘ldi. Uning zotdor oti va qurol-aslahalari bor. Men va u yo‘lga ravona bo‘ldik. Yo‘lning yarmiga borganimizda o‘g‘riga ko‘zimiz tushdi. O‘g‘ri otiga mingan holda biz tomonga qarab kela boshladi. Hamrohim o‘g‘rini ko‘rishi hamono unga hamla qilib, qilich soldi. O‘g‘ri uning hamlasini rad qilib, orqasidan kelib qilich urib, uni o‘ldirdi. U mening kiyimlarimni yechib olib, o‘zimni o‘ldirmoqchi bo‘ldi. ≪Meni nima sababdan o‘ldirmoqchi bo‘lyapsan? Senga hamla qilmadim, shuningdek, sherigimga yordamlashmadim. Axir, mendan

nima istaysan?≫ dedim. Shundan so‘ng o‘g‘ri mening qo‘l-oyoqlarimni bog‘lab, tashlab ketdi. Men kun bo‘yi och-nahor va tashnalik bilan sahroda yotdim. Nihoyat, ko‘p harakatlardan so‘ng, tugunning bir uchini yechdim va o‘rnimdan turib, asta-sekin yo‘lga ravona bo‘ldim. Kech kirdi. Tun lashkari hammayoqni qopladi. Uzoqdan yorug‘lik ko‘rdim va o‘sha yorug‘lik tomon bordim. U yerda eski bir uyda bir kishi xotin bilan ishratga mashg‘ul edi. Men uyning eshigiga borganimdan so‘ng, ular meni ko‘rib qoldilar. U kishi darhol o‘rnidan turib menga baqirdi va qilichini yalang‘ochlab, meni o‘ldirishga shaylandi. Unga ko‘p yalinib-yolvordim, ammo foydasi bo‘lmadi. U meni qilich bilan chopmoqchi bo‘lib turganida xotin uyidan chiqib: ≪Buni mening oldimda o‘ldirma≫, dedi. Bu zolim kishi ertalab yo‘lda meni tunagan o‘sha nomard o‘g‘ri edi.

U meni uydan uzoqroq joyga olib bordi. O‘sha yerda suvsiz ariq bor edi. Meni o‘sha ariqqa olib bordi va yerga yotqizib, endi so‘ymoqchi bo‘layotganida sherning ovozi eshitildi, o‘g‘rining qo‘li bo‘shashib, atrofga qaradi. Nogahon sher paydo bo‘lib, mening ko‘kragimga minib turgan o‘g‘riga chang solib, uni ko‘tarib olib ketdi. Shu bilan sher bu balodan meni qutqardi. Bu ahvolni ko‘rgach, Xudoga shukurlar qildim. Nihoyat, o‘rnimdan turib, o‘g‘rining qilichini olib, xotinning oldiga bordim. Xotin qorong‘ida meni o‘g‘ri deb gumon qilib: ≪U kishini o‘ldirdingmi?≫ deb so‘radi. ≪Uni Xudo o‘ldirdi≫, deb javob berdim.

Shundan so‘ng, men xotinga do‘q-po‘pisa qildim. U esa o‘g‘rining barcha xazina va dafinalarini menga ko‘rsatdi. Barcha mollarni oldim. So‘ngra xotindan hol so‘radim. ≪Men falon qishloqdanman. Meni zo‘rlik bilan bu yerga olib kelgan edi. Binobarin, uning qo‘lida asira edim≫, dedi.

Men xotinni o‘z qishlog‘iga olib borib qo‘ydim. Xudoyi taolo meni o‘limdan saqladi.

HARBIY VA ZOHID

Harbiylardan biri hikoya qiladi:

-Men Shom shahrida istiqomat qilar edim. Ittifoqo, safarga chiqishga to‘g‘ri keldi. Safarga jo‘nar ekanman, otga minib, yaxshi to‘n va asl gazmollardan o‘zim bilan birga olib ketdim. Yo‘l asnosida bir xudojo‘y zohidning kulbasi eshigiga yetdim. Zohid mening istiqbolimga chiqib: ≪Kun kech bo‘ldi, bu yaqin o‘rtada obodroq joy

yo‘qki, u yerga qo‘nsang. Agar ma’qul ko‘rsang bu kecha shu yerda dam olsang toki sening suhbatingdan bahramand bo‘laylik≫, dedi.

Shundan so‘ng, men uning kulbasiga tushdim. U maishat asbobini muhayyo qildi. Otimni otxonaga bog‘lab, somon bilan arpa olib keldi. Laziz taomlar keltirdi. Taomlarni yeb bo‘lganimizdan so‘ng, zohid kechaning bir qismi o‘tgunga qadar mening oldimda har xil hikoyatlar aytib o‘tirdi. Nihoyat, uxlash payti kelganda u menga tahoratxonani ko‘rsatarkan: ≪Agar zarurat tug‘ilguday bo‘lsa, marhamat≫, dedi. Shundan so‘ng kechasi zarurat yuzasidan tahoratxonaga bordim. Uning ostonasiga bo‘yra solingan ekan. Men qadam tashlashim bilan, bo‘yraning tagi xandaq ekan, chuqurga yiqildim. Qattiq zarb yedim. Ammo Xudoyi taolo meni saqladi. A’zolarimdan birortasi sinmadi: o‘rnimdan turdim. Zohid yetib kelib, mening ustimga katta-katta toshlarni tashlay boshladi. Agar toshlardan birortasi menga tekkanda edi, albatta halok bo‘lardim. Men bu ahvolni ko‘rgach, toshlardan o‘zimni panaga oldim. Nihoyat, zohid tosh otishdan to‘xtadi. Kulbasi tomon ketdi, men esa bir amallab chohdan chiqdim. Biror soatdan so‘ng sovuq menga ta’sir qildi. Katta toshdan birini yelkamga olib sahroda chopa boshladim va nihoyat toshning og‘irligi hamda harakatning zo‘ridan isib ketdim. A’zoyi badanimdan ter oqardi. Butun kechani shu alfozda o‘tkazdim.

Nihoyat, tong otib, kun chiqqach, zohid kulbasidan tashqariga chiqdi, qo‘liga yalang‘och qilich ushlab meni qidirdi. U kulbadan uzoqlashgach, men o‘zimni kulba ichiga oldim va eshik orqasiga yashirindim. Meni qidirib topishdan noumid bo‘lib, u kulbaga qaytdi. Yonimda katta pichog‘im bor edi. Zohid eshikdan ichkari kirishi bilan pichoq urdim. U mal’unning oyog‘idan sudrab ichkari olib kirib, boshini tanidan judo qildim. Kulbaning ichiga kirib hisobsiz mol-dunyo topdim. U mal’un o‘zini zohid qilib ko‘rsatib, odamlarni ovlardi. Ularning mol-dunyolarini olib, o‘zlarini o‘ldirardi. Nihoyat, uning barcha mollarini olib, u yerdan jo‘nadim. Shundan so‘ng xizmatni tark qilib, umrimni farog‘atda o‘tkazdim. Donolarga ma’lum bo‘lsinki, yomonlikning jazosi har sohada yomonlik bilan qaytgusidir.

MA’MUNNING SIRI

Amirulmo‘minin Ma’mun Rumga borgach, kunlardan bir kun o‘zining Ajif nomli lashkarboshisiga qarab: «Yo Ajif, men sen bilan ot choptirishni istayman, qani ko‘raychi, sening oting qanaqa choparkin», dedi. Shundan so‘ng har ikkisi ot choptirib ketdilar. Bir-ikki manzil yurib, odamlar ko‘zidan uzoqlashgach, Ma’mun Ajifga qarab: «Ot choptirishdan maqsadim shu ediki, senga aytadigan bir sirim bor. Mazkur sirdan sendan boshqa hech kim voqif bo‘lmasligini xohlayman. Bilginki, men birodarim Mo‘tasimdan xavf-xatardaman. Binobarin, sen meni xavf-xatardan omon saqlash uchun doim ko‘z-quloq bo‘lib turmog‘ing lozim», dedi. Ajif qabul qildi. Shundan so‘ng ular orqaga qaytib o‘z manzillariga yetib keldilar. Ajif fursat topib Mo‘tasimning oldiga kelib, Ma’mundan eshitgan so‘zlarni hikoya qildi. Mo‘tasim Ajifdan bu xabarni eshitsa ham hech narsa bilmagandek o‘z tirikchiligini o‘tkaza berdi.

Nihoyat saltanat davri Mo‘tasimga yetdi. Amir Mo‘tasim saltanatga kelgan kuniyoq, Ajifni tutib keltirishga farmon berdi. Ajifni keltirdilar. Mo‘tasim Ajifni o‘limga hukm qildi. Ajif Amirdan so‘radi: «Yo amirulmo‘minin, gunohim nedur? Magar senga bo‘lgan ixlosim va qilgan xizmatim evaziga ushbu jazoni loyiq ko‘rdingmi?»

«Sening gunohing, birodarimning sirini fosh qilganingdur. Zero, amirulmo‘minin Ma’mun senga qancha yaxshiliklar qildi. Qancha in’omlar berib tarbiyat qildi. Seni mazallat botqog‘idan oliy martabaga ko‘tardi. Nihoyat, senga ishonib o‘z sirini aytgan edi, sen uni fosh qilding. Shu qilmishingdan keyin senga qanday e’timodim qolsin», deb javob berdi Mo‘tasim.

Shundan so‘ng Ajifni darhol qatl qildilar. Fosh qilingan sir boshni tandan judo qildi.

TOVLAMACHI VOIZLAR

Xushtabiat va notiq bir yigit Iroq shaharlaridan biriga kelib xalq o‘rtasida va’zxonlik qilardi. Ayyorlik bilan so‘zga jilo berardi. Tez kunda u shaharning aholisi voizga murid va ixlosmand bo‘lib qoldilar. Uning latif so‘zlari va amri-ma’ruflarini jon qulog‘i bilan eshitardilar. Olti oy davomida shahar ahli o‘rtasida ishonch qozondi.

Bir kun minbar tepasida turib voizlik qilar ekan, yig‘ilgan xaloyiq so‘z sharobidan mast bo‘lib, yurak o‘tlari alanga olib, ko‘z yoshlarini to‘kib o‘tirar edi.

Shu payt bir yigit minbarga chiqdi va va’z aytayotgan yigitning yoqasidan olib: ≪Ey bozor o‘g‘risi, ey nopok qattol, bir yil bo‘ldi, otamni o‘ldirding. Aziz otamning firoqida chehram sarg‘aydi. Otamning qasosini olish uchun bir yildan buyon seni qidiraman. Seni qidirib olamni kezdim. Mana endi seni topdim≫, dedi.

Yig‘ilgan odamlar voiz yigitga ixlosmand bo‘lganliklari sababli, da’vogar yigitning da’vosini tuhmat deb gumon qildilar. Ular tuhmatchining adabini berib qo‘yish uchun endi o‘rinlaridan turgan ham edilarki, voiz yigit olomonga murojaat qilib:

- Ey xaloyiq, xudoning borligi aniq bo‘lganidek, har bir kunning ham ertasi bor. Bugun inkor etganim bilan bir kun emas bir kun sirim oshkor bulgusi. Hech narsa sababsiz bo‘lmaydi. Men ham yoshlik sho‘xligi bilan jinnilik qilib, ushbu yigitning otasini o‘ldirganman. Agar afv etsa, xudo xayrini bersin. Agar qasos olsa, u holda bugun qasos tig‘idan halok bo‘lsam, erta qiyomatda do‘zax azobidan xalos bo‘lg‘umdur,- dedi.

Da’vogar yigit minbardan tushib maydon tomon yura boshladi. Uning orqasidan voiz yigit ham yurib borardi. Shahar xalqining hammasi shoh maydoniga yig‘ildi. Da’vogar yigit qo‘lida o‘tkir tig‘ ushlab turardi. Voiz yigit maydonga kirib kelgach, jamoat da’vogar yigitga murojaat qildilar: ≪Bu olim kishini o‘ldirishdan senga nima foyda bo‘ladi. Otang xunini bizdan ol! Biz senga otang xunining haqini to‘laylik. Qasosga shoshilma≫, dedilar. Ko‘p minnatlardan so‘ng ming dinorga rozi bo‘ldi. Darhol ming dinorni yig‘ib da’vogar yigitning qo‘liga topshirdilar. Da’vogar yigit esa da’vosidan kechdi. Voiz yigit shu voqeadan so‘ng xijolatdan hech narsa demadi va shahardan chiqib ketdi.

Shu voqeadan bir necha vaqt o‘tgach, Nishopur shahrining qovoqxonalaridan biriga yo‘lim tushdi. Qovoqxonada ikki yigitga ko‘zim tushdi. Ular sharobxo‘rlik qilmoqda edilar. Ular sozandalarni yonlariga o‘tkazib musiqa tinglardilar. Men ularning oldilariga bordim va bu qanday xusumat bo‘ldiyu, endilikda bu qanday totuvlik bo‘ldi,- dedim. Ular meni tanidilar va:

≪Bizlar tovlamachilardurmiz. Ishlatgan o‘sha hiyla-nayrangimizdan uch ming dinor qo‘lga kiritdik. Bu pullarni tamomlagach, yana yangi reja va yangi tuzoqni ishga solamiz≫, dedilar.

ABU SOBIR

Bag‘dod boylaridan birining ishi orqaga ketib, qashshoqlik girdobiga cho‘ka boshladi. Ochlik va muhtojlik mashaqqatlaridan qutulish uchun yigit Bag‘doddan Basraga keldi. U och-nahor shahar ko‘chalarini kezardi. Ammo o‘z ahvolini biror kimsaga aytishdan uyalardi.

Bir kun yigit bag‘dodliklardan bir tanishiga xat yozib, undan qarz olmoqchi bo‘ldi. Yigit baqqolning do‘koni oldiga borib, yonidagi pichoqni baqqolga garovga qo‘ydi hamda qog‘oz, siyoh sotib olib, do‘stiga xat yozdi. Baqqol yigitning xatini va o‘zini ko‘rib undan hol-ahvol so‘radi.

Yigit o‘z ahvolini va tirikchilik mashaqqatini baqqolga birma-bir bayon qildi. Baqqol dedi:

- Agar biror kishining xizmatiga kirsang, bu mashaqqatlardan qutulgan bo‘larding...

- Biror kishi meni o‘z xizmatiga qabul qilsa, barcha mushkullarini oson qilardim.

-Bu yerda bir kishi bordir, nomini Abu Sobir derlar. Katta davlatmand, ammo o‘taketgan baxildir. U mendan bir kishi topib berishimni so‘ragan edi. Toki uning daromadi va xarajatlarini yozib, barcha ikir-chikir ishlarida unga yordamchi va madadkor bo‘lgay. Biroq uning baxilligi tufayli hech kim unga dosh berolmaydi. Xizmat haqini ham oz to‘laydi.

- Nimaiki bersa men roziman, xizmatga tayyorman,- dedi yigit.

Baqqol yigitni Abu Sobir oldiga olib bordi. Abu Sobir yigitga bir oyda o‘n kumush diram haq to‘lashga qaror qildi. Yigit xizmatga kirishdi. Yigit xo‘jayinning kirim-chiqimini daftarga qayd qilib borardi.Yigit Abu Sobirda olti oy xizmat qildi. Shu muddat davomida uning xotinlarini ham ko‘rmadi. Saroy ichkarisida nimalar bor ekanini ham payqamadi. Eshigi oldiga qachon kelmasin, uning oldiga yirtiq to‘n kiygan yosh go‘dak chiqib kelardi.

Kunlardan bir kun yigit Abu Sobirdan so‘radi:

- Bu go‘dak senga kim bo‘ladi?

- O‘g‘lim bo‘ladi, ammo unga yangi kiyim qilib bermayman, isrof bo‘lmagay,-deb javob berdi Abu Sobir.

Yigit o‘zicha: ≪Badbaxtlik bundan ortiqroq bo‘lmasa kerak. Zero, o‘z o‘g‘liga foydasi tegmagan odamning boshqalar uchun qanday nafi tegsin!.. Shundan so‘ng, uning xizmatidan bo‘shab ke-

tishga jazm qildi. O‘sha kechasi ishdan ketish fikrida uxladi.Tushida bir mo‘ysafid: ≪Sen Abu Sobirning xizmatidan ketmagin, chunki senga undan ko‘p foydalar vujudga kelgusidir≫, dedi. Shundan so‘ng, u yana Abu Sobir xizmatida qoldi.

Bir kun Abu Sobir huzuriga borib, uni uchratolmadi. Abu Sobir kasal yotibdi, deb xabar qildilar. Bir haftagacha uni ko‘rmadi. Bir haftadan so‘ng uning saroyiga bordi. Uni ichkari uyga taklif qildi. Uy katta edi. Ammo uyda na gilam va na namat bor edi, faqat uyning o‘rtasiga bitta bo‘yra solingan bo‘lib, unda Abu Sobir yotardi. Yigit undan so‘radi:

-Ey xoja, ko‘nglimda senga qovurilgan kalla go‘shtini in’om qilish orzuyim bor edi. Ushbu taklifimni qabul qilsang yaxshi bo‘lardi,-dedi va orqasiga qaytib, bozorga bordi. Bozordan qovurilgan bitta qo‘zining kallasini bir diramga sotib olib, bir oz non bilan Abu Sobirga olib keldi. O‘sha kuni yigit Abu Sobirning oltinlarini hisoblab ko‘rgan edi. O‘n sakkiz ming dinor qizil oltin naqdinasi va yana shuncha mablag‘ odamlar qo‘lida nasiyasi ham bor edi. Kalla go‘shtini uning oldiga qo‘yib, o‘zi chiqib ketdi. Bir hafta o‘tgach Abu Sobir kasaldan tuzalib chiqdi va yigitni ko‘rib, o‘sha qilgan in’omi uchun ko‘p tahsinlar o‘qib, dedi:

-Men o‘sha kalla go‘shti tufayli tuzaldim. Birinchi kuni kallaning ko‘zlarini yedim. Ikkinchi kuni go‘shtlarini, uchinchi kuni tilini, to‘rtinchi kuni quloqlarini va beshinchi kuni miyasini yedim. Bosh miya kosasini tuzdon qildim. Kalla suyaklaridan yog‘log‘i yasadim. U o‘lchov vazifasini ham bajaradi.

Yigit Abu Sobirga ofarin, dedi. Ammo ichida undan nafratlanib, dedi: ≪Bu badbaxt shuncha oltinlari bo‘laturib, bir kalla go‘shtini besh kun tamaddi qilib, yana suyaklaridan asboblar yasabdi-ya≫...

Bir necha muddatdan so‘ng Abu Sobir vafot qildi. Uning molidan yigitga ming dinor foyda tegdi. U Bag‘dodga ketdi. Bag‘dodda yana o‘z ishini boshlab yubordi. Shu voqeadan ikki-uch yil o‘tgach, ittifoqo, Basraga yo‘li tushdi. O‘sha kuni Abu Sobirning o‘g‘li ziyofat berayotgan ekan. Ziyofatga bordi. Dasturxon turli-tuman taomlar va mevalar bilan haddan ziyod bezatilgan edi. Anvoyi taomlardan biri barra kalla go‘shtining o‘zidan mingdan ortiq qo‘yilgan edi. Bu holni ko‘rib, esiga Abu Sobir tushdi.

O‘G‘ILGA VASIYAT

Amir Ma’munning nadimlaridan biri uning huzurida g‘azallar o‘qib, har xil hikoyalar so‘zlar edi. Shu asnoda u shunday dedi:

- Mening bir dindor, parhezkor va kambag‘al bir qo‘shnim bor edi. Umri oxirlab, ajal uning yoqasiga chang soldi. Ajalga qarshi qilgan barcha harakatlari bekorga ketdi. Uning bir o‘g‘li bo‘lib, yosh va tajribasiz edi. U o‘lim oldida o‘g‘lini chaqirib, unga vasiyat qildi: ≪Alloh menga jon berib, mol va ne’mat ato qilibdi. Men ushbu mol va ne’matni ranj va mashaqqatlar bilan qo‘lga kiritganman. Ammo endilikda bu mollar osonlikcha sening qo‘lingga o‘tgusi. Lekin sen buning qadriga yetmasdan, noahillar bilan do‘st bo‘lib elga sovurmasliging lozim. Isrofgarchilikdan o‘zingni saqlashga harakat qil! Hariflardan o‘zingni muhofazat qil!

Balki men o‘lganimdan so‘ng sen noahillar bilan do‘stlasharsan va ular seni fasod yo‘liga boshlab, barcha mol-mulkingdan judo bo‘larsan. Shuni esingda tutki, mendan senga qoladigan mol-mulkning hammasini sotsang ham, ammo uyni sota ko‘rma. Agar ovqating tugab, puling oxiriga yetib tirikchiliging o‘tmay qolsa, do‘sting dushmanga aylanadi. Mabodo shunday ahvol sodir bo‘lib qolsa, zinhor sen o‘zingni yomonotliq qilma! Falon uyning shiftiga arqon osib, tagiga kursi qo‘yib qo‘yganman. Sen o‘sha uyga borib kursiga chiqib, arqonni bo‘yningga solgach, kursini tepib yuborishing lozim. Zotan, dushmandan ehson so‘rab yashamoqdan o‘lim ming karra afzalroqdir!..≫

Yigitning otasi shu vasiyatni qilgach, oxirat safariga ravona bo‘ldi. Otasining ta’ziyasini tugatgach, u mol-mulkni sotib sovura boshladi. Oz muddat ichida barcha mol-mulkdan ajraldi. Hatto eng oxirgi asbob-uskunagacha sotdi. Uydan boshqa hech narsa qolmadi. Uning ahvoli shu darajaga yetdiki, bir necha kecha-kunduz davomida yeyishga biror narsa topolmay och qoldi. Hech kim unga hech narsa bermadi. Shundan so‘ng, otasining vasiyati esiga tushdi. Bechora yigit nihoyat, ilojsizlik tufayli o‘limga peshvoz chiqdi.

Otasi vasiyat qilgan uyga kirib kursi ustiga chiqdi va o‘z bo‘yniga arqon solib, hayot bilan vidolashgach, kursini oyog‘i ostidan turtib yubordi. Gavdasining og‘irligidan arqon solingan uyning xarisi sinib ketdi va singan xari orasidan o‘n ming dinor oltin yerga tushdi. Yigit boylikni ko‘rib, nihoyatda shod bo‘ldi. Yigit bildiki, otasi o‘g‘lim mendan keyin ranj-mashaqqat jomidan tatib ko‘rib, eng

so‘nggida oltinlarni topib olsa, uni qadriga yetadi va joyini bilib sarflaydi,- degan maqsadda vasiyat qilgan ekan.

Shundan so‘ng yigit ikki rak’at namoz o‘qib, g‘aflat uyqusidan uyg‘ondi va hushyor tortib, zamona bilimdoni bo‘ldi.

Bu hikoyatdan maqsad shudirki, isrofgar kishi barcha mol-mulki qo‘ldan ketgandan so‘ng, g‘aflat uyqusidan uyg‘onadi. Uning mehribon va mushfiq otasi esa o‘g‘lining muhofazati uchun oyoqqa turadi.

LASHKARBOSHI VA MAHBUD

Qadim zamonda bir shoh bor ekan. Uning Mahbud nomli vaziri bo‘lgan ekan. Shoh vazirni o‘ziga g‘oyat yaqin tutar va unga ishonardi. Hatto shoh yeydigan ovqat ham vazirning uyida pishirilardi. Ammo shohning lashkarboshisi bilan vazir Mahbud adovatda edilar. Lashkarboshi qanday bo‘lmasin vazirdan qasos olish yo‘lini izlardi. Nogoh lashkarboshi ko‘chada o‘zining eski oshnolaridan bir yahudiyni uchratib qoldi. Uni o‘z uyiga olib kelib ziyofat qildi. Ziyofat oxirida vazirdan shikoyat qilib: «Biror chora, tadbir bormikin, men o‘z dushmanimdan o‘ch olsam?» deb o‘z dardiga malham so‘radi.

«Shohning oldiga ovqat olib borishdan avvalroq menga xabar qil. Men ovqatga afsun o‘qib sehr qilay, toki ovqat zahri qotilga aylansin. Ana shundan so‘ng sening maqsading ro‘yobga chiqadi», deb javob berdi yahudiy.

Ertasi kuni vazir Mahbudning uyida shoh uchun guruch pishirildi va taomni Mahbudning o‘g‘li ko‘tarib saroyga jo‘nadi. Yo‘lda lashkarboshi bilan yahudiy turardilar. Lashkarboshi Mahbudning o‘g‘liga qarab: «Qani, taomning yuzini ochgin, ko‘raylik-chi, bugun shahanshohga qanday taom tayyorladinglar ekan», dedi. Bola yoshlik qilib, taomning yuzini ochdi. Yahudiy bir narsalarni o‘qib taomga kuf-suf deyish barobarida, hech kimga bildirmay ozgina zaharni taom yuziga sochib yubordi. Zahar solganini hatto, lashkarboshi ham sezmay qoldi.

Shundan so‘ng taomni shohning oldiga keltirdilar. Shu payt lashkarboshi yetib kelib, shohga: «Jonimni so‘rasangiz beraman, ammo taomdan tanovul qildirmayman», dedi. Shoh Mahbud bilan uning o‘g‘liga taomdan tanovul qilishni buyurdi. Ular taomdan bir-ikki luqma yeyishlari bilan yerga yiqildilar va jon taslim qildilar.

Shundan so‘ng shohning lashkarboshiga e’timodi kuchaydi. Bir necha vaqtlar o‘tib ketdi. Vazir Mahbud hammaning esidan chiqib ketdi.

Kunlardan bir kun shohning huzurida o‘tirgan saroy a’yonlari sehr va afsun haqida rivoyatlar aytar edilar. Har kim o‘zicha sehrning ta’siri haqida mubolag‘a bilan so‘zlar edi. Ba’zilari: «Sehr bekorchi gap, aslida bo‘lmagan narsa, yaxshilikni ham, yomonlikni ham vujudga kelishi sehr va afsundan emas», derdilar.

Shunda lashkarboshi o‘rnidan qo‘zg‘alib: «Sehr va afsun bag‘oyat kuchli narsa, buni hech kim inkor qilolmaydi. Men o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, bir kishi taomga afsun o‘qidi, taom darhol zaharga aylandi. Kimki shu taomdan yedi, o‘sha zamoni o‘ldi», dedi.

Shoh lashkarboshidan bu so‘zni eshitgach, aql tarozusi bilan o‘lchab bildiki, Mahbudning o‘limi sehrga hasadning qo‘shilishidan ekan. Darhol lashkarboshini tuttirib qiynoqqa soldi. Nihoyat, lashkarboshi o‘z aybini bo‘yniga oldi.

XOLIDNING MASLAHATI

Amir Mansur Bag‘dodni bino qilib, Islom shahari deb nom bergach, Kayxisravdan qolgan ko‘shkni buzdirishga ahd qildi. Bu haqda bir necha a’yonlar bilan maslahatlashdi. Hamma,- yaxshi bo‘ladi,- deb maslahat berdi.

Ammo Xolid Barmakiy bu ishni ma’qul ko‘rmadi va: ≪Bu tadbir joiz emas. Zeroki, ko‘shkni qurish uchun qancha mablag‘ sarflangan bo‘lsa, uni buzish uchun ham shuncha mablag‘ kerak bo‘ladi≫, dedi.

Mansur boshqalardan so‘radi: ≪Xo‘sh, Xolid Barmakiyning fikriga sizlar nima deysizlar?≫

Mavriyonlik Qosid Xolid Barmakiyning dushmani edi. O‘rnidan turib: ≪Yo amir, Xolid Barmakiyning so‘ziga qaraganda, uning Kayxisravga e’tiqodi hanuzgacha kuchli ko‘rinadi≫, dedi.

Mansur mavriyonlik Qosidning so‘ziga amal qilib, Kayxisrav ayvonini buzishga buyruq berdi. Qasrni buzish uchun ko‘plab ishchi kuchi talab qilindi va ming - minglab dirham ortiqcha mablag‘ sarflandi. Biroq shuncha sarf-xarajatlar evaziga ikki gazdan ortiq buza olmadilar.

≪Agar ikki gaz yerni buzish uchun shuncha mablag‘ sarflangan bo‘lsa, qasrning hammasini buzish uchun butun xazina ham yetmas ekan-da≫, deb o‘yladi amir. Shundan so‘ng Mansur Xolidni o‘z

huzuriga chaqirib izzat-ehtirom ko‘rsatib: ≪Endi bildim, sening maslahating to‘g‘ri ekan≫, dedi. ≪Ey amir, qasrni buzishga kirishmasdan avvalroq bu ishdan qo‘lingni tortganingda yaxshiroq bo‘lardi. Hamonoki buzishga kirishdingmi, butun xazinangni sarflasang ham batamom buzib tamomlashing shartdir. Zero, amirning dushmanlari uning nomini jahonga badnom qilib ko‘rsatmasinlar≫, dedi Xolid.

Mansur bu so‘zni eshitib Xoliddan qattiq ranjidi. Shundan so‘ng hech bir sohada Xolid bilan maslahatlashmadi va uning maslahati bilan hech bir ishga qo‘l urmadi.

OT O‘G‘RISI

Muhammad Badi Uqayliy shunday hikoya qiladi:

Bir kun bani uqayl urug‘idan bir kishini ko‘rdim. Uning orqasida nashtar zaxmiga o‘xshash belgilari bor edi. Undan sababini so‘radim.

≪Mening ishqim amakimning qiziga tushgan edi. Uning dona xollari meni ishq alangasiga tashlab, sabrimni tugatdi. Men qizni o‘z nikohimga kiritdim. Shundan so‘ng amakim menga, qizimning mahri bir otdir. Bu ot bani bakr qabilasi amaldorlaridan birining oti bo‘lib, nomini Shabaka deydilar. Agar o‘shani olib kelib bermasang, mahr mashaqqatidan xalos bo‘lmaysan, dedi. Men maqsadimga yetmoq uchun bani bakr qabilasiga bordim. Birmuncha vaqt u yerda bo‘lib, otni qayerga bog‘lashlarini kuzatdim. U shunday baytal ediki, chopqirlikda hech qanday otni oldinga o‘tkazmas va hatto shamolga tenglashardi. Ikki yashar toychog‘i ham bo‘lib, o‘zidan ham xushbichimroq va chiroyliroq edi.

Kechasi otni o‘g‘irlashga qaror qildim. O‘sha kecha shunday qorong‘i ediki, hatto o‘z panjangni ham ko‘rolmasding. Men ohista kelardim. Uyning o‘rtasiga titilgan yung g‘aram qilib qo‘yilgan edi. Men yung g‘arami orasiga kirib berkindim. Biror soatdan so‘ng uy egasi taom so‘radi. Uning oldiga taom keltirdilar. Er va xotin taom yeyishga mashg‘ul bo‘ldilar. Kechasi nihoyatda qorong‘i bo‘lsa-da, ammo chiroq yoqmagan edilar. Men och edim. Ohista ularning oldiga keldim va bir kosadan birga ovqat yeya boshladik. Nogoh qo‘lim uy egasining qo‘liga tegib ketdi. U qo‘limni mahkam ushlab oldi. Men esa uning xotinining qo‘lini mahkam ushlab oldim. Xotin mening qo‘limni o‘z erining qo‘li deb gumon qilib: ≪Begona qo‘l deb o‘yladingmi?≫ dedi.

Ovqatni yeb bo‘lishgach, xotin o‘rnidan turib, zanjirni otning oyog‘iga solib qulfladi va kalitini o‘z yostig‘ining ostiga qo‘ydi, hamda eri bilan uyquga ketdi.Tun yarmidan oqqanda otboqar qul o‘rnidan turib, kichik bir tosh porani xotin tomon otdi. Xotin erining qo‘ynidan chiqib, qulning oldiga bordi va har ikkovlari birgalikda boshqa uyga chiqib ayshu ishratga mashg‘ul bo‘ldilar. Men fursatni g‘animat bilib, o‘rnimdan turdim. Yostiq ostidan kalitni olib otning zanjirini yechdim. Yungdan eshilgan arqonni o‘zim bilan olgan edim. Otning boshiga solib, yetaklab tashqariga olib chiqdim. Otga minib, qamchi urdim. Buni ko‘rib qolgan xotin, qulning quchog‘idan chiqib: ≪Otni olib ketdilar!≫ deb faryod qilib, dod soldi. Darhol qabiladoshlar otga minib, mening orqamdan quviy boshladilar. Hech kim menga yeta olmas edi. Faqat birgina chavandoz menga yetay deb qolgan edi. Men bilan uning oralig‘imiz bir nayza bo‘yidek masofani tashkil qilar edi. U nayzasini mening orqamga tegizardi va jarohatlardi. Ammo meni ot ustidan ag‘darib tashlashga kuchi yetmas edi. Banogoh, bir chuqur o‘zanga borib qoldik, kengligi qariyb yigirma gaz kelardi. Men otga qamchi urdim. Ot chuqurlikdan sakrab o‘tdi. Chavandoz esa chuqurlik oldiga kelib to‘xtab qoldi. Otining sakrashiga ko‘zi yetmadi.

Shundan so‘ng chavandoz o‘sha yerda to‘xtab: ≪Ey yigit, o‘n ming dinorlik qimmatga ega bo‘lgan otni olib ketding. Hargiz arzonga sotmagin≫, dedi.

-Bu ot menga qimmatga tushgan, zero, jonimni garovga qo‘yganman,-dedim.

- Ayt-chi, otni qanday qilib o‘g‘irlading? - dedi.

Bir kosadan ovqat yeganimiz va xotini bilan qulining kirdikorlari haqidagi hikoyani gapirib berdim.

- La’natlar bo‘lsin sendek mehmongaki, taomni yeding, otimni o‘g‘irlading va uyimni buzding!- deb orqasiga qaytib ketdi chavandoz. Men otni olib kelib, o‘z maqsadimga yetishdim. Ammo nayzaning bergan zarbi or-qamda o‘chmas belgi bo‘lib qoldi≫.

XIZMATKOR

Amir Horun ar-Rashidning Mansur ismli bir xizmatkori bor edi. U xizmat-korlar ichida eng e’timodlisi edi. Kunlardan bir kun Mansur saroyda Horun ar-Rashidning huzurida rumlik qul bilan rumiy tilida so‘zlashib turgan edi. Horun ar-Rashid Mansurdan so‘rab qoldi:

- Sen rumiy tilini bilasanmi?

- Yaxshi bilaman...

- Kimdan o‘rgangansan?

- Mening onam va doyam rumlik edilar, o‘shalardan o‘rganganman va eng nozik iboralarigacha to‘liq bilaman,- deb javob berdi Mansur.

Horun ar-Rashid unga tasanno o‘qidi.

Bir kun amir Mansurga dedi:

- Mening senga aytadirgan muhim so‘zim bor. Lekin bu sirni og‘zingdan chiqara ko‘rma. Sen bugun azon vaqtida uyqudan turib, o‘zingni karlikka sol va ≪bugun burnimdan ikki qatra suv oqib, qulog‘im g‘ippa kar bo‘lib qoldi≫, deb ovoza qil. Toki xaloyiq seni kar bo‘lib qolganingga ishonsin. Ana shundan so‘ng men senga yana bir sirni aytaman.

Shundan so‘ng Mansur o‘zini kar bo‘lib qolganligini ovoza qildi. Butun Bag‘dod xalqi Mansurning kar bo‘lib qolganini eshitdi.

Kunlardan bir kun amir Horun ar-Rashid xilvatda o‘tirib, Mansurdan sekin so‘radi:

- Anavi ishni qanday bajarmoqchisan?

Mansur gap nima ustida ketayotganini tushunolmay:

- Qaysi ishni?- deb so‘radi. Horun ar-Rashid kulib:

- Hali karlikka yanada yaxshiroq o‘rganishing lozim,-dedi. Bu so‘zdan Mansur o‘ziga keldi. Shundan so‘ng bir oy davomida amir Mansurdan uch marta so‘z so‘radi. Ammo uchinchi so‘roqqa ham Mansur indamadi. Shundan so‘ng Horun ar-Rashid dedi:

- Mana endi karlikka o‘rganibsan. Seni Rum podshosining huzuriga elchi qilib jo‘natmoqchiman. Hushyor bo‘lishing kerak. Mening maqsadim shuki, sen o‘zingni kar qilib ko‘rsatsang. Ular nima haqida so‘zlashganlarini bilib olsang. Shoh qanday so‘z aytmasin, go‘yo sen o‘zingni eshitmaganga solsang, ikkinchi marta aytganda ham eshitmaslikka sol, toki yana takrorlasin, shundan so‘ng o‘z javobini unga ma’lum qil! Senga nimaiki hadya qilsalar qabul qilmagin. O‘sha hadya qilgan narsalarining nomi yoki nusxasi bizning yerlarda topiladigan bo‘lsa, sen ularga ≪bu narsalar bizda ko‘p≫, deb javob ber. Arkoni davlat a’yonlarining barchasiga turli-tuman hadyalar bergin. Ularga mushk, ud va anbardan ko‘proq ber. Chunki ular atirga juda ham o‘chdirlar.

Mansur safar anjomini hozirlab Rum mamlakatiga jo‘nadi. Mansur Rumga yetib, shaharga kirgach, Rum podshosi o‘z xoslaridan bir nechasini Mansurning istiqboliga chiqardi. Mansurni izzat-ikrom bilan shaharga olib kirdilar. Mansur Rum podshosining huzuriga kirgach, podsho unga savol bera boshladi. Biroq Mansur javob bermasdi. Ular Mansurdan:

- Senga nima bo‘ldi, nima uchun javob bermaysan, -deb so‘radilar.

- Yo‘lda kelayotib, bir necha kun kasal bo‘ldim. Kasaldan tuzalgach, kar bo‘lib qolgandim. Binobarin, qulog‘im og‘irdir,- deb javob berdi.

- Bu baxtsizlikdir, - dedi Rum podshosi.

Shundan so‘ng podshoh tarjimonga dedi:

- Nimaiki gapirsang qog‘ozga yozib ko‘rsat. Ushbu qog‘ozni o‘qib javob bersin.

Arkoni davlatiga esa, - agar biror so‘z aytmoqchi bo‘lsangiz zinhor baland ovoz bilan gapira ko‘rmang. Toki gapirgan gapingizni eshitmasin. Qani ko‘raylik-chi, yana qanday hiylalar ko‘rsatarkin,- dedi.

Shundan so‘ng a’yonlar o‘z sovg‘a-salomlarini Mansurning oldiga olib borib, unga in’om qilmoqchi bo‘ldilar. Ammo Mansur barcha sovg‘alarni kamsitib, ≪bundan bizda ko‘p≫, ≪bu narsa bizlarda allaqachonlar ishla-
tilmaydigap bo‘lib qolgan≫, deb qabul qilmadi. Mansurning maqsadi nima ekanligi Rum shohiga ma’lum bo‘ldi. Rum shohi indamadi va hech narsa in’om qilmadi. Shu bilan birinchi qabul marosimi tugadi. Keyingi uchrashuvlarda barcha muzokara va munozaralar tugallanib, elchining qaytish vaqti yaqinlashdi. Elchini Rum shohining huzuriga keltirdilar. Rum shohi elchini ajoyib manzarali bir qasrda kutib oldi. Qasr nihoyatda go‘zal uslubda qurilgan bo‘lib, qasr tomini faqat bitta ustun ko‘tarib turardi. Qasrning to‘rtta eshigi bo‘lib, devorlari va sahni zumraddan ishlangan edi. Qasrning sharqiy va g‘arbiy qismida bittadan ikkita daricha bo‘lib, quyosh chiqqanda sharqiy derazadan, quyosh botayotganda esa g‘arbiy derazadan shu’la sochib, qasr ichi zumrad rangiga cho‘mardi. Qasr ichiga kirgan kishi o‘zini afsonaviy bir dunyoga kelib olgandek his qilardi.

Mansur qasrga kirgach, uning g‘oyatda muhtashamligidan lol bo‘lib qoldi va yuzida hayrat asari paydo bo‘ldi. Rum podshosi tarjimonga dedi:

— So‘rab ko‘rchi, ularning podshosida ham mana shunday qasr va shunchalik zumradlar bormikan?

— Amirulmo‘mininning uyida zumrad shunchalik ko‘pki, agar xohlasa uyining ostonasini ham zumraddan qildiradi, -deb javob berdi Mansur.

Rum podshosi Mansurning lof urib, yolg‘on gapirayotganini sezdi va boshini qimirlatib dedi:

-To‘g‘ri so‘zlamoq eng yaxshi fazilatdir.

Shundan so‘ng Mansur Bag‘dodga qaytib keldi va Horun ar-Rashidga Rum podshosining maktubi va sovg‘a-salomlarini topshirdi. Mansurning xizmati amirga ma’qul bo‘ldi va unga yuz ming dinor in’om qildi. Horun ar-Rashid Mansurga yuz ming dinor berilishi haqida xazinadorga barot yozib, muhrlar ekan, Mansur uning huzurida tik turib safarda ko‘rgan ajoyibotlardan so‘zlardi. Nogoh, Mansurning esiga Rum podshosining qasri va u yerdagi zumradlar tushdi. Mansur qasrning ta’rif va tavsifini qildi. Shuningdek, zumrad haqida Rum podshosiga bergan javobini takrorladi. Mansurdan bu so‘zni eshitib, Horun ar-Rashid g‘oyat g‘azablandi:

- Yolg‘on gapirishdan uyalmadingmi? Shunday noma’qul gapni gapiribsanki, hatto, haqiqatni tan olmasdan unga qarshi yolg‘on so‘zlashlik nomardlik alomati ekanini ham tushunmabsan. Agar shohlarning ishonchli
kishilari yolg‘on so‘zlashga jur’at etsalar, u holda o‘zlari shohning ishonch va e’tiboridan mahrum bo‘ladilar. Bugundan boshlab bizning ixlosimiz ham sendan qaytdi. Sening baxtsizliging shundaki, yolg‘on gapirgansan. Yolg‘onchiligingi uchun mukofotlamaymiz. Zero oltinni kumushga alishmaydilar, - deb barotni yirtib tashladi va yuz ming dinorga yangi barot yozib Mansurga berdi. Yuz ming dinorning dard-alami Mansurning dilidan hargiz ketmadi. Buning asl sababi bir og‘iz noo‘rin yolg‘on gapirgani edi.

ABU AHMAD SAHL VA XOJA AHMAD HASAN

Sulton Mahmud va uning vaziri xoja Ahmad Hasan Maymandiy-ning davrida bir kishi bor edi. Uni Abu Ahmad Sahl bazzoz derdilar. U moldor, badavlat va qo‘li ochiq kishi edi. Ammo uning beaql, yolg‘onchi va kazzob bir o‘g‘li bor edi. Abu Ahmad Sahlning o‘g‘li

Sultonning yigirma ming dinorli bo‘yog‘ini o‘g‘irlab sotib, aysh-ishratga mashg‘ul bo‘lgan edi. Bu voqeadan xabar topgan sulton pulni Abu Ahmad Sahldan undirishga farmon berdi.

Bir kun Abu Ahmad Sahl vazir huzuriga bordi va ta’zim bajo keltirdi. Vazir Abu Ahmadni ko‘rib, unga:

- Eshitdim, o‘g‘ling sultonning molini o‘g‘irlabdi. Sen o‘g‘ling uchun javob berishing kerak. Qanday qilib sultonning molini o‘g‘irlashga yo‘l qo‘yding?.. Yoki meni kechiradi deb o‘yladingmi? Yo‘q, aslo, hamma mol-mul-kingni tortib olaman, - deb po‘pisa qildi. Bazzoz so‘z boshladi:

- Sultonning umrlari uzoq bo‘lsin! Mening o‘g‘limni ma’zur tutsinlar. Chunki uning nomi Ahmaddur. Agar kimning nomi Ahmad bo‘lsa, u albatta ahmoq bo‘ladi. Nimaiki yomon ish qilsa ablahligi va bexiradligi tufayli qilgandir. Binobarin, uning gunohidan kechishingizni iltimos qilaman,- dedi.

Vazir Xoja Ahmad Hasan bu so‘zni eshitib, g‘oyatda ranjidi va Abu Ahmad Sahlning befarosatligi, ablahligidan hayron bo‘lib kuldi va:

- Sen o‘g‘lingdan ham badtar diyonatsizroqsan, sendek beandisha, ahmoqqa la’natlar bo‘lsin!- dedi.

Abu Ahmad Sahl bazzoz shuncha dashnom eshitsa ham, hanuzgacha o‘zining nima deb qo‘ygani fahmiga yetmagan edi. Hatto, vazirning nomi ham Ahmad ekanini va bunday bema’ni so‘zlarni aytish odobsizlik ekanini ham o‘ylab ko‘rmagan edi. U o‘rnidan turib:

- Janob vazirning menga bunchalik dashnom berishlaridan ma’lum bo‘ladirki, mening haqimda birovdan biror yomon so‘z eshitgan ko‘rinadilar, - dedi.

- Balli, sening tilingdan eshitdim, - deb javob berdi vazir.

Shundan so‘ng Abu Ahmad Sahlni vazirning huzuridan haydab chiqardilar. Bundan keyin uni vazir huzuriga kiritmadilar.

MUZAFFARNING ZULMI

Sulton Mahmud xizmatida Muzaffar devona degan bir kishi bor edi. U nizhoyatda zolim, nobakor va e’tiqodsiz kishi edi.

Kunlardan bir kun Sulton Mahmud Dasht viloyati va uning atrofidagi qishloq va ariqlarni o‘z mulkiga qo‘shib olishni istab qoldi. Ammo yer egalari sotishdan bosh tortdilar. Bundan Sulton Mahmud g‘oyatda ranjidi va Muzaffar devonani ular ustiga nazoratchi qilib tayinladi.

Muzaffar Dasht aholisiga chandon zulmlar qildi-ki, tez kunda ular o‘z jonlaridan to‘yib, o‘limlariga rozi bo‘ldilar.

Muzaffarning aholiga o‘tkazgan zulmlaridan biri shu ediki, u o‘z mulozimlari bilan birga o‘z tomiga chiqib turar va dehqonlardan birini chaqirtirardi. Dehqon tomga chiqqach, unga: ≪Nima uchun chaqirmaganim holda meni uyimga kelding?≫ derdi. ≪Men o‘zimcha kelganim yo‘q, chaqirishgani uchun keldim≫, deb javob berardi bechora dehqon. ≪Yolg‘on aytasan, men seni chaqirganim yo‘q!≫ deb qasam ichardi. Muzaffar dehqonni tomdan pastga itarib yuborishga buyruq berardi. Natijada ko‘pchilik dehqonlar cho‘loq, qo‘llari ishga yaroqsiz, majruh bo‘lib qolardilar. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, uning oldidan biror kishi o‘tolmaydigan bo‘lib qoldi.

Mazkur zulm turlari ishlatilaverib eskirgach, yangi-yangi zulmlarni o‘ylab chiqarardi. Chunonchi: dehqonni o‘z huzuriga chaqirib undan so‘rardi:

- Nechta quling bor?

- Faloncha...

- Hamma qullaringni shu yerga keltir,- derdi. Dehqon o‘z qullarini keltirgach, Muzaffar qullar orasidan eng badbashara va majruhrog‘ini tanlab:

- Buni menga sot! - derdi.

- Sizga hadya qildim, - derdi dehqon.

- In’omingga ehtiyojim yo‘q, bahosini ol,- derdi va arzimagan bahoda qulni sotib olardi hamda o‘sha zahoti qulni ozod qilardi-da: ≪Bu qul endi sultonning ozod quli bo‘ldi. Sen o‘z qizingni bunga nikohlab berishing lozim≫, derdi.

Agar dehqon qizini berishdan bosh tortsa, uni shunday qiynoqlarga solardiki, dehqon azbaroyi zarurat yuzasidan qizini berishga majbur bo‘lardi.

Xalq bu zulmlardan to‘ydi. Nihoyat, barcha viloyat yerlarini sultonga sotdilar hamda Muzaffarning qilmishlarini ariza qilib sultonga yubordilar. Sulton Muzaffarni nazoratchilik mansabidan tushirdi. Uning o‘rniga Abu Habib nomli kishini amaldor qilib tayinladi. Muzaffar esa Abu Habibga zarba berish maqsadida payt poylab, uning xizmatida yurardi.

Muzaffarning chiroyli qizi, Abu Habibning esa yaxshi ko‘rgan quli bor edi. Ittifoqo, bir kun Abu Habibning quli Muzaffarning qizini

ko‘rib qoldi va unga oshiqi beqaror bo‘ldi. Ishq-muhabbatning ta’sirida qulning ko‘zidab uyqu qochib, ovqatdan qoldi, nihoyat o‘z ahvolini Abu Habibga bayon qildi.

Ertasi kuni Muzaffarni o‘z huzuriga chaqirib voqeani unga hikoya qildi va uning qizini o‘z quliga xotinlikka so‘radi. Muzaffar bu so‘zdan qattiq ranjidi va noshoyista so‘zlarni aytdi:

“Senga quda bo‘lishdan nafratlanaman, o‘z qizimni sening qulingga qanday qilib beraman”, dedi Muzaffar.

Bu so‘zlardan Abu Habib g‘oyatda ranjidi. Shundan so‘ng Abu Habib va Muzaffar o‘rtasida dushmanlik vujudga keldi.

Muzaffar Abu Habibni sulton oldida o‘g‘rilikda ayblab: “Abu Habib sultonga tegishli mablag‘dan ikki yuz sakson dinor qizil oltinni o‘g‘irladi”, deb tuhmat qildi.

Abu Habib dedi: “Bu so‘z to‘g‘ri emas, hech qanday dalil va isboti ham bo‘lishi mumkin emas. Ammo basharti Muzaffar menga topshirilsa men ushbu mablag‘ni sultonning xazinasiga keltirib berishim mumkin”.

Sulton Muzaffarning qilgan zulmlarini eshitib undan ranjib yurgan edi. Binobarin, sulton Muzaffarni Abu Habib ixtiyoriga topshirdi. Abu Habib Muzaffar bilan murosasozlik qilishga urindi. U, “shoyadki Muzaffar yaxshilikcha o‘z qizini berishga rozilik bersa”, degan umidda edi.

Bir kun Abu Habib Muzaffarni qal’aga qamadi. Kechasi mast holda qal’aga bordi va qal’a boshlig‘iga dedi:”Bu Muzaffar necha-necha kishilarni o‘zining uyiga chaqirib, tomga chiqarib, ularni tomdan pastga itarib yuborib o‘ldirgani senga ma’lumdir. Endi uning o‘zini qal’a tomidan pastga itarib yubor! Ko‘raylik-chi, uning holi nechuk bo‘lgay”.

Shundan so‘ng Muzaffarni qal’a tomidan pastga itarib yubordilar. U pora-pora bo‘lib ketdi. Uning qilgan nohaq jazolari, sazolari va zulmlari shu dunyoda uning o‘ziga yopishdi. Qilgan barcha gunohlari va dushmanlarining keklarini o‘zi bilan birga olib ketdi.

Bir haftadan so‘ng Abu Habib Muzaffarning qizini o‘z uyiga olib bordi va o‘z quliga nikohlab berdi.

Oqillarga ma’lum bo‘lsinkim, har kim birovga yomonlik qilsa, uning o‘ziga ham albatta yomonlik jazosi qaytgusidir.

AHMAD VA UNING XIZMATKORI A'YOSH HAQIDA

Xurosonda shohlik navbati Rofe Harsmadan amir Abu Shujo Ahmad ibn Abdulloga yetdi. U chiroyli, mardona, saxovatli yigit edi. Ammo zolim va beandisha, uyatsiz edi. Mazkur ikki yomon xulqi barcha fazilatlarini yuvib ketardi; davlatining barbod bo'lishi sababi ham beandishaligi va uyatsizligidandir, deb yozadilar. Bu shunday sodir bo'lgan ekan:

Ahmad ibn Abdullo qo'shinida Sherzod Daylamiy nomli bir kishi bor edi. U muruvvatli, mardona va latif kishi edi. Ahmad uni o'ziga sirdosh mahram qilgan edi. Ahmadning bema'ni odatlaridan biri shu ediki, o'z nadimlari bilan doim xushchaqchaqlik va hazil-mutoyibalar qilar va ulardan, sizlar hech oshiq bo'lganmisizlar va ma'shuqalaringiz kimlardir, deb so'rardi. Agar birorta xotinning ta'rifini eshitsa, darhol uning payiga tushar va qo'lga kiritardi.

Bir kun Sherzod bilan o'tirishganda undan so'radi:

- Sen hech oshiq bo'lganmisan?

- Boqiy davlatlarining soyasida amakimning qizi qaylig'imdir. Bizning ko'nglimiz yoshlikdan bir-birimizga payvand edi. Men undan boshqa hech qanday xotinga nazar tashlagan emasman va uning xohishiga bo'ysunganman. Shuningdek, u ham vafodorlik ko'rsatdi. Bizning bir-birimizga bo'lgan munosabatimiz juda ham maroqlidur. Men usiz hech qayerga bormayman, - deb javob berdi.

Ahmad ibn Abdullo bu so'zni eshitgach, u xotinning ishqiga tushdi. Manmanlik havosi g'olib kelib, tubanlik e'tiqodi va nihoyatda andishasizlik sabab bo'lib Sherzodning xotinini yo'ldan chalg'itmoqlik maqsadida bir necha qo'shmachi xotinlarni uning oldiga yubordi. Sherzodning xotini pokiza va iffatli juvon edi.

Uning ismat pardasiga hech qachon shubha gardi yuqmagan edi. Binobarin, u qo'shmachi xotinlarning hiylasiga uchmadi va ularni haydab chiqardi. Xotin o'z eriga bo'lgan voqeani gapirib berdi. Bu so'zni eshitgan Sherzodning qalbida alam va nafrat uchqunlari alanga oldi. Chora va tadbir yo'lini qidirib topolmasdi. Nihoyat, Ahmadning huzuridan xotini bilan birga qochib ketishni yagona to'g'ri tadbir deb bildi. Bu sirni o'zining do'stlariga bayon qildi. So'ngra Ahmad ibn Abdulloga aytib qo'ymasliklari uchun ularga qasam ichkazdi.

Ulardan biri yolg'on qasam ichdi va Sherzodning rejasini Ahmadga xabar berdi. Shundan so'ng Ahmadning Sherzodga e'timodi qolmadi va o'zicha Sherzod ketib qolsa undan har xil fitnalar vujudga

kelishi mumkin deb o‘yladi. Sherzodni ushlab kelib, o‘z qo‘li bilan o‘ldirdi. Mol-mulkini talon-toroj qildi. Uning Madim nomli xotinini zulm bilan o‘z huzuriga keltirdi. Qo‘shindagi barcha askarlar Ahmadning qilmishlarini qoralab, unga la’natlar o‘qidilar, Ahmad Madimni olib Shahristonni zabt qilmoq qasdiga tushdi. Shahriston shaharlaridan mol olib Mozandaronga kelib qaror topdi.

Nogoh Nishopurdan xabarchi maktub olib keldi. Maktubda: ≪A’yosh Nishopurga kelib, sening onang uyini talon-toroj qildi. Undagi barcha naqdina va mol-mulk, hamda xazinalarni oldi. Shu bilan birga, onangni ham o‘zi bilan birga olib Gurgonga ketdi≫, deb yozilgan edi.

Tarixchi shunday xabar beradi: Ahmad ibn Abdullo Sherzodning uyini talab, mol-mulki hamda xotinini olib ketgan kuni, A’yosh Nishopurda Ahmadning uyini talon-taroj qilib, uning onasini olib ketgan edi.

Maktubning mazmunidan ogoh bo‘lgan Ahmad behush bo‘ldi. Birozdan so‘ng hushiga kelgach, askar to‘plab, Hirot tomonga yurdi.

A’yoshning Ahmad uyini g‘orat qilishining sababi quyidagicha edi:

A’yosh Ahmadning xizmatkori edi. Uning o‘ziga xos askari va shavkati bo‘lib, bu vaqtda Hirotda edi. Bir kechasi tushida Ahmad bilan nard o‘ynardi. Nard o‘yinida Ahmad ustidan g‘alaba qildi. Uning boshidan sallasini olib, o‘zi kiydi. A’yosh uyqudan uyg‘ongach, ko‘rgan tushini tush ta’birlovchiga bayon qildi.

Ta’birchi shunday dedi: ≪Sen nard o‘ynab g‘alaba qilgan ekansan, u holda mag‘lub bo‘lgan kishining onasi sening qo‘lingga kirishi kerak≫.

A’yosh Ahmadning onasini ko‘rgan edi. Chiroyli, qaddi-qomati kelishgan ayol edi. A’yoshning ko‘ngli unga moyil bo‘lgan esada, ammo hokimiyat nuqtai nazaridan shikastahol bo‘lib qolavergan edi.

A’yosh barcha arkoni davlatini o‘ziga hamroh qilib, Nishopurga yurish qildi va Ahmadning uyini talon-toroj qilib uning onasini olib ketdi.

Ahmadning Romjuz nomli xizmatkori bor edi. Romjuz A’yoshning orqasidan ta’qib qila boshladi. A’yosh Romjuzga zarba berib, uni yarador qildi. Romjuz yengilib orqasiga qaytdi.

Ahmad ibn Abdullo Nishopurga yetib kelgach, ming kishini ajratib A’yoshning ketidan jo‘natdi va uni ushlab kelishga buyurdi. A’yosh bildiki, Ahmadning onasi u bilan birga ekan, uning ketidan dushman askari ta’qib qilaveradi. Shuning uchun, A’yosh Ahmadning onasini o‘ldirdi va o‘zi panoh istab Zaydning huzuriga keldi va Tabaristonda yashay boshladi.

Tabaristonda Husayn hukmronlik qilardi. U A’yoshning sharmandalik va tubanlik yo‘liga kirib, Ahmadning onasini birmuncha vaqt o‘z haramida saqlab va nihoyat, qilich bilan chopib o‘ldirganini eshitgan edi. Zero, bunday kishilarga boshpana berishga shariat yo‘l bermas edi. A’yoshni tutib, yo‘l ustiga olib chiqib osdilar. A’yoshning o‘zi bilan birga olib yurgan barcha naqdina va xazinasini davlat xazinasi ixtiyoriga olindi. A’yoshning andishasizlik va sharmandalik ishlari o‘z boshiga yetdi.

Ahmad onasining fojiali voqeasini eshitgach, ko‘p iztiroblar chekdi va yig‘ladi. Shu g‘am-anduhli motam kunlarining birida Ahmad o‘zining Qatlag‘ nomli sharobdoridan suv so‘radi. Qatlag‘ sharobdor jangari va shijoatli kishi edi. U yaxob to‘latilgan qadahni Ahmadning qo‘liga tutdi. Ahmadning ko‘zi qadahdagi suv ustida qalqib turgan xasga tushdi va Qatlag‘ga dedi: ≪Qadah yuzida xasni ko‘ra turib, nechun mening oldimga olib kelding?≫

≪Men qadahni sizning huzuringizga olib kelayotganimda xas yo‘q edi, hozir tushgan bo‘lsa kerak≫, deb javob berdi Qatlag‘.

Ahmad uning uzrini e’tiborga olmadi. Qatlag‘ning bir ko‘zini o‘ydilar. Ahmadning bu qilmishi Qatlag‘ning yuragida gina va g‘azabni vujudga keltirdi. Binobarin, u Ahmadni o‘ldirish uchun qulay fursat kutardi. Xuddi shu voqea asnosida Ahmad Nishopurning kattalari va jasur kishilarini yig‘ib dedi: ≪Romjuzning A’yoshga qarshi kurashida nima uchun unga yordam bermadilaring? A’yoshni mening naqdinalarim va onamni olib ketishiga qanday yo‘l qo‘ydilaring?≫

≪Bizning xabarimiz yo‘q edi. U to‘satdan hujum qildi. To bizga xabar yetguncha u qaytib ketib bo‘lgan edi≫, deb javob berdilar.

Ahmad ularning uzrini qabul qilmadi. Bir ming ikki yuz kishini maydonga chiqarib, bir haftagacha shu yerda qimirlamay turishni buyurdi. Ular Xurosonning baobro‘ shayxlaridan Shayx Usmonning uyiga bordilar. Shayx Usmonning qilgan duosi hargiz bekor ketmasdi.

Jamoat shayxdan Ahmad haqida duoyibad qilishni iltijo qildilar. Shayx duo qilishni va'da qilib, ularni orqalariga qaytardi.

O‘sha kechasi shayx Allohdan mazkur bechoralarning ozod qilinishini iltijo qildi. Haq-taolo uning duosini ijobat qildi.

Ertasi Romjuz bilan Qatlag‘ sharobdor turk jamoasidan o‘zlariga hamroh olib kelib to‘satdan Ahmad ibn Abdulloni o‘ldirdilar. Ahmadning davlat olovi uchdi. Ertasi kun Nishopur ahli Shayx Usmonning uyiga bordi, har kim uni o‘ziga yaqin tutar va shayxning devorlaridagi kesak va tuproqlardan tabarruk deb olib ketardilar. Shayx bu g‘avg‘odan bosh olib qochdi. Shayxning uyini oyoqosti qildilar.

Ahmadning hayosizligi va zulmi natijasida avom xalq shayx Usmonning kulbasini xarob qildi. Shayx Usmon o‘zining qolgan umrini eski vayrona uyda o‘tkazdi. O‘z uyini qaytadan obod qila olmadi.

MUQBIL VA XOJA

Shoir Abdulqays shunday deydi:

≪Otamning Muqbil nomli xizmatkori bor edi. Jinoyat qilib qo‘ygach, otamning xizmatidan qochib ketdi. Hech kim undan xabar topmadi. Muqbil qochib ketgandan so‘ng, otam olamdan o‘tdi va men hali yosh edim. Yoshlikning dastlabki davrlari nodonlik va parishonlik xayollaridan iborat bo‘lgani sababli g‘urbatga tushdim. Chunonchi, o‘z shahrimdan safarga chiqish havasi tug‘ilib, taqdirning taqozosi bilan Nasibin shahriga yo‘lim tushdi. Bir kun yaxshi kiyingan holda shahar bozorini aylanib yurardim. Belbog‘imda biroz mablag‘ ham bor edi. Nogoh, o‘sha xizmatkor Muqbilni ko‘rib qoldim. Muqbil mening oldimga kelib, o‘zini oyog‘im ostiga tashlab, mamnunlik izhor qilaverdi. U qavm-qarindoshlarning ahvolidan so‘rar va vafot qilganlar uchun achinayotganligini izhor qilardi. Shuningdek, qolganlarning salomat yurganiga shod ekanligini bildirardi.

Shundan so‘ng, Muqbil menga dedi: ≪Bu shaharga xush kelibsan!.. Ehtimoldirki, bu yerda qo‘nadigan muqim uying bo‘lmasa kerak. Mening bu yerda uyim bor. Uyimda maishat asbobi muhayyodir. Agar lozim topsang biror soat sening xizmatingda bo‘lsam≫.

Men ablahlarning hiyla-nayranglaridan bexabar bo‘lganim tufayli hamda uning zamzamalariga mag‘rurlanib, uning ketidan

yo‘lga ravona bo‘ldim. Biz shahardan tashqariga chiqdik. Shaharning chetida xaroba uylar bo‘lib, xarobalar orasida katta saroy namoyon bo‘ldi. Saroyning eshigini mahkam zanjirlab qo‘ygandilar. Muqbil eshikni taqillatdi. Darhol eshikni ochdilar. Muqbil bilan oldinma-keyin ichkari kirdik. Yana eshikni mahkam qilib zanjirladilar. Nihoyat, dahlizdan ichkari kirganimizdan so‘ng, kichik hujrachani ko‘rdim. Hujraning sahniga bo‘yra solingan bo‘lib, unda shersurat uch kishi qurollarini oldilariga qo‘ygan holda o‘tirardilar. Ularni ko‘rgach, ular o‘g‘rilar toifasidan ekanligi va men o‘z oyog‘im bilan go‘ristonga kelganligim ayon bo‘ldi. Men shunday andishada turgan edim, ulardan biri o‘rnidan turib kelib yuzimga bir tarsaki tushirib: ≪To‘nni yech≫, dedi. Men barcha kiyimlarimni yechib, faqat ishtonim bilan qolib, hayronlikda termulardim. Choponim va oltinlarimni olishgach, oltinni Muqbilga berib: ≪Bozorga borib taom keltir, qorinni to‘yg‘azaylik≫, dedilar. Muqbil ulardan birining qulog‘iga ohista gapirdi. U kishi esa, o‘ldirish biz uchun yaxshi bo‘lmaydi, sen tezroq borib taom keltir, dedi. Men bu so‘zlarni eshitarkanman, hayot bilan vidolashdim va jonimdan umidimni uzdim.

≪Ey yaxshilar, meni o‘ldirishdan nima foyda topasizlar, to‘nimni va oltinlarimni sizlarga berdim-ku. Agar mening yosh jonimga minnat qilib, yosh niholni qayirib sindirsangizlar, uni hech qachon qaytadan tiriltirishga qudratingiz yetmaydi≫. Muqbilga qarab:

≪Hech bo‘lmasa otamning bergan tuziga rioya qilsangchi! Munosabatimiz va do‘stligimiz hurmati, meni bu ahvolga solma≫, dedim. Muqbil so‘zlarimga iltifot qilmadi va ularga qarab, agar buni tirik qoldirsangizlar, hisobsiz tashvishga solib, hammamizni halokat yoqasiga olib kelish ehtimoli bor, dedi.

Ulardan biri o‘rnidan turib kelib mening sochimdan ushlab, pichoqni qinidan chiqardi. Ularning orasida men bilan tengqur bir yigit bor edi. Men sochimni zolimning qo‘lidan ajratib olib, o‘sha yigitning yoniga borib o‘tirdim. Men u yigitni shafi’ qilib dedim: ≪Men senga panoh tortib keldim va o‘zimni sening himoyatingga topshirdim. Meni qutqar! Toki xudoyi taolo seni balolardan omon saqlagay!≫

U yigit menga hamiyat bildirib, ko‘rnamak Muqbilga dedi: ≪Ko‘p surbetlik qilaverma, senga topshirilgan xizmatni bajarishga harakat qil!≫

Muqbil ketgach, yigit o‘z boshlig‘iga: ≪Bu yigit menga panoh tortib keldi, bu kecha uni bu kishilardan himoya qilishingni istayman≫, dedi. ≪Alhol sen unga omonlik bergan ekansan, unga ziyon yetkazishga hech kimning haddi yo‘q≫, dedi boshliq. Biror soatdan so‘ng Muqbil taom bilan sharob keltirdi. Taomni yeb bo‘lishgach, sharobxo‘rlikka o‘tirdilar. Men yigitga qarab, menga lutf qilding, endi uni oxiriga yetkaz! Bu jamoat bilan shu kecha barobar bo‘lma va meni esingdan chiqarma! Agar sen mast bo‘lib qolsang, bular meni tirik qo‘ymaydilar, dedim.

Yigit sharob ichishdan o‘zini tiydi. Boshliq ham unga qo‘shildi. Ular yarim kechagacha sharobxo‘rlik qildilar. Nihoyat tun yarmidan oshgach, qurollarini taqib jo‘nab ketdilar. Hammalari jo‘nab ketgunga qadar yigit o‘z boshlig‘i bilan birga biror soat to‘xtab turdilar. So‘ng ular menga, o‘rningdan tur va saroy eshigini berkitib ol va tinch yotib uxla! Zero xudoyi taolo senga yangidan jon ato qildi. Agar vaqti kelib, bizni uchratib qolsang, bu ehson uchun yomon mukofot bermagaysan, deb men bilan vidolashib jo‘nab ketdilar. Men saroyda qolib, salomat qutulganim uchun shukurlar qildim. Tong otgach, saroydan chiqib, mazkur shahardan jo‘nab ketdim.

Bu hikoyatning foydasi shulki, har kim badasl, manfur va nokasni parvarish qilsa, oqibat pushaymon bo‘ladi, ammo foydasi bo‘lmaydi.

IV BOB. G'AZNAVIYLAR, SALJUQIYLAR, SOMONIYLAR DAVLATI HAQIDAGI HIKOYALARNING YANGI TARJIMALARI

Ushbu bo‘limda keltirilgan yillar va ismlar, joy nomlari asl manbadan aslicha olingan qo‘shimcha ma’lumotlar hisoblanadi.

G'AZNAVIYLARNING DAVLAT BOSHIGA KELISHI

Sulton Yamin ud-Davla Sabuqtegin Nuhni Marv yaqinida yenggach, uch yuz sakson to‘qqizinchi yilning yigirma yettinchi jumasida dushanba kuni Xuroson mulklari Sabuqtegin tasarrufiga o‘tdi. Arslon ilekxon Nasr ibn Ali O‘zganddan Buxoroga kelib, Somoniylar sulolasidan Abdulmalik Nuhning yerlarini tortib oldi. Odamlarning hammasini o‘ziga asir qilib, Arslonxonni O‘zgandga jo‘natib yubordi. Shuning uchun Movaraunnahr va O‘zgand Arslonxonning mulkiga aylandi va butun Xuroson Sulton Mahmud ixtiyoriga o‘tdi.

Sulton Mahmud G‘aznani poytaxt qildi. Bu kitobda u va uning hayoti, iymon-e’tiqod uchun olib borilgan urushlar, ulug‘vor ishlari to‘g‘risidagi hikoyatlar haqida to`liq ma’lumotlar keltirilgan. Bir muncha vaqt u mulklarini qo'lida ushlab, ko'p yurtlarni bo'ysundirdi. Nihoyat, to‘rt yuz yigirma birinchi yili yigirma to‘rtinchi payshanba kuni u foniy dunyodan o‘tdi va uning o‘rniga o‘g‘li Muhammad keldi. Keyin ukasi Mas’ud ibn Mahmud keldi. U birodari (Muhammad)ni ko‘r qilib, hokimiyatni qo‘lga oldi, Allohning rahmati unga bo‘lsin.

SALJUQIYLARNING MUVAFFAQIYATI

U Abu Ja'far [Abdulloh] edi va onasi Badr ad-Dojiy ismli cho`ri edi. Otasi Qodir vafot etgach, u davlatni boshqarish uchun xalifa bo‘ldi va qirq to‘rt yil xalifalikni boshqardi. Saljuqiylar urug‘idan Qayyum davrida Mikoil ibn Saljuqning o‘g‘illari Chag‘ribek Abu Sulaymon Dovud va To‘g‘rulbek Abu Tolib Muhammad, ularning qarindoshi bo‘lgan Muso Baygu 425-yilda Buxorodan Xorazmga jo‘nab ketishdi. To‘rt yuz yigirma oltinchi yili ular Xorazmdan Xurosonga kelishdi. O‘sha yili Zohir ad-Davla Mas’ud ibn Yamin ad-Davla G‘azna va Xurosonda hukmronlik qildi. U saljuqiylarga qarshi mudofaa uchun ko‘p marta qo‘shin yubordi. Ammo bu qo'shinlar mag'lubiyatga uchrab, G'aznaga qochib ketishdi. Keyin Sulton Mas’udning o‘zi 421 yilda ularga qarshi yurish qildi. Dandakan tumanida Allya degan joyda jang bo‘ldi. Sulton Mas’ud yengilib,

G‘azninga qaytib keldi. U endi Xurosonni qiynamadi, saljuqiy amirlari Xurosonni o‘zaro bo‘lib oldilar.

BAHROMSHOHNING TARIXI

Aytishlaricha, Sulton Mas’ud Ibrohim vafotidan keyin uning o‘g‘li Arslon otasining taxtiga o‘tirdi. U akasi Sulton Bahromshohni o‘ldirmoqchi bo‘ldi. Sulton Bahromshoh otlarning taqasini orqaga tashlab qo‘ygan uzangi hiylasi tufayli ukasidan qochib ketadi. Bahromshoh G‘aznadan avval Seistonga, u yerdan Kirmonga qochib o‘zini Sulton Sanjar himoyasiga topshiradi.

Sulton Sanjar unga yordamga qo‘shin bilan harakatlanib, Arslon bilan jang qilish uchun G‘azna yaqiniga keldi. Malik Arslon qochib ketdi. 512-yil, 14-shavvol, chorshanba kuni Sulton Sanjar G‘aznin va Hindiston mulklarini o‘z hokimi Sulton Bahromshohga topshirib, uni podshoh qilib, o‘zi Balxga qaytib keldi. Sulton Sanjar uyiga qaytgach, Malik Arslon yana o‘zining yerlarini oldi, shuning uchun Bahromshoh G‘aznindan qochib, Balx tomon yo‘l oldi. Bundan xabar topgan Sulton Sanjar uni kutib olishga qo‘shin yubordi. Sulton Bahromshoh bu qo‘shin bilan G‘azninga qaytib keldi. Malik Arslon qochib, uni quvib, Safran tog‘larida tutib, narigi dunyoga jo‘natishdi. Shundan so‘ng Balx qo‘shini uyga qaytdi. O‘sha yili Muhammad bin Malikshoh Iroqda Furot qirg‘og‘ida vafot etdi, Iroq va butun Xurosondagi mulklar Sanjarga o‘tdi. Bu besh yuz o'n ikkinchi yilning yigirma birinchi safarida sodir bo'ldi.

SULTON MAHMUD VA ASKAR

Xoja Buzurg Muhammad bin Abdu al-Hamidning yozishicha, marhum Sulton Mahmud (rahimahulloh) zamonlarida Takinobodda mashhur saroy ma’muri (hojib) sayohat qilgan, Xusravobodga yetib kelganida, u zotning aytishicha, eshak kerak bo‘lib qolibdi. Eshakni egasining ruxsatisiz olib, unga yuklarini ortibdi va u bilan boshqa yerlarga safarga otlanibdi. Sulton hokimi o‘sha kuniyoq sultonga xabar berish uchun bir xabarchi yubordi.

Bu qilmish Mahmudga askar saroyga yetib kelib, to‘la zirh kiyib, o‘z o‘rnini egallaganida ma’lum edi. Sulton bir xizmatkoriga: “O‘sha tilanchiga mening gapimdan ayt: “Xusravobodni munosib er bo‘lib yengding, tabriklayman! Va yana ayt: "Men bu yerda taxtda mahkam o'tiraman va mening qo'l ostimdagi yuk hayvonini tortib olish odating nima?" Keyin uni jallod bilan Xusravobodga olib borishni buyurdi va jarchilar uning qanday jinoyati uchun olinganini

e’lon qildilar. Uni u yerga olib kelishganda, qilich bilan ikkiga bo'lishadi, toki uning qilmishi saboq bo'lsin va barcha fuqaro talablardan xalos bo'lsin.

Xoja Buzurg ‘Abdu al-Hamid aytdi: “O'sha askar Xusravobodning o'rtasida o'ldirilgan. Musulmonlar tinchligiga qarshi bo‘lgan kichik jinoyatni og‘ir jinoyat deb bilgan, o‘z fuqarolariga hamdardlik va rahm-shafqat ko‘rsatgan bu podshohga Alloh taolo rahm qilsin, qilgan ishlarining xotirasi o‘tgan kunlar sahifalarida saqlanib qolsin.

SULTON MAHMUD VA RANJIGAN KISHI

Aytishlaricha, bir kechada Sulton Mahmud ziyoratini ziyoda qilsin, orom to‘shagida yotib, uxlab qolibdi. To‘satdan uyg‘onib ketib, qancha urinmasin, qayta uxlay olmadi. U urindi, ko'zlari nargis gullari kabi yarim ochiq edi, lekin uyqu uning qovoqlari tashrif buyurishni istamadi. Uning yuragiga, ehtimol, bir xafa odam saroy ostonasida yerni to'shak qilib yotgandir va shuning uchun ko`zimga uyqu kelmaydi, degan o'y o'tdi. Keyin qulga saroy eshigi oldida kimdir bor-yo‘qligini ko‘rishni buyurdi. Qul qaradi, lekin hech kimni topmadi. Mahmud boshini yostiqqa qo‘yib, bir soat uxlagisi keldi, eplolmadi. Ko‘nglidagi tushunarsiz g‘ashlik o'tib ketmadi. U yana buyurdi: «Qarang, eshik oldida arizachi bormi». Qullar buyruqni bajarishga shoshilishdi, lekin hech kimni topa olmay, xabarini berishdi.

Shunda Mahmud tushundi: kimdir gunohdan himoya izlayapti. U o'rnidan turib, qilichni olib, saroydan chiqib, har tomonga yura boshladi. Uning yotoqxonasi eshigi oldida masjid bor edi. U yerga kirib, yig‘i ovozini eshitdi va yerga sajda qilib, achchiq-achchiq yig‘lab yotgan bir badbaxtni ko‘rdi: “Ey, uyquga muhtoj bo‘lmagan, nigohi uyqu va xotirjamlikni bulut qilmagan podshoh! Mahmud atrofdagilar eshitmasin deb eshikni yopdi va yaqin hamrohlari davrasida o'tirdi.

Agar xafagarchilikni his etmasangiz, bizning qayg`umizni qayerdan ham bilardingiz? Agar siz tunbo'yi rohatda uxlasangiz, uyqusizlik azobi va og'rig'i haqida nimani ham bilardingiz?

Sultonning eshiklari yopiq bo'lsa, ilohiy eshiklar ochiqdir. Zobul (Zovuli)lik Mahmud uxlasa, Abadiy Mahmud (azali) uxlamaydi! Mahmud badbaxtning oldiga kelib, uning iztirobini ko‘rib, boshini ko‘targuncha kutib turdi-da: “Sizni tunbo‘yi izlab yurgan yerdagi

Mahmud haqida to‘g‘ri aytdingiz. Sizga nima kerakligini ayting. Ayting-chi, kimdan shikoyat qilasiz?

Haligi baxtsiz odam yig‘lashdan to‘xtadi va shunday dedi: “Janob hazratlarining yaqinlaridan biri, nomini bilmayman, xotinimni sharmanda qilmoqchi. Tunlari zulmat zolimlar foydasiga ishlaganda, u mast holda uyimga bostirib kiradi va xotinimning iffatini harom tuhmat bilan qoralaydi. Xonadonim nomus etagidagi kirni o‘tkir qilich bilan tozalamasang, qiyomat kuni Alloh taoloning iymon-e’tiqodiga bo‘lgan g‘ayrati qo‘limni seni bo‘yningga qo`yadi.

(Mahmud): «Bu dahshatli yirtqich hayvon allaqachon o'lja uchun kelganmi yo'qmi?» - dedi. U javob berdi: "U ketgan bo'lsa kerak, lekin men yana qaytib kelishidan qo'rqaman".

Mahmud: “Kelsin. U kelishi bilan darhol menga xabar bering." Haligi kishi unga rahmat aytib, keta boshladi.

Mahmud uni chaqirib, xizmatkorlariga ko‘rsatdi va buyurdi: “Bu Xoja kechayu kunduz qaysi payt saroyga kelmasin, darhol mening oldimga kiriting.”

U odam ketdi. Ikki kechadan so'ng, qabih zolim yana unga zohir bo'lib, xotinini tahqirlay boshladi. Bechora er ming hiyla-nayrang bilan xotinini qo`shninikiga olib ketdi. Xafa bo'lgan er shoshib Mahmudning muborak xobxonasiga bordi. Uni olib kelishdi. Mahmud g‘azablangan sherday, panjadek jahldor qilichni qinidan ochib, insof so‘raganga shunday dedi: “Menga o‘sha o‘zini sherday ko‘rsatib, sening haramingda ov qiladigan tulkini ko‘rsat, toki men u itni qilichim bilan jazolab qabrga yuborayki, quyon ham uning yonida yotishdan or qilsin!”

Xafa bo‘lgan er xuddi yo`lboshchidek saroydan chiqdi va Mahmudni la`nati tuhmatchining oldiga yetaklagancha oldinda yurdi. Mahmud uning xuddi xazina ustida yotgan ajdahodek ayollar yotog`ida uxlayotganini ko‘rib, qilich bilan urdi. Adolat qilichining zarbasidan uy lolazordek qip-qizil tus oldi.

Mahmud haligi odamga yuzlanib: “Endi Mahmuddan rozi bo‘l chunki sen to‘liq adolatga erishding”, dedi-da, so`zana ustiga cho`k tushib, namoz o‘qib, Allohni ulug‘lab, shukr surasini [Qur’ondan] o‘qiy boshladi. Sulton namozini tugatgach: “Yegani biror narsa olib kel”, dedi. Baxtsiz: “Sulaymonni chumoli qanday mehmon qiladi, ko‘rshapalak qanday qilib quyosh nuri oldida dasturxon yoyadi?!”, deb darveshning kamtarona taomi: bir bo‘lak oqlik bilan bir necha

bo‘lak qotgan nonni olib keldi. Sulton bu taomni shu qadar zavq bilan butun umrida yemagan narsasi kabi yedi.

Keyin: “Ey Shayx! Kechirasan, sening g`aming bilan bo`lib, men haramingdan u iflosni yo'q qilishdan oldin non-tuzingni tatib ko'rmadim. Sen uchun qasos olmagunimcha ovqatingga tegmaslikka qaror qildim. Allohga shukr qildim, chunki qalbimda shunday beadablik va bunday pastkashlik qilgan shafqatsiz zolim o‘g‘limdan biri bo‘lib chiqishi yoki tartib va adolat qo‘riqchisi bo‘lgan davlatning zodagonlari va ustunlaridan biri bo‘lib chiqishidan qo‘rqardim. Bunday jasorat kibr sharobidan, shavq sharobidan mast bo‘lgan shahzoda va zodagonlarga xosdir, deb o`yladim. Men qilichimni sug‘urganimda, o‘z bolamni bo‘laklarga bo‘lib tashlashga to`g`ri kelsa ham mayli, deb qaror qildim. Lekin uning begona ekanini ko‘rib, Xudoga shukr qildim”.

ILOQXONNING MASLAHATI

Aytishlaricha, Roziy [Ibrohim] podshoh bo‘lganida adolatli, olijanob va uzoqni ko‘ra oladigan hukmdor bo‘lgan. U davlat ishlarida mustahkam poydevor o‘rnatmoqchi bo‘lib, saljuqiylar sulolasi keltirgan g‘alayon tufayli yetkazilgan zararni bartaraf qilmoqchi edi. Biroq, u ikki sababga ko'ra, maslahatiga tayanadigan hech kimni ko'rmadi. Ulardan biri, zodagonlar Xurosonni qaytarib berishni istagan edi. Shu sababli davlat zaiflashdi. Amir Hamid Qaraniy o'z burchini tark etgan paytda, ularni xor odamlar qo'liga topshirib, ishlarni boshlab yubordi.Yana bir sabab shuki, Sulton Yamin ad-Davlaning ishonchli kishilaridan biri bo‘lgan hech kim aql va hukm bobida teng kela olmaydigan Abul-Qosim Husayriyni o‘ziga chaqirmagunicha edi. Bu odamning davlat ishlaridagi hukmi porlab turgan quyoshdek edi, u katta tajribaga ega edi va uning maslahatlari hech qachon xiyonat yoki past niyatlar bilan aytilmagan.

Bu vaqtga kelib, bu odam allaqachon chol bo'lib qolgan edi, shuning uchun uni taxtiravonda Sulton huzuriga olib borishdi. Sulton xushmuomalalik bilan suhbati qisqa bo‘lishiga urinib: “Siz marhum bobomning, Alloh qabrini xushbo‘y qilsin, ulug‘vor ishlarining guvohi, ishtirokchisi edingiz. U sizni o'zining ishonchli vakili deb hisoblagan. Endi biz ham undan o'rnak olib, sizning to'g'ri hukmingizga tayanamiz. Ishimizda maslahat berishingiz kerak. Aytingchi, podshohning qudrati nimada?”

Abul-Qosim Husayriy javob berdi: “Marhum Sulton negadir meni Ilekxonga yubordi. Men u bilan bir muddat qoldim. U keksa va tajribali podshoh bo‘lib, bilimdon, dunyoni ko‘rgan keksalar bilan doimo maslahatlashib turardi. U zot: “Davlatning tashbehi bog‘dir, hukmdor bu bog‘ning egasidir. O‘z bog‘i, yam-yashilligi, meva-chevasini asrab-avaylagan har bir kishining hovlisida doimo uch xil daraxt bo‘lishi kerak. Birinchi tur - foydalanish mumkin bo'lgan meva beradigan va quriganida, o'tin uchun foydali bo`lgan yetuk daraxtlar. Ikkinchi tur – endigina gullagan, lekin hali meva bermagan daraxtlar. Uchinchi tur - yosh kurtaklar. Bog'ning egasi xotirjam bo'lishi kerak: agar katta daraxt o'tin uchun ketsa, ikkinchi turdagi daraxtlar birinchi o'rnini egallaydi va o'sish kuchayib, ikkinchi turni almashtiradi.

Bog‘ (el-yurt) hamisha barakali bo‘lsin, u hamisha yam-yashil, gullab-yashnab, mevasi bardavom bo‘lsin. Abul-Qosim Husayriy davom etdi: “Bu so‘zlar menga juda yoqdi. Men Sulton huzuriga qaytib, bu voqeani aytib berdim. Unga ham yoqdi. Ko'p marta u yig'ilishlarda mendan takrorlashimni so'radi.

Bu nutqni eshitgan podishoh Roziy (Ibrohim) ilhomlanib, boshqaruv asosiga ana shu ta’limotni qo‘ydi. Har holda, uning qo'llab-quvvatlash qobiliyatini qadrlaydigan odamlar bor edi. U o'z vazifalarini bajarganlarning unga muhtoj bo'lishiga intilardi, usiz ish amalga oshirilmasligiga ishonch hosil qildi va ularga ishonib topshirgan narsani yaxshilik deb bildi. Shuning uchun ular g'ayrat ko'rsatib, podshohning marhamatiga erishishga harakat qilishdi.

SULTON IBROHIMNING G‘AMI

Aytishlaricha, bir kuni podishoh Roziy (Ibrohim) ziyofat bergan ekan. Yaqinlar yig‘ilganda uning o‘yga botganini ko‘rdilar. Peshin namoziga qadar hech kim bilan gaplashmas, o‘tirgan joyidan turmasdi. Zodagonlar xavotirga tushdilar, u barcha saroy a'yonlarini sarosimaga soldi. Hech kim bunga nima sabab bo'lganini so'rashga jur'at eta olmadi, yaqinlardan biri taxtga yaqinlashib, podshoh unga qaraguncha bir soatcha kutdi. Shunda haligi saroy a’yoni yergacha ta’zim qilib: “Ey, koinot podshohi! Qullaringiz sizdek nurli bir podshohning ham g'amga botganingizni ko‘rib o‘zlarini unutdilar. Iloji bo‘lsa, podshoh o‘zining g`ami sababini bizga xabar qilsin”.

“Mening o'ychanligim - bosh sarkardamiz qarib, umrining oxirgi pallasi yaqinlashib qolganidan. Endi ko'rdimki, bu lavozimga hech kim loyiq emas. U ketgach, biz sarkardasiz qolamiz va o'z ixtiyorimiz

bilan uning o‘rniga noloyiq bir odamni tayinlashimizga to‘g‘ri keladi”. Saroy a’yonlari dedi: “Ey, podshoh! Siz tanlagan har bir inson buyuk ishlarga munosib bo‘ladi!”

Shunda podshoh: “Albatta, lekin men tanlagan kishini bizlarga munosib xatti-harakat qilishga avvalo o‘rgatib, keyin ishlatish kerak. U so'zlarini ibratli misollar bilan dalilladi: qilich dastlab oddiy bir bo‘lak temir edi, temirdan qilich holiga keltirilib ishlov beriladi, so‘ngra u dushmanni yo'q qilish vositasiga aylanadi. Yoqut ham bir tosh bo‘lsa-da, quyosh nurida kishi ko‘nglini shod etish, tinchlantirish xususiyatiga ega. Quyosh nurlari kuchli, lekin u darhol toshdan yoqut yarata olmaydi. Qurol ustasi esa usta bo‘lsa-da, bir harakatda qilich yasay olmaydi.

Qilich - temir parchasi. Ehtiyotkorlik bilan ishlov berilmasa, u hech qanday foyda keltirmaydi. Faqat sabrli bo‘lib og‘ir mehnat qilingachgina kerakli vositaga aylanadi.

SAXIYLAR BOG‘I

Asarda ushbu hikoyaga o'xshash hikoyatlarning 227 tasi keltirilgan. Sulton Yamin ad-Davla yoshligida orzularini ro‘yobga chiqarish uchun G‘azninda Rizvon bog‘idek maftunkor va jannatdek hayotbaxsh bog‘ barpo etdi, qirg'og'i yonidagi ko'katlar go‘yo maftunkor lablar ustida sabza urgan mo`ydek barq urgan gulzor va ko`kalamzorlarga, hovuzlarga havas qiladi. Bog'ni yaratib bo‘lgach, [sulton] u yerda ziyofat va bazm uyushtirdi, otasi Nosir ad-Davla Sabuqteginni katta tantana bilan ziyofatga chaqirdi, bularning barchasini so‘z bilan maqtash qiyin edi, buni ko‘rgan osmon hayratda qoldi.

Amir Nosir ad-Davla Sabuqtegin rahimahulloh o‘g‘liga: “Ey, bolam!!! Bu bog‘ ulug‘, maftunkor, go`zal va qayg‘uni tarqatib yuboradi. Uning daraxtlari nihoyatda toza va yosh, maysalari juda chiroyli, suvlari esa mazali. Agar shu sulolaning xizmatkorlaridan va shu yurtning mashhur kishilaridan birontasi shunday bog‘ barpo qilmoqchi bo‘lsa, podshohlar yaratgan shunday bog‘larni boshqalar yarata olishi imkonsiz bo‘lsin, shunday daraxtlar ekish kerakki, mevalari beqiyos bo'lsin.”

Sulton Mahmud rahimahulloh: “Bu qanday yer?” deb so‘radi. Shukronalik mevasini yetishtirish uchun fazilat va ezgulik bog‘iga shunday tartib va savob daraxtini ekib qo‘yingki, qishki sovuq uning

mevasini yo‘q qilolmasin!» deb javob berdi. Nizomiy ‘Aruzi Samarqandiy aytganlarida esa bunga ishora bor:

Mahmud qancha saroylar qurdirdi, Oy bilan balandlikda raqobatlashdi! Ulardan bir g'isht ham qolmadi, Lekin ‘Unsuri [Mahmud] o'zgarmasdir!

SULTON IBROHIM VA RANJIGAN KAMPIR

Buyruqlari bajo bo‘ladigan qudratli hukmdor va sultonlarning oliyjanob fazilatlari va maqtovga sazovor xususiyatlaridan biri shuki, ular zodagon va oddiy xalq bo`lmish o‘zgalar mulkiga qayg`uradilar, qiziqadilar. Bu haqda quyidagilar keltiriladi. Saljuqiylar urug‘i hukmronligi davrida Nishopurda vazir adolat va huquqdan uzoq bo‘lgan Majd al-Mulk edi. Bir kuni u saroy qurmoqchi bo'ldi. Bo'lajak saroy o'rnida shu yerda tug'ilgan va yashagan kampirning uyi turardi. Majd al-Mulk bunga befarq edi. Bino tikladi, kampirning uyini buzib, o‘rniga saroy qurdirdi. Uyidan ayrilgan kampir qayg‘udan g‘am-g‘ussaga tushdi. U qabristonga borib duo qildi: “Ey Allohim, sen hukmdorlarning eng qudratlisisan, Majd al-Mulkni olib ket va qiyomat kuni uni kechirma!”

Alloh uning duosini qabul qildi. Majd al-Mulk o‘sha saroydan foydalanmay, zavqlanmasdan vafot etdi. O‘limidan so‘ng biroz vaqt o‘tgach, o‘sha kampir uy sotib olib, unga joylashdi.

Roviy aytadi: “Men hajga borganimda qabristonda bu kampirni uchratib, tanishib qoldim. Men undan so'radim: “Siz uyingiz uchun pulni qaytarib olmadingiz. Hozirgi uyingizga qanday erishdingiz?”

U javob berdi: “Bir kuni men dashtga borib, namoz o'qiy boshladim. Mening oldimga bir kishi kelib, yuz dinor solingan qopni berib: “Bu tillani Sulton Ibrohim G‘aznin poytaxtidan jo‘natib yubordi, toki unga uy sotib olasan, namozingda musulmonlarni la’natlamaysan. Men bu tillani olib, uy sotib oldim”. Nishopur ahli Sultonning rahm-shafqati va adolatidan xabar topgach, hamma uning tarafdori bo'ldi va bu haqda o'rganib chiqqan dushmanlari bir-birlaridan qo'rqib, yordam so'rab Sultonga murojaat qilishdi! Bu samimiy iymonli podshohning ajoyib fazilatlaridan biri edi. Taqvodor hukmdorlarning ishlari haqida shunday deyiladi:

BAYT

Qat'iy bo‘ling, “Zolimlarni haydab chiqaring”.

SABUKTEGINNING SULTON MAHMUDGA O‘GITLARI

Ma’lum qilinishicha, amir Sabuktegin rahimahulloh qo‘shin bilan Tag‘ayteginga, o‘g‘li Mahmud rahimahullohga yordam berish maqsadida Bustga qarshi yurishga otlanayotganda, o`rniga o‘zining noibi sifatida G‘aznin qal’asini Vazir Ali Kermoniyga qoldirib, ko'p ko'rsatmalar berdi, ulardan biri: “Bir narsaga muhtoj bo'lganlarni oldingga chaqir, mazlumlar foydasiga zolimlardan adolatni talab qil. Agar o‘g‘lim bolaligidan men ruxsat bermagan har qanday ishni qilmoqchi bo‘lsa, bu haqda menga xat orqali xabar ber. Sen o'zing uning buyruqlari bilan hisoblash. Oddiy askar va sarkardalarga qal’ani qo‘riqlash to‘g‘risida buyruq ber, o‘ta zarurat bo‘lmasa, hech kimning qal’adan chiqib ketishiga yo‘l qo‘yma.”

Shunda Sabuktegin Mahmudga: “O‘g‘lim! Ikki dunyoda sendan qadrliroq odamim yo'q. Lekin bilginki, inson kamolotga yetguncha, mashaqqatlarni boshdan kechirmaguncha, oddiy otliqdan amir va lashkarboshi darajasiga ko‘tarilmaydi, bu dunyoning barcha dahshat va xavf-xatarlaridan xabardor bo‘lmaydi. Men, otang, saroyimga yetguncha dunyoda ko‘p narsalarni ko‘rdim. Sen mening so'zlarimni eslab, ko'rsatmalarimga rioya qilishing kerak. Men ketyapman va senga aytadigan gapimni aytdim. Eson-omon qaytsam, sendan hisob so‘rayman, qaytmasam, baribir o‘limdan qochib qutulib bo`lmaydi. Bilginki, podshohlik yaxshilikka intilish, oliy kuch esa sabrdir.”

BAYT

Sadoqat va muloyimlikdan tashqari
Boshqaruvda boshqa qoida yo'q

Donishmandlar esa bu ko‘rsatmalarda oliy hokimiyatning barcha qonun-qoidalari borligini, o‘z ishlarini shunga ko‘ra quradigan har bir hukmdor ikki dunyo saodatini topishini aytdilar.

SULTON MAHMUD VA XURMO DARAXTI EGASI

Aytishlaricha, Sulton Yamin ad-Davla Mahmud Sabukteginning saltanat odamlari Bustga yetib borganida, u kunning issiq vaqtida chodirda o‘tirgan ekan, unga bir kishi shikoyat bilan kelibdi.

Sulton so'radi: "Kim sizni xafa qildi?" U javob berdi: “Sen, ey podshoh! Bir fil olib kelib, menga tegishli xurmoga bog‘lab qo‘yishdi. Fil egalari palma daraxtiga chiqib, xurmo teradi. Men kambag‘alman, ro‘zg‘orim, oilamning manbai shu palma daraxtida.”

Sulton chodirdan tashqariga qaradi va hech kimni topmadi. Issiq mavsumda uning barcha yordamchilari va darvozabonlari o`zlarini

panaga olishgandi. Keyin sultonning o‘zi otga minib, bir askar bilan o‘sha yerga otlanib, eshitganlarining guvohi bo`ldi.

U askarga jilovni fil haydovchisining bo'yniga tashlab, uni mana shu xurmo daraxtiga osib qo'yishni buyurdi, shunda qudratli Yaratuvchi uning ruhini jannatda salqin shabada bilan shamollatsin va [Sulton] – yulduzlarning baxtli joylashuvi ostida tug`ilgan yurt podshohining - hayotni uzoq qilsin [235].

Falak aylanib, koinot turganda, hokimiyat tartibidan dunyo ravnaq topsin. Odil hukmdor iymon va Xudoning tayanchidir. Uning adolati orqali Qo'zi yirtqich sher oldida qo'rqmas bo'lib qoladi.

SULTON MAHMUDNING JAVOBI

Xabar qilinishicha, Sulton Mahmud rahimahulloh amir Jurjonga yuz ming dinor naqd pul bergan. Yamin ad-Davla bilan majlisda o‘tirgan bir vazir unga shunday xat yozgan: “Bunday mukofotdan keyin, podshoh o'z bandalariga ko'rsatadigan har bir xayrli ish bu mukofotga nisbatan ahamiyatsiz bo'lib qoladi va uning [keyingi] mukofotlarini hech kim qadrlamaydi.”

Podshohning shaxsan o'zi [bu fikrga] quyidagi yozuvni yubordi: “Podshoh unvonining zavqi shundaki, u o'z xohishiga ko'ra harakat qila oladi. Har biriga Yaratgan o'z rahm-shafqati xazinasidan o'z ulushini belgilab qo'ygan. Uning kattaligi haqida faqat bitta – hamma narsani biluvchi Xudo biladi. U oldindan bilgandek qabul qilinadi. Bu esa Yaratganning adolatidir”. Vazir xatni o‘qib chiqqach, Sultonning buyuk rahm-shafqatini va to‘liq javobini olqishladi va unga e’tiroz bildirishni to‘xtatdi.

SULTONINING HIYLASI VA G‘AZNAVIYLARNING TUGATILISHI

E’tiqod yo‘lida azoblangan sulton Xusrav Malikni qo‘lga tushirish va Xurosonni egallashni istadi, bu vaqtda Xusrav Malikning o‘g‘li G‘aznada edi. Sulton unga vaqtini chog` o`tkazish imkonini berib, unga podshohlik erkinliklarini berdi, bir nechta otlarni berdi, unga xizmatkor-yo'lboshchi tayinladi va qayerga bormasin, har doim shahzoda bilan birga bo'lishni, lekin asta-sekin harakat qilishga harakat qilishni buyurdi. Xusrav-Malikning o‘g‘li ko‘tarilib, xotirjam bo‘lgach, bu barcha erkinlik va yo‘lboshchi Sultonni o‘zi bilan yarashtirishni maqsad qilgan deb o‘ylab, uning ko‘rsatmalariga amal qila boshladi. Keyin Sulton uni G‘aznindan Xusrav-Malikning huzuriga jo‘natdi. Shahzoda hali yo‘lning yarmini ham bosib

o‘tmagan edi, bir kuni tongda Xusrav-Malik uyg‘onib, daryo bo‘yida saf tortgan Sulton qo‘shinini ko‘rdi. Xusrav-Malik hamma narsaga ojiz bo'lib, Sultondan rahm-shafqat so'rashga majbur bo'ldi, bo'ysundi va mulkini unga topshirdi. Bu hiyla bilan sulton zarracha yo‘qotishsiz Lahorni egallab oldi va shu tariqa mamlakat bir suloladan ikkinchi sulola qo‘liga o‘tdi.

SULTON MAHMUD VA BELUJI

Aytishlaricha, qandaydir sabab ilinjida Sulton Mahmud Kirmon mulkiga ajoyib sovg‘alar bilan elchilar yuborgan ekan. Ular Tabas dashtidan bir chaqirim nariga o‘tganlarida, ularning yo‘lini Luch va Baluch qabilasidan bo‘lgan odamlar to‘sib qolishdi. Ularning soni saksonta edi, ular baland tog‘larda panoh topib, allaqachon bir necha marta bosqinlar uyushtirgan, ammo ular haqidagi ma’lumotlar hali Sultonning qulog‘iga yetib bormagan edi. Xabarchilar bu yerga yetib borganlarida, qaroqchilar ularga hujum qilib, barcha sovg‘alarni olib ketishibdi, karvonlarining bir qismi halok bo‘libdi. Jabrlanganlar Tabasga qochib, sultonga voqea haqida xabar berishibdi. Keyin Sulton Xorazmga qarshi yurish uchun G‘azninda qo`shin to‘plabdi. Bustga yetib borgach, Sulton Mas’ud Mevardan uning oldiga shoshilibdi. Sulton huzuriga yetib borganda, sulton unga qaramabdi. Mas'ud qo'rqib ketib, sultonning oldida yer o'pibdi va so'rabdi: "Men qanday gunoh qildim?"

U dedi: "Men sendan qanday rozi bo'laman, sen mening o'g'limsan, sening viloyatingda ular talonchilik bilan shug'ullanadilar, lekin sen buni bilmaysanmi?!".

Mas'ud javob beribdi: "Men Hirotdaman, dashtda o'g'irlik bo'lsa, bu mening aybim emas".

Sulton debdi: “Mening bundan xabarim yo‘q edi. Ammo agar sen menga barcha qaroqchilarni o‘lik yoki tirik tutib, yetkazib bermasang, men seni hech qachon tinglamayman!”

Sulton Mas’ud ta’zim qilib, Hirotga jo‘nab ketibdi. U yerdan u ikki yuzta tanlangan qo`shin bilan qaroqchilarga qarshi yo‘lga chiqibdi. Ular yashiringan tog‘larga yaqinlashayotib, ularning xavfdan ogohlantiruvchi qo‘riqchilari bo‘lsa kerak, deb o`ylashibdi. Keyin u ellikta otliqning boshiga katta salla bog‘lab otlarni go‘yo karvon ketayotgandek suruv qilib haydashni buyuribdi va: “Qaroqchilarning e’tiborini chalg‘itib qo‘yishingiz kerak: siz ularni chalg`itish bilan band bo`lasiz, ular esa siz bilan bo`ladi,"-debdi.

Mas'udning o'zi orqaga chekindi va bir yuz ellikta qo`shin bilan orqa tomondan asta-sekin qaroqchilar qal'asiga yaqinlashdi.

Qaroqchilar kichik bir guruhga hujum qilganda, turklar otlariga minib, nog‘ora urib, otlarni qaroqchilarga yo‘naltirib, urush boshlabdilar. Bir necha otliqlarni ko'rgan qaroqchilar g'ayrat ko'rsatib, birdan Sulton Mas'ud paydo bo'libdi, u hech kim qochib qutulolmasligi uchun hammasini tutib olibdi. Ularning qirq nafarini o‘ldirib, yana qirq nafarini Sulton Mahmud huzuriga olib kelibdi. Sulton qaroqchilarni qatl qilishni buyuribdi. Unga bo'lgan hurmat va qo'rquv shu qadar tarqalibdiki, hech kim talon-taroj qilishga jur'at eta olmabdi.

XOJA AHMAD MAYMANDINING NIZOM UL-MULK BILAN TAQQOSI

Aytishlaricha, Nizom ul-Mulk o'z mavqeini Sulton Malikshoh xizmatida mustahkamlaganida, muxoliflar uning ustidan Sultonga tuhmat qila boshlabdilar. Ya’ni, uning ikki ming quli bor, u davlat to'ntarishini o'ylab yurgani aniq degan gaplarni chiqaribdilar. Bu gaplar Nizom ul-Mulkning qulog'iga yetibdi. Sulton uyiga mehmonga taklif qilibdi. U sultonga xizmat qilib yurgan chog‘ida taxtiga yaqinlashib shunday debdi: “Podshohimga ma’lum bo‘lsinkim, bir vaqtlar amirlar menga tuhmat qilishgandi, men bu haqda u zotlardan podshohga shikoyat qildim. Podshoh shunday dedi: “Ko‘p qul sotib olishingiz kerak. Agar kimdir sizni xafa qilsa, unga saboq berishingiz mumkin.” Men bu qullarni podshohning buyrug‘i bilan sotib oldim. Bugun hammasini podshohga beraman”. Uning ko'p qul sotib olgani, podshohga qullarni va katta miqdorda pul taqdim etgani katta fidoyilik edi.

Bu voqea Nizom ul-Mulk va Hasan Maymandi o'rtasidagi keyingi farqni ko'rsatadi. Sulton Mahmudga: “Vaziringizning nihoyatda go‘zal bir quli bor”, dedilar. Sulton undan qul so‘raganida: “Menda yo‘q”, deb javob bergani shubha uyg‘otdi. Sulton unga joni va boshi bilan shunday qasam ichishni buyurdi. U qasam ichdi. Sulton bu qulni ko‘rdi. Xo‘ja Hasan bilan keyingi sodir bo‘lgan voqealarga esa uning pastkashligi va qaysarligi sabab bo‘lgan. Shunday ekan, aqlli odamlarning bunday qat'iyatlari nimalarga olib kelishini bilib qo'ying.

SULTON BAHROMSHOH VA QOZI ABUL BARAKAT

Sulton Bahromshoh ukasi Arslonshohdan qochib, Janobi Hazrati Sulton Sanjardan boshpana topgani haqida. Bahromshohning ukasi Bahromshoh Sulton Sanjardan yordam so‘ramasligidan qo‘rqib, qo‘shin yig‘ib, unga barham bermay, Abu-l-Barakatni hadya va nazrlar bilan Sulton Sanjar huzuriga yuborib, Bahromshohni qaytarib yuborishni iltimos qiladi. Abu-l-Barakat Sanjar huzuriga yetib kelishi bilanoq o‘z vazifalarini g‘ayrat bilan bajarishga kirishadi, hadyalar va nazrlar taqdim etadi, Bahromshohning qaytishini g‘ayrat bilan kutadi va Bahromshohning bir qancha ulug‘larini o‘z tomoniga tortadi.

Bahromshoh bundan qo‘rqib ketib o‘yladi: “Abu-l-Barakotning oldiga borganim ma’qul. Bil’aks u sharmanda bo'ladi va bu ishda g'ayratli bo'lmaydi.” U bir xizmatkori bilan Abu-l-Barakotni hukm qilish uchun keldi. Bu haqda qoziga xabar berishganda, u juda hayron bo'lib, o'rnidan turdi va namozni o'qiy boshladi. Sulton ichkariga kirib o‘tirdi. Qozi Sulton bir og‘iz so‘z aytolmasligi uchun namoz va Qur’on o‘qishni cho`za boshladi. Keyin Sulton o‘rnidan turib ketdi. U qozini haqoratlay boshladi va: “Bir kun kelib, qilmishiga javob beradi!” dedi.

Sulton Sanjar qozi Abu-l-Barakotni ozod qildi va baxt Bahromshohga hamroh bo‘la boshladi, u bilan G‘aznin taxtini ziynatladi. Uning raqiblari mag'lubiyatga uchradi.

U qozi Abul-Barakotni chaqirib, sustkashlik qilgani uchun tanbeh berib: “O‘sha kechasi menga nima qilganing esingdami?” dedi.

Qozi javob berdi: “Oh, podshoh! Men buni yaxshi eslayman. Lekin podshoh yaxshi tushunishi kerakki, men bu taxtning sodiq va samimiy xizmatkoriman. Men ham taxtda o'tirgan har bir kishiga sadoqat bilan xizmat qilaman va unga xizmat qilib ham shu ishlarni qilaveraman.”

Sulton bu so‘zlardan juda xursand bo‘ldi. U zot uni kechirib: “Sizga o‘xshaganlarga rahm-shafqat ko‘rsatganimiz afzaldir, ularning amallari hukumatimizga foydali bo‘lsin”, dedi. U qozini mukofotladi va uni a’yonlari qatoriga kiritdi.

SULTON MAMUD VA SHOIR FARRUXIY

Iste’dodi go‘zal chehrasi bilan bezangan olim Farruxiy Sulton Yamin ad-Davla davrida shoir va ulamolar qatorida edi. So‘z san’ati va til nafisligida mehnatsevarlik ko‘rsatib, zamondoshlaridan o‘zib

ketdi, shuning uchun u sodda tildan voz kechdi. Sulton Yamin ad-Davla davrida nafaqaga chiqib, ko‘p pul yig‘ib, Samarqandga borishga qaror qildi. U chegaraga yaqinlashganda, qaroqchilar to'dasi unga hujum qilib, barcha mulkini tortib olishdi. U xijolatda va mablag‘siz Samarqandga kirdi. Ehtiyoji haddan oshib ketsa ham buni ko'rsatmadi va hech kim bilan muloqot qilmadi. U yerda bir necha kun qolib, qaytib keldi.

G‘azninga qaytib kelgach, Sulton undan: “Qayerda eding?”- deb so`radi.

U: “Samarqandni ko‘rgani bordim, yo‘lda meni talon-taroj qilishdi”, deb o‘zi bilan bo‘lgan voqeani aytib berdi.

Sulton: “Samarqandni qanday ko‘rding?”, deb so‘radi.

U o`zi to`qigan qit‘a bilan javob berdi, mazmuni quyidagicha:

Samarqandning ne’matlari – bog'lar, daryolar va o'tloqlar bisyor. Oh, Samarqand bir jannat, u yerda yuzlab kavsar buloqlar bor. Men esa, uning oldida go‘yo bir kambag'alman, shu go‘sha chanqog‘idan yondim. Qo'lda bitta dirham bo'lsayu, butun dunyoni oltin laganda uzilgan bir bosh uzumdek tomosha qilsam!

Sulton Mahmud qit'ani juda yaxshi ko'rardi. U Farruxiyga barcha yo‘qolgan narsalarining ro‘yxatini tuzib berishini buyurib, xazinabonga bu ziyonga teng miqdorda tilla olib kelishni buyurdi, uni shoirga berdi. Shundan so‘ng u yana baxtiyor yashadi.

XOJA AHMAD MAYMANDINING SULTON MAHMUDGA AQLLI MASLAHATI

Aytishlaricha, Sulton butun Xurosonni egallab olib, ulug‘lik bayrog‘i ko‘tarilganida, bir kuni uning huzuriga qobiliyatli, yaqin va mehnatsevar kishilaridan bo`lgan vazir Xo‘ja keldi. Tong otgan edi, Sulton hali namoz gilamidan turmagan edi. Namozlarni o‘qib bo‘lgach, oynani olib, o‘ziga qaradi. O‘ylanib qoldi, birdan yuztuban yiqildi.

Ahmad shunday dedi: “Uning o‘ychanligiga nima sabab bo‘lganini so‘radim. U shunday javob berdi: “O‘zimni oynaga

qaraganimda, o‘zimda go‘zallikni ko‘rmadim. Shuning uchun odamlar meni yoqtirmaydilar”.

Xo‘ja javob berdi: "Umumjahon mehriga erishishning bitta yo‘li bor".

Sulton: "Bu qanday qoida?"

Vazir: “Odamlar sizni sevishini istasangiz, oltinni sevishni bas qiling”, deb javob berdi.

Sulton bu so‘zlardan juda xursand bo‘ldi. U saxovat va oliyjanoblik ko‘rsata boshladi. Odamlarning qalbida unga bo'lgan muhabbat doimiy bo'lib qoldi. Bu qoida to'g'ri va shubhasizdir: xalq saxiylikni yaxshi ko'radi.

XULOSA

Muhammad Avfiy Buxoriy hikoyat va rivoyatlarni turli mavzularda yozdi, o‘zi shohid bo‘lgan, bilgan va eshitgan voqea-hodisalarini bir manbaga jamlab «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot» deb nomladi. Jamlanmada ta’limiy-tarbiyaviy uyg‘unlikni anglash mumkin, uning mazmuni shaxsning shakllanishi, rivojlanishi va kamolotiga qaratilgan.

Zero, ajdodlar merosi ta’lim-tarbiya jarayonining didaktik vositasi sifatida ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunini boyitishda zaruriy ma’naviy, ijtimoiy manbaga aylanadi. Insoniyat ijtimoiy turmushi uchun ma’naviyat, milliy qadriyatlarga har doim har qanday jamiyatda ehtiyoj bo‘lgan va shunday bo‘lib qolaveradi.

O‘z asarlarini hikmatli so‘z, aforizmlar, hikoyat va rivoyat bilan yanada jonlantirish an’analarini Abu Rayhon Beruniy, Abu Homid G‘azzoliy, Mahmud Zamaxshariy, Husayn Voiz Koshifiy kabi allomayu olimlarimiz boshlab berishgan. Ushbu an’anani Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi adiblar adabiy maqolalarida ham hikoyat va rivoyatdan foydalangan holda davom ettirishgan. Shuningdek, adabiyotshunos olimlar G‘aybulla as-Salom, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqul, Sultonmurod Olim, Ibrohim G‘afurovlar ilmiy-ommabop maqola va esselarida o‘z fikrlarini muxtasar qilish uchun ko‘pincha rivoyat va hikoyatlarni istifoda etishadi. Adabiyotshunos olim Hamidjon Homidiy badihalarini hikoya yoki rivoyat bilan boshlaydi. Og‘zaki adabiyotdagi rivoyatlarni o‘zbek adabiyotida folklorshunos olimlardan S.Umarov, K.Imomov, U.Jumanazarov, Z.Jumaev, N.Karimova, U.Sattorov, M.Jo‘rayevlar o‘rganishgan.

Mutafakkirlar so‘z, hikmat, hikmatli so‘zlar, hikoyat va rivoyat to‘g‘risidagi ta’rif va mulohazalari so‘zning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni va ta’sir doirasi, uning shaxs ruhiy va ma’naviy kamolotidagi ahamiyati quyida ifodalangan.

№	Mutafakkirlar	Berilgan ta’riflar mazmuni
1.	Muhammad alayhissalom:	«....Hikmatli so‘z mo‘min kishining yo‘qotib qo‘ygan narsasidir, uni qaerdan topsa, o‘zlashtirib olishga haqlidir»
2.	Alisher Navoiyning	«Devon topilg‘aykim, anda ma’rifatomiz bir g‘azal topilmag‘ay va g‘azal bo‘lg‘aykim,anda

	«Badoyi' ul-bidoya» devoni	mav'izatangiz bir bayt bo‘lmag‘ay. Mundoq devon bitilsa, xud(albatta,haqiqatdan) asru(juda, nihoyatda) behuda zahmat va zoe' mashaqqat tortilg‘on bo‘lg‘ay»
3.	Luqmoni hakim:	«Taomdan och bo‘lsang ham, hikmatdan to‘q bo‘l»
4.	Demokrit:	«Har kuni birorta rivoyat yoki ibratli hikoyat o‘qish orqali kishida uch qobiliyat hosil bo‘ladi: eng to‘g‘ri xulosa chiqarish, nuqsonsiz gapirish, nima qilish kerakligini aniq bilish»
5.	Hind donishmandlari:	«Yozganlarimiz qirq tuyaga yuk bo‘ldi, podsho ularni qisqartirishga buyurdi – ular yigirma tuyaga yuk bo‘ldi. Yanada qisqartirishga amr qildi - ikki tuya holiga keldi.Bundanda lo‘nda bo‘lib, faqat qaymog‘i qolsin dedi – barchasi to‘rt kalimaga jo bo‘ldi. »
6.	N.Karimov:	«Rivoyatning xalq og‘zidan yozib olinganida badiiy saviya kuchsiz bo‘lsa, mashhur shoirlar tilidan yozib olingani badiiyligi va obrazliligi bilan ajralib turadi»
7.	Hyote:	«Har kuni aqalli bitta qo‘shiq eshitish, yaxshi rasm ko‘rish va iloji bo‘lsa, istagan bir hikmatli so‘zni o‘zlashtirib olish kerak»

Hikoyat va rivoyatlar o‘tmishda ham, bugungi kunda ham, kelajakda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, aksincha adabiyot qanday yo‘nalishda bo‘lmasin, xoh badiiy, ilmiy, tasavvufiy, siyosiy yoki diniy, kitobxonga birdek o‘qimishli bo‘lishi uchun istifo‘da etiladi.

Tarixdan ayonki, oddiy xalq hamisha jozibali hikoyatlar, chuqur ma'noga ega yengil satira hamda yumorga ehtiyoj sezgan. Ushbu an'ana har bir mutafakkirning ijod mahsulida uchraydi, hatto qomusiy allomalarning ilmiy asarlari ham bundan holi emas. Jumladan, Muhammad Avfiy Buxoriyning «Javome' ul-hikoyot va lavome' ul-rivoyot» asaridagi nodir hikoyatlar ham shaxsda, avvalo, barkamollik fazilatlarini kamol toptirishga xizmat qiluvchi quyidagi sifatlarni shakllantirishga yordam beradi:

- o‘zligini anglash;
- iymon sofligi;

- vijdon uyg‘oqligi;
- e’tiqod mustahkamligi;
- qalb pokligi;
- ma’nan mukammallik;
- irodaning toblanishi;
- bag‘rikenglik;
- o‘ziga ishonch;
- jamiyatga nisbatan hurmat;
- yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash va h.k.

Muhammad Avfiy Buxoriyning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari mazmunida - shaxsning shakllanishi va tuzilishi, sifat jihatidan o‘zgarishi, shaxsning ma’naviy-axloqiy ko‘rinishi, ma’naviy-axloqiy tarbiyani yuksaltiruvchi omillar, oila munosabatlari, ta’lim va tarbiya metodlari, axloqiy tarbiya mezonlari, axloqiy tarbiyani shakllantiruvchi omillar, ma’naviy tarbiya mezonlari, ma’naviy tarbiyani shakllantiruvchi omillar, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanganlik darajasi, o‘zligni anglash kabi sifat o‘zgarishlariga erishish vazifasini bajarishga xizmat qiladi. Zero, Muhammad Avfiy Buxoriyning ma’naviy merosi hisoblangan «Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ul-rivoyot» asari mazmunidagi hikoyat va rivoyatlarni o‘rganish bugungi kunda nafaqat tarbiya nazariyasi, balki amaliyoti uchun ahamiyatlidir.

IZOHLAR

ABDURAHMON JOMIY (1414-1492). To‘liq ismi – Nuriddin Abdurahmon ibni Ahmad. U Jom shahrida tug‘iladi, ammo oilasi Hirotga ko‘chib borgach, boshlang‘ich ma’lumotni u yerda oladi. Otasi Jomiyning bolalikdan bilim olishiga katta e’tibor beradi. Maktabni tugatgach, «Nizomiya» madrasasida o‘qiydi. U yerda arab tili, aruz, qofiya, badiiyotdan tahsil olgach, Samarqandga borib matematika, fizika, astronomiyani o‘rganadi. Ustozlari: Sa’diddin Qoshg‘ariy, Shayx Baxoviddin Umar, Mavlono Muhammad Asad, Qozizoda Rumiy, Abulays Samarqandiy, Said Sharif Jurjoniy, Shahobiddin Muhammad.

Shogirdlari**:** Alisher Navoiy.

Asarlari: Jomiy bir qancha asarlar yaratib, shulardan ta’limiy-axloqiy yo‘nalishda yozilganlari: «Bahoriston», «Haft avrang» («Etti taxt»), «Silsilatu zahab» («Oltin tizmalar»), «Tuhfat ul-abror» («Erkinlar tuhfasi»), «Sabhat ul-abror» («Yaxshilar tasbihi»), «Xiradnomai Iskandar», «Salomon va Ablos» kabilar. Jomiy asarlarida haqiqiy insonga xos bo‘lgan axloqiy xislatlarni tarbiyalashga katta e’tibor beradi. Talabalar axloqiy tarbiyasini takomillashtirishda Jomiyning ijodiy merosidan keng foydalanilsa, talabalarda yuksak insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi.

ABDUMALIK IBN MARVON – umaviylar sulolasidan arab xalifasi (646-705).

ABU HANIFA – musulmonchilikdagi hanafiylar mazhabi asoschisi.

AHMAD IBN HASAN MAYMANDI – Mahmud G‘aznaviyning vaziri, omili (soliq yig‘uvchisi).

AJAM (arab. - arab emas) 1) arablardan boshqa Sharq xalqlarining umumiy nomi. Shuningdek, arablar yashaydigan Sharq mamlakatlari, xususan, Turon va Eron ham «Mulki ajam» deb yuritilgan. Bu yerlardan yetishib chiqqan olimlar «ajamiy» deb atalgan.

ALAMBARDOR – bayroqbardor.

ALI – Ali ibn Abutolib, Muhammaddan keyingi xalifalarning to‘rtinchisi (656-661).

ALLOMA – fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan, ilmli, eruditsiyali shaxs.

ANUSHERVON (to‘liq ismi Xusrav I Anushervon) - sosoniylar sulolasiga mansub Eron podshohi. A. otasi - Qubod joriy qilgan idora usuli, soliq tizimi hamda harbiy sohalarda jiddiy islohotlar o‘tkazdi,

mamlakatni raiyatparvarlik bilan boshqardi. Hind eposi «Kalila va Dimna» A. topshirig‘i bilan paxlaviy tiliga tarjima qilindi, Avesto qayta ko‘chirildi. A. shahar va qishloqlarni obod etish, ko‘hna qadriyatlarni tiklashga alohida e’tibor berdi, uning davrida zardushtiylik rivojlandi, o‘zaro urushlarga uzil-kesil barham berildi. A.ning adolatliligi, ma’rifatparvarligi xalq orasida keng yoyildi, og‘zaki ijodda ham, yozma adabiyotlarda ham A. haqida qissalar to‘qildi. Firdavsiy A. haqida doston yaratgan va uni «Shohnoma»ga kiritgan. «Qobusnoma», «Siyosatnoma», «Jome’ ul-hikoyot», «Gulzor», «Miftoh ul-adl» va b. kitoblarda A. to‘g‘risida ko‘plab hikoyatlar keltirilgan. Alisher Navoiy «Xamsa»sida ham u haqda ma’lumot uchraydi. A. asli tarixiy shaxs bo‘lgan, keyinchalik Sharq xalqlari badiiy ijodida keng tarqalgan timsolga aylangan.

AXLOQ – 1) shaxsning o‘zaro bir-biri, jamiyat a’zolariga nisbatan qabul qilingan me’yorlar asosidagi munosabatlari, xatti-harakatlari majmui, jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq me’yorlari; 2) xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab.

BARBAD - Barbad, Pahlabod, Faxliz Marviy (taxm. 585, Niso - 628/38, Marv) - atoqli sozanda, xonanda, shoir va bastakor. Dastlab ijro va ijod sirlarini o‘z otasidan o‘rgangan, Marvga ko‘chib, bu yerdagi mashhur ustozlarga shogird tushgan. Keyinchalik (618-28) Sosoniylar davlati shohi Xusrav I Parviz saroyi (Ktesifon)da xizmat qilgan. Udga o‘xshagan to‘qqiz torli musiqa asbobi ham uning sharafiga nomlangan. Manbalarda, Barbad ayniqsa, turkumli, muayyan tizimdagi asarlarga mehr qo‘yganligi ta’kidlanadi. Abu Nasr Forobiyning «Kitob ul-musiqo al kabir» («Musiqa haqida katta kitob»), Abu Abdulloh al Xorazmiyning «Mafotih al ulum» («Ilmlar kaliti»), Muhammad Nishopuriyning «Risolai dar ilmi musiqiy», Abdulqodir Marog‘iyning M«aqosid alalhon» («Kuylarning kelib chiqish o‘rni») singari risolalarda Barbad yaratgan mashhur 7 qismli «Xusravoniy» turkumi, shuningdek «Doston» deya nomlangan kuy va qo‘shiqlar ta’riflanadi, ijodiy jarayoni tahlil etiladi. Al Johiz (775-818), Abulfaraj Isfahoniy (897967), Abumansur as-Sa’olibiy (9611038) kabi mualliflarning ilmiy badiiy asar (har xil tazkira va majmua)lari B. ijodiga mansub 360 ta qo‘shiq, 30 ta cholg‘u kuylari hamda 7 ta «Xusravoniy» - Sharqda keng tarqalgan fazoviy tafakkur in’ikosi, ya’ni qamariy yilning 360, oyning 30 va haftaning 7 kunlari bilan bog‘liq bo‘lganligini ta’kidlaydi.

BAROT – xon tomonidan berilgan ozodlik xati, yorliq qog‘ozi, mablag‘ olish uchun beriladigan ishonch yorlig‘i.

BRAHMANLAR - 1) Hindistondagi oliy kastalardan biri. Kelib chiqishi bo‘yicha kohinlarning qad. tabaqasi (varna)ga mansub. Qadimda B. kohinlik vazifasini o‘tab, qurbonlik marosimlariga rahbarlik qilgan, xalq orasida Vedalarni targ‘ib etish b-n shug‘ullangan. O‘rta asrlar davrida esa davlat ishlarida ham qatnashib, ko‘proq qozilik lavozimini egallagan. Hoz. ko‘pchilik B.ning kun kechirish manbai diniy marosimlar b-n emas, balki davlat xizmati, dehqonchilik va b. yumushlar b-n bog‘liq. Hindistondagi hukmron sinf va ziyolilarning aksariyati B.dir.

BUZURGMEHR - zukko davlat arbobi, ma’naviyat, ilm fan homiysi Xusrav I Anushervon davrida (531-579) vazirlik qilgan. B. hind shohi Devasar Anushervonga yuborgan shatranj o‘yinining mohiyatini ochib beradi, o‘zi «nard» o‘yinini kashf etadi. Uning homiyligida san’at, adabiyot rivoj topadi, Eron b-n Hindiston o‘rtasida elchilik aloqalari o‘rnatiladi, «Kalila va Dimna» shu vaqtda Eronga keltiriladi. Anushervon vafotidan so‘ng fitna tufayli valiahd Xurmuzd B.ni qatl ettiradi. B. «Ganji shohiy» («Shoh xazinasi») nomli pandnoma yaratgan.

DIDAKTIKA (yun.didaktikos - o‘rgatuvchi, ta’lim beruvchi) - pedagogikaning tarmog‘i. Ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanadi. «Didaktika» atamasi ilk bor Yevropada 17-a. da o‘qitish va ta’lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan. Chex pedagogi Ya.A. Komenskiy o‘zining «Buyuk didaktika» asari (1657)da bolalar va o‘smirlarni ma’lumotli qilish va ularga ta’lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi A. Disterveg o‘zining «Nemis o‘qituvchilarini ma’lumotli qilishga rahbarlik» (1834-35) asarida Didaktikaning pedagogikada ta’lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta’kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta’lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar paydo bo‘la boshladi. Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta’lim va ma’rifat berish nazariyasi bilan shug‘ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta’lim mazmunini aniqlash, ta’lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o‘qitishning eng samarador usul va yo‘llarini topish D.ning asosiy muammolaridir. O‘zbek milliy pedagogikasi tarixida ham

D.ning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag‘ishlangan ko‘pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida D. hozirgi nom bilan atalmagan bo‘lsada, lekin ular ta’lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al Farg‘oniy, Marg‘inoniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta’limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pedagogika taraqqiyotining o‘ziga xos bosqichini tashkil etadi. O‘zbek milliy D.sining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy, A. Ibodiyev, M. Behbudiy, A. Avloniy, S. Saidazizov, R. Yusufbekov kabi ma’rifatparvar pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo‘ldi. 20-a. boshlarida vujudga kelgan jadidchilik turkiy xalqlarning qad. Shon-u shuhratini tiklash uchun uni ma’rifatli qilishdan o‘zga yo‘l yo‘qligini to‘g‘ri belgiladi. Jahon pedagogikasining eng so‘nggi yutuqlaridan xabardor bo‘lgan, ayni vaqtda ta’limni tashkil etishda ko‘p asrlik milliy tajribalarni hisobga olgan, D.ning metodologik asosi sifatida islomiy e’tiqodni belgilagan jadidlar o‘qitish borasida yuksak natijalarga erishdilar. Jadid mutafakkirlar ta’limni uyushtirishning amaliy jihatlari bilangina shug‘ullanib qolmay, uning nazariy masalalarini ham tadqiq etganliklari diqqatga sazovordir. Jadidlarning didaktik qarashlari ularning ko‘plab pedagogik asarlari, darslik va qo‘llanmalarida aks etgan. Didaktika ta’lim usullari muammosini ham qamrab oladi. O‘qituvchi biror predmet bo‘yicha o‘quvchilarning tizimli bilim olishini ta’minlash maqsadi sari intilar ekan, ma’lum ishlarning bajarilish namunasini ko‘rsatadi. Ayni vaqtda, u ta’limning barcha bosqichlarida o‘quvchining faolligi va mustaqilligini ta’minlaydi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o‘zlashtirishlari, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo‘llashlari uchun maxsus topshiriqlar beriladi.

FAXRIDDIN ALI SAFIY (taxallusi Safiy) (1463.11.2, Sabzavor - 1532, Hirot) - tarixchi va faylasuf, voiz, tarjimon. Husayn Voiz Koshifiyning o‘g‘li. 1468 yilda oilasi Hirotga ko‘chib kelgan. F.A.S. Qarshida Xoja Ahror b-n ilk marta uchrashib, 4 oy uning xizmatida bo‘lgan (1484). Keyinchalik Samarkandga kelib 8 oy uning yonida

turgan va kotiblik qilgan (1487). U Xoja Ahrordan eshitganlarini doimo yozib borgan. Xoja Ahror vafotidan so‘ng Hirotga qaytib Husayn Boyqaro xizmatiga kirgan va otasi singari uning voizi bo‘lgan. F.A.S. fors tilida 10 ga yaqin asarlar yozib qoldirgan. «Rashahot ayn al hayot» («Obi hayot tomchilari»; qisqacha «Rashahot»), «Latoif ut-tavoyif» («Latofatnoma» nomi b-n 1996 y. Toshkentda nashr etilgan), «Aniys ul orifin fil mavoiz» («Donolarning nutq paytidagi yo‘ldoshi»), «Hirz ulamon min fitan iz-zamon» («Zamonning fitnalaridan saqlovchi tumor»), «Kashf ul asror» («Sirlar kashfi») asarlari va «Maxmud va Ayoz» lirik dostoni muallifi. U Shaxrbuddin Suxravardiyning «Uyun al haqoiq va izoh al taroiq» («Haqiqatlar bulog‘i va tariqatlar izohi») asarini arabchadan fors tiliga tarjima qilgan. Tasavvuf namoyandalari haqidagi «Rashahot» (1503) asarida mashhur shayx Xoja Ahrorning hayoti va faoliyatidan tashqari Movarounnahr va Xurosonda yashab o‘tgan yuzlab shayxlar (asosan, buxorolik 7 pir)ning ham tarjimai hollarini keltirgan. Asarda Movarounnaxrning 15-a.dagi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahvoliga oid qimmatbaho ma’lumotlar mavjud. Bu asar tasavvuf tarixini o‘rganishda, O‘rta Osiyoda yashagan mashhur mutasavviflar, olimlar va shayxlarning hayotini tadqiq etishda muhim manba qisoblanadi. «Rashahot» debocha, muqaddima, 3 bob va xotimadan iborat.

GUSHTASP (yunon manbalarida «Hustosb», Avestopya «Vishtaspa») - kayoniylar sulolasining beshinchi xukmdori, Eron podshohi Luhrospning o‘g‘li va taxt vorisi. Rivoyatlarga ko’ra, G. Davrida Zardusht o’z diniy ta’limotini targ’ib etishga kirishgan. G. uni saroyga chorlab zardushtiylikni qabul qilgan va bu dinni davlat dini, deb e’lon qilib, mamlakatda ko’plab otashkadalar qurdirgan, Avestoni oltin taxtachalarga yozdirib, markaziy ibodatxonaga qo’yishni buyurgan. Arjasp Eronga bostirib kirib, Luhrospni qatl etgach, G. Otasining o’chini olmoq uchun o’g’li Isfandiyordan katta qo’shin b-n Turonga jo’natgan. Isfandiyor g’alaba b-n qaytgach, G.dan taxtni talab qilgan. Shunda G. Isfandiyordan qutulish maqsadida uni Rustamni bandi qilib keltirmoq uchun Seyistonga yuborgan, ammo Rustam jangda g’olib kelib Isfandiyorni o’ldirgan. Shundan so’ng, G. Bir qancha vaqt hukmdorlik qilgach, taxtni o‘z ixtiyori b-n nabirasi Bahmanga topshirib, toat-ibodat b-n mashg’ul bo’lgan.

HIKOYAT - Sharq va Jan.-Sharqiy Osiyo xalqlaridagi adabiy tushuncha. Har qanday she’riy va nasriy asarni, ko‘pincha voqeaband asarni anglatadi. Tor ma’noda muallifi yo‘q yozma nasriy epos.

HORUN AR-RASHID – abbosiylar sulolasidan beshinchi arab xalifasi (786-807). Tarixda fazl-u donishda mashhur shaxs.

HOTAMI TOY – arablarning tay qabilasidan bo‘lib, o‘z saxiyligi va davlatmandligi bilan mashhur bo‘lgan shoir. VI asrning ikkinchi yarmida yashagan.

HUQQA – qimmatbaho toshlar solinadigan quticha.

JAVONMARDLIK – o‘z dastur va qoidalariga ega bo‘lgan, borini o‘zgalar bilan baham ko‘rish, muhtojlarga yordam berish, pir-u ustoz, do‘st-birodarlar nomusi, sharafini himoya etish kabilarga qaratilgan ma’naviy- tarbiyaviy harakat.

KOBIN – nikoh oldida er tomonidan xotinga to‘lanishi shart qilingan mol, mablag‘, mahr.

KUBOD – Qayqubod, Eronda qayyoniylar sulolasining asoschisi. Kaykovusning otasi.

LATCHA – rosu, sichqondan kattaroq jonivor, ilon yeydi.

MANSUR – abbosiylar sulolasidan arab xalifasi (754-775).

MA’MUN – abbosiylar sulolasidan bo‘lgan arab xalifasi (813-817).

MIROXO‘R – podshoh minadigan otlarning mutasaddisi.

MUABBIR – tushning ta’birini aytib beruvchi kishi.

MUOVIYA – ummaviylar sulolasidan arab xalifasi (661-680).

NO‘SHIRAVON – sosoniylar sulolasidan bo‘lgan Eron shohi Xusrav ibn Qubod (531-579)ning laqabi, Anushervon ham deyiladi. Badiiy adabiyotda adolatli shoh siymosida tasvirlanadi.

PARVEZ – Xusrav Parvez (590-628), sosoniylar sulolasidan Eron shohi.

RIKOBDOR – podshoh otining uzangisini ushlab, o‘zi piyoda yuradigan odam.

TARBIYA – 1) shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; 2) yosh avlodni mujassam rivojlantirishga yo‘naltirilgan umuminsoniy hamda milliy ijtimoiy tajribani o‘quvchi va talabalarga uzluksiz taqdim etish jarayoni.

USMON – Usmon ibn Affon, Muhammad (s.a.v)dan keying uchinchi arab xalifasi (644-656).

USHR – molning o‘ndan biri miqdorida olinadigan soliq.
VOIZ (arab.)-jamoat oldida nutq so’zlovchi, voizlik b-n shug’ullanuvchi kishi, professional notiq. V. lar chuqur bilim, yuksak madaniyat va maxsus ijrochilik salohiyati (chiroyli va ta’sirchan ovozi, aniq va ravshan talaffuz, o’z zamonasi uchun yetakchi tillarni mukammal bilish va b.) ga ega bo’lgan. Musulmon sharqining yirik olimlari, din arbobi, adib va b. ko’pincha yetuk V. lar ham bo’lganlar. Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Mavlono Muin Voiz Hiraviy, Bahouddin Valad, Jaloliddin Rumiy, 20-a.da mufti Ziyovuddinxon Eshon Boboxon o’g’li va b. so’z qudrati va jonli nutq san’ati b-n o’z zamonasining mashhur V. lari bo’lganlar.
XONSOLOR – shohlarga dasturxon yozadigan odam.
ZEH – ofarin.
G‘OZUR – kir yuvuvchi.
SHAROBDOR – saroydagi menmonlarni ichimlik va shirinliklar bilan ta’minlaydigan amaldor.
SHAFI’ – vositachi, himoyachi.
SHOPUR – sosoniylar sulolasidan Eron shohi (240-272).

MUNDARIJA:

KIRISH		**3**
MUHAMMAD AVFIY BUXORIY VA UNING MA'NAVIY MEROSI XUSUSIDA		**5**
«JAVOME' UL-HIKOYOT VA LAVOME' UL-RIVOYOT» ASARIDAN HIKOYAT VA RIVOYATLAR I BOB. IBRATLI HAYOT SABOQLARI (AQLU DONISH, ILMU HUNAR BOBIDA)		**20**
1.	DUNYODA ENG YAXSHI NARSA	20
2.	XUSRAV VA BUZURGMEHR	20
3.	ARASTUNING NASIHATI	21
4.	BUQROT HAKIM	21
5.	CHUMOLI VA QOVOG'ARI	21
6.	ARASTUNING ORZUSI	22
7.	BUQROT HAKIM VA VAZIR	22
8.	AXLOQ HAQIDA	23
9.	TAQDIR QIZI	23
10.	BAHROMGO'R VA VAZIR	24
11.	O'G'RILIKNI ORZU QILGAN KISHI	24
12.	ANUSHERVON VA YONG'OQ EKAYOTGAN CHOL	25
13.	HOTAM VA UNING BIRODARI	25
14.	AMIR AHMAD SOMONIY VA MUALLIM	26
15.	NO'SHIRAVON VA IKKI DARVESH	27
16.	HORUN AR-RASHID VA MUABBIRLAR	27
17.	AFLOTUN	28
18.	XUSRAV VA RIKOBDOR, MIROXO'R	28
19.	XUSRAV VA XONSOLOR	29
20.	KIRMON SHOHI VA XAZINA QO'RIQCHISINING TUSHI	29
21.	TINCHLIK QADRI	29
22.	XUSRAV PARVEZ VA SHIRIN	30
23.	TUZ HAQI	30
24.	MUOVIYANING ROZI	31
25.	MUALLIM VA SHAHZODA	32
26.	HAKIMNING VASIYATI	33
27.	PIR VA BO'ZFURUSH QISSASI	33
28.	O'G'RI	34
29.	ZULMNING OQIBATI	34
30.	XOJA BILAN XIZMATKOR	35
31.	MEHMON VA MEZBON	36
32.	AHNAF QAYS VA MUOVIYA	36

33.	HAJJOJ VA ASIRLAR	36
34.	BAXILLIK HAM EVI BILAN	37
35.	SULAYMON VA MEHMON	38
36.	TA’MAGIR MUSHUK	38
37.	YOLG‘ONNING YOMONLIGI HAQIDA	39
38.	BAXIL VA DIRHAM	39
39.	SHOIR VA JOHIL	40
40.	SUTGA SUV QO‘SHGAN XOJA	40
41.	KO‘RNAMAK MEHMON HAQIDA	40
42.	HOTAMDAN SAXIYROQ KISHI	41
43.	ISKANDARNING JAVOBI	42
44.	MUSANING ALAMI ISADAN OLINDI	42
45.	ILMI NUJUMGA HUSHI YO‘Q PODSHOH	42
46.	PAYG‘AMBARLIK DA’VOSI	43
47.	SIR SAQLASH HAQIDA	44
48.	QO‘SHNILAR XUSUMATI	44
49.	QOG‘OZXO‘R VOLIY	44
50.	DUNYODA ENG YAXSHI NARSA	45
51.	XUSRAV VA BUZURGMEHR	45
52.	ARASTUNING NASIHATI	45
53.	BUQROT HAKIM	46
54.	CHUMOLI VA QOVOG‘ARI	46
55.	ARASTUNING ORZUSI	47
56.	BUQROT HAKIM VA VAZIR	47
57.	GUSHTASB VA HUNAR O‘RGANMOQLIK	47
58.	QIMORBOZ VA HAMYOH	48
II BOB. AYOL BIR TILSIM (AXLOQ, ODOB, HAYO, VAFO HAQIDA)		**50**
59.	SHAN VA OQILA QIZ	50
60.	IDROK VA TADBIR SOHIBASI	52
61.	DONO XOTINNING TADBIRI	55
62.	XOJA VA ASHULACHI QIZ	56
63.	MARHUMA ISMLI AYOLNING SARGUZASHTI	59
64.	RASHKCHI ER	62
65.	HOJA VA KANIZAK	65
66.	ABU NASRNING HIKOYASI	73
67.	SULTON MAHMUD VA XOTIN PODSHOH	75
68.	XOTINLAR MAKRINI O‘RGANUVCHI KISHI	76
69.	ZARGAR VA UNING KELINI	78
70.	KANIZAKNING XIYONATI	81
71.	XIYONATKOR SOHIBJAMOL	83
72.	HAMMOM VOQEASI	85

73.	ZINONING KASRI	87
III BOB. TURMUSH AJOYIBOTLARI (SARGUZASHT HIKOYATLAR)		**90**
74.	ISKANDAR VA CHIN SHOHI	92
75.	DONISHMAND VA SHER	94
76.	NASIHAT	95
77.	BAQQOL QISSASI	96
78.	BAHROMGO‘R VA KISRO	97
79.	O‘YINQAROQ SHAHZODA	100
80.	SHOH VA TO‘RT POSBON	102
81.	HASADGO‘Y QO‘SHNI	106
82.	VAFODOR IT	107
83.	PARVEZ VA BAHROM QISSASI	108
84.	ROSTGO‘YLIK ISBOTI	109
85.	BEHRO‘Z VA RO‘ZBEH	110
86.	SODDA ODAM	114
87.	HAROMDAN PARHEZ	115
88.	O‘ZGAGA CHOH QAZISANG...	117
89.	GADOYLIKNI O‘RGANGAN SAVDOGAR	119
90.	OMONATNI SAQLAGAN MARD YIGIT	124
91.	SAYYOH VA RABOTBON	126
92.	MIS QASR	128
93.	HOJI VA DONISHMAND	131
94.	QUL VA XOJA	132
95.	G‘ULOM IBN ALMOR	134
96.	SAYYOH VA KAFAN O‘G‘RISI	137
97.	HUNARMAND SHAHZODA	140
98.	TUZ HAQI	143
99.	CHUMCHUQNING AYTGANLARI	147
100.	HAMYON YO‘QOTGAN SAVDOGAR	148
101.	SAVDOGAR VA HAMYON	151
102.	MISR MALIKASI VA HALAB SHAHZODASI	153
103.	MO‘YNADO‘Z VA NO‘SHIRAVON QISSASI	157
104.	ABU TAMOM QISSASI	160
105.	HAJJOJNING DEGANLARI	165
106.	ZOLIM UMAR LAYS	166
107.	BARMAK BILAN MARVON	168
108.	SHORIH VA O‘G‘RI	170
109.	HARBIY VA ZOHID	171
110.	MA’MUNNING SIRI	173
111.	TOVLAMACHI VOIZLAR	173
112.	ABU SOBIR	175

113.	O‘G‘ILGA VASIYAT	177
114.	LASHKARBOSHI VA MAHBUD	178
115.	XOLIDNING MASLAHATI	179
116.	OT O‘G‘RISI	180
117.	XIZMATKOR	181
118.	ABU AHMAD SAHL VA XOJA AHMAD HASAN	184
119.	MUZAFFARNING ZULMI	185
120.	AHMAD VA UNING XIZMATKORI A’YOSH HAQIDA	188
121.	MUQBIL VA XOJA	191
122.	G'AZNAVIYLARNING DAVLAT BOSHIGA KELISHI	194
123.	SALJUQIYLARNING MUVAFFAQIYATI	194
124.	BAHROMSHOHNING TARIXI	195
125.	SULTON MAHMUD VA ASKAR	195
126.	SULTON MAHMUD VA RANJIGAN KISHI	196
127.	ILOQXONNING MASLAHATI	198
128.	SULTON IBROHIMNING G‘AMI	199
129.	SAXIYLAR BOG‘I	200
130.	SULTON IBROHIM VA RANJIGAN KAMPIR	201
131.	SABUKTEGINNING SULTON MAHMUDGA O‘GITLARI	202
132.	SULTON MAHMUD VA XURMO DARAXTI EGASI	202
133.	SULTON MAHMUDNING JAVOBI	203
134.	SULTONINING HIYLASI VA G‘AZNAVIYLARNING TUGATILISHI	203
135.	SULTON MAHMUD VA BELUJI	204
136.	XOJA AHMAD MAYMANDINING NIZOM UL-MULK BILAN TAQQOSI	205
137.	SULTON BAHROMSHOH VA QOZI ABUL BARAKAT	206
138.	SULTON MAMUD VA SHOIR FARRUXIY	206
139.	XOJA AHMAD MAYMANDINING SULTON MAHMUDGA AQLLI MASLAHATI	207
	XULOSA	**209**
	IZOHLAR	**212**

Qaydlar uchun

MUHAMMAD AVFIY BUXORIY
JAVOHIR HIKOYAT VA RIVOYATLAR
T O‘ P L A M I

Umarova Sitora Muxlisovna

Muharrir: E. Eshov
Tex.muharrir: O. Avezov
Musahhih: M. Shodiyeva
Badiiy rahbar: M. Sattorov

Nashriyot litsenziyasi № 022853. 08.03.2022.
Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 24.11.2022. Bichimi 60x84.
Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garniturasida 1/16.
Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog‘ozi.
Bosma tabog‘i 14. Adadi 150. Buyurtma №.89

KAMOLOT

“BUXORO DETERMINANTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar Namozgoh ko‘chasi 24 uy
Tel:. + 998 98 778 47 27